O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:94

Xamid ABDURAMANOV,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari, i.f.d., professor
E-mail: khamid.abduramanov@bk.ru

O‘zMU dotsenti, sot.f.d X.Xusanova taqrizi asosida

ANALYSIS OF SOCIAL FACTORS INFLUENCING DIVORCE IN FAMILIES

Annotation

In this article, on the basis of statistical data, the state of divorce is analyzed, as well as an econometric analysis of socio-economic factors (urbanization, education level, labor migration, employment, unemployment, income) that affect family divorce.

Key words: Divorce, unemployment rate, outward migration, population density, real incomes of the population, Pooled OLS estimator (POLSE)”, “Fixed effects estimator (FEE)”, “Random effects estimator (REE)” models.

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОР ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВОД В СЕМЬЯХ

Аннотация

В данной стате на основе статистических данных проанализировано состояние разводимости, а также проведен эконометрический анализ социально-экономических факторов (урбанизация, уровен образования, трудовая миграция, занятость, безработица, доход) влияющих на семейные разводы.

Ключевые слова: Развод, уровен безработицы, внешняя миграция, плотность населения, реалные доходы населения, модели “Pooled OLS estimator (POLSE)”, “Fixed effects estimator (FEE)”, “Random effects estimator (REE)”.

OILAVIY AJRALISHLARGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada statistik ma’lumotlar asosida nikohdan ajralish holati tahlil qilingan hamda oilaviy ajralishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar (urbanizatsiya, ta’lim darajasi, mehnat migratsiyasi, ish bilan bandlik, ishsizlik, daromad)ning ekonometrik tahlili amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: Ajrimlar, ishsizlik darajasi, tashqi migratsiya, aholi zichligi, aholi real daromadlari, “Pooled OLS estimator (POLSE)”, “Fixed effects estimator (FEE)”, “Random effects estimator (REE)” modellari.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash va ajrimlarni kamaytirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyev «meni eng qiynaydigan masalalardan biri bu – ajrim. Tasavvur qiling: bir yilda mamlakatimizda 30 mingdan ortiq ajrim kuzatilgan. Agar bu oilalarning o‘rtacha ikki nafardan farzandi bo‘lsa, bu oltmish ming bola oila baxtidan mosuvo ekanligini bildiradi» [1].

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O‘zbekistonda ham ajralish muammosini o‘rganishga keng ilmiy jamoatchilik e’tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o‘rganmoqdalar. Ularning e’tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko‘p zarar ko‘radi. Ajralishlar ko‘plab noxush hodisalar: noto‘liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida qonunbuzarlikning ko‘payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg‘izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o‘zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda nikoh va ajrimlarning xulq-atvorini tushunish hamda ularning ehtimolini baholashga qaratilgan bir qator tadqiqotlar va izlanishlar ortib bormoqda. Xususan, iqtisodchi olim Burges o‘zining ilmiy tadqiqotlarida yosh amerikaliklar orasida daromad darajasining oila idroki va ajralishga bo‘lgan ta’siri, erkaklar daromadining o‘sishi nikoh ehtimolini oshirishini, ajralish ehtimolini esa pasaytirishini ko‘rsatib berdi. Boshqa tomondan, daromad darajasining o‘sishini qayd etayotgan ayollar uchun nikoh ehtimoli pasayganligi, ajralish o‘zgaruvchisi bo‘yicha esa statistik ahamiyatga ega emasligi ta’kidlagan [2].

Xorijlik olim J.Nunli o‘z tadqiqotlarida Amerika Qo‘shma Shtatlarida oilaning ajralishini statistik nuqtayi nazardan infulyatsiya, ishsizlik darajasi, yalpi ichki mahsulot va ayollar ta’lim darajasining ajralish darajasiga ta’siri sezilarli ekanligini aniqlagan [3]. Tadqiqotga ko‘ra, ajralishlar sonining ko‘payishi iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozoridagi ayollarning ishchi kuchi ulushi bilan bog‘liqligi alohida ahamiyatga molikdir.

Yevropalik olimlar Linda Klark va An Beringtonlar ajralishning ijtimoiy-demografik omillarini tahlil qilar ekan, oilaviy ajrimlarga ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, aholining ma’lumot darajasi, iqtisodiy sharoit, ayollarning bandligi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, e’tiqod darajasi, xulq-atvor va hissiy muammolar kabi omillar ta’sir qiladi, degan xulosaga kelishgan [4].

Shu bois ham biz tomonimizdan Respublikamizda oilaviy ajralishlarga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot bo‘yicha 14 ta hududda 12 yillik ma’lumotlar asosida mamlakatdagi oilaviy ajrimlarining panel ma’lumotlaridan foydalanib, “Pooled OLS

estimator (POLSE)”, “Fixed effects estimator (FEE)”, “Random effects estimator (REE)” modellari asosida ekonometrik tenglamalar ishlab chiqildi. Shuningdek, panel ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan ekonometrik modellar bo‘yicha Gaus Markovning asosiy shartlari hamda Durbin Watson, Shapiro Wilk, Breusch-Pagan va Hausman testlari tekshirildi. Bundan tashqari, tadqiqot bo‘yicha panel ma’lumotlar bo‘yicha ekonometrik modellarni ishlab chiqishda grafik jadvallar tuzildi, ko‘rsatkichlarning bog‘lanish yo‘nalishi va zichligi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Nikohdan ajralish holatining statistik tahlili:

Respublikada nikohdan ajralishlar soni yuqori sur’atda ko‘paymoqda. Jumladan, 2022 - yil mamlakatimizda 48,7 ming nafar nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021 - yilga nisbatan 23,9 foizga, 2018 yilga nisbatan 50,8 foizga, har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni 2018 - yildagi 1,0 promilledan 2022 yilda 1,4 promillegacha ortgan;

Barcha hududlarda nikohdan ajralishlar soni ortmoqda. So‘nggi besh yilda ajralishlar soni Qashqadaryo viloyatida 2,1 martaga, Xorazm viloyatida 2,0 martaga, Farg‘ona viloyatida 77,4 foizga, va Namangan viloyatida 75,2 foizga o‘sgan;

Respublika bo‘yicha nikohdan ajralishning eng yuqori ko‘rsatkichlari Toshkent shahri (2,0‰), Sirdaryo (2,0‰) va Toshkent (1,7‰) viloyatlarida qayd etilgan;

Ajralishlar sonining ortishi hisobidan nikohning mustahkamlik ko‘rsatkichi pasaymoqda. Respublikada har 100 nafar tuzilgan nikohning 16,4 nafari, hududlar miqyosida Toshkent shahrida 26,3 nafari, Sirdaryo viloyatida 22,8 nafari, Toshkent viloyatida 22,0 nafari ajrim bilan tugamoqda;

Nikohdan ajralishlarning qariyb yarmi erkaklarda 35 yoshgacha, ayollarda 30 yoshgacha bo‘lgan davrda qayd etilgan;

Nikohdan ajralishlarning asosiy qismi (60,5%) nikohning dastlabki 10 yiligacha bo‘lgan davrda qayd etilgan. Nikohdan ajralganlarning har uchtadan bittasini yosh oilalar, ya’ni 1 yilgacha, 1-4 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi. Aholining nikohda turish davriga ko‘ra ajralish 1-jadval ko‘rsatkichi 2022 - yilda 2018 - yilga nisbatan quyidagicha o‘zgargan: 1-4 yil orasida ajralganlar salmog‘i 31,9 foizdan 29,8 foizga, 5-9 yilgacha yashaganlardan ajralishlar esa 29,8 foizdan 26,8 foizga kamaygan.

So‘nggi besh yilda 10-14 yil davomida birga yashaganlardagi nikohdan ajrashgan oilalar soni yuqori sur’atda (2,0 barobar) o‘sgan hamda jami ajralishlar tarkibidagi ulushi 13,3 foizdan 18,2 foizga ortgan. Shuningdek, 15-19 yil davomida birga yashaganlardagi ajralgan oilalar salmog‘i 8,0 foizdan 8,6 foizga ortgan;

20 yil va undan ortiq muddat birga yashab ajrashganlar ulushi ortib bormoqda (2022 - yil jami ajrashganlarning 12,7 foizni tashkil etadi). O‘zaro nikohdagi aholining qancha ko‘p birga yashaganiga qaramay, ularda ajralish hodisasi tobora ortib borayotganligi alohida tadqiqotlar amalga oshirishni taqozo etadi;

Tugallanmagan oliy va umumiy o‘rta ma’lumotlilar o‘rtasida nikohdan ajralishlar soni yuqori sur’atda o‘smoqda. So‘nggi uch yilda (2020-2022 - yillar) nikohdan ajralishlar soni tugallanmagan oliy ma’lumotli erkaklarda 98,9 foizga, ayollarda esa 2,6 martaga, umumiy o‘rta ma’lumotlilarda esa mos ravishda 52,0 foiz va 2,3 martaga ortgan. Shuningdek, bu davrda oliy ma’lumotlilarda nikohdan ajralishlar soni mos ravishda 23,8 va 62,5 foizga, o‘rta maxsus ma’lumotlilarda 45,9 va 74,5 foizga ko‘paygan.

Nikohdan ajrashganlarning qariyb uchdan ikki qismida (65,8%) voyaga yetmagan farzandi bo‘lgan. Jumladan, 41,9 foizi bir nafar, 18,1 foizi ikki nafar, 5,9 foizi uch va undan ortiq 16 yoshgacha farzandi bilan ajrashgan;

Farzandsiz nikohdan ajrashganlarning asosiy qismi (78%) nikohning dastlabki 10 yiligacha bo‘lgan davrida qayd qilingan. Shuningdek, so‘nggi besh yilda 1 yilgacha yashab farzandsiz nikohdan ajrashganlar soni 17,0 foizga, 1-4 yil yashab ajrashganlar 10,3 foizga, 5-9 yil yashab ajrashganlar esa 4,7 foizga o‘sgan.

II. Nikohdan ajralish va urbanizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Nikohdan ajralganlarning 61,0 foizi shahar joylarida, 39 foizi qishloq joylarida qayd etilgan (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi shahar va qishloq aholisi soni dinamikasi hamda nikohdan ajralish koeffitsienti

Yillar	Shahar aholisi (ming kishi)	Shahar aholisi ulushi (%)	Qishloq aholisi (ming kishi)	Qishloq aholisi ulushi (%)	Shaharda nikohdan ajralish koeffitsi-yenti (‰)	Qishloqda nikohdan ajralish koeffitsienti (‰)
2018	16806,7	50,5	16448,8	49,5	1,2	0,8
2019	17118,4	50,5	16787,4	49,5	1,1	0,7
2020	17510,4	50,6	17048,5	49,4	1,0	0,6
2021	17918,3	50,8	17353,0	49,2	1,4	0,9
2022	18335,7	50,9	17689,2	49,1	1,7	1,1

Manba: jadval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Shaharda nikohdan ajralish koeffitsienti qiymati qishloq joylariga qaraganda 2018 yilda – 0,4, 2022 yilda – 0,6 punktga yuqori bo‘lgan. Tahlillar urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda nikohdan ajralish koeffitsientining qiymati yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Ya’ni, urbanizatsiya darajasi 100 foizni tashkil qiladigan Toshkent shahrida nikohdan ajralish koeffitsienti eng yuqori (2,0‰). Sirdaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan past (43,1%). Biroq viloyatda nikohdan ajralish koeffitsienti yuqori (2,0‰). Buning asosiy sababi viloyatdagi Yangier (6,3‰), Guliston (5,8‰) va Shirin (5,2‰) shaharlarida ajralishning 2-jadval yuqori bo‘lishi viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishini ta’minlagan. Xuddi shunday tendensiya Toshkent viloyatida ham kuzatiladi.

Respublikaning 208 ta tuman va shaharlari bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsienti tahlil qilindi va hududlar reytingi tuzildi. Unga ko‘ra, nikohdan ajralishning eng yuqori ko‘rsatkichlari shahar joylari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shahar joylarida nikohdan ajralish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi sababli nikohning mustahkamlik ko‘rsatkichi past. Tadqiqotda nikohning mustahkamlik ko‘rsatkichi eng past 20 ta tuman va shaharlar ro‘yxati shakllantirildi (2-jadval).

Har 100 nafar tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan ajralishlar soni yuqori bo‘lgan tuman (shahar) ro‘yxati, shahar joylarida (2022 yil)

T/r	Tuman va shahar nomi	Har 100 nafar tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan ajralishlar soni	T/r	Tuman va shahar nomi	Har 100 nafar tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan ajralishlar soni
1.	Quyichirchiq tumani	64,5	11.	Oqoltin tumani	35,2
2.	Yangiyo‘l tumani	43,4	12.	Tomdi tumani	34,8

3.	Piskent tumani	42,7	13.	Toshkent tumani	33,9
4.	Ohangaron shahri	41,8	14.	Chirchiq shahri	33,7
5.	Oqqo‘rg‘on tumani	40,2	15.	Farg‘ona shahri	33,6
6.	Sirg‘ali tumani	39,0	16.	Mirzo Ulug‘bek tumani	32,2
7.	Sayxunobod tumani	38,6	17.	Sirdaryo tumani	32,0
8.	Qibray tumani	36,9	18.	Yashnobod tumani	31,5
9.	Ulug‘nor tumani	36,8	19.	Qo‘qon shahri	30,2
10.	Yangier shahri	35,4	20.	Ohangaron tumani	30,2

Manba: jadval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadvaldan ko‘rinadiki, Toshkent viloyatining shahar joylarida nikohning mustahkamlik ko‘rsatkichi juda past (ro‘yxatning birinchi beshtaligini egallagan). Xususan, Quyichirchiq tumanining shahar joylarida har 100 ta tuzilgan nikohning qariyb uchdan ikki qismi (64,5%), Yangiyo‘l tumanida – 43,4, Piskent tumanida – 42,7, Ohangaron shahrida – 41,8, Oqqo‘rg‘on tumanida 40,2 foizi ajrim bilan tugagan. Jadvalda keltirilgan boshqa hududlarning shahar joylarida ham tuzilgan nikohning uchtadan bir qismi ajrim bilan yakunlangan.

III. Nikohdan ajralishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ekonometrik tahlili:

Tadqiqotda ekonometrik tenglamalar «panel» ma’lumotlaridan foydalanilgan holda Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator (FEE) hamda Random effects estimator (REE) modellari asosida ishlab chiqildi.

Ekonometrik tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Panel ma’lumotlari asosida Pooled OLS estimator (POLSE) modeli ekonometrik tenglama Y=0.54X1+0.16X2+0.31X3-0.08X4-0.39X5-0.54 ga ko‘ra:

ishsizlar sonining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,54 foizga;

aholi zichligining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,16 foizga;

aholi real daromadlarining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,31 foizga ortishiga olib keladi.

Shuningdek, tashqi migratsiya va uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasining ortishi nikohdan ajralishlar soniga teskari ta’sir etadi.

Panel ma’lumotlari asosida Random effects estimator (REE) modeli ekonometrik tenglama Y=-0.12X1+0.22X2+0.42X3+0.07X4-0.42X5+4.405 ga ko‘ra:

hududlarda aholi zichligining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,22 foizga ortishiga;

aholi real daromadlarining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,42 foizga;

tashqi mehnat migratsiyasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,07 foizga ortishiga olib keladi.

Shuningdek, hududlarda ishsizlar soni va uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar soniniga teskari ta’sir etadi.

Panel ma’lumotlari asosida Fixed effects estimator (FEE) modeli ekonometrik tenglama Y=-0.03X1+5.92X2-0.01X3+0.83X4-0.09X5-18.38 ga ko‘ra:

hududlardagi aholi zichligining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 5,92 foizga;

tashqi mehnat migratsiyasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,83 foizga orshishiga olib keladi.

Shuningdek, hududlarda ishsizlar soni, aholining real daromadlari va uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar soniniga teskari ta’sir etadi.

Tadqiqotda panel ma’lumotlari asosida yuqoridagi 3 ta model asosida ekonometrik tenglamalar ishlab chiqqilganida, bugungi kunda nikohdan ajralishlar soni va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga Pooled OLS estimator Y=0.54X1+0.16X2+0.31X3-0.08X4-0.39X5-0.54 modeli eng optimal model degan xulosaga kelindi.

Panel ma’lumotlari asosida Random effects estimator (REE) modeli ekonometrik tenglama Y=1.08X1+0.04X2-6.85 ga ko‘ra:

Ish bilan band bo‘lgan ayollar sonining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 1,08 foizga;

Oliy ta’limni bitirgan ayollar sonining 1,0 foizga ortishi nikohdan ajralishlar sonining 0,04 foizga ortishiga olib keladi.

Random effects estimator (REE) modelini ishlab chiqish jarayonida barcha shartlardan va Hausman testidan muvaffaqiyatli o‘tganligi ham alohida e’tiborga molik. Bundan ko‘rinib turibdiki, ish bilan band ayollarning ekonometrik tenglama bo‘yicha katta koeffitsientga ega bo‘lishi ushbu omilning nikohdan ajralishlarga kuchli ta’sir ekanligidan dalolat bermoqda.

Xulosa va takliflar. Oilaviy ajralishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Nikohdan ajralish darajasi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlar sababli mamlakat hududlari bo‘yicha farqlanadi. Jamiyatning rivojlanishi bilan mintaqalararo tafovutlar muayyan darajada qisqarishi mumkin, bu esa o‘z navbatida hududlardagi nikohdan ajralish darajasini tenglashtirishga olib keladi.

Nikohdan ajrashganlarning har uchtadan bittasi yoshlar oilalar, ya’ni 1 yilgacha, 1-4 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi. Shu bilan birga, so‘nggi besh yil mobaynida 10-14 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqdagilarda nikohdan ajralishlar soni yuqori sur’atda (ikki barobarga) o‘smoqda. Jami nikohdan ajrashganlar tarkibida 20 yil va undan ortiq muddat birga yashab ajrashganlar ulushi yuqori (12,7%). O‘zaro nikohda aholining qancha ko‘p birga yashaganiga qaramay, ularda ajralish hodisasi tobora ortib borayotganligi alohida tadqiqotlar amalga oshirishni taqozo etadi.

Respublikada tugallanmagan oliy ma’lumotli nikoh juftliklarida nikohdan ajralish ko‘rsatkichi boshqa ma’lumotga ega bo‘lganlarga qaraganda yuqori sur’atda o‘smoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida oila institutini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Tahlillar ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan oilaviy ajralish darajasi o‘rtasida yaqin aloqa mavjudligini ko‘rsatdi. Sanoat, ta’lim, urbanizatsiya, tashqi mehnat migratsiyasi, oila daromadlari darajasining o‘sishi nikohdan ajralishlar darajasini oshiradi. Bizningcha, ijtimoiy-iqtisodiy omillar oilaviy ajralishning prognoz paramertlarini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak.

5. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish. Bunda:

ajrashish to‘g‘risida ariza bergan oilalarga yarashish uchun beriladigan muddatini uzaytirish va bir yil alohida yashash institutini joriy etish;

aliment majburiyatlari bilan bog‘liq normalarni qayta ko‘rib chiqish (miqdorini ko‘paytirish);

“shaxsiy oilaviy hayot”, “uchinchi shaxslar”, “oilaviy hayotga aralashuv” tushunchalarini aniq mezonlarini belgilash;

nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar, jumladan, yon shajara bo‘yicha yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzishga oid aniq normalarni kiritish;

nikohni tugatish hamda nikohdan ajratish asoslarini aniq belgilash;

farzandlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normalarga qo‘shimchalar kiritish;

er va xotinning mulkiy huquqlariga oid qoidalarni takomillashtirish;

farzandlikka olish instituti bilan bog‘liq normalarni takomillashtirish yuzasidan o‘zgartish kiritish.

6. Nikohdan ajralish sonini kamaytirish maqsadida:

barcha tashkilotlar (Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, FHDYo, sud, mahalla, ommaviy axborot vasitalari, jamoat tashkilotlari) faoliyatini muvofiqlashtirish.

yosh oilalarni psixologik, huquqiy va boshqa yordamlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish va manzilli yordam ko‘rsatish;

ajrashish arafasida turgan ayol va erkaklarga alohida (mediatsiya usullarini qo‘llab) seminar-treninglar, yakka suhbatlar, psixologik testlar o‘tkazish. Mazkur jarayon doirasida oila muqaddasligi, er va xotin huquqlari va majburiyatlari, er va xotin o‘zaro muloqotlari to‘g‘risida kichik risola, uslubiy qo‘llanmalarni taqdim etish choralarini ko‘rish;

FHDYolarning nikohning huquqiy mas’uliyati va oqibatlari borasidagi targ‘ibotni kuchaytirish;

korxona/tashkilot/idoralarda - xodim va ishchilar, mahallalarda aholi o‘rtasida dinimizdan kelib chiqib islomda oila muqaddasligini, er-xotin vazifalari, bir-biriga sadoqat, hurmat, mehr-oqibat, farzand tarbiyasida butun oilani ahamiyati bo‘yicha – davra suhbatlar o‘tkazish;

islom dinida oila muqaddasligi, ajrashgandan so‘ng erkak, xotini boshqa turmushga chiqqunga qadar, nafaqat bolalariga, balki xotiniga ham aliment to‘lashi kerakligi bo‘yicha ma’ruzalarni juma namozlarida o‘qish;

18 yoshdan oshganlar uchun “Oila qurishga tayyormanmi?”, “Qanday inson bilan oila qursam ekan?” mavzularda qisqa muddatli o‘quv dasturlarni ishlab chiqish va ularni maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari, akademik litsey, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish;

oilaviy zo‘ravonlik oqibatida ajrashishga kelib qolgan nizoli oilalarga oilaviy psixologlarni biriktirish;

internet va ijtimoiy tarmoqlarda, mahalliy tele- va radiokanallarda oilaviy ajralishning salbiy oqibatlari, o‘zini hamda farzandlar ruhiyatiga ta’sir etilishi haqida haqoniy keyslarni keltirib ko‘rsatuvlar tayyorlash.

ADABIYOTLAR

1. https://kun.uz/uz/89162744
2. Burgess S., Carol P., Aassve A. (2003), The Role of Income in Marriage and Divorce Transitions Among Young Americans, Journal of Population Economics 16, pp. 455-475.
3. Nunley J. (2010), Inflation and Other Aggregate Determinants of The Trend in U.S.
4. Clarke L., Berrington A. Socio-demographic predictors of divorce. – 1999. 1960s Applied Economics 42, pp. 3367-3381.
5. Puiu A. I. The Econometric Analysis between Divorce Phenomenon and Economic-Social Variables in Romania //Romanian Journal of Economics. – 2019. – T. 48. – №. 1 (57). – P. 104-119.
6. Абдураманов, Х. (2020). Многофакторній анализ и перспективі демографического развитиуа в Республике Узбекистан. Економика И Образование, 1(2), 137–142. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4330
7. Абдураманов, Х. (2018). Oценка тенденсий демографического развитиуа семьи. Економика и инновасионніе технологии, (6), 7–20. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10067
8. https://lex.uz/uz/
9. https://stat.uz/uz
10. http://www.ziyonet.uz/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 159.923.5

Firdavs ABDURAXMONOV,
Samarqand davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi
E-mail: firdavs_k@gmail.com

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, PhD D.Karshiyeva taqrizi asosida

BOLA SHAXSINING SHAKILLANISHIDA “OTA OBRAZI” HAQIDAGI TASAVVURLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilada bola shaxsining shakillanishida “Ota obrazi” ning o‘rni, bola tarbiyasidagi ahamiyati hamda dunyoqarashining shakillanishidagi ta’sir doiralari haqida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari maqolada oilada otaning o‘rni haqidagi bugungi kungacha bo‘lgan psixologik qarashlar duyo olimlarining nazariy qarashlari haqida bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: Urf-odatlar, “ota obrazi”, farzand, intellekt, arxetiplar, ongsiz bilimlar, “men”, o‘y-xayollar, identifikasiyalash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ “ОБРАЗЕ ОТЦА” В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА

Аннотация

В данной статье говорится о роли «Образа Отца» в формировании личности ребенка в семье, его значении в воспитании ребенка, сферах влияния на формирование мировоззрения. Кроме того, в статье описываются психологические взгляды на роль отца в семье, а также теоретические взгляды ученых дуйо.
Ключевые слова: Традиции, «отцовская фигура», ребенок, интеллект, архетипы, бессознательное знание, Я, мысли, идентификация.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF IDEAS ABOUT THE “IMAGE OF THE FATHER” IN THE FORMATION OF THE CHILD 'S PERSONALITY

Annotation

This article talks about the role of the "Image of the Father" in the formation of the child's personality in the family, its significance in the upbringing of the child, the spheres of influence on the formation of the worldview. In addition, the article describes the psychological views on the role of the father in the family, as well as the theoretical views of scientists Duyo.
Key words: Traditions, "father figure", child, intellect, archetypes, unconscious knowledge, I, thoughts, identification.

Kirish. XXI asrni ikkinchi dekadasining o‘zi, insoniyatning yashash tarzi, urf-odatlari va ming yillik qadriyatlariga ta’sir qiladigan yangi hayot shaklini olib kirdi. Bu esa, o‘z navbatida, oilaviy munosabatlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, turli ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy omillar, bir so‘z bilan aytganda arzimagan sabablar orqali ajrimlar soni ortganini ko‘rish mumkin.

Yoshlardagi oila, nikohga bo‘lgan munosabatlarni hech qanday qadriyatlar bilan bog‘lanmaganlik holatlari ko‘paydi. Hatto bir nechta farzandlari bor bo‘lgan oilalarda ham ajrimlar bo‘lmoqda. Bu esa farzandlarni otasiz yoki onasiz ulg‘ayishiga majbur qilmoqda. Otasiz yoki onasiz o‘sayotgan bolalar sonining ko‘paymasligini oldini olish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Insonga suv va havo qanchalik zarur bo‘lsa, farzanda ota ham, ona ham shunday maqomga ega. Ushbu maqolamiz orqali farzandga ota obrazi naqadar kerak ekanligi, farzandning otadan oladigan psixologik kuchini yoritib berishga harakat qilamiz.

Oilada farzandlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy bilan ta’minlash ota burchi hisoblanadi. Murg‘ak g‘o‘daklarni, oila a’zolarini halol, pok narsalar bilan boqish va kiyintirish ota ma’suliyatidir. Bu esa, ularning ertaga barkamol inson sifatida ulg‘ayishida asosiy zamin bo‘ladi. Inson zoti doimo mehr-muhabbatga ehtiyojli bo‘ladi. Ayniqsa, yosh bolalar bunga muhtoj.

Shu ehtiyojlarni qondirishda ota obrazi alohida o‘ringa ega. Insonga avloddan avlodga o‘tib keladigan turli psixologik xususiyatlar bizning tushunchamiz bo‘yicha genlar orqali o‘tadi deb bilamiz. Ushbu hodisani psixoanaliz maktabi namoyondalaridan biri K.G.Yung o‘rgangan. Uning fikricha, inson ongida turli arxetiplar mavjud bo‘lib, u shaxsning kamol topishida muhim rol o‘ynaydi deb hisoblaydi. Ulardan biri ota arxetipidir. Ota arxetipining asosiy funksiyasi ong ostida qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va turli xil ongsiz voqealarni aniqlashdan iborat. K.G.Yung “Qarama-qarshiliklarsiz ong bo‘lmaydi”, deb ta’kidlaydi. Ong ostida qarama-qarshiliklar, kurashlar doimo bo‘ladi. Bu otalik funksiyasi bo‘lib, u farzandda “onaning qornidagi asosiy kundan boshlab iliqlikka talpinish va zulmatdan o‘zini ozod qilishga abadiy intilish”dan boshlab, hayot bilan kurashish kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi. Bu esa ota arxetipi orqali shakllanadi. Farzand dunyoga kelgandan so‘ng, ushbu xususiyat xarakter shaklida namoyon bo‘lganida, ya’ni qat’iyatlilik, muammolarga bardoshlilik va hayotning turli zarbalariga chidamli inson bo‘lishi uchun oilada ota rolining bo‘lishi juda muhim hisoblanadi . Arxetiplar dinamik xususiyatga ega bo‘lib, ota arxetipi bolada ijod g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lgan obrazlarni tashuvchisi hisoblanadi. Farzand kreativ va ijodkor shaxs bo‘lishi ota xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Qadimgi mif va afsonalarni, insoniyat madaniyatining ildizlari haqidagi manbalarda materiyadan ruhni ozod qilishda erkak rolini kuzatish mumkin. Bu yuqoriga qarab harakatlanishdir.

Materiallar va usullar. Bola intellekti va ma’naviyatining shakllanishi bu psixologik jarayondir. Ushbu jarayon ham arxetiplar orqali o‘tadigan xususiyatdir. K.G.Yung tomonidan ushbu jarayon nemischa “geistig” bilan atalgan bo‘lib, ma’nosi ma’naviyat va intellekt o‘rtasidagi “aralash”, farzandning ulg‘ayishi, kamol topishi jarayonida intellekt va ma’naviyat xususiyatlari shakllanadi. Yuqoridagi

xususiyat bolaga ota arxetipi orqali o‘tadi. Bolaning ma’naviyati, intellekt darajasini qanday bo‘lishi otaga bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Xalqimiz orasida ota siymosiga nisbatan naqllar, hadislar, tarbiyaviy ahamiyatga ega hikoyalar juda ko‘p uchraydi. Ota – uyimiz chirog‘i, ota – xonadonimiz ustuni kabi. Psixologiyada ota siymosi “Quyoshni osmondan nur taratayotgani” bilan qiyoslanadi. Quyosh va yomg‘ir ota ramzlari bilan bog‘liq bo‘lib, u ona tabiatga qanday kuch bersa, ota obrazi ham bolaga xuddi shunday kuch beradi. Garet Xill tomonidan olib borilgan tadqiqotda, ota arxetipini o‘zlik (erkak) modeli bilan bog‘lagan. Ayol va erkak modellari bir-biri bilan dinamik ravishda bog‘langan. Bu modellar ma’lumotlarni tahlil qiluvchi va o‘suvchi xususiyatga ega. Ushbu modellarning salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Yuqoridagi arxetiplar bolaning “Men”i shakllanishida hamroh bo‘ladi. Erkak arxetipi o‘suvchi xususiyatga ega bo‘lib, u bolada differensial xususiyatlarning shakllanishida asos bo‘ladi. Farzand dunyoga kelgandan so‘ng, uni tarbiyalash – eng muhim va qiyin ish hisoblanadi. Tarbiya – nafaqat inson kamoloti, balki butun jamiyat, millat va mamlakatning taraqqiyotidir.

Oilada farzand uchun ota va onaning roli bo‘lishi kerak. Odamlar daho bo‘lib ham, omadsiz bo‘lib ham tug‘ilishmaydi. Mashhur kishilar biografiyasi, ko‘pincha ularning shaxsiy hayotlari yaxshi bo‘lmaganining ildizi bolalikka borib taqalishini ko‘rsatadi. Masalan, ularning ko‘pchiligining ota-onalari, ayniqsa, otalari o‘ta talabchan tarbiyachi bo‘lganlar. Albatta, o‘z navbatida bu ham zarur, bundan tashqari, aynan otalarining shunday talabchanligi tufayligina ularning iqtidori shu qadar yorqin rivojlangan. Biroq bunday otalar, foydali mashg‘ulotlarga vaqtni tejash bilan birga, bolalarini muloqot va jismoniy mashqlardan mahrum qilib, ularga o‘z tengdoshlari bilan o‘ynagani yo‘l qo‘ymaganlar. Bunday odamlar qanchalik iqtidorli bo‘lishlariga qaramay, noto‘g‘ri tarbiya tufayli shaxsiy hayotlarida o‘z baxtini topa olmaganlar.

Natijalar: misol uchun, fransuz faylasufi, mashhur “Fikrlar” ning muallifi Blez Paskalni olaylik. Uni otasi o‘ta qattiqqo‘llik bilan tarbiyalagan. Uning o‘g‘lidan umidi katta bo‘lgan. U, o‘zini butunlay o‘g‘li tarbiyasiga bag‘ishlash uchun hatto davlat xizmatini tashlagan. Unga tarix, geografiya, falsafa, tillar va matematikani o‘rgatgan, o‘g‘lini tushunmasdan yod olib o‘rganishga majbur qilmay, uning aqlini ehtiyotkorlik va asta-sekinlik bilan rivojlantirib borgan. Paskal mashhur fizik, matematik va diniy faylasuf bo‘lib yetishdi. Ko‘pchilik uning:

“Odam – bu, nozikkina nihol, lekin u fikrlovchi shaxs bo‘luvchi nihol”, - degan fikrini eslasa kerak. Farzandning otasi haqidagi fikrlari turli yoshda turlicha bo‘ladi. Besh yoshida – “Otam hamma narsani biladi”. O‘n yoshida – “Otam ko‘p narsani biladi”. O‘n besh yoshida – “Men ham otamchalik bilaman”. Yigirma yoshida – “To‘g‘risini aytsam, otam hech narsani bilmaydi”. O‘ttiz yoshida – “Har holda, otam uncha muncha narsani biladi”. Qirq yoshida – “Otamning fikrini ham bilsam yomon bo‘lmas edi”. Ellik yoshida – “Otam hamma narsani biladi”.

Oltmish yoshida – “Qaniydi, otam tirik bo‘lganida, ular bilan maslahatlashgan bo‘lar edim”. Yuqoridagi umr davrlardan ko‘rinib turibdiki, ota farzand uchun doimo yelkadosh, maslahatdosh bo‘lar ekan. To‘liq oilalarning farzandlari yuqoridagi fikrlarni ayta olishi imkoniga ega ekanligini ham eslatib o‘tish darkor. Ota uchinchi shaxs sifatida “ona-bola” ikkiligini to‘ldiradi va onadan ajralish jarayonining normal kechishiga yordam beradi. Bola ona bilan dastlabki simbiotik munosabatlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishi uchun ota quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak:

• ona va bola uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lish;

• bolaga nisbatan onadan ko‘proq masofa, bola ehtiyojlariga sezgirlik.

Bola birinchi “ota” haqida qachon bilishi borasida taxminlarni ilgari suruvchi bir qator tadqiqotlar mavjud. Psixoanalizning ba’zi vakillari bolaning otasi haqidagi ongsiz bilimlari haqida gapirishadi. Yung psixologiyasida bu hodisa ota va ona arxetiplarining tug‘ma mavjudligi bilan izohlanadi. Bu intuitiv bilimlar otaning dastlabki obrazini shakllantiradi, bu tufayli keyinchalik ota-bola o‘zaro ta’sirini kengaytirish hisobiga asosiy obraz hosil qilinadi. Ona bolaga otaning birlamchi ramziy tasavvurini shakllantirishga yordam beradi, bu esa uning kognitiv rivojlanishiga qo‘shimcha ravishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota va ona o‘rtasidagi munosabatlarning sifati bolalar rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biridir. Ota oila tizimida onaning eri sifatida ham oila iyerarxiyasi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

O.G. Kalina va uning hammualliflari o‘z ishlarida ota-ona obrazlari va ota-ona haqidagi psixik nosog‘lom o‘smirlarda himoya mexanizmlari rivojlanish darajasi haqidagi tasavvurlarining ahamiyatini ko‘rsatdi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, himoya mexanizmlarini tasniflash “Men” obrazi haqidagi muhim tushunchalardan biridir. Bular o‘z “Men”i haqidagi ijobiy tasavvurlarni qurishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ishda ota-onalarning er-xotin sifatida qarashlari, shuningdek, har bir ota-onaning hissiy jihatdan ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi ichki reprezentasiyalari psixik nosog‘lom o‘smirlardagi himoyalanmagan mexanizmlarning ulushini va ularning zo‘ravonligini kamaytirishga olib kelishi empirik tarzda aniqlandi. Ota-onalari haqida nazorat qiluvchi va sovuq, degan tasavvurlari himoya mexanizmlarining dastlabki ifodasiga olib keladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bolaning ichki dunyosini integrasiyalash uchun ota-ona munosabatlaridan ajralib qolish jarayonini anglash, shuningdek, bu munosabatlar uchun hasad hissi juda muhimdir. Brittonning fikricha, uchinchi munosabatni qabul qilish – ikki ota-ona o‘rtasida boshqa odamlar bilan o‘zaro ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega, bu oxir-oqibatda hissiy farovonlik va barqaror identiklikka olib keladi. Bolaning tasavvurida ota bu shunday shaxski, uni deb ona bolani tark etishi mumkin (yotoqxonaga ketishi), shu sababli u salbiy emosiyalar va kechinmalar ob’yektiga aylanadi, degan taxminlar ham mavjud. Otaga nisbatan nafrat ota-onalik munosabatlaridan tashqarida o‘zining og‘ir kechinmalari tasviri sifatida yuzaga chiqadi. Ota sevgisining yagona ob’yekti bo‘lish istagi va turmushga chiqish haqidagi o‘y-xayollari onalik shaxsining ideallashuvi va paydo bo‘lgan ayollik hissidan qoniqishi orqali rivojlanadi. Ona endi raqib sifatida qabul qilinadi, lekin qiz tomonidan rad etilmaydi. Bu bosqichda onaning so‘zsiz sevgisi ham muhimdir, chunki qiz ota haqidagi fantaziyalari ona bilan munosabatlarining buzilishiga olib kelishi borasidagi tashvishni his etishi mumkin. Agar avvalgi nizolar edipal fazani bosib olgan bo‘lsa, qizlar onadan ajralishida qiyinchiliklarga duch kelishadi va otaning sevgisi haqidagi o‘y-xayollari aybdorlik hissini paydo qiladi, bu xatti-harakatlarda regressiyasiga olib kelishi mumkin. Xuddi shu o‘g‘il bolalarga ham tegishli.

Empatiyani kognitiv va emotsional hodisa sifatida talqin qilishdagi kelishmovchiliklar, tushunish va empatiya jarayoni, ongning ham u, ham bu taraflari bilan bog‘langanligi tufaylidir. Bu ikkala jarayon ham insonning ichki dunyosini tushunishdagi nafaqat turli xil usul hisoblablanadi balki, xulq-atvorda turli xil tuzilish va vazifaga egadir. Agar tushunish – bu individ tomonidan boshqa odamning xulq-atvorini intellektual tahlil qilish jarayoni bo‘lsa, empatiya esa – boshqa odamlarning kechinmalariga emotsional hamdard bo‘lishdir. Psixologiyada T.P.Gavrilov tadqiqotlarida empatiya tushunchasi individning boshqa odam, jonivor va boshqalarning kechinmalariga nisbatan emotsional qarashidir. Muallif empatiyaning ikki turini ajratadi: birga qayg‘urish, ya‘ni sub’ekt boshqa sub’ekt his qilayotgan tuyg‘ularni his qila olishi, va achinish, ya’ni boshqa odam tuyg‘ulari haqida

qayg‘urish va boshqalar. Empatiya boshqa odamning ichida nima bo‘layotganini, nima haqida qayg‘urayotganini, atrofni qanday baholayotanini to‘g‘ri tasavvur qila olish qobiliyatiga asoslangan. Aynan empatiya tufayli, kitob o‘qib yoki film ko‘rib turib, turli xil vaziyatlarga tushib qolgan odam his qiladigan narsalarni his qilamiz. Masalan: urush liniyasida tikanli sim ostida sudralib ketayotgan josusning xavotiri va najotini; zarba urgan futbolchining quvonchini; imtihondan o‘ta olmagan o‘quvchining alami va tushkunlikka tushushiga olib keladi. Shuning uchun odam u yoki bu holatlar boshqa odamlar tomonidan qanday qabul qilinishini qanchalik yaxshi tasavvur qila olsa, empatiya shunchalik yuqori bo‘ladi Odamning empatik qobiliyatlari hayotiy tajriba oshishi bilan oshib boraveradi. Ko‘p narsani ko‘rgan va ko‘p narsani boshidan o‘tkazgan keksa odamlar, u yoki bu vaziyatga tushib qolgan odamlar nimani his qilishini, kichkina o‘quvchiga nisbatan yaxshiroq tushunishadi. Empatiyaning rivojlanishi – bu boshqa insonning foydasiga hal bo‘luvchi bevosita ta‟sir qiluvchi axloqiy motiv va motivatsiyalarning shakllanishidir. Empatiya yordamida kichkina bolaning boshqa odamlar kechinmalari dunyosiga kirib borishi jarayoni paydo bo‘ladi hamda boshqalarning qadriyatlari haqidagi tushuncha yuzaga keladi natijada boshqalar hotirjamligini o‘ylash kabi xususiyat rivojlanadi. Empatiya rivojlanishining, axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish asosida bolaning atrofidagilarga nisbatan shakllanayotgan yondashuvi yotadi. Ya’ni, bolaning kattalarga bo‘lgan munosabati, birinchi navbatda ota-onasi bilan yaqin munosabatlarida qayd qilinadi. Oila a’zolarining bir-biri bilan bo‘lgan empatik, ishonchli munosabatlari shaxsning garmonik rivojlanishini belgilab beradi. Qayg‘urish, achinish, boshqa odamga yordam berish qobiliyatining to‘laqonli rivojlanishi uchun oilaviy, do‘stona munosabatlar muhiti zarur. Bolaga bo‘lga noempatik munosabatlarning mazmuni birinchi navbatda uni tarbiyalayotgan odamlar tomonidan ochib beriladi. Ota-onaning munosabatlari bolada yaxshilik, boshqalarga achinish, ular uchun o‘zini kerakli, sevimli va muhim deb bilishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola uchun eng muhimi yaxshilik va mehribonlik muhitida o‘sayotganligidir. Tarbiya “qanot bag‘ishlovchi” bo‘lishi kerak, bolani maqtovlar, qayg‘urish, achinish, tabassum, hayratlanish, olqishlar bilan qanotlantirish kerak. Kichik o‘quvchilarning empatiya qobiliyatlari hayotiy tajribasining oshishi bilan ortib boradi. Empatiya va empatik xulq-atvorni samarali tarbiyalash ijodiy tasavvurning rivojlanishi asosida amalga oshiriladi.

Xulosa. Agar ona otasini qadrlamasa, bu o‘g‘ilning onadan ajralishini sekinlashtiradi, chunki uni ham erkak sifatida qadrsizlanishidan qo‘rqadi. Agar identifikasiyalash muvaffaqiyatli bo‘lsa, bola ham qizlarning rivojlanishida bo‘lgani kabi, ona bilan munosabatlarda otasining o‘rnini egallashni, unga nisbatan ko‘proq erkini ko‘rsatishni xohlaydi. E’tibor uchun musobaqa o‘rniga ota bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqobat yuzaga keladi. Endi bola uning o‘rnini egallashi uchun raqib bilan identifikasiya qinadi va undan ham ko‘proq unga o‘xshash bo‘lishni xohlaydi. Shu bilan birga, onasi bilan munosabatlari va otaning qasosidan o‘rqish haqidagi xayoloti uchun aybdorlik hissi paydo bo‘ladi. Bu salbiy his-tuyg‘ular bolani o‘z xohish-istaklaridan voz kechishga va ularni vaqt o‘tishi bilan o‘zgartiradigan keyingi davrga qoldirishga undaydi. Ota-onalarning juftlik sifatida integrasiyasi nafaqat yosh bolalar uchun, balki o‘smirlik davrida ham muhimdir. Bu holatda mustahkam er-xotin juftligi kattalar dunyosiga qarshi isyon ko‘targan bolaning kuchli tajovuzkor impulslari uchun to‘g‘on bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalar qo‘llab-quvvatlashlari va o‘smirning buzg‘unchi kechinmalariga dosh berishi, buning uchun ota-onalar ittifoqni saqlab qolishi kerak. M.Bouenning tizimli yondashuvi doirasida ruhiy kasalliklar nafaqat ota-ona va bola o‘rtasidagi hissiy aloqalarni, balki er-xotin munosabatlaridagi muammolarni ham buzganligi natijasidir. Oilaviy yondashuv bilan ob’ektiv munosabatlar nazariyasi o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, psixoterapevtik ish ota-onaning ichki obraziga emas, balki umuman oiladagi munosabatlarga qaratilgan bo‘ladi. Oila psixoterapiyasida barcha jarayonlar o‘zaro bog‘liq deb qaraladi. M. Bouenning fikricha, otaning zaif pozisiyasi va onaning ustunligi bolaning rivojlanishi uchun, ayniqsa, zararlidir. Bunday holda, terapevtning ishi otaning maqomini kuchaytirish, uning mas’uliyatdan qo‘rqishini kamaytirish, shuningdek, onaning liderlik maqomiga tayyorligini anglashiga qaratilgan bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta’siri. T.: 2004. 99 b.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T., 2006. 142 b.
3. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun. G‘.B.Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. 338 b.
4. Uzoqov X., G‘oziyev E. va bosh. Oila etikasi va psixologiyasi.T., 1992. 129 b.
5. Hayot kitobi: Yosh oilalar uchun ensiklopedik qo‘llanma. – T., Sharq, 2011. 272 b.
6. Karimjanova Y. U. Maintaining the mental health of adolescents with hiv based on their emotional vulnerability //Psixologicheskoye zdorovye naseleniya kak vajnыy faktor obespecheniya prosvetaniya obщyestva. – 2020. – S. 99-102.
7. Karimjanova Yo. U. Psixichyeskoye zdorovye emosionalno uyazvimых podrostkov s vich //BBK Yu953. – 2020. – S. 99.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК: 316.7

Шерзод АЗИМОВ,
Докторант Самаркандского государственного университета
E-mail: Sh.azimov@mail.ru

По отзыву доцента Самаркандского филиала ТАТУ, к.м.н. Ризаева И.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SPORT: HUMANISTIC POTENTIAL AND RELEVANCE

Annotation
This article discusses the socio-philosophical aspect of sport and its humanistic potential, which are especially relevant at the beginning of the 21st century. The author draws attention to the fact that sport has a great aesthetic, philosophical and ideological significance, playing an important role in the formation of basic structures, norms, values and ideals of public consciousness. Analyzing the literature, the article describes the pragmatic philosophy and ideas of Dewey, which emphasize the role of sports in the education and upbringing of the individual. There is a need to study various models of physical culture and their significance for a social subject, as well as to consider sports as an indicator of personality. In the context of these discussions, the article raises the issue of doping and its impact on the biological characteristics of a person in sports activities. In general, this article offers a deep analysis of the socio-philosophical aspect of sport and its significance in modern society.
Key words: Socio-cultural status of sports, physical culture, philosophy of sports, pragmatic philosophy, personality, sports activities, doping.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АСПЕКТЫ СПОРТА: ГУМАНИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И АКТУАЛЬНОСТЬ

Аннотация
В данной статье рассматривается социально-философский аспект спорта и его гуманистический потенциал, особенно актуальные в начале XXI века. Автор обращают внимание на то, что спорт имеет огромное эстетическое, мировоззренческое и идеологическое значение, играя важную роль в формировании базовых структур, норм, ценностей и идеалов общественного сознания. Анализируя литературу, статья описывает прагматическую философию и идеи Дьюи, которые подчеркивают роль спорта в образовании и воспитании личности. Возникает необходимость изучения различных моделей физической культуры и их значения для социального субъекта, а также рассмотрения спорта как показателя личности. В контексте этих обсуждений, статья поднимает проблему допинга и его воздействия на биологические особенности человека в спортивной деятельности. В целом, данная статья предлагает глубокий анализ социально-философского аспекта спорта и его значимости в современном обществе.
Ключевые слова: Социокультурный статус спорта, физическая культура, философия спорта, прагматическая философия, личность, спортивная деятельность, допинг.

SPORTNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI: GUMANISTIK SALOHIYAT VA DOLZARBLIK

Annotatsiya
Maqolada XXI asr boshlarida ayniqsa dolzarb bo‘lgan sportning ijtimoiy-falsafiy jihati va uning insonparvarlik salohiyati muhokama qilinadi. Muallif e’tiborni sportning katta estetik, falsafiy va g‘oyaviy ahamiyatiga e’tibor qilib, ijtimoiy ongning asosiy tuzilmalari, me’yorlari, qadriyatlari va ideallarini shakllantirishdagi muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Maqolada adabiyotlarni tahlil qilingan bo‘lib, Dyuining pragmatik falsafasi va g‘oyalari bayon etilgan va unda sportning shaxsni tarbiyalashdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Ushbu munozaralar kontekstida maqolada doping va uning sport faoliyatida insonning biologik xususiyatlariga ta’siri masalasi ko‘tariladi. Umuman olganda, ushbu maqolada sportning ijtimoiy-falsafiy jihati va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Sportning ijtimoiy-madaniy statusi, jismoniy tarbiya, sport falsafasi, pragmatik falsafa, shaxs, sport faoliyati, doping.

Введение. Спорт в настоящее время занимает особое положение в социокультурном контексте, и его исследование требует объединения физической культуры и спорта. Спорт обладает огромным эстетическим, мировоззренческим и идеологическим потенциалом, который активно используется в формировании базовых структур, норм, ценностей и идеалов общественного сознания в рамках культурно-исторических процессов.

В начале XXI века гуманистический потенциал спорта стал особенно значимым, восстанавливая идею о целостной личности, которая находится в динамичном единстве и гармонии с материальной и духовной сферами. Повышенный интерес к гуманистическим ценностям и возрождение целостности личности стали неотъемлемой потребностью современного общества. В этом контексте философия спорта как отдельное направление развития получила особое значение и была определена как своеобразная интеллектуальная революция в Новом Свете, совершенной американской философией прагматизма.

Целью данной статьи является анализ социальных и философских аспектов спортивного феномена, освещение его гуманистического потенциала и взаимосвязи с современными вызовами и потребностями общества. Будут рассмотрены основные принципы прагматической философии, их роль в понимании и выражении общности в личности, а также влияние философии спорта на социальную практику и формирование ценностных ориентаций.

В дальнейшем исследовании будет проведен анализ различных моделей физической культуры, особое внимание будет уделено моделям соматической культуры, наиболее соответствующим современным условиям и потребностям XXI века. Также будет рассмотрен вопрос о влиянии спорта на формирование личности и исследование его роли в расширении границ человеческого потенциала. Особое внимание будет уделено проблеме допинга и его воздействия на физиологические особенности человека.

Цель данной статьи заключается в анализе важности социально-философского рассмотрения спортивного феномена и его влияния на формирование ценностей и личностного развития. Исследование данных аспектов спорта имеет большое значение для понимания современного общества и его потребностей, а также для разработки стратегий развития физической культуры и спорта в XXI веке.

Анализ литературы. Сущность прагматической философии состоит в переориентации социальной практики с абстрактных метафизических схем на конкретные, субъективные и уникальные свойства, которые пытаются достичь понимания и выражения общности в личности в форме определенных категорий. Благодаря этому конкретизируется социокультурный статус личности, ее роль и функции в социальной практике. Уникальность прагматизма заключается в его способности полностью восстанавливать права человека здесь и сейчас. При этом человек не может остаться без пробуждения интереса к социально значимым формам физической активности.

Философия прагматизма и ее лидер Джон Дьюи заслуживают особого внимания. С его точки зрения, главная задача философии в общекультурном контексте состоит в том, чтобы быть источником просвещения, средством распространения методов и технологий воспитания и своеобразной школой человеческой мысли. Теоретические нововведения, которые он предлагал, сравнивались с педагогической практикой. Он рассматривал философию не только как интеллектуальное исследование потребностей исследовательского ума, но и как эстетическую игру «... как общую теорию образования» [1]. Жизнь, по его мнению, не является просто пассивным существованием, но деятельностью и всем, что поддерживает или препятствует этой деятельности» [1].

Вопрос спорта с социально-философской точки зрения открывает безграничные возможности для изучения смежных тем. Это позволяет анализировать личность, различные социальные группы и общество в целом в связи с их ценностными ориентациями, физическим существованием, эволюцией и характером системы ценностей. В этой связи возникает необходимость анализа различных моделей физической культуры. Каждая модель имеет значение для социального субъекта – индивида, социальной группы или общества в целом определяет их отношение к телу, поведение и образ жизни. Особенно важными являются модели соматической культуры, которые наиболее адекватны современным социокультурным условиям XXI века [2].

Возвращаясь к теме личности, следует отметить, что спорт может служить показателем личности человека. Анализ спортивной деятельности позволяет исследовать границы, в которых человек теряет признаки принадлежности к виду Homo sapiens. Спорт, как форма экстремальной деятельности, поднимает вопрос о недопустимости искусственного воздействия на биологические особенности человека как социокультурного явления. Проблема использования допинга как искусственного стимула для достижения выдающихся результатов также становится актуальной.

Гуманистическая природа спорта заключается в том, что он поощряет активную гражданскую позицию, связывает людей, обеспечивает доступ к техническим средствам и государственным услугам. Спорт объединяет людей через ценности честной игры, взаимного уважения и терпимости [3].

Таким образом, социально-философское понимание спорта позволяет определить перспективы его гармоничного развития, при котором личность не теряет своих особенностей. Философская трактовка спорта помогает лучше понять его роль в формировании идеала новой личности XXI века. Необходимо узнать, какими ценностями он должен руководствоваться и насколько универсальным может быть этот идеал. В условиях глобализации и интенсивного взаимодействия различных культур мира, эта необходимость становится еще более актуальной.

Методология исследования. Возникновение дисциплины «философия спорта» связано с интеллектуальным движением, происходившим в Северной Америке в 60-70-е годы XX века. Оно было направлено на реабилитацию человека. Новая область спортивных исследований, развивавшаяся в это время, добавила в медицинские и образовательные исследования философские, исторические и социологические исследования, имея более амбициозные интеллектуальные цели [4].

Появление книги Пола Вайса «спорт: философское исследование» (1969) стало важным событием, вызвавшим резонанс в философском сообществе [5]. В 1972 году было создано Международное научное общество «философское общество изучения спорта», которым руководил Пол Вайс. Открытие журнала «философия спорта» в 1974 году укрепило место этой дисциплины в серьезных философских исследованиях спорта.

Одной из главных задач «философии спорта» является определение границы между физической активностью и спортом. Также важными вопросами являются различия и сходства между спортом и другими видами деятельности человека. Для ответа на эти вопросы необходимо четкое определение понятия «спорт».

Немецкий социолог и историк Н. Элиас анализирует этимологию понятия «спорт» и утверждает, что английское слово «спорт» относится к виду деятельности, приносящей удовольствие и предназначенной для развлечения человека. В широком смысле «спорт» включает все соревнования и физические упражнения, встречающиеся только в определенных обществах, а в узком смысле относится к определенному типу соревновательных игр, которые возникли в Англии и распространились в другие страны [6].

Спорт включает различные формы человеческой деятельности, такие как мотогонки, водное поло, тяжелая атлетика, спортивные игры и виды спорта на открытом воздухе, такие как охота, стрельба и рыбалка. Он характеризуется напряжением всего тела, конкурентоспособностью, использованием ловкости, неопределенностью результата и некоторыми элементами риска. Большинство видов спорта имеют свои правила, ритуалы и систему, представляя собой «миниатюрные формы жизни», требующие мужества, физической силы, скорости и выносливости [7].

Физическая культура включает в себя такие аспекты, как физическое развитие, улучшение здоровья, формирование навыков и способностей, а также

социализация личности. Спорт является одним из инструментов физической культуры, который позволяет человеку развивать свои физические возможности, участвовать в соревнованиях, а также сотрудничать и взаимодействовать с другими людьми [8].

Однако важно отметить, что спорт не ограничивается только физической активностью. Он также имеет моральные и эстетические аспекты. Участвуя в спортивных мероприятиях, люди могут развивать такие качества, как справедливость, дисциплина, уважение к соперникам и правилам игры. Спорт также способствует развитию международных связей и содействует мирному сотрудничеству между странами [9].

Таким образом, спорт является важной частью физической культуры и общественного развития. Он способствует разностороннему развитию человека, его здоровью и эстетическому воспитанию. Благодаря спорту люди могут обрести не только физическую силу и ловкость, но и нравственные ценности и социальные навыки.

Анализ и результаты (Analysis and results). Анализ всех вышеперечисленных взглядов и идей позволяет сделать следующие выводы:

1. Социально-аксиологическое измерение человека является смысловым ядром, из которого формируется комплекс интерпретации соматической культуры. Это указывает на важность сочетания физического, соматического и духовного аспектов в человеческой природе.

2. Дифференциация по гипертрофии тела также имеет значительное значение и присутствует в некоторых культурных традициях. Это свидетельствует о том, что физическая культура и спорт играют важную роль в социокультурном процессе.

3. В идеологическом плане, физическая культура и спорт отражают различные модели исторического развития человека. В древности преобладал принцип единства физической и духовной гармонии, противопоставленный средневековому принципу аскетизма. В современном мире идеи самоуправления и взаимной ответственности сочетаются с рациональными и универсальными средствами их реализации.

4. Идеологические основы физической культуры и спорта активно изучаются социологией, которая определяет спорт как занятие определенным видом спорта, формы двигательной активности и выражение культурных достиженй людей.

В целом, результаты анализа указывают на важность социально-аксиологического измерения человека и его взаимодействия с физической культурой и спортом. Исследование и понимание идеологических основ спорта помогают выявить влияние культурных, социальных и исторических факторов на развитие физической активности и ее влияние на общество.

Заключение. В заключение, философское понимание феномена спорта помогает раскрыть его доминирующую идею и понять связь спорта с нормами, ценностями и идеалами общества. Отражая культурно-исторический процесс, спорт становится примером творческого поступка, который меняет природу человека и актуализирует его творческие возможности. Спортивная деятельность неотъемлемо связана с игровой культурой, а прототипы современного спорта можно увидеть в древних культурах. Таким образом, спорт является важной составляющей человеческого развития, где человеческая личность стремится к совершенству и свободе через преодоление надежд и ограничений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Дьюи Д. Демократия и образование/ Д. Дьюи. -М., 2000.-384с.
2. Философия и социология спорта в XXI веке / Круглый стол журнала Теория и практика физической культуры // Теория и практика физической культуры. 2000. № 6
3. Бокова И. Предисловие Генерального директора ЮНЕСКО И. Боковой / И. Бокова // Наука о спорте. Энциклопедия систем жизнеобеспечения.-М.: ЮНЕСКО: Магистр-Пресс, 2011.-1000с.
4. Морган У. Философия спорта: Исторический и концептуальный обзор и оценка будущего / У. Морган // Логос. 2006. № 3.
5. Weiss P. Sport: a Philosophic Inquiry / P.Weiss.-Carbondale. 1969.-274p.
6. Элиас Н.Генезис спорта как социологическая проблема / Н.Элиас // Логос, 2006. № 3.
7. Peter J. Arnold. Aesthetic Aspects of Sport / Arnold. P.J. // International Review of Sport Sociology, 1978, vol.13. № 3.
8. ГумбертХ.У. Форма насилия. Похвальное слово красоте спорта / Х.У.Гумберт // Неприкосновенный запас, 2004. № 3.
9. Физическая культура / Культурология. XX. Энциклопедия. Т. 2. СПб., 1998.-907с.
10. Дубин Б.Состязательность и солидарность. Рождение спорта из духа общества / Б. Дубин // Отечественные записки, 2006. № 6.
11. Ласкене С., Чингене В. Возможности анализа спорта как социального феномена / С. Ласкене, В. Чингене // Социологические исследования, 2007. № 11.
12. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания //Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества. – 2022. – С. 297-303.
13. Muhammadiev, Kh. Potentiality and virtuality in the philosophy of modern times / Kh. Muhammadiev // . – 2022. – No. 3(107). – P. 1000-1004.
14. Xaqqulov N. Q. Perfect generation-personality of private education and humanity facilities //Мировая наука. – 2019. – №. 2. – С. 62-63.
15. Nasirdinovich U. F., Rakhmatullaevna U. L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1796-1801.
16. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
17. Azimov S. B., Mamarahimov K. K. Перспективы этичности и эстетики в молодежной экономической деятельности //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 826-829.
18. Mardonov R. Philosophy of education in modern conditions of society development //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 103-114.
19. Rizaev I. Synergetics in Social Systems and its Possibilities //Global Scientific Review. – 2022. – Т. 10. – С. 62-69.
20. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 4. – №. 84. – С. 164-167.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:371.035:370.12

Nizomiddin ALIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:nialiyev@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI GIPOTETIK-DEDUKTIV METOD ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mazmuni va asosiy yo‘nalishlari, metodlar yordamida analitik tafakkurni rivojlantirishda dialektik uslubning ham samaradorligi yuqori hisoblanishi hamda pedagogik jarayonda tafakkur uslublarini mushtarak holda qo‘llashga o‘rgatish rivojlantirish to‘g‘risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Gipotetik-deduktiv, yangi taraqqiyot, tafakkur ko‘nikmalari, innovasion g‘oyalar, mantiqiy fikrlash, individual sifatlar, barkamol inson, ta’lim standartlari, aqliy faoliyat turi, ilmiy-metodik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ С ПОМОЩЬЮ ГИПОТЕТИКО-ДЕДУКТИВНОГО МЕТОДА

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития аналитического мышления у будущих педагогов посредством гипотетико-дедуктивного метода, высокая эффективность диалектического метода в развитии аналитического мышления, развитие обучения использованию стилей мышления в представлен педагогический процесс в общепринятой форме.

Ключевые слова: Гипотетико-дедуктивное, новое развитие, мыслительные способности, инновационные идеи, логическое мышление, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, вид мыслительной деятельности, научно-методический.

PEDAGOGICAL COMPONENTS OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN FUTURE EDUCATORS THROUGH THE HYPOTHETICAL-DEDUCTIVE METHOD

Annotation

In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of analytical thinking in future pedagogues through the hypothetical-deductive method, and the effectiveness of the dialectical method in the development of analytical thinking are considered high. In the pedagogical process, it is important to teach the common use of thinking styles.

Key words: Hypothetical-deductive, new development, thinking skills, innovative ideas, logical thinking, individual qualities, perfect person, educational standards, type of mental activity, scientific-methodical.

Kirish. Bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish murakkab, uzluksiz va ko‘plab funksiyalarga ega jarayon bo‘lib, atrof-muhit va analitik tafakkuri rivojlangan talaba shaxsiga yo‘naltirilgan faoliyat, muloqot, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tashqi muhit bilan individning ijtimoiy aloqalarini kengaytirishni talab etuvchi biologik, psixologik, ijtimoiy, madaniy, pedagogik darajalar bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Sabab-mohiyat insonni harakatga keltiruvchi muhim omildir. Uni biz faoliyat jarayonining energiyasi sifatida ham, yoqilg‘isi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Sabab-mohiyat ichki (botiniy) omil sifatida (masalan, yuqori malakali mutaxassis bo‘lishga intilish, yoki kimgadir o‘zining “men”ini isbotlashga intilish) ham bo‘lishi mumkin. Tashqi (zohiriy) sabab-mohiyat esa sharoit, ustozlar, ota-ona, do‘stlar, tanishlar, sifatida bo‘lib ayniqsa ota-ona tomonidan o‘zlarining kasblarini farzandiga o‘rgatishga, biror bir kasbni egallashga turtki berish, yoki ustoz tomonidan kasbning eng nozik tomonlarini o‘rganishga da’vat etish sifatida bo‘lishishi mumkin. Tashqi sabablar rag‘bat deb ataladi. Pedagogik ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish sabab-mohiyatsiz asosga ega bo‘lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini samarali rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan yangi bilim olishga ehtiyoj, qiziqishlarini shakllantirish, ulardagi qobiliyatni aniqlash, ularning kuchli tomonlarini shakllantirish – analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonining boshlanishi hisoblanadi.

Shu yerdan analitik tafakkurni rivojlantirish maqsadini belgilashda uning rivojlanish darajasining u yoki bu xususiyatlaridan kelib chiquvchi harakatlanish jarayoni boshlanadi. Ushbu bosqichning natijasi sifatida analitik tafakkurni rivojlantirish ehtiyoji yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik jarayonning asosiy birligi hisoblanadi. Pedagogik holat esa muammo bilan bog‘liq bo‘ladi. Pedagog tomonidan anglangan vazifa pedagogik jarayonning aniq vazifalariga aylanadi.

Pedagog, avvalo, vazifani o‘zi uchun belgilaydi, so‘ngra uni talabalarga ma’lum qilib ularni jalb qiladi va muammo yechimini hal etishga qaratadi.

Vazifa – vazifalar tizimi talabalar uchun ularning individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va ular ixtiyoridagi aniq sharoitlar vositasida nazarda tutilgan natijalarga erishish maqsadidir.

Vazifani belgilashda aniq individuallik talab qiladi. To‘g‘ri belgilangan vazifa eng maqbul variant yoki faoliyat turini tanlash imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishda hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar tizimi sifatida qaralib uning alohida bosqichlari va bosib o‘tilishi kerak bo‘lgan ma’lum maqsadlarni ifodalaydi.

Analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining shaxsiy-kasbiy yo‘nalishini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni ishlab chiqishda asosiy e’tibor bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zlarining imkoniyatlarini ko‘rsatishga, so‘ngra o‘qitishning shakl va uslublariga qaratilishi lozim. Shu bilan birga ularning mustaqil ishlashlarini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o‘qitishning shakl va metodlarini ko‘rsatib berish bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etishga imkon beradi va bu o‘z navbatida pedagog va talaba o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlaydi. Bu bosqichda guruhlar hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifa xususiyatiga mos ravishda shakllantiriladilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishning maqsad va vazifalari faqatgina shakllantirishgina emas, shuningdek, ular texnologiyaning ham komponentlari bo‘lib mantiqan ichki tartibi hamdir. Bu holat maqsad va vazifalar aniq bo‘lganda yuzaga keladi.

Vazifani hal qilish vazifaning yechimini topish jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Pedagogik vazifani hal etish esa doimo gipotetik-deduktiv yondoshuv bilan yuz beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida nazariy va amaliy holatlarining o‘zaro bir biriga ta’sir qilishi yuzaga keladi. Birinchi galda amaliy vazifalarni qamragan holda diagnostikasi qabul qilinadi. Pedagogik diagnostika asosida analitik tafakkurni rivojlantirish natijalari, o‘quv-bilish faoliyatida kelib chiqadigan murakkabliklar va xatoliklar, ularning pedagogik ta’siri prognozlashtiriladi.

Pedagogik diagnostikada moddiy ta’minot, shart-sharoit, qulay ta’lim vositalari asosida rejalashtirish, vazifalarni taqsimlab chiqish, yo‘l-yo‘riq, tashkillashtirish vazifalari ham hisobga olinadi. O‘qituvchi har qanday murakkab holatlarda to‘g‘ri qarorga kelishi uchun o‘zining qat’iy yondoshuvi, aniq g‘oyaviy-axloqiy yo‘nalishlariga ega bo‘lmog‘i kerak. Chunki aynan ana shu bosqich tahliliy bosqich bo‘lib diagnostikani belgilashga imkoniyat beradi.

Analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi o‘qituvchining tayyorgarligi va o‘quv faoliyati davomida o‘qitish muammolarini hal etish sifatida ham axamiyatli hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagogik ta`lim jarayonining samaradorligi, zamonaviy asbob-uskunalar, o‘quv-uslubiy va ko‘rgazmali vositalar, axborot texnologiyalari bilan jihozlanganligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Xuddi shu nuqtai nazardan qaraganda o‘qituvchining darsga tayyorgarligi, uning ilmiy-pedagogik salohiyati, boshqacha aytganda uning kasbiy mahorati bilan ham belgilanadi.

Pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga oid yangi dars ishlanmalarini ishlab chiqdik va amaliyotda qo‘llanish uning samaradorligini oshiradi.

“So‘nggi so‘zni menga qoldiring” metodi. “So‘nggi so‘zni menga qoldiring” – axborot bilan tanishib chiqilgandan so‘ng fikrlashni rag‘batlantirishga qaratilgan metodlardan biridir. U har qanday axborotni muhokama qilish uchun asos beradi. Mazkur metod quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talabalardan matnni o‘qish paytida matndan ular ayniqsa qiziqarli yoki sharhlashga munosib deb hisoblaydigan axborotlarni topish so‘raladi; talaba o‘zi tanlagan axborotni kartochka yoki varaqchaga yozib oladi (axborot tanlangan bet va abzasni belgilab quyish lozim bo‘ladi); kartochkaning orqa tomoniga talaba o‘z sharxini yozadi. U axborotdagi fikrni rivojlantirishi, unga qarshi bo‘lishi, qo‘shilmasligi yoki o‘z xohishiga qarab boshqacha tahlil etishi mumkin; keyingi kuni talabalar axborotlar yozilgan kartochkalarni darsga olib keladilar. Professor-o‘qituvchi tanlagan axborotni o‘qib berish uchun ulardan birortasiga navbat beriladi; axborot o‘qib bo‘lingach, professor-o‘qituvchi qolgan talabalarni unga munosabat bildirishga yoki uni sharhlashga taklif qiladi. Munozarada mavzudan chetga chiqmaslikka harakat qilish lozim. Mulohazalar quruq va axborotni tanlagan talabani ranjitadigan bo‘lmasligi kerak. Professor-o‘qituvchi parchaga o‘z munosabat va sharhini ham berishi mumkin; xulosada axborotni tanlagan talaba unga doir o‘zi yozgan sharhini o‘qib beradi. Ana shunda “so‘nggi so‘z uniki” degan asosiy qoida amalga kiradi. Undan so‘ng munozarani hech kim davom ettira olmaydi. O‘yin qoidasiga ko‘ra u talabadan keyin pedagog ham munosabat bildirishi mumkin emas. U aralashmay, mulohaza bildirmay turishiga to‘g‘ri keladi. Aralashish halol munozarani yo‘qqa chiqaradi. O‘yinni qoidasiga ko‘ra o‘ynash kerak!; shundan so‘ng, pedagog keyingi talabaning axboroti bilan doskaga chiqaradi va o‘yin yana boshidan boshlanadi.

“Erkin esse yozish” metodi. Pedagog talabalarga avval ko‘rib chiqilgan, muhokama qilingan axborotga muvofiq erkin esse yozishni taklif etishi mumkin. Erkin esse yozish metodi talabalar ko‘proq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar haqida yozish uchun qo‘llaniladi.

Erkin esse yozish qoidasi: muhokama qilingan axborot yuzasidan xayolga kelgan hamma fikrlar yozilaveradi, uzoq o‘ylab o‘tirilmaydi; yonidagilar, kursdoshlar bilan maslahat qilinmaydi; matn tahrir qilinmaydi, xatolar to‘g‘rilanmaydi; xatolarga e’tibor berilmaydi; esse yozish vaqti belgilab qo‘yiladi.

Qisqasi, talabalar uzluksiz, to‘xtamasdan erkin esseni yozadilar. Agar ular yana nimani yozishni hech o‘ylab topa olmasalar, “Men nima yozishni bilmayman” degan jumlani yozishlari lozim. Asosiysi: to‘xtamasdan, qayta o‘qimasdan, tuzatmasdan yozish kerak.

Boshlovchiga eslatma: odatda, talaba-yoshlar o‘yin muhitidan nojo‘ya xatti-harakatlarni bajarish uchun bahona sifatida foydalanishlari mumkin. Albatta, bu o‘yinda nojo‘ya harakatlar bo‘lishi tabiiy, lekin kimki vaziyatdan sho‘xlik va hazil-huzul uchun foydalanmoqchi bo‘lsa, uni o‘ynayotgan guruhinng o‘zi tartibga keltirib qo‘yishi kerak. Bu usulning muhim ta’sir kuchiga egaligini hisobga olib, uni jamoatchilikdan holi va shovqin kam bo‘lgan maxsus xonalarda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot jarayonida sosial intellektga doir izlanishlarga tayanib, analitik tafakkuri rivojlangan talabalarning sosial intellektini o‘rganishda quyidagi mezonlarga alohida ehtibor qaratildi: kognitivlik: insonlar haqida, o‘zga insonlarni tushunishning maxsus qoidalarini bilish; sosial xotira–insonlarning qiyofasini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan xotira; sosial intuisiya–insonlarning kayfiyatini, tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini tushunish motivi, sosial mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik qobiliyati; sosial voqelikni bashorat qila olish shaxsiy xatti-harakatlari rejasini shakllantirish, o‘zining kamolotini rivojlantirishi, shaxsiy kamolotini boshqalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi va foydalanilmagan muqobil imkoniyatlar orqali baholash; emosionallik: sosial ifodalalilik – emotsional ifodalilik, emosional sezgirlik, emosional nazorat o‘rnatish; birgalikda qayg‘urish–o‘zga insonlarning holatiga kira olish, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya olish qobiliyati; o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyati–o‘zining emotsiyasi va kayfiyatlarini tartibga solish uquvi; xulqiy: sosial idrok–suhbatdoshni tinglash uquvi, hazil-mutoyibani tushunish; sosial o‘zaro tahsirlashuv – hamkorlikda ishlashga shaylik va qobiliyatlilik, o‘zaro jamoaviy tahsirlashuvga qobiliyatlilik; sosial moslashuvchanlik–tushuntira olish va boshqalarni ishontira olish uquvi, o‘zga kishilar bilan chiqishib ketish qobiliyati, atrofdagilar bilan munosabatlarda samimiylik.

Bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda muloqotmandlik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish kabi shaxslilik xususiyatlari ularda sosial intellekt ko‘rsatkichlarining barqaror va izchil tarzda rivojlanishini taxminlashi haqidagi xulosaga kelindi.

“Kvadratlar” o‘yini (M.Sparks). Birgalikda hamkorlikdagi faoliyat va o‘zaro aloqador resurslar sharoitida o‘zining individual vazifasini hal etishni talab etuvchi qisqa, biroq o‘ziga xos xususiyatga ega o‘yin. Ishtirokchilar 5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linishadi, guruhlarning maqbul soni 4 tani tashkil etadi. Qolganlar kuzatuvchi sifatida ishtirok etishadi. Oldindan tayyorlangan mahsulotlar asosida har bir ishtirokchi kvadrat yasashi kerak. Ishtirokchida kvadratning barcha qismlari mavjud, biroq bitta kamchiligi bor. Mazkur vaziyatda ishtirokchilarga kvadratning qismlarini bir-birlari bilan almashtirish imkoniyati taqdim etiladi. Har bir ishtirokchida dilemma yuzaga keladi; faqat o‘zining vazifasini bajarish yoki umumiy yechimga kelish uchun o‘zining natijalarini qurbon qilish kerakmi? O‘yin tugagandan so‘ng, ishtirokchilarning xulq-atvor strategiyalari tahlil qilinadi. O‘yin hamkorlikdagi faoliyatga qobiliyatlilikni rivojlantiradi. Fikrning egiluvchanligi va fazoviy fikrlash qobiliyatini talab etadi. Kerakli jihozlar: figuralar to‘plami, 4 ta stol va 20 ta stul.

“Kelajakka nazar” texnikasi. Texnika o‘z-o‘zini dasturlashtirish, o‘z-o‘zini motivasiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Dastlab aniq maqsad, istak va jihatlarga ega o‘zining kelajakdagi qiyofasini tasavvur etish va yaratish taklif etiladi. Tarqoq tasavvurlardan aniq ko‘rinishga ega obrazga o‘tish taklif etiladi. O‘zi erishishni istagan sifat tasavvuridan to‘liq qoniqish, ijobiy tuyg‘uga ega bo‘lish imkoni beriladi. Kelajakdagi qiyofani o‘tmish va bugungi holat bilan qiyoslash, nima ortiqcha yoki qo‘yilgan maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligi haqida o‘ylash taklif etiladi. Zaruriy va ortiqcha harakatlar ro‘yxati tuziladi. Hozirgi holat kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish uchun zarur ro‘yxat bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni bartaraf etishni tarkib toptirish, emotsional, kognitiv va faoliyatga yo‘naltirilgan shaxs rivojlanishi sohalarida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur qiyinchiliklarga ijtimoiy-madaniy, maqomli-rolli, yoshga oid, individual va shaxslararo munosabatlarni kiritish mumkin.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni bartaraf etishga doir treningdan samarali foydalanildi. Trening mashg‘ulotlarini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga rioya qilindi: “hozir va shu yerda” tamoyili bo‘yicha muloqotni tashkil etish – guruhning har bir a’zosi turli vaziyatlarda o‘zining holatini ko‘ra olishi, o‘zini yana-da, yaxshiroq anglashiga erishish; ochiqlik, samimiylik tamoyili – nimani his qilsak, shuni gapiramiz, faqat haqiqatni aytamiz yoki jim turamiz. Shu sababli boshqa ishtirokchilarining harakatlariga o‘zimizning munosabatlarini ochiq ifoda etamiz; maxfiylik tamoyili – mashg‘ulot jarayonida qanday holat yuzaga kelsa ham, uni tashqariga chiqarmaslik lozim. Bu esa ishtirokchilarni guruhdagi jarayonlarga jalb etish, o‘zini ochiq namoyon etmaslikning oldini oladi; shaxsiy nuqtai nazarga egalik tamoyili – ishtirokchilarning o‘z nuqtai nazarini sir tutishi va mas’uliyatdan qochishining oldini olish. “Ko‘pchilik do‘stlarimning aytishicha...”, “Ular o‘ylashadiki...” kabi mulohazalarni “Men ... deb hisoblayman”, “Men ... deb o‘ylayman” tarzida ifoda etish talab etiladi; shaxsni bevosita baholashga yo‘l qo‘ymaslik – guruhda sodir bo‘layotganlarni baholashda ishtirokchilarni emas, ularning harakatlarini baholash talab etiladi. “Sen menga yoqmaysan” tarzida emas, “Menga sening muloqot jarayonidagi xatti-harakating yoqmayapti” ko‘rinishida munosabat bildirish lozim; faol ishtirok etish – shaxsiy tajribasida zaruriy sifat va ko‘nikmalarni egallash uchun taqdim etilayotgan mashqlarda faol ishtirok etish talab etiladi; “trener hamisha haq” tamoyili – guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida bahsli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin, mazkur holatda so‘nggi so‘zni aytish boshlovchi sifatida trenerda qoladi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni bartaraf etishga o‘rgatishda quyidagi o‘yinlarning samaradorligini ko‘rsatdi:

“To‘siqlarni yengib o‘tish”. Ishtirokchilar juftliklarga bo‘linishadi. Birinchisiga topshiriq beriladi: sening o‘rtog‘ing bugun g‘amgin va gapirmasdan o‘tiribdi. Sening vazifang u bilan gaplashish va bugun nega u shunday ekanligini aniqlash. Ikkinchisiga esa “Sening o‘rtog‘ing butunlay o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Sening vazifang u bilan gaplashmaslik va hatto uni eshitmaslik”.

“O‘zimni qanday his qilyapman?” mashqi. Maqsad – ishtirokchilarning o‘zining emosional holatini anglashiga erishish. Davomiyligi – 20 daqiqa. Trener har bir ishtirokchiga mazkur vaziyatda o‘zining holati, trening jarayonida nimani kutayotganligini tahlil etishni taklif etadi.

2.4-shakl.

Grafikli organayzerlarning “T- jadvali” asosida analitik tafakkuri rivojlangan shaxsni taqqoslash

Analitik tafakkuri rivojlangan shaxs	**Analitik tafakkuri rivojlanmagan shaxs**
Analitik tafakkurni rivojlangan shaxsda voqelikni qabul qilishda tahliliy tafakkur ustun bo‘ladi va u chuqur mulohazakordir.	Fikrlash doirasi tor yoki mushohadasi sayoz. Mulohazakorlik yetishmaydi.
Sabr-toqatli va bag‘rikeng (tolerantli) bo‘ladi.	O‘ta tez yoki sabrsiz. Shoshma-shoshar.
Xulosa chiqarish va qaror qabul qilishda vazminlik qiladi.	O‘ylab o‘tirmasdan xulosa chiqaradi va voqeaning mohiyatini anglamaydi
Bahslashish madaniyatiga ega bo‘ladi.	Qo‘pol va beadab
Ko‘pincha kutilmagan original fikr bildiradi (ekstrovert, introvert).	Shaxsiy fikri yo‘q, birovlarning gapini takrorlab yuradi.
Muammo yoki voqea-hodisa mohiyatini tahlil qilishda sintezlashgan tafakkur yuritadi.	Chuqur mushohada yurita olmaydi yoki yetishmaydi.
O‘z fikrida sobitqadam bo‘ladi.	“Bir aynib, bir qaynab” turadiganlar toifasiga kiradi.
O‘z xatti-harakatiga tanqidiy yondoshadi.	Qilayotgan ishiga javobgarlik mas’uliyati bilan yondashmaydi.
Mish-mishlarga darrov ishonmaslik va ularning mohiyatini anglashga intilish hamda xulosaga keladi.	Har qanday mish-mishga, tekshirilmagan axborotga mulohaza qilib o‘tirmasdan ishonaveradi.
Fikrlashi chuqur, o‘zgalardan keskin farqlanadi.	Tafakkuri sayoz.
Bilimini doimo yangilashga intilish va yangi fikr asosida yangi g‘oyalarni o‘rtaga tashlaydi.	Bilimga intilishi sust yoki motivatsiyasi past.
G‘oyalarning eskirishi va yangilanishi farqlarini tushunib boradi.	Eskilik va yangilikni anglashda konservatorlik kayfiyati ustun bo‘ladi.
Taraqqiyot va rivojlanish qonunlarini tushunishi hamda jahondagi va vatanidagi taraqqiyotni taqqoslaydi.	Tahlil qilish ko‘nikmasi rivojlanmagan bo‘ladi (nigilizmga moyil bo‘ladi).
O‘zligini chuqur anglaydi, u vatanparvar va millatparvardir.	Milliy g‘ururi yo‘q, nigilistlikka moyil bo‘ladi.
Adolatlilik yo‘lida kurashchanlik va maqsadga erishishga intiladi.	Kurashdan chetga qochishga, maqsadiga intilishi noma’lum bo‘ladi.

Pedagogik ta’lim jarayonida darsdan tashqari tadbirlarda turli kechalar, o‘qitish usullari va uslublardan foydalanish tajribasi keng yoyilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda munozarali o‘yin elementlaridan foydalanish tajribasi ancha ommalashdi. Bu darslarga e’tiborning ortib borishiga asosiy sabab talabalarga mantiqiy-analitik tahlil muhitining yaratilib berilishi natijasida ularning darsda o‘zlarini erkin tutishlarini va yaxshi o‘zlashtirishlarini ta’minlashdir.

Bo‘lajak pedagoglar dars jarayonida savol-javob, aqliy hukum kabi yondashuvlar asosida tajriba orttiradi, turli savol-javoblarga hozirjavoblik, tez fikr yuritish, o‘z fikrini erkin bildirish kabi ko‘nikmalarni rivojlanadi. Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda gipotetik-deduktiv yondashuvga asoslangan quyidagi dars turlarini foydalanish talab etiladi. Bular: muammoli o‘qitish darslari, aqliy hujum, adabiy-badiiy kompozisiya, disput-darslar, munozara-darslar, zakovat darsi, konferensiya darsi,

erkin-fikrlash darslari, klaster, kichik guruhlarda ishlash, taqdimot darslari, noan’anaviy darslari va hokazo.

Bu darslarda guruh talabalari to‘la ishtirok etadilar. Dars mazmuni oddiydan murakkabga qarab rivojlanib boradi. Noan’anaviy darsida tafakkur yuritish talabalardan muhim bilimlarni talab qiladi va shu asosda nuqtai nazar himoya qilinadi.

“Parlament a’zosi” o‘yini tarkibiga ko‘ra turli qismlardan tashkil topgan va mazmuniga ko‘ra ancha murakkab emas. O‘yin ishtirokchisi siyosiy faollar faoliyatiga taqlid qilib depuat, spiker, diplomat, rahbar, tarixchi, siyosiy sharhlovchi singari vazifalarni bajardilar. Jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydilar. Jamiyatning inson hayoti va faoliyatiga ta’siri haqida gapirib berdilar.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilganda, analitik tafakkuri rivojlangan talabalarning asosiy xususiyati jihati o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda turli hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etishning nostandart usullarini o‘zlashtirishga qodir insonni tarbiyalashda aks etadi. Ana shu sababli pedagogik jarayonda o‘zaro birgalikdagi harakatda talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishda o‘z ustida mustaqil ishlash, erkin fikrlash, ijodiy xayolot, ixtirochilik, yaratuvchanlik sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Вяткин Л.Г. Развитие творческих способностей учащихся. // Актуальные проблемы развития личности учащегося. - Саратов: Изд-во СГУ, 1995. -С. 32-
2. Сухин И.Г. 800 новых логических и математических головоломок. -СПб.: Союз, 2001. -208 с.
3. Колмакова Н.А. Формирование готовности студентов педвуза к развитию логического мышления младших школьников (на примере математических дисциплин): Автореферат дис. ... канд. пед. наук. - Шадринск: Изд-во ЩГПИ,2000. -22с.
4. Овчинникова Т.Н. Личность и мышление ребенка: диагностика и коррекция / Овчинникова Т.Н. Научно-внедренческая лаборатория психопедагогики образования. - М.: Акад. проект, 2002. - 188 с.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1996. -394 с.
6. Божович Л.И. Отношение школьников к учебе как психологическая проблема // Божович Л. И. Проблемы формирования личности. -М: Институт практической психологии , Воронеж: НПО МОДЭК, 1995. - С. 55-107.
7. Коляда Е.П. Развитие логического мышления учащихся-подростков на основе межпредметных задач: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: (Математика, информатика). Саратов: из-во Сарат. гос. ун-т им. Н. Г. Чернышевского, 1996. -15 с.
8. Гетманова А.Д. Логика: учебник для педагогических учебных заведений. - М.: Новая школа, 1995. - С. 7.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 37c(575.1)

Nargis ALIMATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
E-mail:nargis2207@gmail.com

KAMBAG‘ALLIK IJTIMOIY-IQTISODIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada kambag‘allik fenomeni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Kambag‘allikning tasnifi, qashshoqlik bilan farqi, kambag‘allikning mezonlariga zamonaviy yondashuvlar, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi kabi masalalar yoritilgan. Maqolaning so‘ngida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda mahallaning roliga e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, qashshoqlik, deprivatsiya, iste’mol savatchasi, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa.

БЕДНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье феномен бедности анализируется с социально-философкой точки зрения. В ней раскрыты вопросы классификации бедности, её отличие от нищеты, современные подходы к критериям бедности, уровень бедности в Узбекистане. В конце статьи обращено внимание на роль махалли в сокращении бедности в Узбекистане.

Ключевые слова: Бедность, нищета, депривация, потребительская корзина, социально-экономическое явление.

THE POVERTY AS THE SOCIAL-ECONOMICAL PROBLEM

Annotation

In this article, the phenomenon of poverty is analyzed from a socio-philosophical point of view. It reveals the issues of classification of poverty, its difference from deep poverty, modern approaches to the criteria of poverty, the level of poverty in Uzbekistan. At the end of the article, attention is drawn to the role of the mahalla in poverty reduction in Uzbekistan.

Keywords: Poverty, deprivation, consumer basket, socio-economic phenomenon.

Kirish. Kambag‘allik O‘zbekistonda uzoq yillar gapirilmaydigan mavzu bo‘lib keldi. 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomada Sh.Mirziyoyev kambag‘allik haqida ochiq gapirdi va tariximizda birinchi marta bu muammoni qisqartirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. «Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 12-15 foiz yoki 4-5 million aholimiz kambag‘al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo’lishi mumkin, lekin bir kishi og’ir kasal bo’lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo’sh bunday oilani o’ziga to’q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o’qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo’layapti, degan savol har kuni qiynaydi», – dedi Shavkat Mirziyoyev[9].

Aholining hayot darajasini oshirish har bir rivojlangan mamlakatda ijtimoiy siyosat samaradorligining bosh mezoni va asosiy maqsadi hisoblanadi. Kambag’allik masshtablarini qisqartirish bu maqsadga yetishning muhim tashkil etuvchilaridan biri bo’lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Qashshoqlik muammosi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda asosan, iqtisodiy nuqtai-nazardan o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan Mustafakulov Sh.I. kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, Abulqosimov M.X. kabag‘allikka qarshi kurash shaxs xavfsizligini ta’minlashning muhim yo‘nalishi, Rahmonov D.A. kambag‘allik makroiqtisodiy barqarorlikning dolzarb muammosi, Qutliyev O.A. kambag‘allikni O‘zbekistonda baholashga yondashuvlar, rossiyalik tadqiqotchilardan Sidorchuk I.B. kambag‘allik mezonlari to‘g‘risida, Jukovskaya I.F. kambag‘allik muammosining nazariy va amaliy muammolari mavzularida tadqiqot olib borganlar.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylikning birligi, analiz va sintez, deduksiya, mavhumlashtirish va umumlashtirish ilmiy metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Kambag’allik ijtimoiy hayotning turli sohalariga ta’sir ko’rsatib, muayyan shaxsning, ma’lum bir oilaning va umuman jamiyatning rivojlanishida salbiy ahamiyat kasb etadi. U kishilarning hayot sifati darajasining pasayishiga, ijtimoiy-iqtisodiy notenglik va gender tengsizlikni ortishiga olib keladi va ijtimoiy taraqqiyot to’g’anog’i bo’lib, ijtimoiy falokatlarga ham olib kelishi mumkin. Kambag’allik-bu faqat oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechakning yetishmasligi emas, balki yashab bo’lmaydigan uy-joy, kishilarda kerakli ta’lim olish imkoniyati va tibbiy yordamdan foydalanishning cheklanganligi. Hayotni eng minimal darajada saqlab turish uchun zarur bo’lgan mahsulotlarni sotib olishga yetarli pul mablag’larining yo’qligining o’zigina ham emas.

Kambag’allik, shuningdek, dunyoning har bir mamlakatida ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish muammosi, hokimiyat va xalq o’rtasidagi munosabatlarning axloqiy jihatidir.

Kambag’allik bilan kurashish qator xalqaro tashkilotlar-BMT, Jahon banki, XMT va boshqa tashkilotlarning muhim vazifasi hisoblanadi. 1992-yil 22-dekabrda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan rezolyutsiyaga ko‘ra 1993-yildan boshlab har yili 17-dekabr kuni “Xalqaro kambag‘allikni yo‘qotish uchun kurash kuni” nishonlana boshlandi. 1997-yilda BMT tomonidan ilgari surilgan tashabbus, BMTning kambag‘allik bilan kurashishga bag‘ishlangan Birinchi o‘n yilligi keng ommaga ma’lum. Ko‘pchilik davlatlarda bundan ham barqaror ijtimoiy va iqtisodiy hamda siyosiy taraqqiyot maqsadida kambag‘allikning o‘ta keskin shakllarini tugatish va uning ko‘lamini yetarli darajada kamaytirishga qaratilgan “Kambag‘allikka qarshi kurashish milliy reja”lari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida ko‘p qirralidir. Ko‘plab ta’riflar va tasniflar

mavjuddir. Shuni unutmaslik kerakki, u mulkchilik va bozor munosabatlari rivojlangan sinfiy jamiyat hosilasi hisoblanadi. Iqtisodiy tafakkur tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, ushbu muammo miloddan oldingi VIII-VII asrlardayoq asarlarda eslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoir Gesiod “Mehnatlar va kunlar” poemasida insoniyat tarixini besh davrga bo‘ladi. Kronos tomonidan yaratilgan oltin asr odamlari yo‘qchilik va qashshoqlikni bilmaydilar va o‘z vaqtlarini bazmlar va dono suhbatlarda o‘tkazadilar. Boshqa antik asarlarda ham ibtidoiy idilliya sahnalarini ko‘rish mumkin. “Kambag‘allik” tushunchasi siyosiy tushuncha sifatida Qadimgi Rimdayoq o‘zining ta’rifiga ega edi. Shahardagi kambag‘allar (“pauperlar”) ustidan nazorat o‘rnatish hokimiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri edi. Bunday ijtimoiy guruhning paydo bo‘lishi ibtidoiy jamoaning tugatilishi bilan bog‘liq. Birinchidan, jamoa uning a’zolarini qashshoqlashib ketishiga yo‘l qo‘ymas va shu orqali ularni degradatsiyadan saqlab qolardi. Ikkinchidan, jamoaning tenglashtiruvchi ukladi insonni kambag‘alning vayron qiluvchi o‘z-o‘zini anglashdan himoya qilardi. Shaharda esa boy qatlamning hayot tarzi qoniqtirilmagan ehtiyojlarni keltirib chiqarardi. Bu ehtiyojlarni qoniqtirish imkonining yo‘qligi esa o‘zini rad etilganligi hissini keltirib chiqaradi.

Xristianlikning vujudga kelishi insonlar ongida o‘zgarishlarga olib keldi, lekin bu ta’limot ijtimoiy islohotlar dasturi emas edi. Mulkiy adolat to‘g‘risidagi masala dastlabki nasroniylar ongida chekkada juda kichik joyni egallagan. Xristianlikda yerdagi ne’matlarga befarqlilik ko‘p marta takrorlanardi va voqealarning guvohlari hamda keyingi davr kishilari buni boylikni rad etish deb tushunardilar. Ammo bu judayam sodda tushunish hisoblanadi. Injilga murojaat qilish boylik unga ega bo‘lish faqat hayotiy maqsadga aylanib, undan yuqoriroq bo‘lgan ma’naviy cho‘qqilarni to‘sib qo‘yganda qoralanishini ko‘rsatadi. Kambag‘allik ezgu hayotning zaruriy sharti sifatida qaralmagan. Halol yoki harom yo‘l bilan orttirilgan boylik to‘g‘risidagi qarashlar keyinroq shakllangan. Musulmon dunyosi ommaviy ongi uchun ham boylikni o‘zi emas, balki uni orttirish yo‘li tanqid ob’ekti bo‘lishi mumkin[7;7-b]. Y.Islomovning fikricha, Islom kambag‘allik Ollohning ne’mati degan tushunchani yoqlamaydi. «Dinimiz kambag‘allikni muqaddas deb bilib, buni birinchi o‘ringa qo‘yadigan toifaning qarashlarini oqlamaydi. Avval aytib o‘tganimizdek, yo‘qsillikni faxr deb bilishni dastlab moniylik, hinduizm, nasroniylikdagi ruhoniylik va shu kabi firqa tarafdorlari ma’qullashgan va bu qarash keyinchalik ba’zi musulmon tariqatchilariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Aslida Qur’oni karimda ham, Hadislarda ham kambag‘allikni yoqlovchi birorta dalilni uchratmaysiz”[4],- deydi u. Islomdagi halol yo‘l bilan topilgan daromaddan zakot berish farzi kambag‘allikni oldini olish chorasi sifatida qaraladi.

Protestant reformatsiyasi kambag‘allikka nisbatan ilgari ma’lum bo‘lmagan yangi munosabatni yuzaga keltirdi. Pravoslaviyedagi “kambag‘allar Xudoga yaqinroq”ni o‘rniga “kambag‘allar Xudo tomonidan rad etilganlar”[5] paydo bo‘ldi. Reformatsiya vakillari o‘z mulkini meros bo‘lib qolgan kapitallar, bilimlar, malakalar, qobiliyatlardan foydalangan holda ko‘paytirganlarni yoqlardilar. Bunday qarashlar G‘arbda ommalashib, Rossiyaga ham kirib keldi. Siyosiy iqtisod mumtoz maktabi vakillarining (A.Smit, D.Rikkardo, T.Maltus) qarashicha, kambag‘allik an’anaviy jamiyatning industrial jamiyatga aylanishining oqibatidir.

A.Smit fikricha, o‘z-o‘zicha qashshoqlik, yashash vositalarining yo‘qligi uncha katta achinishni tug‘dirmaydi. Qashshoqlik to‘g‘risidagi shikoyatlar esa bizning hamdardligimizni paydo qiladi, lekin uncha chuqur emas. Lekin taqdir o‘yinlari sabab, farovonlikning eng yuqori cho‘qqisidan qashshoqlikning tubiga tushishga majbur bo‘lgan kishiga nisbatan chuqur hamdardlik vujudga keladi[11].

T.Maltus o‘zining “Aholi o‘sishi qonuni to‘g‘risida tajriba...” asarida ijtimoiy taraqqiyot ziddiyatlarini tabiat qonunlari bilan tushuntirishga uringan. U progressiya qonunini ishlab chiqadi va bu qonunga ko‘ra, «aholi o‘sishi geometrik progressiya yo‘li bilan yuz bersa, yashash uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalar esa arifmetik progressiya asosida o‘sadi». Bunday farq ortiqcha aholi paydo bo‘lishining sababi va qayerda ortiqcha aholi va oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi kuzatilsa, o‘sha yerda qashshoqlik mavjud bo‘ladi. Demak, qashshoqlik jamiyat ijtimoiy tuzilishining oqibati emas, balki kishilik urug‘i mavjud bo‘lishining tabiiy oqibati - u judayam tez ko‘payadi. Bizda samarali yordamchilar bor, bular turli epidemiyalar, urushlar, ochlik. Ular insonlarning qirilishiga sabab bo‘ladi.

Tirikchilik vositalari qiymati nazariyasi D.Rikkardo tomonidan rivojlantirildi. Tirikchilik vositalarini ta’riflashga T.Maltusning ikkita tahminini asos qildi. Bular “yerlar hosildorligini kamayishi qonuni” va “aholi o‘sishi qonuni”. Birinchi qonunga asosan, D.Rikkardo jamiyat taraqqiyoti bilan tirikchilik vositalarining narxi oshishi va demak, ish haqi ham o‘sishi kerakligini aytadi. Ikkinchi qonunga asoslanib esa, ishchilarning ish haqini tirikchilik vositalarining minimal darajasidan oshirish mumkin emasligi to‘g‘risidagi xulosaga kelgan. Bu xulosaning mohiyati shundan iboratki, ish haqining oshirilishi tug‘ilishning ko‘payishiga sabab bo‘ladi, bu esa mehnat talab bo‘lganlarning sonini ko‘paytirib, ish haqining kamayishiga olib keladi. O‘z navbatida ish haqining kamayishi aholi sonining kamayishi va demak, bozorda mehnat talab bo‘lganlarning miqdorining pasayishiga olib keladi hamda qaytadan ish haqining oshishiga olib keladi. Mehnat takliflarining tebranishi ta’siri ostida ish haqi ma’lum barqaror kattalik-tirikchilik vositalarining jismoniy minimumi ko‘rinishida o‘rnatilishi tendensiyasiga ega bo‘ladi. Rikkardoning fikricha, aholining iste’moli ishlab chiqarish rivojlanishi va yangilanishi asosi hisoblanadi.

Sotsial-darvinizm XIX asr o‘rtalarida liberalizm mafkurasining asosiga aylandi. Bu yo‘nalishga ko‘ra, kambag‘allik qonuniy hodisa bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarish bilan birga o‘sishi kerak. Sotsial-darvinizm mafkurachisi G.Spenser fikricha, kambag‘allik shaxsni rivojlantiruvchi kuch bo‘lib, ijobiy rol o‘ynaydi va bu jamiyatning qonuniyatli hodisasi. “Ijtimoiy statika” kitobida u kambag‘allik va tengsizlik ijtimoiy ishlab chiqarish o‘sishi bilan birgalikda paydo bo‘ladi va rivojlanadi, deb hisoblaydi. Bu jarayonni esa to‘xtatib bo‘lmaydi, shuning uchun kambag‘allikni ham yo‘qotib bo‘lmaydi. Shuningdek, kambag‘allikka o‘zga mezon bilan yondashuv kerak, chunki bu ijtimoiy hodisa emas, balki bir kishining muammosi, alohida shaxs taqdiri va individual xohish bo‘lib, aniq bir kishining yashash uchun kurashda g‘olib bo‘lishga qobiliyatsizligidan kelib chiqadi. Odamlar mukammal emas: kimlardir ijtimoiy hayot qiyinchiliklariga mohirona moslasha oldilar, boshqalar esa buni eplay olmadilar. Ingliz sotsiologiyasining otasi davlatning jamiyat tabiiy rivojlanishiga aralashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Uning uchun kambag‘allarga yordam berish faoliyat erkinligini cheklashdir[12]. Kambag‘allikni bunday taqdiri azalga bog‘lab tushuntirish har bir kishini barcha iqtisodiy va ijtimoiy ma’suliyatdan erkin qilib, butun kishilar jamiyati uchun va aholining kambag‘al tarkibi uchun qisman bozorning ijtimoiy oqibatlarini yumshatib beruvchi davlat hokimiyati tomonidan qabul qilinmaydi.

V.Paretoning optimallik konsepsiyasi farovonlik nazariyasida inqilobni amalga oshirdi va farovonlikning yangi nazariyasi nomini oldi. U maksimal farovonlikka erishishning mezonlarini shakllantirdi va mukammal raqobat sharoitidagi iqtisoddagi uzoq muddatli barqarorlik farovonlik maksimal bo‘ladigan Pareto-balansni yuzaga keltiradi. Hatto samarador bozorlar sharoitida ham davlat aralashuvisiz hal etib bo‘lmaydigan muammolar vujudga keladi.

Iqtisod bo‘yicha Nobel mukofoti laureati Amartya Sen o‘zining “Ochlik siyosiy iqtisodi” asarida kambag‘allik ne’matlarning miqdoriga bog‘liq emasligini, balki kishilarning ijtimoiy shartlangan shu ne’matlardan foydalana olish imkoniyatlari bilan aniqlanishini ko‘rsatgan. G‘arbning iqtisodiy rivojlangan ijtimoiy realligida kambag‘allik (“strukturaviy kambag‘allik”) zaruriy unsur bo‘lib, bu muammo oddiy yechimga ega emas[3].

Ta’kidlash kerakki, yuqorida nomlari keltirilgan va boshqa iqtisodchilarning asarlarining nazariy tahlili transformatsiya qilinuvchi emas, balki bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlat modeliga nisbatan tadbiq etilishi mumkin, chunki u bunday tizimdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning takrorlanmas xususiyatlarini yetarlicha ochib berolmaydi.

Zamonaviy nazariy konsepsiyalarda o‘z ifodasini topgan “kambag‘allik” tushunchasi turli mualliflarda turlicha tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda tahlil qilinayotgan tushunchaga uch xil yondashuv mavjud. Ularning har biri muammoning turli aspektlarini yoritadi. Bular: “mutlaq kambag‘allik”, “nisbiy kambag‘allik”, “ijtimoiy mahrumlik bo‘yicha kambag‘allik”.

“Mutlaq kambag‘allik” konsepsiyasi asosiy ehtiyojlarning minimal ro‘yxatini va ularni qondirish uchun zarur bo‘lgan resurslar hajmini aniqlashga asoslanadi. Bu konsepsiya xronologik jihatdan birinchi bo‘lib yuzaga kelgan va bu hodisani Buyuk Britaniyada XIX asr oxiri-XX asr boshlarida o‘tkazilgan empirik tadqiqi aynan shu nazariyaga asoslangan. “Nisbiy kambag‘allik” konsepsiyasi farovonlik ko‘rsatkichlari bilan aniq bir mamlakatda ustun bo‘lgan moddiy ta’minlanganlik darajasi o‘rtasidagi mutanosiblikka asoslanadi. Ushbu konsepsiyaning asoschisi P.Taunsend bo‘lib, u kambag‘allikni iqtisodiy resurslar yetishmasligi sababli jamiyatning ko‘pchilik a’zolari uchun odatiy bo‘lgan hayot tarzini ta’minlash imkonsiz bo‘lgan holatni tushunadi. O‘z tahlilida u boshdan kechiriladigan yetishmovchiliklarning yig‘indisi, ko‘p o‘lchamli mahrumlik, alohida inson, oila yoki guruhning jamiyat yoki millat masshtabidagi foydali bo‘lmagan, ko‘rilayotgan va isbotlanadigan holatiga asoslangan. Ushbu tushuncha P.Taundsen tomonidan shuning uchun kiritilganki, ovqatlanish, kiyim, yashash sharoitlari, uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar, yashash muhitining joyi va holati, mehnat sharoitlari va xarakterini o‘z ichiga oluvchi moddiy deprivatsiya bilan bir qatorda bandlik xarakteri, bo‘sh vaqtni o‘tkazishning o‘ziga xosligi, ta’lim olish va hokazolarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy deprivatsiya ko‘rsatkichlari e’tiborga olingan.

1990-yillar boshida qator hayot darajasini tadqiq etuvchilar (shvetsiyalik B.Xalleroid, buyuk britaniyalik D.Vayt-Vilson va b.) yondashuvlarni kombinatsiyasi to‘g‘risidagi masalani ilgari surdilar. Mahrumliklar tushunchasi daromad va iste’mol nazariyalarida har xil bo‘lganligi sababli, ular bir-birini inkor etuvchi emas, balki to‘ldiruvchi bo‘lsa kerak. Bunday yondashuvda kambag‘al deb resurslarning zaruriy darajasi bo‘lmaganligi tufayli mahrumlik yoki yetishmovchilikni boshidan kechirayotganlar tushuniladi. Kambag‘allikni o‘lchashda ikki yondashuvni biriktirish, har bir holatni baholashga qaraganda, uni tarqalishidagi nisbatan quyi darajani qayd etadi.

Bunday kombinatsiyalashgan yondashuv nafaqat daromadlarnig kichik darajasida ham mahrumlikni, yetishmovchilikni sezmaydigan oilalarni, balki deprivatsion nazariyaga ko‘ra kambag‘al deb hisoblanadiganlarni ham ushbu statusdan ayiradi.

Kambag‘allik tarqalishi masshtablarini baholash ko‘p variantliligi muammoni o‘rganishda to‘plangan tajribaning qonuniyatli va ijobiy oqibati sifatida kambag‘allik tarqalishi darajasini o‘lchash uchun iqtisodiy-statistik instrumentlarning yetarli ekanligidir. Umumiy ko‘rinishda kambag‘allikni ta’riflash aniq ehtiyojlar yig‘indisi va aholining ma’lum qismi uchun ularni qondirish imkoniyatlarining mavjudligiga asoslanadi. Aholining kambag‘al qatlamlarini ajratish, tavsiflash va o‘rganish uchun 2000-yillar boshida ilmiy nazariya va ijtimoiy amaliyotda quyidagi mezonlardan foydalanishardi:

-uy-joyning mavjudligi;

-oziq-ovqatning to‘laqonliligi va toza suv manbaining mavjudligi;

-minimal ta’lim olish imkoniyati;

-sog‘liqni lozim darajada ushlab turish imkoniyati[2].

Kambag‘allikning quyi ko‘rinishi qashshoqlikdir. Umum qabul qiilingan me’yorlardan kelib chiqib, qashshoqlik deb, kambag‘allikdan quyi bo‘lgan va biologik jihatdan mumkin bo‘lgan normalar doirasida qolish imkonini beradigan holatga aytiladi. Oila (individ, uy xo‘jaligi), agar ularning oziq-ovqat iste’moli Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan o‘rnatilgan minimal ratsionning 80%ini ta’minlay olmasa yoki harajatlarning 80%i oziq-ovqatga sarflansa, kambag‘al, deb hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, iste’mol savatchasi qiymati chegara ko‘rsatkichi yoki kambag‘allik chegarasi, kambag‘allar esa minimal iste’mol savati qiymatidan kam daromadga ega bo‘lganlardir.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida qator ishlar olib borilmoqda. 2023 - yilning 25 yanvarida davlatimiz rahbari bir yil ichida kambag’allik 17 foizdan 14 foizga qisqartirilganligini ma’lum qildi. 2023-yilning 15-may kuni Sh.Mirziyoyev “Ijtimoiy himoya reyestri” orqali 2 million 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan vatandoshlarimiz moddiy yordam bilan qamrab olinganligini aytib o‘tdi[6]. Ammo bunday moddiy yordam ko‘rsatishning o‘zi bilan muammoni bartaraf etib bo‘lmasligi, kishilarda tadbirkorlik ruhini uyg‘otish kerakligi, kasblarga o‘rgatish va ish o‘rinlarini ko‘paytirish lozimligi ta’kidlandi.

Shu o‘rinda mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va yoshlar bilan ishlaydigan faollar shunday oilalarda o‘sayotgan o‘spirin yigit va qizlarni shu mahallada yashaydigan mohir hunarmand, chevar, usta, ya’ni o‘z kasbini yaxshi egallagan mahalladoshlarga shogird sifatida biriktirishga yordam bersalar, ushbu yoshlar shu hunarni egallasalar, kambag‘allik muammosini qisqartirishga katta yordam bo‘lardi. Chunki davlat hamda mahalladoshlar tomonidan berilayotgan moddiy yordam yoshlarda loqaydlik, beg‘amlik kabi xislatlarni ham kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Oiladagi muhit, kishilarning ongi, hayotga munosabati o‘zgarmasa, bunday kishilarni nochor holatdan chiqib ketishi dargumon. Shu sababli mahalla fuqarolar yig’inida psixolog shtatini joriy etishni taklif etardim. Mana shunday oiladagi yoshlar bilan ulardagi maqsad va hayotga bo‘lgan munosabatni shakllantirish yo‘nalishida faoliyat olib borish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Воронкова О.В. Подходы к определению и измерению бедности/О.В. Воронкова//– Ростов-на-Дону: Ростовский государственный университет, 2007. – С.147-154 – (Экономический вестник Том 5 №3).
2. Голубенко И.Е. Критерии уровня бедности / Голубенко И.Е. // – М.: Изд-во РАГС, 2006. – 137с. (Государственное строительство и право; вып. 18.).
3. Жуковская И.Ф. Понятие бедность: теоретический и практический аспекты.//Экономика образования. 2009. № 1. Часть 2. С. 86-92.
4. Исломов Ё. Исломда бойлик ва камбағалликка муносабат. Т.: Qadmus Media, 2019. -Б.160

5. Кара-Мурза С. Потерянный разум.Гл.38/[Электронный ресурс]/[http:// www.onegaonline.ru/ost/index.asp?kod=km2]
6. Камбағалликни қисқартириш бўйича янги дастур амалга оширилади// https://president.uz/uz/lists/view/6313
7. Макоули А. Определение и измерение бедности [Текст]. // Бедность: взгляд ученых на проблему. - М.: ИСЭПН РАН, 1994. С.7-10.
8. Маркс К. Капитал. Т. 1. [Текст] // Маркс К., Энгельс Ф. Соч. 2-е изд., Т. 23. – С. 770, 771–773.
9. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси// https://president.uz/uz/lists/view/4057
10. Сидорчук И.Б. Критерии бедности и показатели её определения. //Ученые записки Таврического национального университета им. В.И. Вернадского. Серия: География. Том 22 (61). 2009 г. № 2. С.260-271.
11. Смит А. Теория нравственных чувств [Текст]. – М.: Республика, -1997. С. 147.
12. Спенсер Г. Социальная статика. Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. – К.: Гама-Принт, 2013.- 496 с.
13. Ўзбекистон Республикаси уй-жой кодекси. 1апрель 1999 йил. https://lex.uz/docs/106136

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:37(378.147.88)

Abduxalil ATAMATOV,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi dotsenti
o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, f-m fanlari nomzodi
E-mail: fera_1981@mail.ru

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

Annotation

This article reveals the main methodological approaches to the training of specialists, taking into account the trends in the development of modern education, as well as the features that a university graduate should have. The approach is a category reflecting the relations of the subjects of the pedagogical process. Also, based on modern approaches, a personality-oriented paradigm of education is presented.

Key words: Quality of education, paradigm, behavior, semantic activity, motivational sphere, intellectual sphere, emotional sphere, optimism, scientific research.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННИХ ПОДХОДОВ

Аннотация

В данной стате раскрыты основные методические подходы к подготовке специалистов с учетом тенденсий развития современного образования, а также особенностей, которыми должен обладат випускник вуза. Подход-категория, отражающая отношения субъектов педагогического процесса. Также на основе современных подходов представлена личностно-ориентированная парадигма образования.

Ключевие слова: Качество образования, парадигма, поведение, смысловая активност, мотивационная сфера, интеллектуалная сфера, эмоционалная сфера, оптимизм, научное исследование.

TALABALARNING INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta’limni rivojlantirish tendensiyalarini hamda oliy o‘quv yurti bitiruvchisi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlarni hisobga olgan holda, mutaxassislar tayyorlashning asosiy uslubiy yondashuvlarini ochib berilgan. Yondashuv-pedagogik jarayon sub’ektlarining munosabatlarini aks ettiruvchi kategoriya hisoblanadi. Shuningdek, ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasi zamonaviy yondashuvlar asosida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sifati, paradigma, xulq-atvor, semantik faoliyat, motivatsion soha, intellektual soha, hissiy soha, optimizm, ilmiy tadqiqot.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’limning asosiy vazifasi murakkab sharoitlarda bemalol harakat qila oladigan, shuningdek, fan va ishlab chiqarishning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez javob qaytara oladigan, ana shu o‘zgarishlar asosida kasbiy faoliyat ko‘rsata oladigan malakali mutaxassis tayyorlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarni innovatsion yondashuvlar asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta’lim soatlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil soatlarni tashkil etishda talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sifatini oshirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tadqiqot ishlarini mustaqil soatlarga integratsiya qilish muhim.

Ushbu mavzu bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Kuznetsova ilmiy tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish metodologiyasini o‘rganadi[1].

Fedorova talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mustaqil tadqiqotlar jarayoniga integratsiyalashuvini ko‘rib chiqadi[2]. Muallif ilmiy-tadqiqot ishlaridan oliy ta’lim muassasalarida talabalarning malakasini oshirish vositasi sifatida foydalanish muhimligini ta’kidlaydi.

I.S. Kon o‘tgan asrda ta’kidlaganidek, ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitida yangi texnologiya avlodlari o‘zgarishi ishchilarning yangi avlodlari paydo bo‘lishiga qaraganda tezroq sodir bo‘ladi, ta’lim va tarbiya vazifalarini tubdan o‘zgartiradi[3]. Ta’lim jarayonida olingan bilimlarni emas, balki shiddat bilan o‘zgarayotgan sharoitlarda yangi bilimlarni olish va ulardan samarali foydalanish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Kasb-hunar ta’limi tizimiga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish bilan ushbu muammoni hal qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’limiy jarayonda bo‘lajak mutaxassislar kutilmagan vaziyatlarda faol harakatlarga tayyor bo‘lishi kerak. Bo‘lajak mutaxassislar yangi ilmiy ma’lumotlarni izlash va ulardan foydalanish, barcha zamonaviy axborot manbalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi shuningdek, u kasbiy kompetensiyaga oid muammolarni aniqlash, tushunish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha hozirgi talabalar hali mavjud bo‘lmagan, ammo kelajakda ishlab chiqarishda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan texnologiyalardan foydalangan holda mutlaqo yangi sharoitlarda ishlaydi. Shuning uchun zamonaviy oliy ta’lim muassalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati madaniyatini shakllantirish uchun maqsadli ish talab etiladi .

So‘nggi yilliklarda psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ta’limda talabalarning shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlarini hisobga olish eng muhim ahamiyatga ega [4].

Kasbiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv uni mutaxassisning shaxsiy salohiyatini shakllantirishga yo‘naltirishida namoyon bo‘ladi.

Ta’limda shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv quyidagilarni talab qiladi:

- temperamentning shaxsiy xususiyatlarini, xarakterini, qarashlari, talabalarni didini doimiy ravishda o‘rganish va bilish;

- muhim shaxsiy fazilatlarni shakllantirishning haqiqiy darajasini bilish qobiliyati va diagnostika qilish;

- har bir talabaga o‘ta murakkab bo‘lmagan topshiriqlarni berish;

Maqsadga erishish uchun motivatsiya berish;

ta’lim va o‘zini rivojlantirishning kombinatsiyasi;

shaxsning o‘z faoliyatiga maksimal darajada tayanish;

mustaqillik, tashabbuskorlikni rivojlantirish.

Bu tamoyillarni umumiy tarzda amalga oshirish pedagogga sabab-oqibat munosabatlari qonuniyatlariga tayangan holda jarayonni tizimli tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarda mustaqil soatlarni to‘g‘ri tashkil qilish talabalarga o‘quv jarayonida va kelajakdagi kasbiy faoliyatida o‘z hayot yo‘li va shaxsiy mohiyatini anglay oladigan faol sub’ekt sifatida shakllantirish uchun sharoit yaratadi[5].

Tadqotimiz davomida biz talabaning sub’ektiv pozitsiyasini ta’minlaydigan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv shartlari quyidagicha belgiladik:

- talabaning ichki “MEN” ini shakllanganligi, o‘z fikrlari va his-tuyg‘ulariga ko‘ra o‘zini tutish qobiliyati, ruhiy stress va himoya holatini olib tashlash hamda o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirish imkonini beradi;

ta’lim jarayoni talabalar uchun muhim vazifalar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ularni hal qilish yangi bilimlarni o‘rganish uchun motivatsiyadir;

talaba va o‘qituvchi o‘rtasida sog‘lom ruhiy muhitni yaratish;

talabaga o‘quv materialini tanlashda erkin tanlash imkoniyatini berilishi.

V.V. Serikovning fikricha shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ma’nosi talabalarning shaxsiy funksiyalarini, ularning shaxsiy qobiliyatlarini, masalan, motivatsiya, o‘zini o‘zi anglash, mulohaza yuritish va h.k. namoyon bo‘lishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Muallif talabalarni shaxsiy funksiyalarini namoyon etishga undaydigan shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatlarni yaratishni taklif qiladi. Muammoni hal qilishning yangi ijodiy variantlarini izlash , chunki u maqom, tan olish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash bilan bog‘liq muhim masalalarni ko‘rib chiqadi [6]. Shu bilan birga, o‘qituvchi faoliyatidagi ustuvorliklar o‘zgaradi, mazmunli natija emas, balki talaba qilgan xulosalar muhim bo‘ladi. Talabaga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim faoliyatining tashqi sub’ekt-xulq-atvor faoliyatidan ichki semantik faoliyatga o‘tishiga yordam beradi.

I.S. Yakimanskayaning fikricha shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, talabaning sub’ektiv pozitsiyasini amalga oshirishda o‘zini namoyon qiladi, lekin ayni paytda talaba dastlab sub’ektiv tajribaning tashuvchisi bo‘lib, o‘quv jarayonida unga aylanmaydi. O‘quv jarayonida bu tajriba ochiladi, boyitiladi va o‘zgartiriladi [7].

Zamonaviy pedagogikada o‘quv jarayonini tashkil etish shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtayi nazaridan o‘zgarib bormoqda. Bunday yondashuv bilan o‘qituvchini nafaqat talaba berilgan materialni qanday o‘zlashtirgani va o‘ziga yuklangan vazifalarni hal qilgani, balki u o‘z oldiga qanday vazifalar qo‘ygani, qanday yechim yo‘lini tanlaganligi qiziqtiradi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ilmiy tahlil natijasida talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi asosiy kompetensiyalar tanlab olindi:

o‘quv va kognitiv;

axborot;

tashkiliy;

kommunikativ. Ushbu kompetensiyalar ish beruvchining xodimga bo‘lgan umidlarining umumiy ro‘yxatiga mos keladi va so‘nggi 5 yildagi ta’lim islohotlari bo‘yicha xorijiy manbalar tahliliga muvofiq ushbu tadqiqotda asosiy sifatida tanlangan.

Mustaqil ta’lim orqali talab ta’lim olishga, o‘zini rivojlantirishga va o‘zini tarbiyalashga o‘tkazish tendensiyasining paydo bo‘lishi bilan — bularning barchasi o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari, mehnat bozorida kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish uning ahamiyatini oshiradi. Talabalarning mustaqil ishi, mahalliy ta’lim rivojlanishining ushbu bosqichida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy elementiga aylanadi, shuning uchun u talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan qanday bog‘liq? degan haqli savol tug‘iladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlari ulushining 1/3 qismini ko‘paytirish tendensiyalarini auditoriyadan tashqari ta’lim sharoitlariga mo‘ljallangan talabalarning faoliyati va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil ishning turli shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, o‘quv jarayonining bir shakli sifatida talabalarning mustaqil ishining samaradorligi o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonini amalga oshirishdan iborat [8].

O‘z-o‘zini anglash o‘z-o‘zini hurmat qilish va dialektik o‘zini anglash bilan bog‘liq. Dialektik o‘zini o‘zi anglash bosqichi shaxsning kasbiy va ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning oraliq natijasidir. Bu talabaning oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish, kasbiy ko‘nikma, bilim va malakalarni egallashda namoyon bo‘ladi. Dialektik o‘zini o‘zi anglash jarayonlarini oshirish samaradorligi unga nisbatan quyidagi xususiy tamoyillarning kombinatsiyasi orqali amalga oshiriladi:

ish beruvchilarning murojaatlarini tahlil qilish;

zarur kompetensiyalar ro‘yxatini bilish;

uyushgan faoliyatda shaxsiy ahamiyatini ko‘rsatish;

talabaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;

shaxsga hurmat, unga nisbatan oqilona talablar bilan birlashtirilgan;

optimizm, talabaning kuchi va qobiliyatiga ishonish;

muvaffaqiyatni rag‘batlantirish va kamchiliklarni xayrixohlik bilan tanqid qilish tamoyili.

R.Byorns ta’kidlashicha, "men" obrazi va o‘z-o‘zini hurmat qilish faqat shartli ravishda konseptual jihatdan farqlanishi mumkin, chunki ular psixologik jihatdan uzviy bog‘liqdir. O‘z-o‘zini tasvirlash va baholash shaxsni muayyan xatti-harakatlarga moyil qiladi [9].

O‘quv jarayonining juda muhim shakli sifatida talabalarning mustaqil ishni bajarishda o‘zini o‘zi anglash jarayonlarini rag‘batlantirish orqali kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida kasbiy yetuklikni rivojlantirishga harakat qilinadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari quyidagi sohalarning rivojlanishi bilan rag‘batlantiriladi:

- motivatsiyada - ish beruvchilarning talabi, kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi hamda mustaqil faoliyat uchun maqsad qo‘yish va ijodiy o‘zini o‘zi anglash ehtiyojini rivojlantirishga yordam beradi;

- intellektda - ijodiy fikrlashni, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish;

hissiyotda - mustaqil faoliyat olib borishda hissiy holatlarini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

irodani namoyon etishda - faoliyatda qat’iyatlilik, maqsadlilikni rivojlantirish.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabaning individualligini rivojlantirish bo‘lajak mutaxassis sifatida uning modelini ifodalaydi, chunki u ruhiyatning umumiy kasbiy ahamiyatli xususiyatlari va fazilatlarini aks ettiradi [10] .

Pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv yordamida ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi qoida asos qilib olinadi: shaxs xulq-atvor strategiyasini tanlash huquqiga ega va mustaqil tanlov uchun javobgardir: muammoni hal qilish uchun nazorat va javobgarlik tashqarida emas, balki odamning ichida, talaba o‘z faoliyatida o‘z-o‘zini aks ettirish va o‘z-o‘zini tuzatishni amalga oshiradi.

"O‘z-o‘zini anglash" jarayonlari ko‘p jihatdan shaxsning individualligi va uning shaxsiy ma’nosi, o‘z navbatida, ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi.

Bu omillar ko‘rsatkich sifatida talabaning o‘quv faoliyatiga munosabatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, ba’zi talabalar o‘qish zallarida soatlab o‘tirishadi, insho yoki kurs loyihasi ustida ishlashadi, boshqalari esa ko‘p intellektual kuch sarflamasdan tayyor ishni internetdan ko‘chirib olishadi; uchinchisi, tabiiy qiziqishga bo‘ysunish, g‘ayrat bilan tajriba o‘tkazish, olingan bilimlarni ijodiy talqin qilishga intiladi, to‘rtinchisi-tirishqoqlik va soxta faollik bilan mavzu bo‘yicha materialni mashaqqatli tarzda tasvirlayda va yodlaydi.

Shaxsiy motivatsiyaning yetishmasligi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish sifatiga ta’sir qiladi. Mustaqil ishlarni tashkil etish amaliyotini monitoring qilish va uning natijalarini tahlil qilish uni tashkil etishdagi eng ko‘p uchraydigan kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi:

- mustaqil ishlarni tashkil etishda muayyan tizimning mavjud emasligi, ularning mazmuni, miqdori va shakli aniq ifoda etilmasligi;

- qabul qilingan mustaqil ishning darajasi talabaning o‘quv qobiliyatiga mos kelmasligi: topshiriqlarni tanlashda individual yondashuvning yo‘qligi;

- mustaqil ish monoton, ularning davomiyligining optimal emasligi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ishlash ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish tizimining mavjud emasligi;

mustaqil ishni bajarish va uning natijalarini muhokama qilishda interaktiv o‘zaro ta’sirning yetarli emasligi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi barcha muammolar mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni bilan talabalarning individual xususiyatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqadi va bu nomuvofiqlik, asosan, talaba topshiriqning mohiyatini bilmasligi bilan belgilanadi. "Individuallik" tushunchasi, ta’lim faoliyatida individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari hisoblanadi. Talabaning individual xususiyatlarini e’tiborsiz qoldirish o‘rganishga rasmiy munosabat, o‘rganilayotgan fanga qiziqishning yo‘qligi, o‘rganish uchun motivatsiyaning mavjud emasligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, umumiy intellektual passivlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi yo‘qligiga olib keladi.

A.A. Kirsanov individual xususiyatlarni doimiy va o‘zgarmas narsa deb hisoblamaslik kerakligini ta’kidlaydi. Ular insonning biologik rivojlanishi va shaxsiy shakllanishi jarayonida tug‘iladi, shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Individual xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va namoyon bo‘lishi muayyan ijtimoiy-tarixiy va tabiiy sharoitlarda shaxsning individual rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, faoliyatning o‘ziga xos mazmuni va tabiati, muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb qilish shakllari bilan bog‘liq [11].

B.S. Merlin integral individuallik tushunchasini kiritdi. Uning ta’rifi bo‘yicha integral individuallik — bu shaxs mavjudligining maxsus shakli, u doimiy tashqi va ichki o‘zgarishlar sharoitida yashaydi va o‘zi bilan yaxlitlik va o‘ziga xoslikni saqlaydigan ko‘p darajali aloqalarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi bioijtimoiy tizimidir [12].

Psixologik-pedagogik adabiyotlar va muallifning shaxsiy pedagogik tajribasini tahlil qilish talabalarning mustaqil ishi samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan individuallik tarkibidagi xususiyatlarni quyidagi guruhlarga ajratishga imkon beradi:

Kasb tanlash va o‘rganish uchun motivatsiya;

Shaxsning ijtimoiy yetukligi;

Intellektual faoliyat;

Moyillik va qiziqishlar;

Individual xususiyatlar (temperament turi, miyaning funksional interhemisferik assimetriyasi, xronotip) [13].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o‘quv faoliyatiga munosabat va uning muvaffaqiyati birinchi navbatda motivatsiya va individual xususiyatlarga bog‘liq. Talabaning mustaqil ishni bajarishidagi rag‘batlantiruvchi kuch ham o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish, muvaffaqiyatga erishish istagi va ishni bajarmaslikning salbiy oqibatlaridan qo‘rqish, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, jazolash bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, talabalarning o‘quv faoliyati motivatsiyasining ikki turini ajratish mumkin: muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasi.

ADABIYOTLAR

1. Kuznetsova Y. V. (2019). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish metodlari. Sankt-Peterburg, Rossiya.
2. Fedorova A. A. (2018). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini mustaqil tadqiqotlar jarayonida birlashtirish. Ta’lim va fan, 14(6), 112-124.
3. Kon, I.S. Sotsiologiya lichnosti / I.S. Kon. – M.: Politizdat, 1967.–384 s
4. Podlasыy, I.P. Pedagogika: Uchebnik. 2-ye izd. dop. -M.: Izdatelstvo Yurayt, 2011. -574 s.
5. Rodjers, K. R. Vzglyad na psixoterapiyu. Stanovleniye cheloveka/ K.R. Rodjers. – M.: Progress, 1994. – 478 s.
6. Serikov, V.V. Obrazovaniye i lichnost: Teoriya i praktika proyektirovaniya pedagogicheskix sistem / V.V. Serikov. - M.: Logos, 1999.— 271 s.
7. Yakimanskaya, I.S. Lichnostno-oriyentirovannoye obucheniye v sovremennoy shkole / I.S. Yakimanskaya. – M.: Sentyabr, 1996.- 96s.
8. Berdnikov I.G., Djalilov A.A. Kachestvennaya i kolichestvennaya otsenka v nauchno-pedagogicheskix issledovaniyax: Uchebnoye posobiye / I.G.Berdnikov, A.A.Djalilov- Tolyatti: Izd-vo MGUS PTIS. - 2000. -108 s
9. Berns R. Razvitiye Ya-konsepsii i vospitaniye / R. Berne. - M., 1986. 28.Bespalko V. P. Teoriya uchebnika: Didakticheskiy aspekt / V.P. Bespalko. - M.: Pedagogika, 1988. - 160s. 29. Bespalko V.P. Obrazovaniye i obucheniye s uchastiyem kompyuterov (pedagogika tretyego tыsyachiletiya) / V.P. Bespalko. - M.: Izd-vo MPSI; Voronej: Izd-vo NPO MODEK, 2002. - 352 s.

10. Borisova N.B. Konkurentosposobnost budущego spetsialista kak pokazatel kachestva yego i umanisticheskoy napravlennosti vuzovskoy podgotovki/N.B. Borisova-Nab.Chelnы, 1996.-176s.
11. Ponomarenko V.A. Psixologiya duxovnosti / V.A. Ponomarenko- M.: ICHP Izdatelstvo Magistr, 1998. - 164 s.
12. Merlin B.C. Ocherk integralnogo issledovaniya individualnosti / B.C. Merlin-M.-1968.
13. F.R.Valiyeva To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring //Bosma //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:159.9(575.1)

Khosiyatposhsho AKHMADALIEVA,
PhD on Pedagogical Sciences, UzSWLU
E-mail: strong-girl5@mail.

Based on reviews the professor, doctor of Pedagogical Sciences O.Musurmanova

DEVELOPING PUPILS'COMMUNICATIVE COMPETENCE VIA COOLERS IN ENGLISH CLASSES IN PROFESSIONAL EDUCATION

Annotation

In this article cooler, one of the effective and modern ways of improving the communicative competence of pupils studying in the fields of professional education is covered. Also, creating an English environment in order to motivate pupils learning the language easily in practice, the ways of their free communication without fear of making mistakes, and modes of expressing their thoughts according to the situation were considered.

Key words: English lessons, communicative competence, cooler, English environment, free communication, productive and receptive skills.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ КУЛЕРОВ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКОМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье освещен один из эффективных и современных методов повышения коммуникативной компетентности учащихся, обучающихся в системе профессионального образования. Также были рассмотрены способы создания англоязычной среды, чтобы мотивировать учащихся на легкое изучение языка на практике, способы свободного общения без боязни ошибок и способы уместно выражать свои мысли на своем месте.

Ключевые слова: Уроки английского языка, коммуникативная компетентность, кулер, английская среда, свободное общение, продуктивные и рецептивные навыки.

PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI COOLER YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada professional ta'lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning samarali va zamonaviy usullaridan biri cooler yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarni amalda tilni oson o‘rganishlariga motivatsiya berish uchun ingliz muhitini yaratish, ularning xato qilishdan qo‘rqmay erkin muloqotga kirishish yo‘llari va fikrlarini o‘z o‘rinda vaziyatga mos ifoda etish usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili darslari, kommunikativ kompetensiya, cooler, ingliz tili muhiti, erkin muloqot, produktiv va reseptiv qobiliyatlar.

Introduction. Among the developed countries in the current developing environment, priorities for the modernization of the education system have been developed in our country, and one of the main goals is to raise and educate competitive, perfect and mature young generation. After all, in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on January 28, 2022 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" the meaning and content of the policy of the period of development of education and science, changes and new approaches in training the personnel of the next generation, the emergence of modern professions and its connection with the conditions of our country are emphasized [1].Therefore, the rapid development of science is one of the urgent issues of today's time. Through teaching foreign languages, the future young generation can be taught love and loyalty to the Motherland, national pride, high morals and spirituality, a sense of pride in our ancient and rich heritage. education in the spirit of national and universal values is one of the main tasks. Fundamental reforms in the world education system promote the problems of creating the necessary conditions for young people to learn foreign languages perfectly, to express themselves in all fields knowing a foreign language, and to develop their oral and written speech in a foreign language.

Especially after gaining independence, interest in learning foreign languages increased and many doors of opportunities were opened for young people. Currently, the teaching of foreign languages is given great importance in our country. This is certainly not for nothing. There is no need to overestimate the importance of perfect knowledge of foreign languages for our country, which is striving to take its rightful place in the world community today, and for our nation, which is building its great future in solidarity and cooperation with our foreign partners. As a logical continuation of these ideas, on the basis of the decision PQ-1875 on "Measures for the further improvement of the system of teaching foreign languages" adopted on December 10, 2012, in order to expand the opportunities to learn foreign languages, foreign languages are taught continuously from elementary grades. The establishment of education requires the improvement of state educational standards based on international requirements, updating the content of educational programs for all stages of the educational system, a new approach to the educational process, and the introduction of modern pedagogical technologies [2]. As a result of this, new methods and requirements were developed in our country in accordance with the recommendations of the European Framework of Reference for Foreign Language Teaching and the Evaluation of Knowledge and Skills of Foreign Language Teachers

(CEFR).Accordingly, textbooks, training manuals, and additional literature for independent study were created for pupils of general education schools, academic lyceums, vocational colleges. The classrooms were enriched with innovative information and communication techniques and equipped with colorful visual aids, i.e. stands, reflecting various topics. In addition, in order to further improve the quality of education and produce competitive specialists, the adoption of the Law “On Education” dated September 23, 2020 in a new form will update and improve the content of education, increase the effectiveness of teaching and included several tasks on the development of professional skills of teachers, extensive improvement of advanced pedagogical practices. Fundamental reform of the education system, improvement of educational programs and creation of new textbooks became one of the main tasks. Also, the rapid development of science, technology and production sectors requires the employees of the education system to raise the quality of education to a new level in terms of content assigned responsible tasks. It can be seen from this one of the main tasks of teachers is to develop the abilities of every learner from preschool to higher education and prepare them as mature, perfect individuals and staff. It is necessary to emphasize one more thing that in the process of organizing continuous educational activities, serious attention is paid to supporting talented students and further developing the talent of the school. Consequently, based on the content and methodology of pedagogical activity, the necessary pedagogical, psychological and organizational conditions are created for the successful and transparent identification of pupils.

Literature review. Due to the increasing demand for English language learning, it was stipulated that English language classes in professional education areas should be taught in accordance with international standards through innovative pedagogical technologies and that the graduating pupils should master the language thoroughly. The role of communicative competence in the successful learning of four aspects of the English language is incomparable, because the presence of communicative competence is the pupil's ability to convey information, rich vocabulary, speech culture, language tools, determines the right choice, as well as the skill of managing the regulation of one’s personal spiritual and moral state in the process of communication with other people. However, it was found that the issue of developing pupils’ communicative competence in English language classes in professional education is not fully studied.

Communicative competence was first coined in in the field of linguistics in the mid-20th century (1965) by the American linguist N.A. Chomsky, interpreted as a “set of activity-oriented knowledge, skills, and competencies” in the use of language, “competency approach” is noted as a factor in the effectiveness of teaching [3]. Another scholar D.Chiesa defined this concept as an ability and knowledge of a language user to speak appropriately from the view point of culture, traditions, shared rules and norms[4]. Uzbek scholar, K.D.Riskulova defined as a set of professional laws, priciples, requirements, rules, duties and responsibilities, as well as, personal norms, necessary for a particular profession [5]. Besides, uzbek scholor X.A.Axmadaliyeva also defined the concept in the field of language acquisition and defined as it is what ?, how? and when? having the ability to speak and the ability to express opinions in English fluently, coherently and logically in various situations, which consists in the formation of the ability to understand and respond appropriately to any type of activity of partners in the expressive and clear communication of the language of communication [6]. Not to decrease the importance of other language skills, however, in real-life encounters most contacts a language learner will possibly make will take the form of oral interaction.

Research methodology. In order for pupils to learn English quickly and accurately through free communication, it is necessary to organize classes that create an English environment for them and thereby improve their communicative competence. The class is organized entirely in English, allowing for real communication in this language. As a result, it encourages the development of students' communicative competence. Development of pupils’ communicative competence through innovative pedagogical technologies G. Brown, G. Yule, W. Littlewood, D. Nunan, H.G. Widdowson, S. Thornbury, R. Nolasco, L. Arthur, etc., are covered in different aspects in the scientific works of a number of foreign scientists. Effective teaching of communicative competence through various methods was carried out in the researches of R. Nolasco, L. Arthur, E. Keller, S. Warner, F. Klippel. It is the issue of development of competence approach and formation of communicative competences in language acquisition N.B. Ishkhanyan, L.S. Znikina, S.G. Shevchenko, S.A. Chichilanova, L.M. Voytenko, S.Y. Kurilova , Y.N. Solovova, D. Slobin , M.N. Vyatyutnev, E.Y. Kudryavseva , T.P. Popova , N.A. Rogova were studied in research works [7]. According to C.B. Paulston, one of the scientists who has a place in the development of communicative competence, communicative competence is based on a person’s knowledge and emotional experience, and it is his ability to determine the direction of communication in different situations; this is a unique ability of a person to act effectively together with those around him, and it is achieved by understanding himself and others, the quality of interpersonal communication and the constant change of psychological and cultural conditions in the social conditions of his living environment [8]. O. Adejare conducted research on the successful implementation of students' communication only if they correctly use each component of communicative competence during communication. In his opinion, during communication, students will be able to communicate successfully only if they know when to communicate, with whom and about what, using each component of communicative competence correctly, otherwise, uncertainties will arise in that situation that the speaker and the listener may not fully understand each other, therefore, relying on the opinions of our research scientist, we understand that it is not an easy process to carry out communication while observing the components of communicative competence.

Having investigated our topic, we revealed that communicative competence is based on a person's knowledge and emotional experience, and is his ability to determine the direction of communication in different situations; this is a unique ability of a person to act effectively together with those around him, and it is achieved by understanding himself and others, the quality of interpersonal communication and the constant change of psychological conditions in the social conditions of his living environment, and this in the organization of pupil-centered lessons, it was argued that coolers are the main key to develop communicative competence.

Analysis and results. The main indicator of the development of communicative competence of pupils of professional education through coolers is their ability to express opinions fluently, coherently and logically, in which any activity of partners in expressive and clear communication the ability to understand the type and respond accordingly is used. For this purpose, a number of innovative coolers are currently being used to develop pupils' communicative competence with during English classes in specific areas of professional education. Here it is important to mention about

the concept coolers. Coolers are activities that enrich pupils' knowledge with entertainment and always motivate them to acquire the language in practice with interaction and very essential to develop pupils' communicative competence in short period.

One of the innovative coolers in the form of communicative games in English classes is "Auction game", each pupil buys a problem from the auctioneer and visits the counseling center to solve the problem. Before starting it, an advisory center is organized and 4 pupils are appointed as advisors based on cards. The pupil chooses a consultant, tells him about his problem and receives the necessary advice. If he cannot get a complete solution to the problem, he has the right to communicate with another consultant and get a complete solution. Through this game, the pupil is forced to communicate in English, because he has to explain his problem to the interlocutor in the counseling center. When the problems are over, the errors are analyzed and the game is over. Some problematic situations are illustrated here:



To develop the communicative competence of pupils in learning English through coolers, the effectiveness of the pupil's delivery of information, rich vocabulary, speech culture, correct use of language tools determines the skill of managing the regulation of one's personal spiritual and moral state in the process of communication with other people.

In a survey conducted at the academic lyceum of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov in Tashkent, 70% of students noted that the role of the cooler in the development of communicative competence is incomparable. 15% of students indicated that it is necessary to form communicative competence by watching videos based on special rules, 10% of students indicated that communicative competence should be formed by mastering grammar and learning words, and the rest of students indicated that communicative competence is not necessary for mastering the English language. It can be concluded that most students believe that communicative competence is the basis of free and perfect communication in English.

Discussion. If the innovative cooler is used in English language classes based on the learner-centered approach, the pupils fulfill the assignment freely, actively, individually or in groups based on their interests and views, in addition, in the learner-centered approach pupils take responsibility themselves, strive to always act, work more on themselves and develop creative abilities, and the teacher always monitors them and gives clear, necessary instructions [9]. As a result, students have the opportunity to master all the language skills at the same time, and they learn to communicate using language components correctly in various situations. This, of course, leads to the effective development of their communicative competence.

To improve pupils' communicative competence in English language classes, teachers need to create an English environment in classes using modern teaching methods and give students opportunities to communicate freely [10], because pupils also have their own feelings in English in order to be able to express them deeply, the communication between them will be successful only if he takes the person close to him, understands him and communicates freely in that situation.

In professional education in our country, English classes have all the conditions for the development of pupils' communicative competence through innovative coolers, as a result, opportunities are being created for students to master the aspects of the English language and carrying out free communication.

Implementing of modern coolers in lessons leads to the growth pupils' speaking skills and critical and analytical skills. Pupils learn to communicate in their own place according to the situation, and teachers constantly eliminate grammatical, lexical and pronunciation deficiencies in the communication process of students.

In conclusion, it should be noted that the development of pupils' communicative competence is reflected in their fluent, coherent, logically consistent and situational expression of their opinions, and the activity of partners in expressive, clear communication of the language of communication that causes the ability to understand and respond in a short time. The fact that pupils can easily engage in communication in English classes and make attempt to develop it in practice opens the way to mastering the language thoroughly.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 dated January 28 PP-60.
2. Decree of the first President of the Republic of Uzbekistan dated December 10. 2012 On measures to further improve the system of learning foreign languages PP 1875. "People's Word" 2012, No 240(5660).
3. Delamare F, Winterton J. What is Competence?-Human Resource Development International, Vol. 8, No.1, March 2005. 28 p.
4. Chiesa D., Azizov U., Khan S.,Nazmutdinova N.,Tangirova T. Reconceptualizing Language Teaching: An in-service teacher education course in Uzbekistan Baktria Press. Tashkent-2019. 7-55p.
5. Riskulova K.D. The system of formation of sociolinguistic competence of future English teachers: Avtoref.diss... DS of ped.-T., 2017,- 62 p.
6. Axmadaliyeva X.A. Improvement of pupils' communicative competence in English classes (in the case of academic lyceums): Avtoref.diss…PhD of ped.-T.,2023, -12p.
7. Savington S. J. Communicative competence: Theory and Classroom Practice. Massachusetts, etc. Addison − Wesley Publishing Company, 2018. 300 p.
8. Axmadaliyeva X.A. Developing communicative competence of pupils studying in specific directions at academic lyceums through communicative games. Journal of Modern Education. 2021. 5p.
9. Abdukhayotovna, A. K. The Beneficial Angels of Learner-centered Approach in Prospering Pupils' Communicative

Competence in English Classes at Academic Lyceums. International Journal on Integrated Education. 5,1 Jan.2022. -P. 133-134.
10. Canale M. and Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing, Applied Linguistics. EFL Journal.2003.1:1-4.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 301.085:15(045)

Lola BEKNAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, psi.f.n.

Psixologiya fanlari nomzodi, dots. X. Karimov taqrizi asosida

TALABALAR IJODIY-INNOVATSION TA’LIM SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA HAMKORLIK FAOLIYATINING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ijodiy-innovatsion faoliyatni tarkib toptirishda talaba-yoshlarda shaxslaro munosabatga kirishishi, o‘qish o‘zlashtirish ko‘nikmasi va malakalarini mustaqil egallashni tarkib toptiradigan ijtimoiy-psixologik va pedagogik usullarini yaratish hamda psixodiagnostik metodikalarni amalda qo‘llash, natijalarga ko‘ra muammoni yechimini topishda o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga e’tibor qaratishda o‘zaro hamkorlik faoliyatining o‘rni muhimligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Ijod, ijodkorlik, innovatsion talaba, hamkorlik, faoliyat, psixologik yondashuv, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, munosabat, muloqot, qobiliyat, ijtimoiy-psixologik, interfaol, usul, ko‘nikma, malaka.

РОЛЬ СОТРУДНИЧЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТВОРЧЕСКОГО И ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается создание социально-психолого-педагогических методов, составляющих состав творчески-новаторской деятельности, создание социально-психолого-педагогических методов, а также практическое применение психодиагностических методов, включающих в себя внедрение межличностных отношений в студентов и молодежи, самостоятельное приобретение учебных навыков и квалификации, по результатам поставленная проблема. Показана важность роли взаимного сотрудничества в поиске решения, уделения внимания специфическим психологическим особенностям.

Ключевые слова: Креативность, креативность, студент-новатор, сотрудничество, активность, психологический подход, творческое мышление, самостоятельное мышление, отношение, общение, способности, социально-психологический, интерактивный, метод, умение, компетентность.

THE ROLE OF COOPERATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF CREATIVE AND INNOVATIVE EDUCATION OF STUDENTS

Annotation

In this article, the creation of social-psychological and pedagogical methods that make up the composition of creative-innovative activity, the creation of social-psychological and pedagogical methods, and the practical application of psychodiagnostic methods, which include the introduction of interpersonal relationships in students and young people, the independent acquisition of learning skills and qualifications, according to the results, the problem It is shown the importance of the role of mutual cooperation in finding a solution, paying attention to specific psychological features.

Key words: Creativity, creativity, innovative student, cooperation, activity, psychological approach, creative thinking, independent thinking, attitude, communication, ability, social-psychological, interactive, method, skill, competence

XXI asr-axborot texnologiyalari asri bo‘lib, ushbu davrda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo‘lmay turib zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirib bo‘lmaydi. Talaba-yoshlarda zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ularni keyingi hayotga tayyorligining bosh mezoni hisoblanadi. Bunday sharoitda zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalari ham o‘zgarib, an’anaviy ta’lim yondashuvidan bugungi asr yondashuviga, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tilmoqda. Bunday ta’lim yondashuvining asosida talaba-yoshlar shaxsining to‘la rivojlanishi, tez o‘zgaruvchan hayotga har tomonlama tayyor bo‘lishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ulkan axborot makonidagи ma’lumotlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash, tanlab olish, ma’lumot ustida qayta ishlash, muammolarni nafaqat ko‘ra bilish, balki ularni hal eta olish masalalari yotadi.

Ijodiy-innovatsion darslar asosida talaba-yoshlarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo‘lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qilish, axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish bilimlarga ega bo‘lish jarayonlarini o‘rganish, talaba-yoshlarimizning mustaqil bilim olishga shug‘ullanishlariga undaydi, tafakkur malakalarini o‘stiradi.

Keng miqyosli o‘zgarishlarni amalga oshirishda, islohotlarni chuqurlashtirishda bo‘lajak kadrlarning dunyoqarashi, ma’naviyati, iqtidori, salohiyati hamda boshqaruv jarayoniga yangiliklarni muntazam joriy etishga qaratilgan, “ijodiy-innovatsion yetakchilik” kabi xususiyatlar, ta’lim samaradorligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan, zamonaviy innovatsion xususiyatlarga ega bo‘lgan talaba yoshlar muvaffaqqiyatiga xos xususiyatlar ichida, innovatsion yetakchilik sifatlari alohida ahamiyat kasb etib, uning yuqori darajada shakllanganligi ta’lim va ishlab chiqarish sohalarida, jahon andozalariga mos usullarni qo‘llash yoki o‘zgarishlar dunyosida yashash kabilar bilan tavsiflanadi. Ijodiy-innovatsion faoliyat ko‘plab, ijtimoiy psixologik jihatlar, determenantalar, komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, ularni tadqiq etish muammo borasidagi ilg‘or konsepsiyalar va yondoshuvlarning ishlab chiqilishiga imkon beradi.

Innovatsiya – lotincha so‘z bo‘lib, “yangilikni kiritaman, tadbiq etaman, o‘zgartiraman” degan ma’nolarni bildiradi. Interfaol mashg‘ulot – professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot jarayonining hamkorlikda kechishi bilan ifodalanadi.

Interfaol metodlar professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlarning faol munosabati, bir-birini to‘liq tushuntirishga asoslanadi. Interfaol metodlar orqali talaba-yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan har bir o‘quv mashg‘uloti ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, bilimga ishtiyoq va qiziqishni kuchaytiradi, bilimlarni mustahkam va mustaqil o‘zlashtirishni, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi. An’anaviy ta’lim berish usullari orqali bularga erishish amalda mumkin emas. Chunki an’anaviy ta’limda talabalarni faollashtirishga deyarli e’tibor bermaydi. Unda asosiy figura, faol harakat qiluvchi shaxs o‘qituvchining o‘zidir. Talaba passiv tinglovchi, faqat eshitib va yozib o‘tiradigan yoki oqituvchining ko‘rsatmasi bilan amaliy ishlarni bajaruvchi passiv sub’ekt. Bunday ta’lim bilan yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh barkamol avlodni tarbiyalab bo‘lmasligi barchamizga ma’lum. Shu boisdan, fan va texnika rivojlanishiga xos bo‘lgan ilmiy axborotlar kun sayin oshib borayotgan hozirgi sharoitda talaba-yoshlarda o‘qish o‘zlashtirish ko‘nikmasi va malakalarini mustaqil egallashni ilgarigiga qaraganda ancha yaxshiroq tarkib toptiradigan o‘qitish metodlarini ijtimoiy-psixologik va pedagogik usullarini yaratish va psixodiagnostik metodikalarni amalda qo‘llash va natijalarga ko‘ra muammoni yechimini topish lozim bo‘ladi.

Talabalarda Ijodiy-innovatsion faoliyatning ijtimoiy-psixologik tahlil etishning o‘ziga xos mezonlari mavjud bo‘lib, unda har bir tadqiqotchi quyidagi jihatlarga e’tibor berishi lozim hisoblanadi:

muammoni aniqlash, tahlilning maqsad va vazifalarini shakllantirish;

tahlil qilish uchun tanlangan ijodiy guruhni shakllantirish;

tahlil dasturi loyihasini ishlab chiqish;

ishni bajarish usullarini tanlash;

zarur ma’lumotlarni, hujjatlarni to‘plash va qayta ishlash;

yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar va ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish;

bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash, muvofiqlashtirish va tasdiqlash va hokazo.

Biz ham ushbu jihatlarga e’tibor qaratgan holda, talabalarning ijodiy innovatsion ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik faoliyatini Liri-Sobchik tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxslararo munosabatlarni aniqlash” ва E.Tunikning “Shaxs ijodkorligining to‘rt yo‘nalishini aniqlash” metodikalar asosida o‘rganishga harakat qildik.

Shaxslararo munosabatlar darajasini baholash so‘rovnomasi natijalari



1-rasm

Mazkur so’rovnoma bo’yicha olingan natijalar Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarning shaxslararo munosabatlar darajasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashga mo‘jallangan so‘rovnomalarni psixologik jihatdan baholashga harakat qildik. Shu jihatdan olib qaralganda oliy ta’limda tahsil oluvchi talabalarning shaxslararo munosabatlar darajasi so‘rovnomasi shkalalari quyidagicha natijalarni namoyon qilgan.

Liderlik shkalasi bo‘yicha 34% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 38% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 28% natijani Termiz davlat universiteti talabalari namoyon qilgan.

Keyingi mustaqillik shkalasiga ko‘ra, 38% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 32% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 30% natijani Termiz davlat universiteti talabalar tashkil etgan.

To‘g’riso‘zlik shkalasiga ko‘ra, 26% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 34% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 40% natijani Termiz davlat universiteti talabalar namoyon qilgan.

Ishonchsizlik shkalasi bo‘yicha 37% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 33% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 30% natijani Termiz davlat universiteti talabalar aks ettirgan.

Tortinchoqlik shkalasiga ko‘ra, 20% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 35% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 45% natijani Termiz davlat universiteti talabalar tashkil etgan.

Bo‘ysunuvchanlik shkalasi bo‘yicha 25% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 34% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 41% natijani Termiz davlat universiteti talabalar aks ettirgan.

Hamkorlik shkalasiga ko‘ra, 28% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 36% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 36% natijani Termiz davlat universiteti talabalar tashkil etgan.

Mas’uliyatlilik shkalasiga ko‘ra, 26% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 38% Qarshi davlat universiteti hamda 36% natijani Termiz davlat universiteti talabalarи namoyon etgan.

Oliy ta’limda ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etilgan ishlarni tahlil etish orqali shuni ko‘rish mumkinki, ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligi fenomeni fanlararo tadqiq etiluvchi murakkab jarayon hisoblanib, innovatsion talaba shaxsiga xos bo‘lgan ijtimoiy–psixologik xususiyatlar borasidagi, turli konsepsiyalar, yondashuvlar mazmunidan kelib chiqish lozim bo‘ladi.

Ijodiy-innovatsion yetakchi talabalar quyidagi psixologik sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

– Yangi bilimlarga nisbatan e’tiborlilik va yuqori intellektual faollikka ega bo‘lish;

– Tasavvur etishdagi zukkolik;

– Kuchli shaxsiy energiya va harakat irodasiga ega bo‘lish;

– Aql va sezgining uyg‘unligi;

– Maqsadga erishish zarurati yuqoriligi;

– Kuchli darajada tavakkal qilishga moyillik va boshqalar.

Ta’kidlash joizki, ijodiy-innovatsion faoliyat ma’lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi. Yuksak ijodiy-innovatsion qobiliyatlar qandaydir yagona va hatto, bir necha omilning emas, balki ijtimoiy-psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning katta hajmdagi kompleksi mahsulidir. Biroq ushbu inkor etish qiyin bo‘lgan mulohazani e’tirof qilish, birichidan, kreativlikni rivojlantiruvchi bir qator omillarni sun’iy hosil qilishning iloji yo‘q, degani emas, ikkinchidan, psixik taraqqiyotning kompensatsiya qonuniga ko‘ra, muayyan omilning yetishmayotgan ta’siri boshqa omillar bilan muayyan darajada qoplanishi mumkinligi ehtimoldan holi emas.

Olingan natijalardan kuzatish mumkinki, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarning shaxslararo munosabat darajasi so‘rovnomasi bo‘yicha olgan natijalari Qarshi va Termiz davlat universitetlari talabalarida quyiroq, Samarqand davlat universiteti talabalarida yuqoriroq namoyon qilgan.

Yuqorida qayd etilgan ijodiy-innovatsion yetakchi talaba shaxsiga tegishli psixologik sifatlar, o‘ziga xos xarakterologik qobiliyatlar yig‘indisi hisoblanib, ularsiz biror bir faoliyatda ta’lim samaradorligiga erishish mumkin emas.

Shaxsning ijodkorlik darajasini baholash so‘rovnomasi natijalari



2-rasm.

Shaxsning ijodkorlik darajasini baholashni aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma bo‘yicha olingan natijalar Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarning birinchi shkala ya’ni tavakkalchilikka moyillik 41% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 32% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 27% natijani Termiz davlat universiteti talabalar tashkil etgan.

Bilimga qiziquvchanlik shkalasi bo‘yicha 28% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 36% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 36% natijani Termiz davlat universiteti talabalar aks ettirgan.

Murakkablik shkalasiga ko‘ra, 26% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 34% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 40% natijani Termiz davlat universiteti talabalar tashkil etgan.

Ijodiy tasavvur shkalasiga ko‘ra, 38% natijani Samarqand davlat universiteti talabalari, 32% ko‘rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 30% natijani Termiz davlat universiteti talabalar tashkil etgan.

Ijodiy-innovatsion faoliyat va innovatsion ong hozirgi modernizatsiya kontekstida yanada dolzarb muammolardan biri bo‘lib qoldi hamda ob’ektiv ravishda ijtimoiy taraqqiyotning shartiga aylandi. Innovatsion ong asosida innovatsion faoliyat shakllanadi.

Innovatsion faoliyat yangilik yaratish va uning natijalarini amalda qo‘llash orqali sohani takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u mavjud tizimga yangilik asosida o‘zgartirish kiritish bilan ko‘proq samara olishga qaratilgan. Bunday faoliyat orqali kishilar innovatsion jamiyatning yangicha munosabatlarini shakllantiradilar, o‘zlari ham bunday munosabatlarga chuqurroq kirib boradilar va tobora faollashadilar.

Olingan natijalardan shuni kuzatish mumkinki, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarning shaxs ijodkorlik darajalari o‘rta darajada ko‘rsatkichlarni namoyon qilgan.

Yuqorida tahlil etilgan metodika so‘rovnomalari natijalariga ko‘ra oliy o‘quv yurtlarida talabalarning ijodiy innovatsion ijodkorligi bir-biridan qisman bo‘lsa-da farqli ko‘rsatkichlarga ega ekanligini kuzatish mumkin. Albatta, buning sababi oliy o‘quv yurtidagida tashkil etilgan ijtmoiy muhit, yaratilgan shart-sharoit, pedagog va talabaning, talaba bilan talabaning o‘zaro hamkorligi, muloqot madaniyati ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoqining mavjudligi asosda samara berishini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, ijodiy-iinovatsion – faoliyat murakkab jarayon bo‘lib, uni shakllantirish avvalambor, ijodiy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallash, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, soha sirlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish, fanga oid zamonaviy tushunchalar va ilg‘or konsepsiyalar bilan tanishish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish kompetensiyalariga ega bo‘lish kabilar bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR

1. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. 4th ed.- New York, 1995. -PP.33.
2. Яголковский С. Р. Психология инноваций: подходы, модели, процессы. М.: НИУ ВШЭ, 2011– ISBN 978-5-7598-0771-1 – 272 с
3. Клочко В.Е., Галажинский Э.В. Психология инновационного поведения - Томск: Томский государственный университет, 2009. – 240 с.
4. Регуш Л.А. Психология прогнозирования: успехи в познании будущего. – СПб.: Речь, 2003. – 352 с. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.klex.ru/dup (дата обращения: 01.12.2015).5

5. Мещерякова Э.И.,Ларионова А.В. Особенности становления личностного потенциала субъекта инновационной деятельности // Психологическая наука и образование. 2013. № 2. С. 69-75.
6. Кларин М.В. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. М., 1997. – С.56.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

To‘xtasin BO‘TAYEV,
Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali dotsenti, t.f.n.
E-mail:butayev@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

RESEARCH OF METHODS FOR FORMING ENTREPRENEURIAL COMPETENCES OF ENGINEERING STUDENTS

Annotation

The introduction of new teaching methods in education is an important direction in the development of the modern education system. This research work analyzes and evaluates the effectiveness of introducing new methods into the educational process. The paper discusses various aspects of the introduction of new methods, including the use of modern technologies, active learning, the integration of practical experience, the development of creative thinking and the stimulation of students' interest in learning. It also examines the factors that contribute to the successful implementation of new methods, as well as the problems and challenges that the educational system may face.

Key words: Introduction of new methods, education, training, innovative approaches, technologies in education, active learning, practical experience, creative thinking, modern educational technologies.

MUHANDISLIK TA’LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARINI TADQIQ QILISH

Annotatsiya

Ta'limga yangi o‘qitish usullarini joriy etish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishida ta’lim jarayoniga yangi metodlarni joriy etish samaradorligi tahlil qilinadi va baholanadi. Maqolada yangi usullarni joriy etishning turli jihatlari, jumladan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, faol o‘qitish, amaliy tajribani integratsiyalash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini rag‘batlantirish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, yangi usullarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beruvchi omillar, shuningdek, ta’lim tizimi duch kelishi mumkin bo‘lgan muammo va muammolar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi usullarni amalga oshirish, ta’lim, trening, innovatsion yondashuvlar, ta’limda texnologiya, faol o‘rganish, amaliy tajriba, ijodiy fikrlash, zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ИНЖЕНЕРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Внедрение новых методик обучения в образование является важным направлением развития современной системы образования. Эта исследовательская работа проводит анализ и оценку эффективности внедрения новых методик в учебный процесс. В работе рассматриваются различные аспекты внедрения новых методик, включая использование современных технологий, активное обучение, интеграцию практического опыта, развитие творческого мышления и стимулирование интереса студентов к обучению. Также исследуются факторы, способствующие успешному внедрению новых методик, а также проблемы и вызовы, с которыми может сталкиваться образовательная система.

Ключевые слова: Внедрение новых методов, образование, обучение, инновационные подходы, технологии в образовании, активное обучение, практический опыт, творческое мышление, современные образовательные технологии.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarining muhandislik ta’lim sohasini bitirayotganlarning hammasi ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullana olmaydi va shart ham emasdir, qolaversa texnika sohasi oliy ta’lim muassasalarining vazifasi tadbirkorlarni tayyorlash emas, ammo shuni ta’kidlash lozimki, bo‘lajak muhandislarning qo‘shimcha ravishda tadbirkorlik kompetentsiyalariga ham ega bo‘lishi mehnat bozorida munosib ish o‘rnini egallay olish, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faol va ijodkor bo‘lish, murakkab muammoli vaziyatlarda to‘g’ri qaror qabul qila olish imkoniyatlarini beradi, shuningdek o‘zi faoliyat olib borayotgan soha rivojiga innovatsion g’oyalar bilan hissa qo‘sha olish imkoniyatlarini berib, ish faoliyatida yuksalish istiqbolini belgilaydi[1, 2].

Ta’kidlash joizki, texnika yo‘nalishini tamomlagan kadr, ya’ni muhandis tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishi mehnat bozorida nafaqat o‘zini ish bilan ta’minlaydi, balki qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratadi [3].

Oliy ta’lim muassasalarining muhandislik ishi ta’lim yo‘nalishlarida talabalarda tadbirkorlikni kompetentsiyalarini shakllantirib borish va uni rivojlantirish uchun qanday pedagogika metodlari va texnologiyalaridan foydalanish kerak? Umuman bunday metodlar va texnologiyalar mavjudmi?

Tadqiqot usullari va metodologiyasi. Ma’lumki, pedagogika texnologiyalari va ta’lim metodlari asosan ijtimoiy, gumanitar fanlar va pedagogika fanlarda chuqurroq o‘rganiladi. Texnika va texnologiyalarga doir fanlarni o‘qitish va o‘rgatishda alohida texnologiya va metodlar bormi? Bunda pedagogikada ma’lum bo‘lgan pedagogik texnologiya va metodlarni to‘g’ridan qo‘llash mumkinmi va qanday natijalarni beradi? To‘g’ri maxsus fanlarni o‘qitish bo‘yicha adabiyotlar va uslubiy qo‘llanmalar mavjud [4]. Biroq muhandislik ishi ta’lim yo‘nalishlarida texnikaga oid fanlarni tadbirkorlikka yo‘naltirib, yoki yondoshgan holda o‘qitish texnologiyasi hamda metodlari mukammal emas va qoniqarli darajada deb ayta olmaymiz.

Hozirgi zamonaviy mehnat bozori talabiga asosan muhandislik ta’lim sohasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim

jarayonining asosiy maqsadi talabalarda mutaxassislik (texnik) kompetentsiyalari bilan hamnafas tadbirkorlik kompetentsiyalarini ham eng zarurlarini shakllantirish hamda rivojlantirib borishga ehtiyoj tug’ilmoqda [6].

1-rasm. Laboratoriya mashg’ulotini amalga oshirish algoritmi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarini olib borishning an’anaviy texnologiyasi (algoritmi)ni keltirib o‘tamiz (1, 2-rasmlar).

2-rasm. Amaliy mashg’ulotni amalga oshirish algoritmi.

Muhandislik ishi ta’lim yo‘nalishlari talabalarida tadbirkorlikni shakllantirib borish va uni rivojlantirish uchun keltirib o‘tilgan an’anaviy amaliy va laboratoriya mashg’ulotlari topshiriqlarini “muammoli vaziyat”, “keys-stadi” metodlari bo‘yicha shakllantirish va eng muhimi talablarni baholash jarayonida ularning ijodkorlik, qaror qabul qila olish, g’oyalar yaratish, jamoa (guruh)da ishlash va muammoni hal qila olish kabi ko‘nikmalari holatini e’tiborga olish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko‘rib turibmizki, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarini amalga oshirish algoritmi (texnologiyasi) o‘zgarishsiz qoldiriladi.

Talabalarni baholashda e’tiborga olinadigan ijodkorlik, qaror qabul qila olish, g’oyalar yaratish, jamoa (guruh)da ishlash va muammoni hal qila olish kabi ko‘nikmalari darajasini alohida qisqa savol-javobli test-so‘rovi o‘tkazilib, yoki Taqdimot, berilgan savollarga javoblarni tinglab aniqlash mumkin.

Talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning quyidagi usullarini tavsiya qilish mumkin [7]:

1. Case Study metodi;
2. Muvaffaqiyat tarixi metodi;
3. G’oya yaratish tanlovi usuli;
4. Biznes-reja usuli;
5. Simulyatsiya usuli;
6. Loyihani boshqarish usuli;
7. Loyihalash usuli;
8. Raqamli marketing loyihasi usuli;
9. Missiya, qarash, maqsad va vazifalarni ishlab chiqish usuli;
10. IT loyihasi usuli;
11. Muloqot uchun topshiriq berish usuli;
12. Boshqaruv o‘yinlari usuli;
13. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy modellashtirish usuli.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqot ishi natijasida 10ga yaqin yangi o‘qitish metodikilari ishlab chiqilgan bo‘lib ulardan “Muammolar bozori”, “Muammo va g’oya”, “G’oya, qaror va natija” va “Hard, soft va biznes” usullari muhandislik sohasi talabalarida ijodiy fikrlash, nostandart fikrlash qobiliyati va imkoniyatlarni izlash, g’oyalarni yaratish. qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish, tashabbuskorlik, shaxsiy va profesional o‘sishni boshqarish qobiliyati,ta’lim olish va rivojlanish, biznes imkoniyatlarini izlash, liderlik fazilatlari va jamoa tuzish kabi tadbirkorlik kompetentsiyalarini shakllanishi hamda rivojlanishida katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

“Muammolar bozori” usuli “muammoli vaziyat” usulidan shu bilan farq qiladiki, bu shaklda muammoli vaziyat bitta emas, balki real amaliy o‘quv jihozlari(laboratoriya stendlari, ishchi sxemalari, ishchi texnik qurilmalar)ning tayyor tuzilish (printsipial) sxemalarida bir nechta (sun’iy ravishda 5 tadan ortiq) variantlarda nosozliklar hosil qilinadi (misol sifatida elektr zanjirining ba’zi tugun, kontur yoki tarmoqlarida aytaylik tok yoki kuchlanish yo‘q. Bu muammoli vaziyatlar – “muammolar bozori” deb ataladi. Bunday deb atalishiga sabab, shartli “bozor”da o‘qituvchi muammoli-vaziyatlarni taklif qiluvchi (sotuvchi), talaba (yoki kichik guruh) esa tanlab oluvchi (xaridor) dir. Talaba (yoki kichik guruh) “muammolar bozori”dan bitta muammoli vaziyat (nosozlik)ni tanlab oladi. O‘qituvchi tamonidan belgilangan vaqt davomida nosozlik sabablarini aniqlaydi va o‘z fikr (qaror)larini aytadi.

Laboratoriya-amaliy mashg’ulotlar o‘tkazishda “Muammolar bozori” metodini quyidagi algoritmini qo‘llashni taklif qilardik:

“Muammo-vaziyatlar bozori” talabalar uchun sun’iy tashkil qilinadi. Aytaylik, 5-10 ta muammo-vaziyatlarni texnik sxemalarda ham tasvirlash mumkin (umumiy reglamentning 6-10% qismini);

O‘qituvchi “Muammolar bozori”dagi muammolarning oqibatlari to‘g’risida talabalarga qisqa tushunchalar beradi (umumiy reglamentning 5% qismini);

“Muammolar bozori”ga kirish uchun kichik guruhlar tashkil qilinadi (umumiy reglamentning 5% qismini);

Guruh vakili (yoki sardori) “muammolar bozori”dan ma’lum bir muammoni tanlab oladi (umumiy reglamentning 6-10% qismini);

Tanlangan muammoli vaziyatni hal qilishda yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ishlanadi (umumiy reglamentning 40% qismini);

Muammoli vaziyat (nosozlik)ni aniqlagan va yechimini topgan talaba kichik guruh) taqdimot qiladi (umumiy reglamentning 20% qismini);

O‘z-o‘zlarini baholash. Xulosa-o‘qituvchi axboroti umumiy reglamentning 6-10% qismini).

“Hard, soft va biznes” usuli talabalarda ta’lim olish va rivojlanish, biznes imkoniyatlarini izlash, liderlik fazilatlari va jamoa tuzish kabi kompetentsiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish, shakllangan kompetentsiyalarni qiyoslash va kompetentsiyalarni uzviyligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bunda mutaxassisligi doirasida aniq va ma’lum texnik ishlanma (qurilma)ni tijoratlashtirish bo‘yicha shakllantirilgan kichik guruhlarga topshiriqlar beriladi. Topshiriq yuzasidan quyidagi jadval talabalar tamonidan to‘ldiriladi (1-jadval).

№	Qurilma	Hard	Soft	Biznes

1	Qurilmaning nomi, vaziqasi, qo‘llanish sohasi qayd qilinadi.	Qurilmaning texnik xarakteristikalari, tuzilshi, ishlash printsipi qayd qilinadi	Qurilmani bozorga tayyorlash va olib chiqishda kimlar bilan hamkorlik qilish, aloqa o‘rnatish, qaysi jamoalar bilan ishlash kabi yumshoq ko‘nikmalar qayd qilinadi	Qurilma sotishni tashkil etish bo‘yicha ekspress (tezkor) biznes reja tayyorlanadi

Bu usul orqali yuqori kurs muhandislik sohasi talabalarini uchala, ya’ni “hard” (mutaxassislik fanlari doirasida kompetentsiyalari), “soft” (muloqot qila olishi, jamoada o‘zini tutishi va h.z.) va tadbirkorlik (tijoratlashtirish) kompetentsiyalari bo‘yicha qiyosiy baholash amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval

№	Usullar	SHakllanadigan kompetentsiyalar
Mavjud usullar		
1	Case Study metodi	Ijodkorlik va innovatsion ko‘nikmalar
2	Muvaffaqiyat tarixi metodi	Ishonch va shaxsiyatni shakllantirish
3	G’oya yaratish tanlovi usuli	Fikrlash ko‘nikmalari
4	Biznes-reja usuli	Rejalashtirish ko‘nikmalari
5	Simulyatsiya usuli	Muammo yechish ko‘nikmalari
6	Loyihani boshqarish usuli	boshqarish ko‘nikmalari
7	Loyihalash usuli	Loyihalash ko‘nikmalari
8	Raqamli marketing loyihasi usuli	Raqamli marketing ko‘nikmalari
9	Missiya, qarash, maqsad va vazifalarni ishlab chiqish usuli	Maqsadlarni belgilash ko‘nikmalari
10	IT loyihasi usuli	IT ko‘nikmalari
11	Muloqot uchun topshiriq berish usuli	Muloqot ko‘nikmalari
12	Boshqaruv o‘yinlari usuli	Boshqaruv ko‘nikmalari
13	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy modellashtirish usuli	Moliyaviy va buxgalteriya hisobi ko‘nikmalari
Taklif qilinayotgan usullar		
1	Muammolar bozori	Ijodiy fikrlash, nostandart fikrlash qobiliyati va imkoniyatlarni izlash ko‘nikmalari
2	Muammo va g’oya	G’oyalarni yaratish. qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari
3	G’oya, qaror va natija	Tashabbuskorlik, shaxsiy va profesional o‘sishni boshqarish qobiliyati
4	Hard, soft va biznes	Ta’lim olish va rivojlanish, biznes imkoniyatlarini izlash, liderlik fazilatlari va jamoa tuzish ko‘nikmalari

Xulosa va takliflar. Texnika oliygohlari talabalarini o‘qitishda ta'lim tizimiga yangi o‘qitish usullarini joriy etish bir qator ijobiy va muhim natijalar berishi mumkin. Yuqorida keltirib o‘tilgan usul va metodikalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish bo‘yicha quyidagi umumiy xulosalar chiqarish mumkin:

1. Ta’lim sifatini oshirish: Yangi usullarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarga materialni o‘rganishning yanada samarali va interfaol usullarini taqdim etishga olib kelishi mumkin.
2. Ta’limga qiziqishni uyg‘otish: Innovatsion va qiziqarli usullardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishga yordam beradi, bu esa ularning o‘quv jarayonida motivatsiyasi va faolligini oshiradi.
3. Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish: Noan’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o‘qitishning yangi usullarini joriy qilishda talabalarning ehtiyojlari, texnologiyadan foydalanish darajasi, o‘qituvchilarning malakasi va umumiy ta'lim maqsadlari kabi turli omillarni hisobga olish kerak. Bundan tashqari, zarur tuzatishlar va takomillashtirishlarni amalga oshirish uchun yangi metodologiyalarning samaradorligi va mahsuldorligini baholash muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Шохаджаев М., Касимахунова А.М. Методика обучения студентов по зонной теории применения метода «армия электронов». Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice https://www.bulletennauki.com. Т. 7. №9. 2021. https://doi.org/10.33619/ 2414-2948/70. Стр. 535-541
2. Абдулаева Заира Запировна (2013). Малое предпринимательство и стабилизация на рынке труда региона. Вопросы структуризации экономики, (4), 336-339.
3. Терещенко Светлана Викторовна, Загорская Мария Константиновна, & Бобрицкая Юлия Михайловна (2017). Предпринимательские компетенции: Европейский подход к обучению студентов. Проблемы современной науки и образования, (5 (87)), 54-56.
4. Ҳакимова М.Ф., Лутфуллаева Н.Х., Абдуллаева Р.М., Файзуллаева Д.М. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisodiyot, 2019. - 142 б
5. И.Ш.Эгамберганов. (2022). Физика фанини ўқитишда педагогик таълим инновацион кластер методи фойдаланиш методикаси. Uzbek Scholar Journal, 10, 254–261. Retrieved from. https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/ article/view/374
6. Хайруллина Марина Валентиновна (2017). Формирование экономико-управленческих и предпринимательских компетенций в техническом вузе. Российское предпринимательство, 18 (11), 1637-1650.
7. Creating entrepreneurs: 13 methods to build entrepreneurship skills in students. https://www.indiatoday.in/education-today/featurephilia/story/tips-for-teachers-to-build-entrepreneurship-skills-in-students-1728045-2020-10-03
8. Kasimakhunova, A. M., and T. Butaev. Methods of Developing Entrepreneurial Competencies in Students of Engineering Education. European journal of innovation in nonformal education 2.1 (2022): 309-315.
9. Kasimakhunova, A. M., and T. Butaev. Methods of teaching students entrepreneurship and rules of working with business// Educational and Pedagogical Sciences. 2022
10. Kasimakhunova A.M., Atajonova S.B., Use of innovative learning methods in the classes on the subject: Theory of automatic control// Scientific-technical journal STJ FerPI, 2021, T.24, №6 pp. 147-151

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:159.937-053.81:316.6(043.3)

O‘giloy VAHOBOVA,
Andijom davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: vaxobovao‘g’iloy91@mail.ru

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,PhD, B.Parmonov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE INFLUENCE OF THE INFORMATION ENVIRONMENT ON THE CHANGE OF YOUTH SOCIAL NORMS

Annotation

The article aims to develop scientific and practical proposals and recommendations based on the identification of socio-psychological factors affecting the perception of young people's attitude to social reality and its interpretation.

Key words: Personality, motivational component, attitude, adaptive attitude, emotional-cognitive motives, stimuli, social-psychological characteristics.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ НА ИЗМЕНЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье ставится задача разработать научно-практические предложения и рекомендации, основанные на выявлении социально-психологических факторов, влияющих на восприятие молодежью отношения к социальной действительности и ее интерпретации.

Ключевые слова: Личность, мотивационный компонент, установка, адаптационная установка, эмоционально-познавательные мотивы, стимулы, социально-психологические характеристики.

AXBOROT MUHITINING YOSHLAR IJTIMOIY NORMALARI O‘ZGARISHIGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat idroki va uning interpetasiyasiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Shaxs xulq-atvori, motivasion komponent, munosabat, adaptiv munosabat, emotsional-kognitiv motivlar, stimullar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv va integrasiya jarayonlari ta’sirida ijtimoiy munosabatlarning ob’ekti va sub’ekti bo‘lgan yoshlarning xulq-atvor ustanovkalarining o‘zgarib borishi, ijtimoiy voqelikka berilish oqibatida ular qadriyatlarining zaiflashuvi, dunyoqarashlar transformasiyasining kuzatilishi, jumladan, «Yoshlar halqaro deklarasiyasi»da «...Yoshlar – barqaror rivojlanish maqsadlarining drayveri sifatida belgilanganligi... »[1] dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada o‘tkazilgan tadqiqotlar ommaviy madaniyatning rivojlanishi yoshlarda kundan-kun ijtimoiy jarayonlarni yangicha anglash va adaptasiyalashuv, xulq-atvor motivasiyasi, qadriyatlar tizimi, ehtiyojlar va ijtimoiy voqelikka munosabat ustanovkalarning o‘zlashtirilishi bilan bog‘lik muammolarni o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy markazlari yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanish imkoniyatlarini, shaxsiy hayotini, kasbiy faoliyati uchun intilishlari, ta’lim tarbiya jarayoni va shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish orqali o‘z-o‘zini takomillashtirishga ta’sir etuvchi demografik, individual omillarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishi, ularda o‘zaro munosabatlarning rivojlanish dinamikasi, shaxslararo hamkorlik muammosi, o‘zaro jarayonlardagi munosabatlar hamda ularning sotsializatsiyasi, ijtimoiy hozirlik va individual tipologik tuzilmalarini aniklashga bogliq ijtimoiy-psixologik izlanishlarga alohida e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamiz yoshlarida ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining psixologik tomonlarini tadqiq etish orqali hamjamiyatimizni siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik taraqqiyotida ko‘zda tutilgan ijobiy o‘zgarishlarga daxldrolik hissini tarkib toptirish bo‘yicha zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratilmoqda. «... yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlash borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko‘tarish»[2] masalalari bilan bir qatorda ularni shaxslararo munosabatlarga ijtimoiy-psixologik tayyorlash, kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari ustuvor vazifasi sifatida belgilanganligi, jamiyatimiz a’zolari bo‘lgan yoshlar masalalarini ilmiy o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Pespublikasi Rpezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2017 - yil 5 - iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshipish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» Farmonlar, O‘zbekiston Pespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[3] Qarori va boshqa me’yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik

jihatlarini yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishi muammosi hozirgi globallashuv va axborotlashish muammolari ko‘zga tashlanayotgan davrda ijtimoiy psixologiya fanida g‘oyatda dolzarb psixologik muammo hisoblanadi.

Pespublikamiz psixolog olimlaridan B.P.Qodipov, B.M.Umarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.S.Safaev, P.S.Samarov, O‘.B.Shamsiev, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziev, Z.A.Abdurahmonova va boshqalar[4] o‘z ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning psixologik muammolari, ijtimoiy munosabatlarda sog‘lom fikrlashi, o‘quv va mehnat faoliyati bilan band bo‘lishlari bilan birga mehnat staji, migrasion tajriba mavjudligi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan A.A.Bakanova, A.A.Leontev, A.V.Petrovskiy, V.V.Skvorsov, E.P.Ilin, M.Sh.Magomed-Eminov, N.V.Grishina va boshqalar sub’ekt-vaziyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yo‘naltiruvchi va idora qiluvchi kuchlardan tashqarida bo‘lgan mushkul, ekstremal hayotiy vaziyatlarning ijtimoiy voqelik idrokiga ta’siri nuqtai nazaridan tadqiq etishgan.

Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bandura, A.Maslou, G.Olport, J.Pottep, Z.Freyd, K.G.Yung, K. Podjeps, K.Xorn, P.B.Kettel, E.Fromm, E.Erikson[5] va boshqalar shaxs shakllanishi va rivojlanishi maslalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik jihatlarini tadqiq etishda suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, yoshlar ijtimoiy voqelikka munosabat ustanovkasi shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillapni o‘rganish uchun E.Tofflerning «Ijtimoiy voqelikdagi konservasiya va o‘zgarishlarga qaratilgan ustanovkalarni aniqlash» anketasi, A.A.Bakanovaning «Hayotga, o‘limga, inqirozli vaziyatlarga munosabatini o‘rganish» so‘rovnomasi, A.Maslouning «Ehtiyojlar shajarasi» nazariyasi asosida V.V.Skvorsov tomonidan ishlab chiqilgan «Ehtiyojlarning qondirilganlik darajasini aniqlash» (juft qiyoslash metodi) so‘rovnomalaridan foydalanildi, olingan natijalapning ishonchlilik dapajasi matematik statistika metodlapidan Styudentning t-mezoni, K.Pipsonning r-koppelyatsiya koeffitsienti opqali tasdiqlandi.

Tahlil va natijalar. Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik jihatlarini tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (IPH) ni ochib bepishga ilmiy jihatdan yondashilganligi, ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishida IPHni inobatga oluvchi psixokonsultasiya va psixokorreksion choralarni ishlarni ishlab chiqish imkoniyatini berishi va «Shaxs psixologiyasi» modulini nazariy psixologik mexanizmlari mazmun-mohiyatining ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalapining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan «Ijtimoiy psixologiya», «Oila psixologiyasi» fanlaridan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlov kurslarida qo‘llanilishi, tadqiqotning amaliy natijalari turli bosqichlarda faoliyat yuritayotgan yoshlarning kasbiy faoliyatini shakllantirishda, ijtimoiy-amaliy faoliyatning turli sohalarida, OTM psixologlari, yoshlar bilan ishlaydigan mutaxassislar tomonidan qo‘llanish imkoniyati bilan belgilanib, tadqiqot natijalaridan psixolog kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar. Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik jihatlarini aniqlash mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik jihatlarini aniqlashda xulq-atvor turlariga qaytish bo‘lgan regressiya paytida almashinish sodir bo‘lishi aniqlandi, bu esa o‘z navbatida asabiy vaziyatning ta’siri ostida paydo bo‘lgan hissiy bosimni anglatadi, lekin bu engillik yoki maqsadga erishishga olib kelmaydi. Bunday vaziyatda sub’ekt ichki keskinlikni buzadigan, kutilmaganda ma’nosiz harakatlarni amalga oshirishi mumkin, ammo shu vaqtning o‘zida haqiqat idrok etilgan holda tashqi tomondan bu harakat sezilmasligi mumkin.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, (qiz) yoshlarda, shuningdek, (o‘g‘il) yoshlarda ham ijtimoiy muhitda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik ularning o‘z- o‘zini borligicha qabul qilishlari, shuningdek boshqalarni ham qabul qilishlari, hissiy qulaylikni his etishlari, yuqori darajadagi sub’ektiv nazoratga ega ekanliklarining ko‘rsatkichidir, bu kabi o‘sprinlar ular bilan sodir bo‘ladigan voqealarni, birinchi navbatda, ularning shaxsiy fazilatlari (kompetensiya, qat’iyatlilik, qobiliyat darajasi va boshqalarga) va o‘z faoliyatlarining tabiiy oqibatlarining natijasi deb hisoblashishlari isbotlandi;

Tadqiqot jarayonida yoshlarning o‘zini o‘zi baholashning ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini va psixologik himoya mexanizmlarini aniqlash usullari yuzasidan ishlab chiqilgan mualliflik so‘rovnomasi asosida qaltis vaziyatlarda o‘sprinning o‘zini o‘zi baholashi va xulq-atvor reaksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar mavjud ekanligi tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Butunjahon Yoshlap xalqaro deklapatsiyasi. T.:2019.b-14.
2. O‘zbekiston Pespublikasi Ppezidentining PF-60-son 2022-2026 yillapga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning tapaqqiyot stpategiyasi Fapmoni, https://lex.uz/docs/5841063
3. Mirziyoev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambeliyasidagi nutqi.19.09.2017 y
4. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirishkontseptsiyasi
5. G‘oziev E.G’. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.;
6. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi-Sharq.:2010.-283 b.;

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:324

Shaxruz G‘ANIYEV,
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shaxruzganiyev88@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi. prof. M.M Axmedjanov taqrizi asosida

THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In this article, the author highlighted the importance of independent education today, the priority of independent education over traditional education, the relevance of existing problems in the same field, the positive results that affect each student individually, and the consistent actions being taken in this regard.

Key words: Education, independent education, individual, student, kinesthetic method, innovative ideas, physiological possibilities, universal laws, educational concept.

РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация

В данной статье автор выделил важность самостоятельного образования сегодня, приоритет самостоятельного образования перед традиционным образованием, актуальность существующих проблем в этой же сфере, положительные результаты, которые влияют на каждого учащегося в отдельности, и последовательные действия, предпринимаемые в этом направлении. внимание.

Ключевые слова: Образование, самостоятельное образование, личность, ученик, кинестетический метод, инновационные идеи, физиологические возможности, универсальные законы, образовательная концепция.

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QUV JARAYONIDA MUSTAQIL TA’LIM SHAKLINING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan mustaqil ta’limning bugungi kundagi muhim ahamiyati, mustaqil ta’limning an’anaviy ta’limdan ustuvorligi, ayni sohadagi mavjud muamolarining dolzarbliligi, har bir talaba individuali ta’sir etayotgan ijobiy natijavorliligi va bu borada olib borilayotgan izchil harakatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, mustaqil ta’lim, individual, talaba, kinestetik usuli, inovatsion g‘oyalar, fiziologik imkoniyatlari, umuminsoniy qonun-qoidalar, o‘quv konsepsiya.

Kirish. Insoniyatning o‘rganish usullari har bir shaxsning psixologiyasidan kelib chiqqan holda turli xil bo‘ladi. Qaysidir shaxs vizual o‘rganishda ko‘proq ma’lumotni eslab qolsa boshqasi o‘qib yozishda ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. Ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki kinestetik ya’ni bajarib o‘rganish ko‘plab insonlarga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa shuni ochiqlaydiki, har bir o‘rganuvchi qay darajada bo‘lishidan qati’iy nazar maktabgacha ta’limda bo‘ladimi, o‘rta maktab ta’limidami, oliy ta’limdami u mustaqil izlanib o‘rgangan ma’lumotini ayniqsa unutilmaydi. Texnikaviy oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida mustaqil ta’limning ahamiyati katta. Bu yerda mustaqil ta’lim, talabalarning o‘z o‘quv faoliyatilarini boshqarish va o‘zlari tomonidan tanlangan mavzular bo‘yicha ilmni oshirishga qaratilgan. Ushbu turdagi ta’lim talabalarga muammolarni mustaqil hal qilish, qo‘llab-quvvatlash va tadqiqot qilish kabi mahoratlarni rivojlantirishga imkon beradi. Oliy ta’lim sohasida, ayniqsa texnikaviy oliy ta’lim sohasida talabalar an’anaviy talim jarayonida eshitgan ko‘rgan ma’lumotlarini mustaqil ta’limda ko‘proq mustahkamlashlari mumkin. Malakali mutaxasis kadrlarni tayyorlashda oliy ta’limning o‘rni juda muhim. Hozirgi kunda o‘quv rejalarda talabalar o‘quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’limning nisbati bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta’lim dasturining o‘zgarishi mohiyatini olib qaraydigan bo‘lsak fanlarning bir qator masala va muammolari talabalarga mustaqil ta’lim orqali o‘rganish va mustahkamlash imkonini beradi[1]. Mustaqil ta’lim deganda o‘rganuvchi tomonidan u yoki bu fan bo‘yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o‘rganishi tushuniladi.

Mustaqil ta’lim bu egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha tarzda ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqil ish o‘qituvchi bergan topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish talabalarning aniq faoliyati bo‘lib, qo‘yilgan maqsad bilan olib boriladigan ish hisoblanadi. Talabaning mustaqil ishlari undan yuqori darajadagi ilmiy, ijodiy salohiyatini o‘z vaqtida nomoyon etishini, mukammalik va tashabbuskorlikni talab etadigan faoliyat turidir.

Mustaqil ta’lim deganda talabaga berilgan nazoratsiz bo‘sh vaqt deb tushunish bu mutlaqo xato tushunchadir. Talaba mustaqil bilib olayotgan, ma’lumotlar jamlayotgan davrida unga biriktirilgan o‘qituvchi tomonidan muntazam nazoratga olinadi.

Mustaqil ta’limning vazifasi talabaning o‘zini o‘zi rivojlantirish, inovatsion g‘oyalarini yuzaga chiqarish, talabani passiv bilim oluvchilikdan o‘ziga ishonchi yuqori darajadagi faol talabaga aylantirib, kelajakdagi mukammal bilimga ega, yangilikdan cho‘chimaydigan mutaxasiss tayyorlash. Mustaqil ta’limda esa aynan shu sifatlar optimal darajada e’tiborga olinadi.

Mustaqil ta’limning amalga oshirilishi, resurslarni o‘z istifodasiga olish, vaqtni boshqarish, jamoa ishlari, muammo hal qilish, oliy o‘ylash va qo‘llab-quvvatlash kabi qo‘shimcha mahoratlar talab qilinadi. Bundan tashqari, u o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqot turini o‘zgartiradi, o‘qituvchi to‘liq tuzatuvchidan ko‘ra qo‘llab-quvvatlash uchun javobgar bo‘ladi.

Hozirgi kunda oliy ta’limning dunyo standartlari ham aynan independent education ya’ni mustaqil ta’limga ayniqsa e’tibor qaratyapti. Buni B.P.Esipov, N.A.Polovnikova, L.G.Vyatkin, M.I.Maxmudov va boshqalarni tadqiqotlarida ham buni yaqqol ko‘rishingiz mumkin. E’tibor qaratish zarur bo‘lgan nuqtai nazar bu talabaning kunli faoliyatini qamrab olgan mustaqil ta’lim jarayoni uchun tuzilgan mustahkam rejasi, unga zarur adabiyotlar, texnikaviy oliy ta’lim sohasida esa texnik moslamalardir[2].

Mustaqil ishlash talabadan aynan bir tizimga rioya qilishni, harakatchanlikni, maqsad sari intilishini talab etadi. Bu esa o‘z o‘zidan ko‘pchilik talabalarda oliy o‘quv yurtidagi kundalik hayotni to‘g‘ri tashkil qilish muammosi paydo bo‘ladi. Oliy ta’limga endigina qadam qo‘ygan talabalar o‘rganilayotgan materiallarni yetarli o‘zlashtirib olish uchun vaqt yetishmasligidan, yuklamalar ko‘pligidan yetarli dam olayotganliklaridan shikoyat qiladi.

Bunday vaziyat ma’lumki vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmagan, har bir daqiqasining qadriga yetmagan talabalardagina sodir bo‘ladi. Shunga ko‘ra, mustaqil ishlashda kun tartibiga qat’iy rioya qilgan holda ish boshlash to‘g‘ri va maqsadga muvofiqdir. Kun tartibini rejalashtirayotganda talabalar aynan quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak:

Bir sutkani kun tartibiga kiruvchi vazifalarni o‘z ichiga oluvchi bunda talabaning kunlik ovqat ratsioni, yuvinish, xo‘jalik vazifalarga qarashish, ma’lumotlarni izlash va jamlangan ma’lumotlarni saralash, zarur bo‘lganda hordiq chiqarish kabilarni soatlarga bo‘lib chiqishi kerak.

Kun tartibini tuzishdan maqsad har bir talabaning ma’lum tartibda ish olib borishiga, hech narsani esdan chiqarmay, hamma narsaga vaqt ajratish, har bir ishni o‘z muddatida bajarishga o‘rgatishdan iboratdir. Kun tartibini har bir kishi o‘zining shaxsiy fiziologik imkoniyatlarigagina emas, balki umuminsoniy qonun-qoidalarga qarab ham tuzishi mumkin[3].

Muhokama va natijalar. Mustaqil ta’limda ishlab chiqarish bilan hamkorlik qilish, talabalarni amaliy mahoratlarni egallash va ish hayotiga tayyorlanishda ko‘payib kelish imkoniyatini beradi. Bu mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash, amaliy tajribaga ega bo‘lish va shuningdek, ish bozorida ish topish imkoniyatini oshiradi. Talabalarga haqiqiy tashkilotlar bilan ishlab chiqarish loyihalarida ishlash imkoniyatini berish. Bu talabalarga amaliy mahoratlarni egallashda va ularning ishlab chiqarishga oid bilimlarini amaliyotda sinovdan o‘tkazishda yordam beradi. Texnikaviy oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish sohasida hamkorlikni amalga oshirish orqali mustaqil ta’limni yanada samarali qilish imkoniyatini tahlil qilmoqda[5]. Bu talabalarni amaliy mahoratlarga ega bo‘lish, ish o‘rnida yoki real vaziyatlarda tajriba olish va mustaqil ta’lim jarayonini davom ettirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Mustaqil ta’limning ulushi oshishi ayniqsa talabalarning ilmiy hayotidagi muvaffaqiyatlarida asosiy rol o‘ynayapti. Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari o‘z talabalarida ushbu o‘quv konsepsiyasini hayotga tatbiq etishga harakat qilmoqdalar. Talabalarda ham izlanuvchanlik, talabchanlik tobora ortib, auditoriyadan tashqarida izlanish ularning individualiga ayniqsa sezilarli ta’siri ko‘rinyapti.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, bugungi kunda ta’lim tizimning rivojlanganligi, uning torgina sinflar yoki audtioriyadagina emas, balki talaba intellektini rivojlantirishning turli muassasalar va uslublar bilan boyitish zarurligini o‘rtaga qo‘yish, jumladan talabalarni mustaqil o‘z ustida ishlashni oshirish, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topa olish malakasiga ega bo‘lgan, istiqboliy vazifalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Zaripov L., Xayitov N., Tohirov Z. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish. [Matn] Metodik qo‘llanma. — T.: Sano-Standart, 2023. – 32 b.
2. Alqorov Q., Doniyorova Sh., Burxonov R. Talabalar mustaqil ta’lim
3. olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish texnologiyasi Maqola. — J.: Vestnik nauki i tvorchestva, 2021. – 5 b.
4. Xayitova Sh., Allazov I. Talabalar mustaqilil ta’lim olishini faollashtirish bugungi davr talabi Maqola. — Samarqand: Analytical jo analytical journal of educatio f educationand development, 2021. – 5 b.
5. Raxmonov I., G‘aniev Sh., Alibekova T., Nematov L. E3S Web of Conferences 384, 01029 (2023). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338401029
6. Raxmonov I., Najimova A. AIP Conference Proceedings 2647. 030011. (2022). https://doi.org/10.1063/5.0104791

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:373.091.33:502(575.1)

Guliruxsor G‘ANIYEVA,
TerDU Botanika kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:ganiyevaruxsora82@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti b.f.d.N.Nurmatov taqrizi asosida

THE BENEFITS OF INTERDISCIPLINARITY IN TEACHING BIOLOGY

Annotation
This article provides information on the effectiveness of using questions related to physics in the process of teaching natural sciences and teaching biology.
Key words: Optics, lens, electromagnetic radiation, focus, monocular vision, ultraviolet radiation, flounder.

ПРЕИМУЩЕСТВА МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОСТИ В ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация
В данной статье представлена информация об эффективности использования вопросов, связанных с физикой, в процессе преподавания естественных наук и преподавания биологии.
Ключевые слова: Оптика, объектив, электромагнитное излучение, фокус, монокулярное зрение, ультрафиолетовое излучение, камбала.

BIOLOGIYANI O‘QITISHDA FANLARARO BOG‘LANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rgatish hamda biologiyani o‘qitish jarayonida fizika fani bilan bog‘liq masalalardan foydalanishning samaradorligi haqida ma’lumotlar berilgan.
Kalit so‘zlar*:* Optika, linza, elektromagnit nurlanish, focus, monokulyar ko‘rish, ultrabinafsha nurlanish, kambala.

Kirish. Bugungi kunga kelib, ta’lim sifatini baholash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ta’limning sifati va samaradorligini baholashda esa o`quvchilarda hosil bo`lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida ta'limni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirish, tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirish, bilim olishning intellektual tizimidan foydalanishga tayyorlash va kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsion, axborot yondashuvlarni joriy etish, elektron ta'limni rivojlantirish, elektron manbalar, resurslar safini kengaytirish, aralash ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish, integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarning zaruriy kompetentsiyalarini shakllantirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Jahonda ta'limning globallashuv sharoitida o‘qitishning elektron ta'lim resurslari bilan boyitish, ijtimoiy talablarga moslashtirish zaminida o‘quvchilarni mustaqil faoliyatini tashkil etish, kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirish, zamonaviy kasbiy faoliyat sohalariga tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni o‘rganish uzluksiz biologik ta'lim jarayoniga kompetentsiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko‘rsatdi [2]. O`quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim shartidir.

Asosiy qism. Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirishni xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq integratsiyalash, jahon amaliyotiga asoslangan ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali integrativ texnologiyalar vositasida takomillashtirish masalalarining ilmiy yechimiga qaratilgan. Zamonaviy rivojlangan jamiyatga ilmli, ma'naviyatli, bar qaror rivojlanish talablariga javob beradigan, respublikamiz kelajagi uchun qayg'uradigan intellektual yetuk avlodlarni yetkazish zarur [3]. Biologiyani o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti bo‘lib, u o‘quvchilar asosiy bilim manbai bo‘lgan o‘quv materiallarining ilmiyligi va izchilligini ta’minlaydi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish ortadi va aqliy rivojlanish tezlashadi, tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Tabiatning birgina ob’ekti haqida bir butun bilim hosil qilish uchun turli fanlar qatori biologiya, fizika fanlarini bog‘lab o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Fizikaning biologiya bilan o‘zaro aloqasi qadimiy va samaralidir. U ayniqsa, keyingi o‘n yilliklarda biofizika, agrofizika, bionika kabi fanlar paydo bo‘lgandan keyin kengaydi. Bu fanlararo aloqadorlik tegishli o‘quv fanlarini o‘rganishda o‘z ifodasini topdi. Fizika va biologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik umumiy va xususiy o‘rtasidagi bog‘liqlik sifatida talqin qilinishi mumkin. Biologiyadan olingan bilimlar faqat fizik qonunlar doirasidagi bilimlarni kengaytirib, o‘quvchilarga tabiatning birligini tushunishga yordam beradi.

Hozirda tabiiy fanlarning rivojlanishi, fanlar o‘rtasida differetsiatsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi ob’ektiv qonuniyat sifatida tabiiy fanlar bo‘lgan biologiya, kimyo, fizika fanlari o‘rtasida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirini talab etmoqda. Biologiya o‘quv fanini o‘qitishning vazifalari - asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish, tirik organizmlarning yashash muhitiga moslashishlarning vujudga kelish mexanizmlari xaqida ma’lumotlar berish, organizmlarning individual va tarixiy rivojlanishining hozirgi mazmunining ta’limi biologiya tanishtirish, asosiy bosqichlarini asosiy bosqichlarini tanishtirish, biologiya ta’lim mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan texnika yutuqlari bilan bog‘lanishini ta’minlash, o‘quvchilar o‘zlari va o‘zgalarning salomatliklarini saqlashi, sog‘lom turmush tarzigi rioya qilishga yo‘naltirish, tabiat va

uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish, biologik bilimlar zaminida mahalliy o‘simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadmda yashab ijo qilgan buyuk allomalari va innavatsion yondashish faol va interfaol metodlarga hamda fanlararo bog‘lanishlarga tayangan holda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan keng foydalanish o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganiga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, tabiiy fanlardagi uzviy bog‘liqlik masalasi o‘qituvining oldiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki biologiya fani o‘qituvchisi o‘tayotgan mavzu kimyo bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘qituvchidan kimyo faniga bog‘lab tushintirishni talab etadi. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib etishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Mamlakatimizda biologik ta’limning uzluksizligini ta’minlash va uni chuqur o‘zlashtirish uchun o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ayrim muammolarga duch kelishi muqarrar. 1. Barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga to‘la jalb qilish muammosi, chunki o‘quvchilar darsda to‘la qatnashishlari mumkin, ammo darsda barcha o‘quvchilar tushuna olayotganligini hech kim to‘la kafolatlay olmaydi, mana shu joyda o‘qituvchining darsda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanishi asosiy ahamiyat kasb etadi. 2. Darsda o‘quvchi tushungandek bo‘lishi, o‘qituvchi savoliga javob berishligi mumkin, lekin ayrim biologik jarayonlarni tushunib tasavvur qilish, hayoti mobaynida duch kelganida bu bilimlardan qay darajada foydalana olish malakalariga ega bo‘layotganligi o‘qituvchi uchun ham mavhum bo‘lib qoladi. Bunday muammoni hal qilishda sinfdan tashqari ishlar, to‘garak mashg‘ulotlari masala va misollar ishlashning ahamiyati katta hisoblanadi.

Yoshlarni zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis qilib etishtirishda milliy ta’limning shakli va mazmunining ahamiyati yuqori. Bu ta’lim jarayonini mustaqil bilim olish asosida zamonaviy usullarda, yangicha ko‘rinishlarda tashkil qilishga undaydi. Umumilliy dasturida ta’lim-tarbiyani tubdan isloh qilish: ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlashga bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Respublikamizda ta’lim-tarbiya muassasalarida innovatsion yondashish, faol va interfaol metodlarga hamda fanlararo bog‘lanishlarga tayangan holda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan keng shaxsiga yo‘naltirilganiga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, tabiiy fanlardagi uzviy bog‘liqlik masalasi o‘qituvchining oldiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Umumta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, darslarni ko‘rsatmalilik asosida, boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘lab, biologik bilimlarni berishda fizik, kimyoviy tushunchalar, fizik qonuniyatlardan o‘rinli foydalanish yaxshi natija beradi. Tabiiy fanlar katoridagi fizika va kimyo darslari tabiat hodisalarini o‘rganadi. Tabiatning birgina ob’ekti xaqida bir butun bilim hosil qilish uchun turli fanlar qatori biologiya, fizika, kimyo bilan xam o‘zaro bog‘lab o‘tiladi

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Biologiyaning ko‘z va yorug‘lik bilan bog’liq bo‘limlarini o‘qitishda ham fizikaning “Optika” bo‘limiga oid tushunchalardan foydalanish mumkin. Ko‘rish organlari turli xil shaklda bo‘ladi. Ular yakka, juft, ko‘p, shuningdek, katta, kichik, harakatchan, harakatsiz bo‘lishi mumkin. Biroq ularning ishlash mexanizmi bir xil bo‘ladi. Har qanday ko‘zda fokuslovchi va yorug’likdan himoyalovchi qismlar mavjud. Ular birgalikda ko‘rishning yo‘nalishini ta’minlaydi. Natijada ko‘z oriyentirlovchi organ bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, har qanday ko‘zda turli darajadagi yoritilganlikka sezgirlikni o‘zgartiruvchi qism ham mavjud.

Ko‘rish yoki ma'lum bir spektrning elektromagnit nurlanishini sezish qobiliyati baliqlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Baliqlarning ko‘z to‘r pardasi hujayralari tarkibiga ko‘ra odamnikiga o‘xshaydi. Baliqlarning ko‘zi yassi shox parda va sharsimon gavhari bilan farq qiladi. Baliq ko‘zi gavharining nisbiy sindirish ko‘rsatkichi katta emas, shuning uchun gavhar sirti egriligining katta bo‘lishi hisobiga uning optik kuchi kattalashadi. Baliqlarda ko‘z akkomodatsiya gavharini maxsus muskullarning qisqarishi yordamida to‘r pardaga yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Baliqlarning ko‘zi yassi shox pardaga yaqin bo‘lgan va boshning yon tomonida joylashgan sharsimon linzadan iborat. Baliqlarda ko‘rishning xarakterli xususiyatlari: miyopiya; bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishda ko‘rish qobiliyatidir.

Biror narsani ikkala ko‘z bilan ko‘rish uchun baliq tezda aylanadi. Ikkala ko‘zi bilan u oldinda juda tor konus shaklidagi maydonni ko‘radi. Ko‘pgina baliqlarning ko‘z qorachig'i teshigidan chiqib turadigan linzalari bor, bu esa ko‘rish maydonini oshiradi. Oldinda, har bir ko‘zning monokulyar ko‘rishi 15-30 ° binokulyar ko‘rishni hosil qilish uchun bir-biriga yopishadi. Monokulyar ko‘rishning asosiy kamchiligi masofani noto‘g'ri baholashdir. Olimlar baliqlarning ayrim turlari 20 tagacha rangni ajrata olishini aniqladilar. Yirtqich hayvonlar o‘txo‘rlarga qaraganda yaxshiroq rang ko‘rish qobiliyatiga ega. Ko‘pgina baliqlar yorug'lik to‘lqinlarining diapazonini odamlardan ham kengroq idrok etadilar. Baliq ultrabinafsha nurlanishni ham qisman ko‘rishi mumkin. Baliq tiniq, quyosh nuri tushgan suvda yaxshi ko‘radi, ammo ba'zi turlari qorong'uda va loyqa suvda ko‘rishga moslashgan. Ushbu turdagi baliqlar ko‘zning maxsus tuzilishiga ega. Biroq, toza suvda baliqning maksimal ko‘rinishi 10-14 metrni tashkil qiladi. Eng aniq ko‘rinish masofasi 2 metr ichida. Suvdagi yorug'lik to‘lqinlarining sinishi juda murakkab mavzu bo‘lib, turli chuqurliklarda yorug'lik spektrining turli to‘lqin uzunliklari ustunlik qiladi, shuning uchun baliqlarda sezgirlik paydo bo‘ladi. har xil turlari yorug'likning spektral to‘lqinlari. Ammo o‘rtacha baliqlarda yorug'lik to‘lqinlarini idrok etish diapazoni 400-750 nm ni tashkil qiladi. Yorug'lik nurining suvga kirish burchagi qanchalik keskin bo‘lsa va ob’ekt qanchalik past bo‘lsa, baliq uni shunchalik yomon ko‘radi. Yorug'lik nuri 5-10 ° burchak ostida tushganda, ayniqsa suv yuzasi bezovta bo‘lsa, baliq ob’ektni ko‘rishni to‘xtatadi.

Baliq ranglar va hatto soyalarni ajratib turadi. Baliqdagi rangni ko‘rish ularning yerning rangiga qarab rangni o‘zgartirish qobiliyatiga ega. Tabiiy sharoitda tosh tubida yotgan kambala u bilan shunchalik birlashadiki, u inson ko‘ziga mutlaqo ko‘rinmas bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, ko‘r baliqlar, shu jumladan kambala, rangini o‘zgartirmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, baliqlarning rangi o‘zgarishi ularning vizual idroki bilan bog'liq. Baliqlar narsalarning shaklini ham idrok etadilar – ular uchburchakni kvadratdan, kubni piramidadan ajratib turadilar. Baliqni ko‘rishning xususiyatlari bizga baliqni ovlash vaqtida foydali bo‘lgan ba'zi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, suv yuzasiga yaqin joylashgan baliq 8-10 m dan uzoqroqda qirg'oqda turgan va o‘tirgan yoki 5-6 m dan uzoqroqda turgan baliqchini ko‘ra olmaydi; suvning shaffofligi ham muhimdir. Odamlardan farqli o‘laroq, ko‘rish baliqning sezgi organlari orasida asosiy rol o‘ynamaydi. Baliqning ko‘zlari shikastlansa, boshqa sezgi organlari yon chiziq, hid va tam bilish organlarining ishi kuchayadi [5].

Yon chiziq organi. Yon chiziq organi faqat suvda doimiy yashovchi baliq va amfibiyalarda uchraydi. Yon chiziq ko‘pincha tana bo‘ylab boshdan dumgacha o‘tadigan kanaldir.

Nerv uchlari kanalda shoxlanadi, hatto eng arzimas suv tebranishlarini ham katta sezgirlik bilan qabul qiladi. Ushbu organ yordamida baliq oqimning yo‘nalishini va kuchini aniqlaydi, suv ostidagi narsalarni harakatlanishidan hosil bo‘lgan suv oqimlarini his qiladi, suruvdagi qo‘shnining, dushmanlarning yoki o‘ljaning harakatini payqashda, o‘ljasini tutishda ham bu sezgisi muhim rol o‘ynaydi.

Hid va ta’m organlari. Baliqlarda hid va ta'm organlari ajralib turadi. Suyakli baliqlardagi hid bilish organi boshning ikki tomonida joylashgan va hidlash epiteliysi bilan qoplangan burun bo‘shlig'iga olib boradigan juft burun teshigidir. Suv bir teshikka kiradi va ikkinchisidan chiqadi. Hid bilish organlarining bunday joylashishi baliqlarga suvda erigan yoki muallaq bo‘lgan moddalarni hidlash imkonini beradi, oqimda esa baliq faqat hidli moddani olib o‘tadigan oqim bo‘ylab, tinch suvda esa faqat suv oqimlari mavjud bo‘lganda hidlaydi. Hid bilish xususiyati kunduzgi yirtqich baliqlarga nisbatan tungi va qorong'u baliqlarda kuchliroqdir.

Xulosa. Umumtalim maktablarida darslarni fanlarar bog’lab o‘tishning ahamiyati juda foydalidir. Sababi biologiya darsaida o‘qituvchisi tomonidan fanning fizika bilan bog’liqlik tomonlarini aytib o‘tilganda, o‘quvchi o‘sha ma’lumotlarni fizika darsligidan izlab topishga harakat qiladi. O‘quvchilar jonli va jonsiz tabiatda biologiya va fizikaga oid xilma-xil qonunlarning amal qilishini bilib oladilar. Bu bilan ularning fanga qiziqishlari yanada ortadi.. Bu esa, darslarni fanlararo bog’lab o‘tish yanada samarali ekanligidan darak beradi.

ADABIYOTLAR

1. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo‘llanma O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent, 2002.
2. Abdushukurov A. K., To‟rayeva H.T Talabalarga spirtlar mavzusini klaster usulda olib borish jarayonini o‟rganish. “Pedagogik mahorat” ilmiy jurnal. Buxoro №3. 06.2022.
3. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O‘quv qo‘llanma.
4. Sulliyeva Suluv Khurramovna, G’aniyeva Guliruxsor Islamovna //Sinf rahbarligi ishlarini tashkil etish metodikasi// //Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar II-qism. 11-12. 10. 2022.
5. Sulliyeva Suluv Khurramovna , G’aniyeva Guliruxsor Islamovna, Tojiyeva Feruza Anvarovna//Effective ways of teaching biology in connection with physical science (in the example of class VII)// Eur. Chem. Bull. 2023, 12(Issue 8),4040-4045
6. Усова А.В. Методика преподавания физики. М.: Просвещение, 1998 г.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 001.1

Umida YOZIYEVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
E-mail:finaledition2@mail.ru

Qarshi davlat universiteti professori, p.f.d. Sh.Nurullayeva taqrizi asosida

O‘QUVCHILARDA VERTUAL ADDIKSIYA PROFILAKTIKASI ASOSIDA AXBOROT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarda vertual addiksiya profilaktikasi asosida axborot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik muammolari, shuningdek, Globallashuv jarayonlarining asosiy tendensiyalaridan biri axborot almashinuvining intensivlashuvi, axborot maydonlari va makonlarining o‘ziga xos mafkuraviy poligonlarga aylanib borishi tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: Axborot manbalari, modernizatsiyalashgan tizim, zararli axborotlar, xavf darajasi, tahdidlar, noto‘g‘ri ma’lumot va boshqalar.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПРОФИЛАКТИКИ ВЕРТИКАЛЬНОЙ АДДИКЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

В данной статье описаны педагогические проблемы формирования у учащихся информационной компетенции на основе профилактики вертикальной аддикции, а также одна из основных тенденций процессов глобализации-интенсификация информационного обмена, превращение информационных полей и пространств в своеобразные идеологические полигоны.

Ключевые слова: Источники информации, модернизированная система, вредоносная информация, уровень опасности, угрозы, дезинформация и т. д.

THE FORMATION OF INFORMATION COMPETENCE IN STUDENTS ON THE BASIS OF THE PREVENTION OF VERTICAL ADHESION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

This article describes the pedagogical problems of the formation of information competence in students on the basis of the Prevention of vertical adhesion, as well as the intensification of information exchange, the transformation of information spaces and spaces into specific ideological polygons, one of the main trends in globalization processes.

Key words: Information sources, modernized system, malicious information, risk level, threats, misinformation, etc.

Kirish. Bugungi kunda tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuf va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqdalar. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy.

Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif, bizningcha, ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Axborotlashgan jamiyat shu kompyuter tarmog‘i orqali tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushunchalar deyarli mavjud emas. Jahon kompyuter tarmog‘i davlat boshqaruvini tubdan o‘zgartirmoqda, ya’ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo‘qotish kabi muammolar dolzarb bo‘lib qoldi. Bunday holat yosh avlodni tarbiyalash ishini yanada takomillashtirishni, axborotlar olamida ularni o‘z qarashlariga, mustahkam e’tiqod va dunyoqarashga ega bo‘lishlariga erishish, axborotlarni tushunish, ularni tahlil qila bilishga, tanqidiy baholay olishlariga o‘rgatish har qachongidan ham muhim bo‘lib qolmoqda[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu borada bir qancha izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi V.G. Gerasimenko, A.A. Malyuk, D.P. Zegjda kabilarning zimmasiga to‘g‘ri keladi. G. Grachev, I. Melnik, G.G. Pochepsov, X.Domozetov va boshqalarning axborot xavfsizligiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida axborotning insonga ta’siri turlicha yo‘nalishga ega bo‘lishi, jumladan, ma’lum maqsadlarga (masalan, siyosiy saylovlar, reklama, qadriyatlarni o‘zgartirish va hokazoga) erishish uchun axborot yordamida shaxsning ongi va ruhiyatiga ta’sir etish mumkinligi ko‘rsatilgan.

Q.M.Quronov, X.Z.Kasimova, Sh.A.Akramovalar tomonidan talaba yoshlar va o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Axborot oqimi tezlik bilan tarqalayotgan hozirgi davrda insonlararo muloqatda, axborot almashinuvi Vatanimiz, o‘zga yurtlardagi voqea va hodisalar haqida ma’lumot olishda bu manbalarning o‘rni beqiyosdir. Zero, faqat axborot manbalari orqaligina qisqa muddatlarda har qanday ma’lumotlar va yangiliklardan xabardor bo‘lish mumkin.

Shunday ekan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchisini OAV tomonidan tarqatiluvchi axborot yordamida uning xulq-atvori va ongini ehtimoliy boshqaruvni tushunishga o‘rgatish ehtiyoji yuzaga keladi. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatda o‘quvchi shaxsini xavfsiz ijtimoiylashtirish uchun unga axborot tahdididan himoyalanishni o‘rgatish zarurati paydo bo‘ldi. Bundan esa, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o‘quvchi shaxsining rivojlanishini pedagogik jihatdan o‘rganish va axborot tahdididan himoyalanish hamda bartaraf etishga yordam berishning nazariy holatlarini aniqlash muammosi yuzaga keldi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Butun olamni o‘rgimchak to‘riday o‘rab olgan hozirgi axborotlar zamonida ularni bilib va tanlab qabul etish har bir shaxs hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Foydali axborot bunyodkorlik qudratiga ega bo‘lgani kabi, zararli axborot vayronkorlik xususiyatiga egadir. Shuning uchun ham bugungi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun foydali va zararli axborotlarni farqlay bilish ulkan amaliy ahamiyat kasb etadi. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini axborotlar tahdididan himoyalashning modernizatsiyalashtirilgan tizimini yaratish” mavzusidagi doktorlik ishida ayni shu dolzarb hayotiy muammoning ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqiladi. Ishda “axborot”, “foydali axborot”, “zararli axborot” tushunchalariga ta’rif beriladi va o‘quvchilarda zararli axborotlarga nisbatan immunitet hosil qilish yo‘llari tadqiq etiladi.

Globallashuv jarayonlarining asosiy tendensiyalaridan biri axborot almashinuvining intensivlashuvi, axborot maydonlari va makonlarining o‘ziga xos mafkuraviy poligonlarga aylanib borishi bilan tavsiflanadi. Bu omil ayniqsa, ta’lim tizimida muayyan xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois axborotlarni zararsizlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi yuqorida ta’kidlaganimizdek, milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalariga aylanmoqda. Axborot oqimi tezlik bilan tarqalayotgan hozirgi davrda insonlararo muloqot va axborot almashinuvida har bir inson uchun o‘zga yurtlardagi voqea va hodisalar haqida ma’lumot olishda bu manbalarning o‘rni beqiyosdir. Zero, faqat axborot manbalari orqaligina qisqa muddatlarda har qanday ma’lumotlar va yangiliklardan xabardor bo‘lish mumkin. Hozirgi kunda axborot manbalarining turlari hamda inson hayotidagi o‘rni kengayib bormoqda, natijada bu ta’lim-tarbiya jarayoniga ijobiy ta’sir bilan birgalikda o‘z tahdidini o‘tkazmoqda. Bunday holat yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborni va ma’suliyatni yanada oshirishni taqozo etadi[3].

Ma’lumki, zamonaviy jamiyat sifat jihatidan o‘zgacha rivojlanish shakli – axborotlashgan jamiyat yoki yanada keng ma’noda – axborot sivilizatsiyasiga o‘tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborot tarqalishi tezligi va jarayonlarining keskin ortishi, xususan, axborotni shakllantirish va uni tarqatish texnologiyasini yaratilishi bilan ifodalanadi.

Inson bevosita tajriba, shaxsiy muloqot, shuningdek, turli-tuman axborot manbalari (kitoblar, radio, televideniye, jurnallar, gazetalar va belgi-ramz ko‘rinishidagi boshqa manbalar) orqali zarur axborotga ega bo‘ladi. Binobarin, ijtimoiy rivojlanish qonuniyati axborot manbalari, shu bilan birga bevosita tajriba va shaxsiy muloqotdan olingan axborot ulushining keskin ortishi va ustunligi bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi va insonning kundalik turmushiga ijtimoiy o‘zgarishlarning bevosita ta’siri uni ommaviy kommunikatsiya vositalari xabarlari oqimiga yanada bog‘liq qilib qo‘yadi. Inson jamiyatdagi ijtimoiy xatti-harakati va hayoti uchun zarur ba’zi ma’lumotlarni kundalik tajribasiga asoslangan holda oladi. Ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi ma’lumotlarni esa tele- va radiodasturlar hamda davriy nashrlardan olish mumkin.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, inson va uning kundalik hayoti ommaviy kommunikatsiyaga bog‘liq bo‘lib, u o‘ziga xos “ikkinchi voqelik”-“sub’ektiv voqelik” ni hosil qiladi, uning ta’siri ob’ektiv voqelikning ta’siri singari birmuncha muhimroqdir.

Murakkab tizimga ega axborot muhitida jarayonli tarkibiy qism uning dinamik va o‘zgaruvchan qismi – axborot-kommunikatsiya jarayonlari sifatida farqlanib, ular yakka tartibli, guruhli va ijtimoiy psixologiyaga (xususan, individual, guruh va omma ongiga) faol ta’sir etadi.

Jamiyatning ma’naviy sohasi ma’lum darajada axborot muhitining bevosita ta’siriga uchrab, uning deformatsiyasi va destruktiv o‘zgarishlari ruhiy-emotsional va ijtimoiy zo‘riqish, buzilgan axloqiy meyor va mezonlar, noto‘g‘ri ijtimoiy stereotip va yo‘l-yo‘riqlar, yolg‘on mo‘ljal va qadriyatlarlar shaklida, o‘z navbatida, ijtimoiy, jumladan siyosiy va iqtisodiy hayotning asosiy sohalaridagi jarayon va holatlarga ta’sir etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning zamonaviy pedagogik muhitida ustuvor milliy ta’lim loyihasi doirasida axborotlashtirish va kompyuterlashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangan.

Bugungi kunga kelib yurtimizning barcha ta’lim muassasalari kompyuter bazasiga ega bo‘lib, ular Internet tarmog‘igaga chiqish imkoniyatiga egadir. Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarga axborot texnologiyalari bo‘yicha ta’lim berish sohasida ma’lum tajriba to‘plangan, ya’ni maktab o‘quvchilari Internetdan axborot olishni biladilar. O‘quvchilarni quyidagi ko‘nikmalar: axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish jarayoniga o‘quvchilarda turli manbalardan talab etiluvchi axborotni topish; vizual axborotni verbal belgili tizimga o‘tkazish va aksincha, axborotni o‘zgartirish; uning hajmi, shakli, belgili tizimi, axborot tashuvchisi va hokazolarni kommunikatsiya ta’siri maqsadlari hamda unga mo‘ljallangan auditoriya xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zgartirish; kommunikatsiya maqsadlari, axborot oqimining yo‘nalishini tushunish; o‘z fikrlarini asoslash; olingan axborotdagi xatolarni topish va ularni tuzatish bo‘yicha taklif kiritish; muqobil fikrlarni idrok etish va har biri uchun asoslangan ijobiy va salbiy asoslarni keltirish; axborotli ma’lumotlarning anons va taqrizlarini tuzish; axborotli ma’lumotlar o‘rtasidagi uyushgan va amaliy maqsadga muvofiq aloqalarni o‘rnatish; axborotli ma’lumotdagi asosiy fikrni ajratish; axborotli ma’lumot rejasini tuzish; uning mazmunga mos bayon etish shaklini taklif etish; axborotni tayyorlash, uzatish va qabul qilish vositalari bilan ishlashga asoslanib, zarur darajada tayyorlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish talablari qo‘yiladi[4].

Shunday qilib, mazkur vaziyatda pedagogika fanida axborot-kommunikatsion texnologiyalari bo‘yicha nazariy asoslar ishlab chiqilganligini qayd etish mumkin. Ammo, shu bilan birga, zamonaviy o‘quvchiga axborotlarga nisbatan tanqidiy fikr bilan yondashish yoki biror-bir xabarning yashirin ma’nosini tushunish, ongning ommaviy axborot vositalari tomonidan boshqarilishidan himoyalanishning modernizatsiyalashga tizimini o‘rgatish metodikasi ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o‘quvchilarda zararli axborotlar tahdidini bartaraf etish dolzarb pedagogik muammolardan hisoblanadi, degan xulosaga keldik. Bu muammoning ishlanmaganligi quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, bola asosiy vaqtini ta’lim muassasasida o‘tkazadi; ikkinchidan, ta’lim olish o‘quvchining asosiy faoliyat turi hisoblanadi; uchinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida axborot tahdididan himoyalanishni modernizatsiyalashgan

tizimini o‘rgata oladigan mahoratli o‘qituvchilar bo‘lishi kerak.

So‘nggi paytda ko‘pchilik tadqiqotchi va amaliyotchilar shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi muammosini ishlab chiqish zaruratiga e’tibor qaratmoqdalar.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra, iqtisodiyot, falsafa, ijtimoiy psixologiya, jurnalistika sohalarida axborot xavfsizligi, axborot xuruji, axborot tahdidi muammolari tahlil qilingan. Ammo, ushbu muammolar pedagogik tadqiqotlarda yaxlit tarzda o‘rganilganligini uchratmadik. Shu sababli, fanlararo tadqiqotlarga murojaat etgan holimizda, adabiyotlarda bu tushunchalarga bir xil yondashuvlar mavjudligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi, zararli axborot tahdidi muammosi tadqiqida modernizatsiyalashgan tizimini nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak ayrim noaniqliklar mavjud. Ular bir tomondan, axborot xavfsizligiga qo‘shimcha talqin va muayyanlashtirishni talab etuvchi noaniq va keng ta’riflar berilganligi ifodalansa, boshqa tomondan, axborot xavfsizligini ta’minlashning alohida jihatlari hisobga olinmaganligi, shu bilan birga, ko‘rib chiqilgan ta’riflar muhim ma’noli yuklama va ko‘rib chiqilayotgan tushunchaga nisbatan asosiy holatlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Avvalo, himoya ob’ekti, zararli axborotdan himoyalanishni ta’minlash bo‘yicha muayyan faoliyat ko‘rsatiladi[5].

Shunday qilib, tadqiq etilayotgan mavzu bo‘yicha turli fikrlar sharhini o‘tkazgan holda, xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda zararli axborotlar xavfsizligi va uning manbalariga tahdidning yetarlicha asoslangan va to‘liq modernizatsiyalashgan tizimining umumiy tasnifi mavjud emas. Bu mazkur muammoning yangiligi va murakkabligi, shuningdek, tasnif natijasi va jarayonning hal etilishi zarur bo‘lgan vazifalar, hamda shu munosabat bilan tasniflashda foydalaniluvchi mezonlar va tanlanuvchi asoslarga bog‘liqligi bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Ommaviy axborot vositalarini huquqiy tartibga solmay, fuqarolar, ayniqsa o‘quvchilarda zararli axborotlar tahdidi uni barataraf etish bo‘yicha muammoni hal etish mushkul. Lekin, buning uchun taklif etilayotgan axborotni baholash va tushunish zarur. Bunda ta’lim tizimi va oilaning o‘rni ahamiyatlidir. Jumladan maxsus fan sohasi – media ta’lim, ya’ni turli ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda televideniye, radio, matbuot, Internetning o‘ziga xos tilini o‘rganishga e’tibor qaratish, ya’ni taklif etilgan axborotga ob’ektiv baho bera olishga refleksiya, immunitet hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Axborotga bog‘lanib qolmaslik uchun, avvalo, axborot manbaiga e’tibor qaratish lozim. Taklif etilayotgan axborotning ishonchliligi (ilmiy, ma’naviy, madaniyligi), to‘g‘riligi (shu jumladan, tarixiyligi) ga ishonch hosil qilish zarurdir. Buning uchun bilimlarni egallash, taklif etilgan axborotni avvaldan ma’lum bo‘lgan axborotlar bilan qiyoslay olishga, axborotlarni tanlab qabul qilishga o‘rgatish muhim pedagogik muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Филин, С.А. Информационная безопасность: Учебное пособие /С.А. Филин. - М.: Изд. Альфа-Пресс, 2006. - 412 с.
2. Приходько А.Я. Информационная безопасность в событиях и фактах . – М.: СИНТЕГ, 2001. – 260 с.
3. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности (Теория и технология психологической защиты) : Дис. ... д-ра психол. наук : 19.00.12 : Москва, 2000 360 с. РГБ ОД, 71:00-19/66-2
4. Герасименко, В.А. Основы защиты информации / В.А. Герасименко,А.А. Малюк - М.: Московский Государственный Инженерно-физический институт (технический университет), 1997. – 512 с.
5. Домозетов Х. Компьютеризация и проблемы здоровья, свободы и раз-вития личности [Текст] / Х. Домозетов //Философская и социологическая мысль: сб. науч. тр. - М., 2000, № 4. - С 93-99.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil 1-3-4-tom.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 159.953

Sevara JUMAYEVA,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi
E-mail: jdsevarakhon@gmail.com

Alfraganus universiteti dotsenti, f.f.n N.Jurayeva taqrizi asosida

INGLIZ TILI MUHITIDA TANLANGAN IJODIY ASARLAR ASOSIDA KREATIV SAMARADORLIKKA ERISHISH

Annotatsiya

Maqolada bugungi zamonaviy ta’limda san’at sohasida ta’lim olayotgan Oliy ta’lim muassasasi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuv, bo‘lajak rassomlarni til muhitiga tushirishni kreativ usullar asosida samarali tashkil etish masalalari XX asr tasviriy san’atiga zalvorli hissa qo‘shgan postimpressionist rassom Vinsent van Gogning ijod namunalari misolida pedagogik nuqtai nazardan aniq misollar asosida tahlil qilinadi. Har bir asarga optimal metodikalar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ijodkorlik, guruhda ishlash, ijodiy yondashuv, rassom talabalar, ijodiy muhit, ijodiy fikrlash, kreativlik, ijodiy asar.

ДОСТИЖЕНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ИЗБРАННЫХ ТВОРЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

В статье рассматривается современный подход к обучению английскому языку студентов ВУЗа, обучающихся в сфере искусства в современном образовании, вопросы эффективной организации приобщения будущих художников к языковой среде на основе творческих методов. значительный вклад в изобразительное искусство 20 века, анализируется на конкретных примерах с педагогической точки зрения, на примере творчества художника-постимпрессиониста Винсента Ван Гога. Для каждой работы предложены оптимальные методы.

Ключевые слова: Креативность, работа в команде, творческий подход, студенты-художники, творческая среда, творческое мышление, креативность, творческая работа.

ACHIEVING CREATIVE EFFICIENCY ON THE BASIS OF SELECTED ARTWORKS IN ENGLISH ENVIRONMENT

Annotation

The article highlights a modern approach to teaching English to students studying in the field of art in modern education, the issues of effective organization of introducing future artists to the language environment based on creative methods. On the example of the work of the Post-impressionist artist Vincent van Gogh, who contributed a significant role to the fine arts of the 20th century, is analyzed on specific examples from a pedagogical point of view. Optimal methods are proposed for each artwork.

Key words: Creativity, team work, creative approach, art students, creative environment, creative thinking, creativity, creative work.

Kirish. “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishi shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”. Davlatimiz rahbari tomonidan 2021 - yil 6 - may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bildirilgan ushbu fikrlar bugungi zamonaviy davr uchun aytilgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lgani bilan ham ahamiyati yuqori bo‘ldi. Chet tillarni har soha vakilining chuqur bilishi nafaqat o‘z mamlakatida yutuqlarga erishishida, balki xorijiy davaltlar tajribasini ham o‘zlashtirib faoliyat olib borishi, uning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, shu bilan birga san’at sohasida ham til bilishning ahamiyati yuqoridir. Deylik, oliy ta’lim muassasasini tasviriy san’at yo‘nalishini tamomlagan rassom talaba o‘z ijod namunalari bilan xorijiy davlatlarning birida shaxsiy ko‘rgazma tashkil etish niyatida. Uning til bilish darajasi o‘rtadan past darajada, natijada rassom:

o‘z ijod namunasini bevosita o‘zi tanishtirish imkoniyatiga ega emasligi;

foydalanilgan ranglar kompozitsiyasini tushuntirib bera olmasligi;

o‘z fikr, istak-xohishlarini o‘zi istagandek erkin ifodalab bera olmasligi

kabi holatlarga tushishi ma’lum ma’noda o‘sha vaziyat uchun diskomfort ya’ni noqulaylik keltirib chiqarishiga sabab bo‘ladi. Qanday yaxshiki, rassom o‘zi yaratgan ijod mahsulini to‘liq, o‘zi anglab va his qilib turgan holatlar bilan birga xorijiy tashrif buyuruvchilarga erkin tushuntirib bera olsa. Xorijiy tillarni o‘zlashtirish har soha vakiliga, jumladan, rassomga dunyo eshiklari ochadi, tajribalar almashish va uni tadbiq etish imkoniyatini va eng muhimi, yurtimiz san’atini dunyo bo‘ylab tarannum etilishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, talabalarga chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘rgatishni yuqori nuqtaga olib chiqish pedagogdan kreativ fikrlashni talab qiladi. O‘qituvchi talabaning xohish-istaklarini inobatga olishi, unga mos zamonaviy qarashga ega pedagog sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkun bo‘lganiday, kreativ fikirlash qobilyati yoki ko‘nikmasini ham

rivojlantirish mumkin. Bu bo‘lajak pedagoglarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash bo‘lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Biroq, bo‘lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo‘liq. Kreativlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo‘lajak pedagoglarda fikirlash tarzining shakllanishi, o‘qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aynan Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikalariga oid ilmiy tadqiqotlar L.Axmedova, G.Bakiyeva, M.Gulyamova, J.Jalolov, X.Mamatkulov, F.Rashidova, T.Sattarov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. M.Gulyamova, N.Kushiyevaning tadqiqotlarida esa aynan ingliz tili muhitida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida klasterli yondashuv, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda muayyan sohalarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalari N.A.Mixaylov, Z.A.Stamboleva, Y.V.Kozlovskaya, O.F.Ostroumova, Yu.A.Mixaylov, A.N.Alenova, N.S.Saharova, A.V.Bogdanova, O.S.Fokina, A.V.Avdeyeva, Ye.Ye. Ovakimyan, Akugbe Robert, Jo Son Mi, Julianna V. Lux, Beata Artz, Pino Alcaraz Marcelalar tomonidan o‘rganilgan. Kreativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy, amaliy, ilmiy asoslari T.T.Kaziyeva, A.G.Shumovskaya, I.S.Bekesheva, I.Y.Bryakova, Y.V.Kozlovskaya, Sherry G.Phelanlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Vinsent Villem van Gog postimpressionizmning yetakchi namoyandasi, Yevropa madaniyatidagi murakkab burilish davrini o‘zida aks ettirgan, rasmlaridagi noodatiy ko‘rinishga ega bo‘lgan burilishlar, to‘lqinlar, spirallar bilan ko‘pchilik tasviriy san’at shaydolarini o‘ziga jalb etgan mashhur golland rassomi hisoblanadi. U tanqidiy realizm an’analarini rivojlantirib, asarlarini obrazlarning ta’sirchan ruhiy kuchi, odamlarning dardi va tushkunligini chuqur his etish bilan boyitdi. Har bir bo‘lajak rassom so‘zsiz, Villem van Gog asarlarini o‘rganadi, undan ilhomlanadi. Uning asarlaridagi o‘ziga xoslik har bir talabani qiziqtirmay qo‘ymaydi.Ingliz tili darslarini rassom ijod namunalari asosida samarali tashkil etish, fikrimcha, yuqori ahamiyat kasb etadi. Talaba, avvalo, o‘z sohasi ekanligi uchun darsga katta qiziqish bilan qaraydi. Pedagog tomonidan kreativ muhit yaratilib, turli innovatsion interaktiv metodlar, harakatli o‘yinlar asosida dars jarayoni tashkil etilsa, talaba mashg‘ulotdan kutilgan natija bilan chiqadi. Bugun ba’zi o‘rinlarda qolipga solingan pedagogik sharotni kuzatishimiz mumkinligi achinarli hol. Dars shunday erkin va ijodiy muhitda tashkil etilishi kerakki, u ikki tomonlama natija, samara berishi kerak. Ham pedagogik maqsadga erishish, ham talaba mashg‘ulotdan til aspektlarini o‘rganib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Har bir ta’lim muassasasi, har bir pedagog har qanday qoliplangan muhit natija bermasligini tushunishi, so‘z va harakat erkinligi cheklanmagan ijodiy mashg‘ulotda yuqori samaradorlikka erishishi mumkinligini anglagan holda, darsni tashkil etishi juda ahamiyatlidir.

Tahlil va natijalar. Kreativ muhit samaradorligi talabaga erkin ijodiy sharoit yaratib berish bilan ifodalanar ekan, demak, Villem van Gog ijod namunalari asosida darsni tashkil etish, bu borada ayni muddaodir. Rassomning “Arles forum maydonidagi tungi kafe terassasi” nomli ushbu asaridan talabalarga ingliz tili grammatikasidagi Tasdiq so‘roq gaplar (Tag questions) ni grammatik strukturasini tushuntirishda foydalanish mumkin. O‘qituvchi talabalarga shu kabi savollar bilan murojaat qiladi:



It is fine today, isn’t it?
There are lots of news for today, aren’t they?
Lola was absent last lesson, wasn’t she?
You are so active today, aren’t you?

Keyingi bosqichda talabalarga ushbu kartinani ochib beruvchi savollar jamlanmasi beriladi. Talabalar 3 guruhga bo‘lingan holda kartochkalardagi ta’riflardan qay biri ushbu asarga tegishli ekanligini topishlari kerak bo‘ladi (ajratilgan vaqt 3 daqiqa). Topilgach, kartochkada keltirilgan savollarga zamonlariga ahamiyat bergan holda, javob berishlari talab etiladi.

Card 1
It is not an artwork of Claude Monet, is it?
There aren’t lots of high buildings in it, are there?
Artist didn’t want to express tree in a full look, did he?
Mixed colours are used in this artwork, aren’t they?
The foreground of the artwork starts with stones in blue covers, doesn’t it?

Card 2
You do not know the name of this picture, do you?
Artist used only dark colours, didn’t he?
People are coming to the Concert hall, aren’t they?
You can see family with 2 children, can’t you?
Stars didn’t appear in unusual form, did they?

Card 3
Only light colours are used in this artwork, aren’t they?
Artwork consists of only a huge group of people, doesn’t it?
You can not see old people in the foreground of the picture, can you?
There are the myrid of stars in the sky, aren’t they?
Artist did not leave the seats empty, did he?

Olinadigan natijalar:
Talabalarda ingliz tilidagi turli zamonlarda tuzilgan gaplar asosida javob berishi oson bo‘ladi;
Grammatik struktura oson o‘zlashtiriladi;
Bu vazifa talabalarda diqqatni jamlay olish ko‘nikmasini rivojlantiradi (concentrating);
Guruh bilan ishlash natijasida erkin fikrlashga yo‘l ochiladi (diskussiya).

Tadqiqotimizning ob’yekti sifatida olinayotgan rassomning navbatdagi asari “Etteni bog’idan xotiralar” deb nomlangan. Bu asar bo‘yicha ishlanadigan grammatik aspektlar Present continuous tense (Hozirgi davomli zamon), Present simple tense (Hozirgi noaniq zamon), The construction There is\There are (There is\There are konstruksiyasi).

Bu vazifani bajarishda «Videotopishmoq» metodidan foydalaniladi. Talabalarga, avval, Villem van Gog ijodiga tegishli bir necha kartinalar namoyish etiladi, bu jarayonda o‘qituvchi ushbu kartinaning ta’rifini aytib turadi, talabalar esa ta’riflanayotgan kartinani topishga harakat qiladilar, bunda guruh bo‘lib ishlanadi (group working). Jarayon davomida, talabalarga quyidagi kreativ topshiriq beriladi:

«Tasavvur qiling siz mashhur rassomsiz va ushbu asarni qanday nomlagan bo‘lardingiz va nima uchun?»

Keys uchun o‘qituvchi avvaldan tayyorlab kelgan yangi so‘zlarni har bir guruh a’zolariga tarqatadi (new vocabulary):

To blossom,	Source of amazement,	
Beauty,	The joy of living,	Misery,
Warmness,	Blissfulness,	Path
Lyrics of life,	Wealthy,	Sentiment
Eye-catching,	With deep pockets,	Incredible
On the bank of a canal,	Elegance,	Flourishing

Talabalar asarni o‘z tasavvur nuqtai nazaridan kelib chiqib, yuqoridagi yangi so‘zlardan foydalangan holda nomlaydilar va yod oladilar. Bu topshiriqqa har bir talaba individual yondashadi, (keyslar uchun jami ajratilgan vaqt 45-50 daqiqa).

Olinadigan natijalar:

Talabalarda tinglab tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi (listening);

Talaba o‘zini to‘la erkin ijodiy muhitda his qiladi (friendly artistic atmosphere);

So‘zlarni amaliy o‘zlashtirilishi osonlashadi (memorizing);

Interaktiv aloqalar sabab grammatika samarali o‘zlashtiriladi.

Navbatdagi asar “Bahordagi baliq ovi” deb nomlangan bo‘lib, unda aks ettirilgan hayoliy va hayotiy tasavvurlar bilan ishlash, fikrimcha, talabalarga katta zavq bag‘ishlaydi.

Bu keysda ham talabalar guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar. Kartina, dastlab, talabalarga ko‘rsatilmaydi, faqatgina nomi aytiladi va shu holatga tasavvurlaridagi jarayonni aks ettirish topshirig‘i beriladi (ajratilgan vaqt 8-10 daqiqa). Bu jarayonni biz, ma’lum ma’noda, virtual pedagogokaning bir qismi deya qabul qilsak bo‘ladi. Talabalar rasmlarini taqdim etadilar va uni qanday aks ettirganlari haqida har bir guruhdan 1 nafar talaba qisqacha tushuntirib beradi. Shundan so‘ng, keysning ikkinchi qismiga o‘tiladi va Villem van Gogning shu nomli asari talabalarga ko‘rsatiladi. Jarayon davomida o‘qituvchi talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi va «Eng kreativ ta’rif egasi» ni aniqlaydi va o‘sha talaba oraliq nazoratda bonusga ega bo‘ladi. Talim doim talabalarni ruhlantirib turish bilan birga olib borilishi samarali natija beradi.

Nima deb o‘ylaysiz, nima sababdan Villem van Gog ushbu asarida ikkita qayiqni va ularning birini bo‘sh holatda tasvirlagan?

Talabalar keysning bu qismida individual ishlaydilar (ajratilgan vaqt 5-7 daqiqa).

Olinadigan natijalar:

Jarayonlarni tasavvur qilib aks ettirish ko‘nikmasi rivojlanadi;

Tanqidiy fikrlash oshadi (critical thinking);

Diskussiya jarayonlari talabalarning gapirish ko‘nikmalarini oshiradi (speaking);

Didaktik vaziyatlar samaradorligi oshadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi zamonaviy pedagogikada har bir darsga innovatsion va kreativ yondashuv talabi qo‘yilmoqda. Uni yuqori darajada tashkil etishda o‘qituvchining kreativ fikrlashi, talabalarga erkin, ijodiy muhit yaratib bera olishining ahamiyati yuqori. Ingliz tili darslari quvnoq va do‘stona muhitga asoslangan o‘yinlar, viktorinalar, diskussiya, debatlar, musiqiy aspektlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Shunda, o‘qituvchi ham pedagogik maqsadiga erishadi, talaba ham darsdan bir olam bilim-ko‘nikmalari, katta stimul bilan chiqadi.

ADABIYOTLAR

1. Saidg‘aniyeva S.Yu., Sh.R.Abdullayeva, I.A.Abduqunduzov Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosiy omili sifatida SCIENTIFIC PROGRESS Scientific Journal, ISSN: 2181-1601 Volume: 1, ISSUE: 4,
2. Jumayeva S.D.Creative approach in English classes as an example of Akmal Nur’s experience. Problems and solutions for teaching pedagogical and psychological subjects in higher education-International scientific and practical conference. 13.12.2022.
3. Jumayeva S.D.“The ways of effective organize of English lessons using Kamoliddin Bekhzod’s miniatures” “Kamoliddin Behzod ijodi-jahon olimlari nigohida” mazusidagi Xalqaro ilmiy anjuman to‘plami//–T.: Zamon poligraf nashriyoti, 2022.19.10.
4. Jumayeva S.D.. Forming students’ creative competencies by using Kamoliddin Behzod’s miniatures in English lessons. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. 2023, [1/3] ISSN 2181-7324. UDC: 159.953. P.69-72.
5. Rebecca J. White Spoken English for Artists Spiral-bound – January 1, 2014.
6. Brown H.D. (2011). Teaching by Principles-An Interactive Approach to Language Pedagogy. NY: Addison Wesley Longman.
7. Вяткиной П.А., Винсент Ван Гог Жизнь и творчество в 500 картинах Москва 2017.
8. Websites:
9. https://www.google.com/search?q=creative+competence
10. https://blog.realla.co.uk/how-do-you-create-a-creative-environment
11. https://www.google.com/search?q=suggestopedia+method

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК: 796.015.865.2:8

Бехзод ИБРАГИМОВ,
д.ф.п.н. (PhD), и.о. доцента Национального университета Узбекистана
E-mail: bekajon@mail.ru

На основе рецензии Спортивного директора Федерации Дзюдо Узбекистана, д.ф.п.н. (PhD), и.о. доцента З.Юсупова

SOME ASPECTS OF THE METHODOLOGY OF IMPROVEMENT OF COACHING SKILLS IN THE INSTITUTE OF ADVANCED TRAINING

Annotation

This article summarized the results of a pedagogical experiment conducted with wrestling coaches in training courses. Methods of improving the coaching skills of wrestling trainers in the training system are considered.

Key words: Professional preparedness, advanced training, special knowledge and skills, technical and tactical training methodology, pedagogical experiment.

MALAKA OSHIRISH INSTITUTIDA MURABBIYLIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASINING AYRIM TOMONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kurash bo‘yicha murabbiylar ishtirokida malaka oshirish kurslarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari umumlashtiriladi. Malaka oshirish tizimida kurash bo‘yicha murabbiylarning murabbiylik mahoratini oshirish usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish, maxsus bilim va ko‘nikmalar, texnik va taktik tayyorgarlik texnikasi, pedagogik eksperiment.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ МЕТОДИКИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТРЕНЕРСКОГО МАСТЕРСТВА В ИНСТИТУТЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотация

В данной статье обобщены результаты педагогического эксперимента, проведённого на курсах повышения квалификации с участием тренеров по спортивной борьбе. Рассмотрены методы совершенствования тренерского мастерства тренеров по спортивной борьбе в системе повышения квалификации.

Ключевые слова: Профессиональная подготовленность, повышение квалификации, специальные знания и умения, методика технико-тактической подготовки, педагогический эксперимент.

Актуальность исследования. Одной из основополагающих задач государственной политики Узбекистана является организация повышения квалификации специалистов в области физической культуры и спорта. В настоящее время в Узбекистане проводятся широкомасштабные реформы по дальнейшему коренному совершенствованию системы переподготовки специалистов[3,4]. Вместе с тем, в стране имеется целый ряд препятствующих этому серьёзных проблем, в частности: недостаточный уровень учебной и учебно-методической литературы в сфере, дефицит специалистов с высшим образованием; низкий потенциал кадрового состава, не позволяющий обеспечивать необходимый уровень качества занятий и тренировок, дефицит спортивных, тренерских и педагогических кадров по отдельным видам спорта, наметилась тенденция к сокращению наиболее квалифицированных тренерских кадров высшей и первой категории, наблюдается снижение и общего профессионального уровня работников.

Изучение исторического пути и закономерностей развития системы повышения квалификации тренеров по спортивной борьбе в Республике Узбекистан позволяет проследить неразрывную связь прошлого и настоящего, их преемственность, а также способствует составлению наиболее оптимального стандартного учебного плана и учебных программ курсов повышения квалификации тренерских кадров.

Современный тренер по спортивной борьбе для успешной работы в сфере спорта должен постоянно пополнять и обновлять свои профессиональные знания и знакомиться с новыми технологиями в профессиональной деятельности. Вместе с тем, как показывает практика, лишь самостоятельное повышение квалификации специалистами не приносит желаемого результата. Необходимы специальные условия и высококвалифицированные преподаватели, способные организовать этот процесс. Решить данную проблему могут только специальные учебные подразделения. К таким подразделениям относятся центры и институты повышения квалификации, созданные и находящиеся, как правило, в составе физкультурных вузов. Эти центры появились относительно недавно и до настоящего времени система обучения в них окончательно не сформировалась.

Анализ научной литературы по данной тематике позволил сделать вывод, что «профессиональная подготовленность» являются одним из основных или прямых компонентов «профессиональных знаний». Таким образом, актуальность выбранной проблемы для исследования не вызывает сомнений[5,6,7,8,9,10,11 и др.].

Цель исследования – разработать и апробировать методику совершенствования тренерского мастерства у специалистов по спортивной борьбе в системе повышения квалификации (на примере вольной борьбы).

Методы исследования: теоретический анализ и обобщение данных специальной литературы по проблеме исследования, обобщение опыта, компьютерное тестирование, метод экспертных оценок, педагогический эксперимент, методы математической статистики.

Результаты исследования и их обсуждение. Теоретическое обоснование путей разработки методики повышения эффективности процесса формирования профессиональной подготовленности тренеров по спортивной борьбе в системе повышения квалификации, в связи с результатами исследований педагогических условий реализации методов и организационных форм повышения квалификации, компонентов специализированной деятельности тренеров по спортивной борьбе и ранжирование их по значимости для тренеров различных категорий определяет необходимость постановки перед экспериментом следующих задач:

а) повысить у слушателей курсов повышения квалификации спектр профессиональных знаний об основных компонентах специализированной деятельности тренера по вольной борьбе;

б) повысить систему знаний о составе технико-тактических действий спортсмена (противника), опосредованных исходным положением начала схватки, в ситуациях простого реагирования, реагирований с выбором и переключением;

в) расширить объёмы специальных знаний о последствиях возможных ошибок тренера при моделировании соревновательных ситуаций, характерных для поединков в вольной борьбе;

г) повысить качество и профессионализм владения методами технико-тактического совершенствования борцов.

Важное место среди профессиональных навыков занимает управление процессом технико-тактической подготовки, куда входит изучение совершенствование технико-тактических действий.

Предварительное обследование в группах проводилось для выявления подготовленности слушателей к изучаемому разделу программы. На основе полученных данных представлялась возможность сравнить исходное состояние слушателей, а также проследить эффективность воздействия традиционной и экспериментальной методик обучения.

Среди разделов знаний нами были выделены основные разделы, относящиеся к методике технической и тактической подготовке борцов. Они включали в себя освоение тактической сущности действий и ситуаций, создание представлений о действиях спортсменов на основе простого реагирования, реагирований с выбором и переключением. Кроме того, выделены теоретические положения, связанные с особенностями применения тренером разновидностей методов технико-тактического совершенствования борцов.

Выявление исходного, а также итогового контрольного уровня знаний состава действий спортсмена в схватках в ситуациях простого реагирования и реагирований с выбором и переключением проводилось на основе компьютерного тестирования слушателей, предъявлявшего требования к оценке тактической сущности создаваемых спортсменом и предлагаемых действий со стороны противника. Каждое тестовое задание содержало ряд наиболее распространённых действий или типовых ситуаций единоборства, а испытуемый должен выбрать адекватные ситуации действия спортсмена или его противника.

Затем предлагались задания на актуализацию частных характеристик выполнения технико-тактических действий (ТТД). В условиях задания использовался не полный состав характеристик для выполнения приёма. Или уже выполненный приём, не указывалось начало приёма. Например: выполнить бросок прогибом и наклоном. Название броска (наклоном, через плечи, прогибом и т.д.) опускалось. После этого тренера приступали к его выполнению. Они самостоятельно проводили сопоставление выполнением технических действий, находя различия между вариантами приёмов. Оказывалось, что выполнение любого приёма отвечает условию задания, хотя проводились приёмы различных групп.

Далее предлагалось выполнить тот же приём, но с конкретным названием. Тренера смело приступали к его выполнению и вдруг оказывалось, что приём может быть выполнен переводом, броском и сваливанием и т.д. Таким образом, тренера оказывались в ситуации, когда возникает необходимость определить различия между исполнением ТТД и путём сопоставления и сравнения их вариантов выявить общие и частные характеристики выполнения.

В первом эксперименте испытуемые были разбиты на пары. Две пары организовали малую группу, в которой каждый из тренеров поочередно выполнял роль тренера, проявляя свои знания, умения и навыки в обучении технико-тактическим действиям спортивной борьбы и в роли спарринг-партнера, совершенствуясь в выполнении двигательных действий.

После проведения первого эксперимента оказалось, что тренера, специализирующиеся по спортивной борьбе, владеют двигательными навыками выполнения и показа приемов намного лучше, чем объяснением и описанием ТТД. Это объясняется тем, что они как спортсмены владеют выполнением приёмов различных групп и на этой основе легко осваивают новые варианты приемов. Поэтому, для того чтобы увеличить время исполнения преподавательских функций тренера стали разбиваться на тройки с поочерёдным выполнением заданий по обучению технико-тактическим действиям.

Предлагаемые тренерам задания имели неполный состав условий. В ТТД задавались лишь некоторые характеристики ситуации и технического действия (например: взаиморасположение борцов, направление их передвижения, группа приема, захват, ситуация начала атаки, контратаки, конечное положение и т.д.) в процессе повышения квалификации по модулю СПМО.

При выполнении задания тренер оказывался в ситуации, когда от него требовалось: 1-определить ТТД, которому соответствует данное условие; 2-определить характеристики выполнения ТТД, которые не заданы условием задачи; 3-конкретизировать эти характеристики в соответствии с выбранным ТТД; 4-показать ТТД; 5-объяснить или описать ТТД.

Индивидуальная коррекция заключалась в том, что в случае если тренер допускал неточность в объяснении или описании двигательного действия, пропуская или наверно объясняя некоторые характеристики его выполнения, то «ученики» (тренера группы или проводящий занятие тренер) создавали помехи для выполнения приема. Таким образом проходила актуализация данных характеристик выполнения ТТД, что приводило тренера по спортивной борьбе к необходимости направлять допущенные ошибки.

Используемые в педагогическом эксперименте средства и методы оказали положительное влияние на формирование специальных знаний у слушателей экспериментальной группы (таблица 1), необходимых для решения задач технико-тактического совершенствования спортсменов.

Таблица 1

Показатели тестирования уровня специальных знаний у контрольной и экспериментальной групп на этапах педагогического эксперимента

№	Тесты	Начало эксперимента		Тм	Конец эксперимента		Тм
		Конт-роль-ная	Экспе-римен-тальная		Конт-роль-ная	Экспе-римен-тальная	
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Определение адекватного действия, исходного положения и дистанции в ситуациях простого реагирования						
	- действия спортсмена	52	47	166	x68	x88	142
	-действия противника	39	43	159	x62	x81	144
2.	Определение адекватного действия исходного положения и дистанции в ситуациях с выбором						
	- действия спортсмена	42	36	181	x66	x83	140
	-действия противника	39	44	172	58	62	185
3.	Определение адекватного действия исходного положения и дистанции в ситуациях с переключением						
	- действия спортсмена	52	47	197	x68	x86	138
	-действия противника	40	44	163	63	67	201
4.	Определение адекватного действия на основе предварительной информации об оборонительных намерениях противника						
	- действия спортсмена	41	48	188	xx65	xx88	132
	-действия противника	36	44	170	x61	x79	146
5.	Определение адекватного действия в упражнениях, направленных на совершенствование тактических умений преднамеренно действовать в типовых ситуациях						
	- действия спортсмена	44	52	180	xx62	xx89	126
	-действия противника	48	42	195	x60	x83	141

Примечание: Различия достоверны: x – $P \leq 0,05$; xx – $P \leq 0,01$.

В экспериментальной оценке методики повышения эффективности процесса формирования профессиональной подготовленности тренеров по спортивной борьбе в системе повышения квалификации рассматриваются новые подходы к процессу повышения уровня специальных знаний, умений выявления и исправления ошибок в двигательных действиях спортсменов, овладения методами технико-тактического совершенствования борцов вольного стиля.

Выводы. По результатам педагогического эксперимента подтверждено преимущество использованной методики при освоении специальных знаний, предназначенных для выбора спортсменом и его соперником разновидностей действий в наиболее распространённых ситуациях борцовского поединка.

Более успешное овладение слушателями экспериментальной группы методами технико-тактического совершенствования спортсменов, выраженное в достоверном превышении ($P<0,01$) их показателей в сравнении с данными слушателей контрольной группы, свидетельствует об эффективности разработанной методики совершенствования тренерского мастерства в системе повышения квалификации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Закон Республики Узбекистан Об образовании от 23 сентября 2020 года, № ЗРУ-637.
2. Закон Республики Узбекистан О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте принятый 4 сентября 2015 года за № ЗРУ-394.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 марта 2018 года О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в области физической культуры и спорта за № УП-5368 .
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 14 августа 2018 года О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности центра научно-методического обеспечения, переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту при министерстве физической культуры и спорта Республики Узбекистан за № 658.
5. Корх, А.Я. Тренер: деятельность и личность. /А.Я. Корх. - М.: Тера-спорт, 2000. - 120 с.
6. Миндиашвили Д. Г., Подливаев Б. А. Планирование подготовки квалифицированных борцов: Методические рекомендации. М, 2000.
7. Николаев, А.Н. Успешность деятельности тренера /А.Н. Николаев// Теория и практика физ. культуры. - 2003. - № 12. - С. 29-32.
8. Туманян, Г.С. Спортивная борьба: учебное пособие для институтов физкультуры. М., 1998. - 285 с.
9. Туманян, Г.С. Стратегия подготовки чемпионов: настольная книга тренера /Г.С. Туманян. - М.: Советский спорт, 2006. - 494 с.
10. Пурахин, Н.Ф. Педагогическая диагностика профессиональных качеств тренера по спортивным единоборствам: дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08/ Пурахин Николай Федорович; Федер. гос. бюджет. образоват. учреждение высш. проф. образования Рос. гос. ун-т физ. культуры, спорта, молодежи и туризма (ГЦОЛИФК). - М., 2013. - 157 с.
11. Якимов, А.М. Основы тренерского мастерства: учеб.-метод. пособие/ А.М. Якимов. - М.: Терра - Спорт, 2003 - 176 с.
12. https:/www.sportedu.uz.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:621.33

Baxtiyor KAMOLOV,
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: geograf-namdu@mail.ru.

NamDU professori, p.f.d.,Asqarova O‘.M.taqrizi asosida

MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISTIC EDUCATION IN FUTURE EDUCATORS

Annotation
The article analyzes the development of ecotourismic knowledge and skills of future pedagogues studying in higher educational institutions, the possibilities and features of meaningful trips organized in the heart of nature, and the issues of effective use of ecotourism, which is considered the youngest branch of tourism for the young generation, are discussed.
Key words: Future pedagogues, ecotourism education, development concept, healthy lifestyle, nature, educational process, skills, recommendations, knowledge and skills.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация
В статье говорится о развитии экотуристических знаний и умений будущих педагогов, обучающихся в высших учебных заведениях, о возможностях и особенностях содержательных путешествий, организуемых в лоне природы, а также о вопросах эффективного использования экотуризма, который считается самым молодым. отрасли туризма для молодого поколения.
Ключевые слова: Будущие педагоги, экотуристическое образование, концепция развития, здоровый образ жизни, природа, образовательный процесс, навыки, рекомендатsii, знания и умения.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA EKOTURISTIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya
Maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak pedagoglarda ekoturistik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, tabiat qo‘yniga tashkil etiladigan sayohatlarni mazmunli o‘tkazish, imkoniyatlari hamda xususiyatlar haqida so‘z yuritilib, yosh avlodni turizmnining eng yosh tarmog‘i hisoblangani ekoturizm sohasidan samarali foydalanish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Bo‘lajak pedagoglar, ekoturistik ta’lim, rivojlantirish konsepsiyasi, sog‘lom turmush tarzi, tabiat, o‘quv jarayoni,sharq allomalari, tavsiyalar, bilim va ko‘nikmalar.

Kirish. Hammamizga ma’lumki, 2007 - yil «O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»ni ishlab chiqilishi bu sohada olg‘a bosilgan bir qadam bo‘ldi. Ushbu Konsepsiyada ekoturizmning O‘zbekistondagi salohiyati, maqsadi, tashkiliy-huquqiy masalalari, Vatanimizda uni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan dastlabki qadamlar, yangi sohaning yaqin kelajakdagi istiqbollari, hamda ekoturistik ta’lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo‘yicha omillari mazkur konsepsiyada yoritib berilgan.

Ekoturistik fan, ta’lim, tarbiya va targ‘ibotlariga bag‘ishlangan mazkur bandida – Ekoturizmga oid ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish uchun fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bo‘yicha davlat grantlarini ajratish hamda tanlovlarni o‘tkazish; Ekoturizm yo‘nalishidagi ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi qoshida ilmiy amaliy markazni tashkil etish; Ekoturizm yo‘nalishidagi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining Ixtisoslashgan Kengashlari tarkibida maxsus shifrlarni tarkib toptirish masalalarini ko‘rib chiqish; “Ekoturistik xizmat”, “Ekoturistik marketing va menejment”, “Ekoturizm gidi” kabi mutaxassisliklar bo‘yicha o‘rta bo‘g‘indagi kasb-hunar ta’limi, bakalavr, magistr, aspirantura va doktorantura, ya’ni tegishli yo‘nalishdagi kadrlar tayyorlashning uzviyligini ta’minlash; Ekoturizm bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, namunaviy o‘quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqish, o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlarni yaratish kabi masalalarni yo‘lga qo‘yish lozimligi haqida so‘z yuritilgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekoturizmning ilmiy-nazariy masalalariga O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi geograf va iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari bag‘ishlangan. Ekoturizm haqidagi manbalar ilk bor XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida xorijlik olimlar R.Davidov, A.V.Drozdov, V.V. Xrabovchenko, T.V. Bochkaryova, L.I. Yegorenkov va A.Taksanovlarning asarlarida ko‘rib chiqilgan.

Ekoturizm boshqa turizm turlariga nisbatan yosh yo‘nalish bo‘lganligi uchun ta’limiy jihatlari hozirgi kunga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, D.L.Armand (1975), S.A.Preobrajenskiy (1971, 1975, 1989), Y.A.Kotlyarov (1978), L.I.Muxina (1974), Yu.P.Suprunenko (1979, 2007), V.N.Kozlov (1990), T.Djumaev (1998) A.J.Alieva (1998), I.Hasanov (2005), A.Soliev (2005) kabilar turizm va rekreatsion geografiyaning iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy jihatlarini ochib berganlar [2].

Biroq, hozirgacha ekoturistik ta’lim va madaniyatni targ‘ib qiluvchi ilmiy tadqiqot ishlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatma va xorijiy adabiyotlarda manbalar oz miqdorni tashkil etish bilan harakterlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ma’lumki, ijtimoiy-madaniy turmush sharoitlar davlat tasarrufidagi kup soxalar, boshkaruv organlari bilan bevosita bog’liq bo‘ladi. Ayniqsa iqgisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar uning asosini tashkil etadi. Fan, ta’lim, kabi eng muhim sohalar insoniyat uchun eng zarur tadbirlar sirasiga kiradi. O‘zbekiston mustaqilligi yangi yo‘nalishdagi va o‘z istiqbolidagi ijtimoiy-madaniy hayotga yo‘l boshladi. Shu

asosda deyarlik barcha sohalarda tub islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Ekoturistik ta’lim bu – ta’lim oluvchilarning sayyohlikka tayyorlashning tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli bilim, ko‘nikma, malaka – kompetensiya berish vositasi [5].

Ekoturizmning mohiyati va ularning turlari haqida to‘xtalib o‘tiladigan bo‘lsak, bevosita ta’lim oluvchilarning tabiat qo‘ynida dam olish jarayonlari bilan bog‘liq. Ekoturistik tarbiya - yosh avlodni muayyan maqsad yo’lida har tomonlama o‘stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib topgirish jarayonidir. Ekoturizm esa kishilarni xar tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Ekoturizm jismoniy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida sog’lomlashtirish va majmuiy tarbiyani amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Bu esa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish vositalaridan biridir.

Bo‘lajak pedagoglarda ekoturistik ta’lim mexanizmlari insonning aqliy tarbiyasi taraqqiyotiga bevosita ta’sir etadi, yoshlarning geografiya, biologiya, tarix, geologiya, iqtisod, adabiyot, ma’naviyat va boshqa fanlar bo‘yicha olgan bilim va malakalarini yanada boyitadi. Tarixiy obidalar bilan tanishish kishilarining ulkan yaratuvchanlik mexnatlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish yoshlarning fikr doiralari, bilim va malakalarinigina oshirib qolmasdan, ularda Vatanga muhabbat, jamoatchanlik ruhini his qilish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni e’zozlash kabi his va tuyg‘ularni ham tarbiyalaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida ekoturistik ta’lim – talabalarga ekoturizm sohasiga doir ko‘rsatma, tavsiya va infografik ma’lumotlar asosida sayyohatlarga umumiy (noturistik OTMda) yoki kasbiy (turistik OTMda) beriladigan bilimlarni zamonaviy metodik vositalar yordamida takomillashtirilib, o‘ziga xos ta’limiy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, tabiat qo‘yniga tashkil etiladigan sayohatlarning davomiyligida dam oluvchilar tabiatga o‘z ta’sirlarini kamaytirgan holda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlari talab etiladi. Xavfsizlik qoidalari zaminida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish va xizmat turlarini takomillashtirish lozim. Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarini moddiy bazasini mustahkamlashga yo‘naltirgan holda sog‘liqni saqlash sohasi tizimini yanada isloh qilish demakdir [3].

Sayohatlarning davomiyligida chiniqtirish, o‘quvchi-yoshlarni vatanni sevishga, vatanparvarlik hissini uyg‘otishga, millatparvarlik, hamda ezgu orzularga erishishga yo‘naltiradi va sog‘lom turmush tarzini kechirishga undaydi. O‘quvchilar o‘z hududidagi sayyohatlarni tashkil etishda jonajon Vatanimizni, tabiati, o‘simlik va hayvonat dunyosini, soy va ko‘llar bilan yaqindan tanishishlari mumkin. O‘quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir etib, sog‘lomlashtirish, ommaviy sport va ekoturistik, umumiy jismoniy tayyorgarlik guruxlari, mehnat va dam olish joylarida mashg‘ulotlar olib borish, musobaqalarda ishtirok etish, salomatlik kunlari, turistik sayohatlar, sport tadbirlari, mustaqil mashg‘ulotlar va boshqa tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan birgalikda tabiat qoyniga tashkil etiladigan ekoturistik sayohatlarni uyushtirish rejali bo‘lib, oldindan tayyorgarlik ko‘riladigan tadbirlardan biri hisoblanadi [4].

Yuqoridagi manbalarni umumlashtirgan holda ekoturistik sayohatlarni takomillashtirish va qiziqarli tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash mumkin.

Birinchidan – o‘quvchilar o‘rtasida sayohat turlarini olib borish maqsadida istiqbolli chora-tadbirlar rejasini tuzish va tasdiqlatish.

Ikkinchidan – ta’lim bosqichlarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni dam olish va ta’til kunlarini mazmunli o‘tkazish va tabiat qo‘yniga sayohatlarni tashkil etishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish uchun o‘quv-metodik ko‘rsatma ishlab chiqish.

Uchinchidan – maqsadli rejalashtirilgan sayohatning davomiyligini tashkil etilganligi va yakunlangaligini ifodalovchi lavhalar tayyorlash, ommaviy axborot vositalari yordamida yoritish va reklama roliklarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, bevosita tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan ekoturizmning nazariy asoslari zaminida metodologik asoslari hisoblanib, aholining ta’lim oluvchi qatlamlariga bilim va ko‘nikmalarni yetkazishda zamonaviy metodik vositalar yordamida qo‘llash uchun yuqoridagi ko‘rsatma, tavsiya va rasmli ma’lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ekoturizm yagona tizimda turuvchi, biri ikkinchisidan kelib chiquvchi mustaqil fan sohasi, ta’lim yo‘nalishi va amaliyot tarmog‘idir. Ekoturistik ta’lim ijtimoiy va tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, u kishilik jamiyatining ongi va dunyo qarashining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq jarayondir.

Aholining barcha qatlamlarida tabiatni asrash, yuzaga kelayotgan ijtimoiy ekologik muammolarni bartaraf etishda ta’lim bosqichlari va ularning pedagoglarining tizimli faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda joriy qilingan barcha ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida tabiat bilan bog‘liq bilimlarni shakllantirish hozirgi kunning davr talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar o‘rtasida ekoturistik ta’lim va tarbiya o‘zaro uzviy bog‘langanligi uchun ham haqiqiy o‘qigan kishining ma’naviyati va ma’rifati boshqachadir.

Reja asosida tashkil etilgan sayohatlarni tashkil etishdan asosiy maqsad, ekoturistik ta’lim samaradorligini oshirish bo‘lib, o‘z vaqtida jonli tabiat bilan tanishtirish, atrof-muhit, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yuzasidan bilimlarni mustaxkamlashda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Хаэркэму. Концепция устойчивого развития экотуризма в заповеднике Канас Текст // Хаэркэму: Экономика, 2000.-36-40 с.
2. Shamuratova N.T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. G.f.n.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-Toshkent, 2011.-10 b.
3. Nigmatov.A.N. Hayot faoliyati xavfsizligi.-T.:Navro‘z,2016.7-b.
4. Axmedova D.,Solihova G‘..Sog‘lom avlod asoslari.T., O‘zbekiston, 2007. 30-b.
5. Kamolov B.X. Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik, komplekslilik xususiyatlari
6. Geografiya fanlari falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2018. -23 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:091

Nodirbek KODIROV,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi, f.f.d(PhD)

F.f.d (PhD) dots K.Kabulov taqrizi ostida

YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINING GLOBALLASHISH JARAYONI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada axborot madaniyatining globallashish jarayoninng ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil etilgan. Shuningdek, bugungi globall jarayonlarda yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning muhumligi asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: Axborot, intellektual salohiyat, siyosiy, kommunikatsiya, radikalizm, liberalizm, axborot ayriboshlash, ijtimoiy fenomen.

ANALYSIS OF THE GLOBALIZATION PROCESS OF INFORMATION CULTURE IN YOUTH

Annotation

The article analyzes the positive and negative consequences of the process of globalization of information culture. Also, the importance of forming information culture among young people in today's global processes is justified.
Keywords: Information, intellectual potential, political, communication, radicalism, liberalism, information exchange, social phenomenon.

АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ГЛОБАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье анализируются положительные и отрицательные последствия процесса глобализации информационной культуры. Также обоснована важность формирования информационной культуры среди молодежи в современных глобальных процессах.
Ключевые слова: Информация, интеллектуальный потенциал, политика, коммуникация, радикализм, либерализм, информационный обмен, социальное явление.

Kirish. Axborot madaniyatining hozirgi globallashuv darajasida erishilgan ijobiy yoki “salbiy” natijalari, an’anaviy industrial (hozir postindustrial-axborotlashgan, innovatsion-texnologik axborotlashgan) rivojlangan mamlakatlarga hamda milliy taraqqiyotda (aniqrog‘i, mustaqillikka erishgan) “uchinchi dunyo” davlatlarga differensiallashgan tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, uning ijobiy ta’siri, dunyo davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarida texnika, texnologiya, investitsiya, intellektual salohiyat, axborot ayriboshlash infrastrukturasi va kommunikatsiyasini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish bilan xarakterlanadi.

Salbiy oqibatlari davlatlarning (aksariyat holatlarda, ijtimoiy birliklar va shaxs darajasida) boqimandalikka, qaramlikka, mutelikka, egoizmga, individualizmga, “milliy kibrga”, “milliy marginallashuvga”, “ommaviy madaniyatga”, g‘ayriinsoniy harakatlarga, deviant xulq-atvorga moyillik kayfiyatlarini kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot madaniyatining ijobiy jihatlari ham, “salbiy” oqibatlari ham, inson yashash muhiti, xususan ob’ektiv tabiiy-geologik, iqlim va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlaridan tashqari, sub’ektiv omillar tizimi ta’siriga ham, bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘ladi, lekin jamiyat ijtimoiy munosabatlarining axborot madaniyatiga ta’sirida ularning ichki tarmoqlanishi (ijtimoiy munosabatlarning konkret sohalaridagi differensiatsiyasi), rivojlanishi jarayonidagi uzviylik tamoyili asosiy rol o‘ynaydi. Bu ta’sir imkoniyatlari mintaqalarda axborot madaniyati “infrastrukturasi” elementlarini ishlab chiqish va joylashtirish optimalligi va ratsionalligiga, axborot madaniyatiga ehtiyojning rivojlanish bog‘liq bo‘ladi.

Axborot madaniyati hodisasining rivojlanish va globallashish jarayonini, yuqorida ko‘rsatilgan determinlashtiruvchi omillar va muayyan manfaatlar kontekstida o‘rganish, uning istiqbollari: birinchidan, axborot madaniyatini rivojlantirishga mutasaddi sub’ektlar va natijalarini o‘zlashtirayotgan ob’ektlarning axborot madaniyati globallashuvi “bosimiga” adaptatsiya potensialiga; ikkinchidan, “ommaviy madaniyat” sub’ektlarining (marginal shaxs, egoist individ, turli demografik guruhlar, noqonuniy tashkilotlar) salbiy axborot natijalarini (ayniqsa, yoshlar ongi va hayot tarziga) transformatsiya qilishning mukammal texnikasi, kommunikatsiyasi, industriyasi va texnologiyasi rivojlanishiga; uchinchidan, bozor iqtisodiyotining “yovvoyi raqobat” hodisasi natijasida katta foyda olish uchun axborot bozorni monopoliya qilish harakatlari instinktiga; to‘rtinchidan, axborot madaniyati globallashuvining ijobiy natijalari, uning sub’ektlari ijtimoiy-siyosiy faolligiga, xususan shaxs ma’naviy dunyosi, milliy o‘zligini anglashi, iroda erkinligi, faol ijodkorlik faoliyati kabi sub’ektiv omillarga; beshinchidan, axborot madaniyati globallashuvi natijalarini ijobiy yoki salbiy deb baholash asosida, jamiyat sub’ektlarining manfaatlari muqobilligini metodologik tamoyil sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, axborot madaniyati ijtimoiy-ma’naviy fenomeniga plyuralistik yondashuvlarni murosaga keltirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, uning ijobiy va salbiy oqibatlarini, jamiyatga ta’sir yo‘nalishlarini, funksional ahamiyatiga ko‘ra iqtisodiyotning – talab va taklif; foyda va zarar; siyosatshunoslikning – progress va regress, agressiya va kompromis; ideologiyaning – bunyodkorlik va vayronkorlik; etikaning – ezgulik va yovuzlik, xarizmatizm va egoizm; estetikaning – go‘zallik va xunuklik, tragediya va komediya kabi kategoriyalari kontekstida o‘rganish, uning mazmuni, mohiyati haqida, nisbatan to‘liq ilmiy tasavvurlarni shakllantiradi.

Shuning uchun hozir psevdo (soxta) axborot globallashuvi sharoitida, uning turli xalqlar, millatlar va hududlar ijtimoiy-madaniy hayotiga salbiy ta’siridan

xavotirlanishdan – amaliy qarshilik ko‘rsatishga o‘tish xarakterlidir. Ya’ni aksariyat siyosiy sharhlovchi va tahlilchilarning ta’kidlashlaricha islom, hind, xitoy va boshqa qator sivilizatsiyalarda tarixiy shakllangan ma’naviy qadriyatlarga, madaniy merosga, ijtimoiy institutlarga tayangan holda milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolishga intilish tendensiyasi namoyon bo‘lmoqda[1].

Falsafiy adabiyotlarda, umuman globallashuv ijtimoiy fenomeniga, xususan, axborot “bosimi” eskalatsiyasiga munosabatda radikalizm va liberalizm yondashuvlari kuzatilmoqda. Ya’ni birinchi – radikalizm oqimiga mansub olimlar globallashuvni yangi tipdagi jahon urushi[2] yoki uning avj olishi “ommaviy madaniyat” shakllanishiga olib kelib, millat ma’naviy qashshoqlashuvi, ularning o‘zligini anglamaydigan manqurtlariga aylantirish imkoniyati[3], degan pessimistik xulosalar ustuvorlik qilsa, ikkinchi – liberalizm ta’limotlarida globallashuv jarayoni, insoniyatning umumiy qonuniyati sifatida, uning sivilizatsiyasi kelajak istiqbollarini saqlab qolish imkoniyati tarzida baholanadi.

Lekin, bir tomondan, globallashuv jarayoni va natijalariga muayyan manfaatlarga ko‘ra yondashishlar, nisbatan muqobil nazariyalar yaratilishiga asosiy sabab bo‘lsa ham, baholashning o‘ziga xos umuminsoniy mezonlarini shakllantirgan. Ikkinchi tomondan, bu mezonlarni konkret tarixiy davr, ijtimoiy makonning iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy tizimi xarakteri, ma’naviy-madaniy taraqqiyoti xususiyatlariga differensial yondashib, umuminsoniy gumanistik va demokratik tamoyillarga mos kelishi yoki zidligi nuqtai nazaridan baholash joiz.

Xulosa va takliflar. Umumlashtirib va konkretlashtirib aytganda, bir tomondan, hozirgi davrda globallashuv jarayoniga nisbatan shakllangan jahon jamoatchilik fikrini bir-biriga qarama karshi bo‘lgan globalistlar va antiglobalistlar yo‘nalishlariga ajratishni, uning natijalariga muayyan manfaatlar asosida yondashuvning namoyon bo‘lishi tarzida qarash kerak. Ikkinchi tomondan, umuman globallashuv jarayoni, xususan uning konkret yo‘nalishlari retrospektiv-tarixiy asoslari tadqiqotiga bag‘ishlangan adabiyotlarda, aksariyat holatlarda, uni yangi tarixiy davr xususiyati sifatida izohlash, nisbatan keng tarqalgan.

Vaholanki, har qanday ijtimoiy-siyosiy hodisani vujudga kelishi genezisiga ko‘ra, (sodda-primitivligidan qat’i nazar) insoniyat jamiyati paydo bo‘lishi bilan bog‘lab tahlil qilish, bizning nazarimizda, maqsadga muvofiq va metodologik jihatdan to‘g‘ri. Shu nuqtai nazardan, ayrim olimlarning globallashuv jarayoni boshlanishini qadimiy antik dunyo tarixi bilan bog‘lab, dastlab uning harbiy-bosqinchilik harakatlarida namoyon bo‘lishi, keyinchalik iqtisodiy, geosiyosiy, axloqiy, ma’naviy, madaniy, ekologik, lingvinistik, kommunikatsiyaviy globallashuv yo‘nalishlari va shakllari paydo bo‘lgan, degan xulosalarida asos bor[4].

Darhaqiqat, insoniyatning doimiy o‘sib boradigan iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga, siyosiy mavqeini mustahkamlashga, ma’naviy-madaniy hayot tarzini o‘zgartirishga intilishlari, axborot madaniyati bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarining gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda integratsiyalashuviga hamda muqarrar ravishda, uning ijtimoiy makon ko‘lamini kengaytirib, globallashuviga olib kelgan.

Shu tamoyilga ko‘ra, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarini harakatlantiruvchi motiv va mexanizmlari, usul-vositalari, natijalarining xarakteriga ko‘ra: ob’ektiv-tarixiy va sub’ektiv-volyuntaristik yo‘nalishlarga ajratib tahlil qilish, muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Zero, ularning “ob’ektiv-tarixiy” xarakteri umuminsoniyat ob’ektiv ehtiyojlari, maqsadlarining permanent rivojlanishidan kelib chiqib, manfaatlariga mosligi, demokratik va gumanistik tamoyillarga asoslanishi, uning oqibatlari xarakterini belgilab bergan.

“Sub’ektiv volyuntaristik” xarakteri, muayyan siyosiy-mafkuraviy manfaatlarga mos bo‘lib, utopik-ideal mazmun kasb etgan. Ya’ni jahon tarixida harbiy agressiyalar, zo‘ravonlik natijasida shakllangan “global sivilizatsiya”, “global integratsiya” hodisalarining demokratik-gumanistik va tolerantlik tamoyillari bilan umumiyligi yo‘q, aksincha ularning poymol bo‘lishini namoyon qiladi.

Shunga ko‘ra, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimining (nisbatan mustaqil jarayonligiga qaramasdan), “globallashuv” va “integratsiyalashuv” fenomenlari: bir tomondan, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining ob’ektiv qonuniyati bo‘lib, taraqqiyoti istiqbollariga real imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar integratsiyasi va globallashuv tendensiyasi, ularning baynalminallashuvi va universallashuvi uchun asosiy determinlashtiruvchi sabab hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa, ularning stixiyali, sub’ektiv-volyuntaristik rivojlantirilishi, yangi global ijtimoiy-siyosiy muammolar kompleksini keltirib chiqarmoqda va mavjudlarini kuchaytirish potensialiga ega.

Xususan, shaxsni axborot madaniyati tarixiy merosidan begonalashtirish, unga nigilistik munosabatni shakllantirib, marginallashuvini, “ommaviy madaniyat” eskalatsiyasini kuchaytirib egoizm, individualizm, etnoegotsentrizm, ksenofobiya, kosmopolitizm, hodisalarini rag‘batlantirmoqda. Ammo sivilizatsiyalar tarixi tajribalari natijalari va rivojlanish mantig‘i birinchi yo‘nalish ustuvorligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, globalistika fanida, yuqorida ko‘rsatilgan hodisalar xususiyatlarini, geografik-ijtimoiy makon nuqtai nazaridan, nisbiy va shartli ravishda “G‘arb” va “Sharq” ga ajratish ham keng qo‘llaniladi. Lekin, ularni bu tarzda bir-biridan ajratish (ayniqsa qarama qarshi qo‘yish), umuman integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlari umuminsoniy axborot madaniyati normalari va qadriyatlari shakllanishiga asos bo‘layotgan hozirgi sharoitda, “sivilizatsiyalashgan dunyolar” o‘rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirishini, ularning stixiyaliligi natijasi sifatida baholash kerak. YA’ni qarama-qarshi ehtiyojlar, manfaatlar va tendensiyalar “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi”ga, qadriyatlar konfliktlariga sabab bo‘lmoqda[5].

Shu nuqtai nazardan, milliy va umuminsoniy qadriyatlari integratsiyasi va globallashuvi oqibatlarini, ya’ni insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma’naviy-axloqiy normalari va an’analarini, axborot madaniyati kontekstida tahlil qilish, uning xalqlar amaliy hayoti va tafakkur tarzini buzuvchi – anomal integratsiyalashuv va globallashuv hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlar asoslarini ta’minlash tizimini yaratuvchi – effektiv integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarini farqlash muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega[6].

Lekin anomal integratsiyalashuv va globallashuvning axborot madaniyatini rivojlantirish bilan hech qanday umumiyligi yo‘qligi uchun, ularni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa hayot sohalari sivilizatsiyalashmaganligi belgisi sifatida baholash kerak. Shuningdek, axborot madaniyati rivojlanishini effektiv integratsiyalashuv va globallashuv nuqtai nazaridan baholash ham, nisbiy va shartlidir. Chunki ularning “effektivlik” mezonlari dinamik o‘zgaruvchan bo‘lib, ijtimoiy makon va tarixiy zamon xususiyatlariga, muayyan manfaatlarni e’tiborga olib, differensiallashgan individual yondashuvni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Туленова Г. Проблема конфликта в духовной сфере // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Ташкент, 2004. №2. - С. 160. Қаранг: Туленова Г. Проблема конфликта в духовной сфере // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Ташкент, 2004. №2. - С. 160.
2. http://uz.infocom.uz/more.php?id=207_0_1_0_M8
3. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. 170 б.
4. Юлдашева Ф.Методологические проблемы исследования процесса глобализации. // Общественное мнение. Права человека. – Москва , 2008. № 2. – С. 70-71. (70-75 б.).
5. Аксюмов Б.В. Столкновение цивилизаций как конфликт между традиционностью и современностью // Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации. Материалы Международной научно-практической конференции. Бишкек, 2007. С. 9-10.
6. Кузнецов В. Геокультура. Основы геокультурной динамики безопасности в мире XXI век: культура сеть. – Москва: Книга и Бизнес, 2003, С. 416. (– 632 с).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.8

G‘ayrat QODIROV,
O‘zPFITI mustaqil tadqiqotchisi, dotsent
E-mail:gqodirov@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor X.Ibragimov taqrizi asosida

DIDACTIC CHARACTERISTICS OF HEURISTIC TASKS USED IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article examines the didactic features of heuristic tasks used in the development of professional competencies of future teachers. Suggestions and recommendations are also given on the implementation of methodological support for the project of the pedagogical process with the help of heuristic tasks, independent acquaintance with theoretical data, models, concepts of the design of the pedagogical process and their creative development, the formation of didactic projects with a visual representation of the relationships between them, experimental evaluation of the project, the implementation of pedagogical actions of an individual nature.

Key words: Future teacher, professional competencies, professional knowledge, heuristic tasks, didactic characteristics, heuristic didactic tools, design, project of the pedagogical process, analysis of the pedagogical process.

ДИДАКТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭВРИСТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье исследованы дидактические особенности эвристических заданий, используемых в развитии профессиональных компетенций у будущих педагогов. Также даны предложения и рекомендации по реализации методического обеспечения проекта педагогического процесса с помощью эвристических заданий, самостоятельному ознакомлению с теоретическими данными, моделями, концепциями проектирования педагогического процесса и их творческому освоению, формированию дидактических проектов с наглядным представлением взаимосвязей между ними, экспериментальной оценке проекта, осуществлению педагогических действий индивидуального характера.

Ключевые слова: Будущий учитель, профессиональные компетенции, профессиональные знания, эвристические задания, дидактическая характеристика, эвристические дидактические средства, проектирование, проект педагогического процесса, анализ педагогического процесса.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN EVRISTIK TOPSHIRIQLARNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan evristik topshiriqlarning didaktik xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, evristik topshiriqlar yordamida pedagogik jarayon loyihasining metodik ta’minotini amalga oshirish, pedagogik jarayonni loyihalashga oid nazariy ma’lumotlar, modellar, konsepsiyalar bilan mustaqil tanishish va ularni ijodiy o‘zlashtirish, ular orasidagi aloqadorlikni tasavvur qilgan holda didaktik loyihalarni shakllantirish, loyihani eksperimental baholash, individual xarakterdagi pedagogik harakatlarni amalga oshirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetensiyalar, kasbiy bilimlar, evristik topshiriqlar, didaktik xususiyat, evristik didaktik vositalar, loyihalashtirish, pedagogik jarayon loyihasi, pedagogik jarayon tahlili.

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantiriladigan loyihalash kompetensiyasi o‘zining aniq maqsadlariga ega. Ushbu maqsad birinchi navbatda evristik topshiriqlarni bajarish jarayonida oydinlashadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar evristik topshiriqlarni bajarish jarayonida pedagogik jarayonlarni aniq tasavvur qilish va tavsiflash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar loyiha bo‘yicha amalga oshiriladigan pedagogik harakatlarni aniq tasavvur qilishlari va amalga oshirish usullarini o‘zlashtirishlari lozim:

Loyihalashtiriladigan pedagogik jarayonni tahlil qilish. Bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu bosqichda pedagogik jarayonning qay darajada loyihalashtirish haqidagi bilimlarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Pedagogik jarayon tahlili natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar uning tarkibiy qismlarini tavsiflay olishlari, ular orasidagi aloqadorlikni tasavvur qilgan holda didaktik loyihalarni shakllantirishlari maqsadga muvofiq. Amalga oshirilgan tahlillar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik jarayonning aniq tavsifi asosida undagi bo‘shliqlarni aniqlashga erishadilar. Shu asosda kamchiliklarni bartaraf etish va bo‘shliqlarni to‘ldirish haqida tavsiyalar ishlab chiqadilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik jarayonni loyihalashga oid faoliyatlarini nazariy jihatdan rivojlantirish. Mazkur bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik jarayonni loyihalashga oid ilmiy axborotlarni mustaqil izlab topishga yo‘naltiriladilar: pedagogik jarayonni loyihalashga oid nazariy ma’lumotlar, modellar, konsepsiyalar bilan mustaqil tanishish va ularni ijodiy o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muayyan pedagogik vaziyatlarda esa ularni loyihalashga yo‘naltirilgan evristik faoliyat tajribasini egallaydilar. Tanlangan pedagogik jarayonni loyihalash yo‘nalishidagi nazariy izlanishlarni amalga oshiradilar.

Pedagogik jarayon loyihasining metodik ta’minotini amalga oshirish. Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik jarayonni loyihalash metodikasini o‘zlashtiradilar:

pedagogik jarayon modelini loyihasi maketini tayyorlash, zarur hujjatlar namunasini yaratish bilan shug‘ullanadilar. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilar bir nechta hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmasini o‘zlashtiradilar.

Pedagogik jarayon loyihalarining ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar hamda ijtimoiy buyurtma bilan uyg‘unligi. Ushbu ishlari samarali amalga oshirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar hamda ijtimoiy buyurtmaning mazmunini aniq bilishlari talab etiladi.

Loyihaning ta’lim jarayoni moddiy-texnik ta’minotini hisobga olishga asoslangan bosqichi. Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv jarayoni loyihasining moddiy-texnik ta’minoti ustida izlanadilar va uning aniq maketini tasvirlashga harakat qiladilar. Bo‘lajak o‘qituvchilar loyihalashga oid pedagogik faoliyatning 5 bosqichda amalga oshirilishini aniq tasavvur qilishlari va uning nazariy-pedagogik asoslarini puxta o‘zlashtirishlari maqsadga muvofiq: 1) individual xarakterdagi pedagogik harakatlarni amalga oshirish bosqichi; 2) o‘quvchilar bilan o‘quv materiallari ustida ishlash bosqichi; 3) audio-vizual vositalar bilan ishlash bosqichi; 4) metodik vositalar bilan ishlash bosqichi; 5) innovatsion metodlarni qo‘llash vaziyatlarini loyihalash bosqichi.

Didaktik tizimni hosil qiluvchi pedagogik vostilarni tanlash. Ushbu bosqichda dars jarayonini amalga oshiriladigan barcha tarkibiy qismlar orasidagi aloqadorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan pedagogik vositalar tanlab olinadi.

Darsning tarkibiy qismlari orasidagi aloqadorlikni ta’minlash bosqichi. Pedagogik jarayonni loyihalashda ushbu bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv natijasida tayyorlangan didaktik loyihaning tarkibiy qismlari orasidagi aloqadorlikni ta’minlash vujudga keladi: jarayonning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, maqsad va orasidagi aloqadorlik ta’minlanadi.

O‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va didaktik vositalarni tanlash va ishlab chiqish. Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar amaliyotda mavjud bo‘lgan algoritmga tayanadilar. Dars loyihasining tarkibiy qismlari shakllantiriladi uning didaktik tavsifi bayon etiladi.

Professor-o‘qituvchilar dars loyihasini qabul qilish jarayonida uni fikriy eksperiment qiladilar va kafolatlangan natija haqida o‘z tasavvurlarini bayon etalilar. Fikriy eksperiment davomida dars loyihasi har tomonlama tahlil qilinib, uning yutuqlari va bo‘shliqlar aniqlanadi. Professor-o‘qituvchilar aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirib, ijodiy yondashgan holda loyihani takomillashtiish haqida talabalarga topshiriq beradilar. Fikriy eksperiment jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan dars jarayonida refleksiv yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Loyihani eksperimental baholash. Professor-o‘qituvchilar tomonidan olingan natijalar professor-o‘qituvchilar tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi.

Professor-o‘qituvchining tavsiyasi bilan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlari yaratgan loyihalariga tuzatishlar kiritadilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar professor-o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘zlari yaratgan dars loyihalarini pedagogik amaliyotda qo‘lllash haqida qaror qabul qiladilar.

Talabalar tomonidan dars loyihasi bo‘lajak o‘qituvchining evristik faoliyati natijasi hisoblanadi. Pedagogik ijodkorlik bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-shaxsiy jihatdan rivojlanganligini anglatadi. Bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik ijodkorlik ko‘nikmalarining shakllanganligi darsda evristik topshiriqlarni bajarish jarayonida namoyon bo‘ladi. Dars loyihasida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik layoqati, ijodkorligi o‘z ifodasini topadi. Dars loyihasida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik bilimlari, nuqtai nazarlari, ijodiy layoqati kasbiy kompetensiyalari, mahorati namoyon bo‘ladi.

Dars loyihalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy pedagogik tajribasi aks etadi. Shuningdek pedagogik ijodkorlik va evristik faoliyatning rang-barang ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda evristik topshiriqlar yordamida didaktik ijodkorlik, texnologik ijodkorlik hamda tashkilotchilik ijodkorligini shakllantirish nazarda tutiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida didaktik ijodkorlik muhim o‘rin egallaydi. O‘quv jarayonida o‘qituvchining didaktik ijodkorligi kafolatlangan natijaga erishish imkonini beradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida didaktik ijodkorlik evristik topshiriqlar yordamida shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchining didaktik ijodkorligi pedagogik amaliyot davrida evristik topshiriqlarni tanlash, o‘quvchilarga taqdim etish, ijodiy izlanish vaziyatlarini vujudga keltirish ko‘nikmalari orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchining didaktik ijodkorligi evristik xarakterdagi o‘quv vaziyatlarni tashkil etish va ularda innovatsion metodlarni qo‘llash orqali amalga oshadi.

Didaktik ijodkorlik o‘qituvchining sirqirra pedagogik faoliyati tarkibiga kiradi. Masalan, o‘quvchilarning ijodiy harakatlarini muvofiqlashtirish, dars jarayonida bir-birini boyitishga xizmat qiladigan, mazmunan aloqadorlikka ega bo‘lgan o‘quv materiallardan foydalanish, innovatsion metodlar yordamida o‘quv materiallarni o‘quvchilarga taqdim etish, o‘quv jarayonini yangi vositalar va innovatsion metodlar bilan boyitish kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining didaktik ijodkorligi bir qator holatlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘zining kasbiy faoliyati natijalarini baholash, ota-onalar bilan hamkorlik qilish metodlarini bilishlari, shaxsga yo‘naltirilgan didaktik vaziyatlarni tashkil eta olishlari, o‘quvchilarning yoshi, dunyoqarashi, bilim darajasiga mos didaktik o‘yinlarni tanlay olishlari, o‘quvchilarni kompleks rivojlantirish maqsadida zarur ma’lumotnomalardan foydalana olishilari, o‘quvchilar uchun intellektual rivojlanish vaziyatlarini yarata olishlari, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun qulay sharoitlarni taqim eta olishlari, o‘quchilarning mutolaa va musiqiy ijodkorlik bilan tizimli ravishda shug‘ullanishlari uchun qulay imkoniyatlarni yarata olishlari kabilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarda didaktik imkoniyatlarni shakllantirish ularning samarali pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarning shakllantirishda texnologik ijodkorlik alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarda texnologik ijodkorlikni shaklantirishda evristik topshiriqlar va evristik vaziyatlardan foydalanish alohida o‘ringa ega. Texnologik ijodkorlik o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va darsni muvvafaqiyatli loyihalash orqali namoyon bo‘ladigan kasbiy kompetensiyadir Bo‘lajak o‘qituvchining tenologik ijodkorlikka oid faoliyati doirasida yangi pedagogik shakllari jarayonlarni izlab topish va loyihalash harakatlari amalga oshiriladi.

Didaktik ijodkorlik bilan texnologik ijodkorlik orasida muayyan farqlar kuzatiladi. Chunki texnologik ijodkorlik pedagogik ijodkorlikning o‘ziga xos murakkab shaklidir. Bunda o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini taqozo etadigan yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Texnologik ijodkorlik kompetnsiyasini egallash natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar fanlararo aloqadorlikni samarali yo‘lga qo‘yish, integrativ xarakterlardagi darslarni loyihalash va tashkil etish, dars jarayonida modulli o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish, klasterli didaktik tizimlarni vujudga keltirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Evristik topshiriqlar pedagogik ijodkorlikning muhim o‘rin tutgan tashkilotchilik ijodkorligini shakllantirishda ham

o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar tashkilotchilik ijodkorligini egallash natijasida boshqaruvchilik, yangi g‘oyalarni yaratish va generatsiyalash, farazlarni ilgari surish, darsni rejalashtirish va muvaffaqiyatli loyihalash, pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish, jamoada ijodkorlik muhitini yaratish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv jarayoni natijalarini nazorat qilish, o‘quvchilarnng o‘quv hamda tarbiyaviy jarayonlarini muvofiqlashtirish, kuchlarni teng taqsimlash, imkoniyatlarni safarbar qilish, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi hamkorlikning yangi usullarini izlab topish mahoratini egallaydilar. Pedagogik ijodkorlikning yuqorida tahlil qilingan barcha turlarini shakllantirishda evristik topshiriqlar yetakchi o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ijodkor o‘qituvchilarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ijodkorlik sifatiga ega bo‘lgan talabalar pedagogik bilimlar va kasbiy faoliyat tajribasini mustaqil egallashga qiziqadigan, o‘z ustida ishlaydigan, pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuvlar asosida loyihalashtira oladigan mutaxassislar bo‘lishi lozim. Bunday kasbiy sifatlarni egallashga layoqati bo‘lgan talabalarni tayyorlash oliy pedagogik ta’lim jarayonida muayyan texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshiriladi. Mazkur muammoni yechishda evristik topshiriqlarni talabalarga taqdim etishda evristik o‘qitish texnologiyalardan foydalanishga e’tibor qaratishdir. Evristik topshiriqlar va evristik o‘qitish texnologiyalar bo‘ljak o‘qituvchilarda ijodiy evristik xarakterdagi pedagogik faoliyat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Evristik faoliyat bo‘lajak o‘qituvchidan ijodiy tafakkurga ega bo‘lishni talab qiladi. Chunki evristik faoliyat shaxs tafakkurining turli-tuman ko‘rinshdagi ifodasidir. Evristik faoliyat natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy xarakterdagi pedagogik harakatlar tarkib topadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda evristik xarakterdagi pedagogik faoliyat tajribasini shakllantirish jarayoni evristik topshiriqlar va evristik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Evristik topshiriqlar va evristik texnologiyalar bir vaqtning o‘zida talabalarda kasbiy-shaxsiy ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, darsni muvaffvqiyatli rejalashtirish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ularni faollashtirish metodikalarini mustaqil izlab topib o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda evristik faoliyat tajribasini hosil qilish orqali ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlari R.G.Safarova[8], B.Adizov[5], N.Muslimov, E.G‘oziev, B.G.Ananev, Y.A.Aleksandrov, S.S.Bakulevskaya, G.Armstrong, N.V.Bugorskayalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda evristik topshiriqlar yordamida ijodiy tafakkurni shakllantirish ko‘maklashadigan pedagogik shart-sharoitlar sirasiga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin. Ular:

talabalarni evristik xarakterdagi mustaqil ishlarga jalb etish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik faoliyat tajribasini egallash motivlarini rivojlantirish;

pedagogik ijodkorlikning turli ko‘rinshlarini egallashlariga nisbatan qiziqish uyg‘otish;

kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini egallash jarayonida evristik topshiriqlar ustida muvaffaqiyatli ishlay olish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda namoyon bo‘ladigan kasbiy layoqatlarni tizimli tarzda rivojlantirish mexanizmalarini qo‘llash kabilar.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida evristik topshiriqlar ustida ishlash natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ, evristik tafakkurni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqda-ki, kreativ faoliyat tajribasi, ijodiy layoqatlar har bir talabada muayyan tajribalar mavjud. Evristik topshiriqlar esa ushbu topshiriqlarni tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday layoqatga ega bo‘lgan talabalar o‘zida yuqori darajada idrok, hozirjavoblik, mobillik hamda muloqotchanlik sifatlarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Ijodiy tafakkur sohibi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan faol muloqotga krishadilar, ular bilan ijodiy hamkorlik o‘rnatishga moyil bo‘ladilar. O‘zgalar bilan muloqot qilish, o‘zligini namoyon etishga ehtiyoj sezadilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik layoqati ularning kasbiy muammolar va bilimlarni chuqur idrok etishida namoyon bo‘ladi. Natijada ular kasbiy bilimlarni pedagogik bilimlar yordamida tahlil qilish asosida anglab yetadilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ijodiy layoqatlarini professor- o‘qituvchilar muntazam qo‘llab-quvvatlab, rag‘batlantirib borishlari kerak. Bunda quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Ular:

evristik topshiriqlarni yechishga alohida o‘rin ajratish;

guruhdoshlari tomonidan ilgari surilgan yangi g‘oyalarni qo‘llab quvvatlashlari;

professor-o‘qituvchilarga o‘z g‘oyalarining ta’lim tizimi uchun ahamiyatli ekanligini asoslab berishlari;

mustaqil bilim olish va ijodiy izlanishga nisbatan o‘z qiziqishlarini namoyon eta olishlari;

mustaqil bilim olish va amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etishlari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda evristik xarakterdagi pedagogik faoliyat tajribasini shakllantirish uchun aqliy operatsiyalarni amalga oshirish usullarini o‘rgatish talab qilinadi. Buning uchun professor-o‘qituvchilar evristik topshiriqlar hamda mahsuldor bilish usullaridan foydalanishlari lozim. Chunki evristik topshiriqlarni bajarish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar tahlil qilish, umumlashtirish, qiyoslash, ommalashtirish bilan bog‘liq amaliy usullarini bajarishga harakat qiladilar. Bunday metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik vaziyatlarda vujudga kelgan muammolarni yechish usullarini qo‘llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 - yil 23 - sentabrdagi Ta’lim to‘g‘risidagi O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 - yil 29 - oktabrdagi Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6097-son farmoni. https://lex.uz
3. Авалиани Г.В. Эвристические методы в распознавании образов. - Тбилиси, 1988. - 45 с.
4. Аверин В. А. Психическое развитие детей младшего школьного возраста: Учеб. пособие С.Пб.: Изд-во Михайлова В. А., 2000. - 64 с.
5. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед. фан. док. дисс... –Т.: 2003. – 320 б.
6. Батяева Т.А. Системно-целевой подход в применении эвристических приемов к обучению студентов решению нестандартных задач: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Казань, 2000. – 26 с.
7. Сафарова Р.Г. Computer-didactic support for the training of social sphere specialists at the university based on a cultural approach. International conference: Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them (PTLICISIWS-2022). 050009 Scopus, Web of Science indexed. http://pubs.aip.org/aip/acp

8. Сафарова Р.Г. Possibilities of Approaching the Educational Process From the Point of View of Cultural Sciences. Miasto Przyszłości Kielce 2023. ISSN-L: 2544-980X. Impact Factor: 9.2 View of Possibilities of Approaching the Educational Process From the Point of View of Cultural Sciences (miastoprzyszlosci.com.pl)
9. Машарипова Н.Р. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. International scientific and practical conference Innovative development in the global science/ 2023, Boston, USA. P 95-97. https://doi.org/10.5281/zenodo.7111515
10. Машарипова Н.Р. As a source of critical thinking in students of Amir Temur's activities. Best Journal of innovation in science Researech and Development. ISSN 2835-3579. Volume:2Issue:6|2023www.bjisrd.com. p- 509-511.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 316.7

Shoxruz QUDRATILLOYEV,
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: Shoxruz1929@mail.ru

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti, PhD I.Rizayev taqrizi asosida

IMPROVING THE LEGAL CULTURE OF YOUTH IS THE BASIS OF CIVIL SOCIETY

Annotation

The article discusses the issues of improving the legal culture of young people on the basis of historical and philosophical thinking, education based on scientific and legal knowledge, as well as the development of the legal culture of young people based on their compliance with the requirements of the time.

Key words: Independence, youth, culture, law, legal culture, legal knowledge, civil society.

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ – ОСНОВА ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы повышения правовой культуры молодежи на основе историко-философского мышления, воспитания на основе научно-правовых знаний, а также развития правовой культуры молодежи на основе их соответствия требованиям времени.

Ключевые слова: Независимость, молодежь, культура, право, правовая культура, правовые знания, гражданское общество.

YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH – FUQAROLIK JAMIYATI ASOSI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarda huquqiy madaniyatni tarixiy-falsafiy tafakkur asosida yuksaltirish, huquqiy-ilmiy bilimlar asosida tarbiyalash, shuningdek, yoshlarning huquqiy madaniyatining davr talablariga hamohangligi asosida rivojlantirish masalalari qamrab olingan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, yoshlar, madaniyat, huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, fuqarolik jamiyati.

Kirish. Hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ong taraqqiyoti va insoniyatning dunyoning sir-u asrori qaroriga tobora chuqurroq kirib borishi XXI asrga xos bo‘lgan intellektual salohiyat ustuvorligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, huquqiy bilimga ega bo‘lish, huquqiy jihatdan tarbiyalanganlik, huquqiy madaniyat, ma’rifat va madaniyat sohibi bo‘lish, shaxsning insoniy fazilatiga ega bo‘lishligini talab qilmoqda. Bu jarayonda insonlardagi, ayniqsa, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshirish, huquqiy normalarni turmushda qo‘llash, kishilar o‘rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy-ilmiy bilimlar asosida yondashuv talab qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimdan Markaziy Osiyoning mintaqasida huquq tushunchasi - ilohiy huquqlarning ustuvor ekanligi bilan ajralib turgan. Mutafakkirlarning asarlarida halollik, to‘g‘riso‘zlik, axloqiy me’yorlarni buzmaslik kabi xislatlarga katta ahamiyat berilgan. Xususan, muallimi-soniy - Abu Nasr Forobiy fikricha, fozillar shahri aholisining umumiy fikrlari xususida shunday deydi; “Fozillar shahri uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt, saodat nima ekanligini bilishi zarur. Ular nelarga erishuvini, nelardan saqlanishlarini bilishi zarur. Donishmandlarga ishonib, ixlos qo‘yib, ularga ergashuvchi odamlar o‘sha narsalarni (bilimlarni) donishmandlar bilganday bilib oladilar.

Ba’zilari esa bu narsalarni boshqalarning tasavvurlariga tahlid orqali biladilar. Mana shu ikki xil tasavvurlar ham bilim manbaidir, ammo donishmandlarning bilimlari, albatta eng yaxshi bilimlardir” [1].

Forobiyning so‘zlaridan ma’lumki, barcha zamonlarda ham jamiyat fuqarolarining bilimli, madaniyatli bo‘lishlari, aynan shu jamiyatning tinchligi va taraqqiyoti uchun asos bo‘lgan.

Bugungi davr har birimizdan shijoatni, tashabbuskorlikni, faollikni talab etmoqda. Davrning bunday talablariga amaldagi faol faoliyatimiz bilan o‘z hissamizni qo‘shishimizda, jamiyatdagi mavjud tartib qoida haqidagi huquqiy bilimimiz - huquqiy madaniyatimizning mukammallik darajasi asosiy o‘rinni egallaydi. Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari amalga oshirilayotgan islohotlarning birlamchi talabi bu – fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda huquqiy madaniyatining davr talablariga hamohangligi hisoblanadi. Zero, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyatining sharti hamda asosidir.

Mamlakamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ta’kidlab o‘tganlaridek, “Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishga manelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni, erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi, bir-birini to‘ldiradi va bir-birini taqoza etadi, boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so‘zsiz rioya qilishlari shart” [2].

Yangi O‘zbekistonning istiqbolini belgilab beruvchi harakatlar strategiyasi asosida yilma yil qabul qilinib kelinayotgan yil dasturlarining mohiyati har bir fuqaro uchun anglab yetilgan sharafli mas’uliyat bo‘lmog‘i shart. “Harakatlar strategiyasi nafaqat iqtisodiy jabhalarni tizimli

tartibga tushirish, yangilash va rivojlantirish, balki turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta’sirida jiddiy ziyon ko‘rgan ma’naviy dunyomizni ham tubdan yangilash va yuksaltirishni nazarda tutadi”[3]. Bu mexanizmni ishga soluvchi hamda nechog‘lik samaradorligini ta’minlovchi kuch fuqarolar ekanligi, ularning zimmasiga huquqiy madaniyatli bo‘lishdek mas’uliyatni yuklaydi. Bunday faoliyat o‘z navbatida fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy faolligining oshib borishiga asos bo‘ladi. Boshqacha aytganda, faol fuqarolik pozitsiyasini egallaydi. Bu esa fuqarolik jamiyatining asosiy talabi hisoblanadi. Xalq jamiyat qonunlarining tashabbuskoriga aylanadi.

Mamlakatimizning Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan birinchi murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lmog‘i shart.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidagi fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o‘rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak” [4]. Yurtboshimiz tomonidan Oliy Majlisga taqdim etilgan murojaatnoma bu mamlakatimizning barcha fuqarolariga qilingan murojaat hamda da’vatidir. Bugun mamlakatimiz bo‘ylab keng ko‘lamdagi islohotlarning amalga oshirilishida sodir bo‘layotgan buyuk o‘zgarishlar davrida, yon-atrofimizdagi voqealiklarga beparvolik, loqaydlik bilan barobardir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksak darajaga yetkazishning ustuvor masalalaridan biri ko‘pgina sohalarda bo‘lgani kabi kadrlar, ilmli tajribali mutaxassislar masalasi hisoblanadi. Chunki, huquqiy madaniyat targ‘ibotini amalga oshiruvchi shaxsning zimmasida chuqur bilim bilan birgalikda notiqlik madaniyati hamda mahorati mukammal bo‘lmoqlikni taqoza etadi.

“2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning ikkinchi ustuvor yo‘nalishi 21-maqsadida “...aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish”[5] - deb ko‘rsatilib o‘tilgan. Bu bilan nafaqat jamiyatdagi huquqiy madaniyat masalasi balki, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatilgan har bir bandning amalga oshishi hamda hayotga tadbiq etilishi fuqarolik jamiyati fuqarolarining har biri uchun sharafli mas’uliyat darajasiga yetgandagiga tom ma’nodagi fuqarolik jamiyatini qurish uchun asos yaraldi, deyish mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda zamonaviy huquqiy-falsafiy adabiyotlarda huquqiy madaniyat tushunchasi murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy va huquqiy hodisa sifatida juda ko‘p talqin qilinmoqda. Madaniyat va umuman huquqiy madaniyatga oid barcha ilmiy yondashuvlarni uchta — antropologik, falsafiy va sotsiologik jihatdan umumlashtirgan holda o‘rganish mumkin. Bundan tashqari huquqiy madaniyatga falsafiy, yuridik, aksiologik, semiotik, kulturologik yondashuvlar ham mavjud. Ya’ni, bugungi zamonaviy jamiyatda huquqni bilish, huquqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, huquqiy ongning yuqori darajada rivojlanishi va eng muhimi, shaxsning huquqiy xulq-atvori huquqiy madaniyat ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchi L.Tursunovning tadqiqotlarida “Huquqiy madaniyat haqidagi fikr, qarashlarni umumiylashtirib aytganda, birinchidan, huquqiy madaniyat barcha huquqiy hodisa va institutlar kabi keng ma’noda, insonning dastlabki madaniyatni rivojlantirish, yangi huquqiy qadriyatlarni yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish natijalarini aniqlashga imkon beradi; ikkinchidan, huquqiy madaniyat kishilarning bilimlari, huquqiy munosabatlari, huquqiy xulq - atvori va huquqiy ongida namoyon bo‘lishi mumkin; uchinchidan, huquqiy shakllari va usullari bilan bog‘liq madaniyat shaklidir; to‘rtinchidan, huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlar va qarashlarning uyg‘unligi, balki ularni almashish, yaratish, saqlash, tarqatish, ishlab chiqish, iste’mol qilish bo‘yicha barcha xatti-harakatlardir. Huquq sohasidagi barcha hodisalar huquqiy madaniyat nuqtai nazaridan baholanishi mumkin; beshinchidan, huquqiy madaniyat jamiyat hayotining asosiy tomoni, insoniyatning progressiv rivojlanish belgisi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarda moddiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, to‘plash va o‘zlashtirish nuqtai nazaridan tushunchadir” [6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, jamiyatdagi tinchlik va taraqqiyot barqarorligini huquqiy madaniyat asosida ta’minlashdan iborat. Bunday faoliyat yuksak ma’naviyatli fuqarolar uchun insoniylik burchi - ibodatga teng faoliyatdir. Fuqarolik jamiyatiga rahna solib keluvchi illat hech qachon o‘zgarmas xavf - ma’naviyatsizlikdir.

Shu o‘rinda, talaba-yoshlarga fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat haqida to‘liq bilim berish, aniq tushuncha va tasavvurlar hosil qilish asosida ijtimoiy-falsafiy mushohada qilish va undan ijodiy foydalana olish kishilarga dunyoni o‘zlashtirish va o‘zgartirish yo‘llarini ko‘rsatish joizdir. Pedagogika fanlari nomzodi, dots.nt G.M.Qurbonovaning ta’kidlaganidek; “Aholi turmush darajasini oshirish, farovonligiga erishish yo‘lida olib borilayotgan ulkan, keng ko‘lamli, uzluksiz islohot va yangilanishlarning amalga oshirilishi jamiyatning huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyatiga bog‘liq ekanligi huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida, huquqshunoslik va ta’lim sohasida keng ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi” [7].

ADABIYOTLAR

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.167.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. -Б.173.
3. “Ҳаракатлар стратегияси асосида жаҳон тараққиёт ва янгиланиш сари”. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодиёт уйи, 2017. –Б.13-14.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожоатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022. –Б.26.
5. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси // https://lex.uz/docs/5841063#5843873
6. Турсунов Л.Э. Ёшларда ҳуқуқий ва сиёсий маданиятни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд,2020. –Б.11-12.
7. Қурбонова Г.М. Олий таълим муассасалари талабаларида ҳуқуқий маданиятни шакллантиришнинг назарий жиҳатлари // Замонавий таълим / Современное образование. – Тошкент, 2014 йил №11-сон. –Б.20.

8. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания //Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества. – 2022. – С. 297-303.
9. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 4. – №. 84. – С. 164-167.
10. Тураев Б. О. Фанда толерантлик ва интолерантлик //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 41-48.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК:327

Абдулла МАГРУПОВ,
кандидат технических наук, доцент, Филиал Российского государственного университета нефти и газа (НИУ) имени И.М.Губкина в городе Ташкенте,
E-mail: info@gubkin.uz

ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS OF INTEGRATION OF STRATEGIC AND FUNCTIONAL MANAGEMENT IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

Annotation

On a global scale, in the conditions of accelerated development of scientific and technical processes and competition in the market, it makes special demands on the management system. In this regard, it is important to determine modern management strategies based on the principles of innovative development of the higher education system, to prepare a list of measures to organize research aimed at improving the efficiency of management activities based on improving management mechanisms in the higher education system. From this point of view, this article describes the scientific and theoretical aspects of improving management mechanisms in higher education institutions based on innovative approaches.

Key words: Transformation, management in education, innovative approaches, strategic and functional management, integration.

ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИНТЕГРАЦИИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО МЕНЕДЖМЕНТА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В мировом масштабе, в условиях ускоренного развития научно-технических процессов и конкуренции, на рынке образовательных услуг особые требования предъявляется к системе менеджмента. В связи с этим важно определить современные стратегии управления, основанные на принципах инновационного развития системы высшего образования, подготовить перечень мероприятий по организации исследований, направленных на повышение эффективности управленческой деятельности на основе совершенствования механизмов менеджмента в системе высшего образования. С этой точки зрения в данной статье описаны научно-теоретические аспекты совершенствования механизмов управления в высших учебных заведениях на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: Трансформация, менеджмент в образовании, инновационные подходы, стратегический и функциональный менеджмент, интеграция.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA STRATEGIK VA FUNKSIONAL MENEJMENTNI INTEGRATSIYALASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Jahon miqyosida, ilmiy-texnikaviy jarayonlarning jadal rivojlanishi va mehnat bozordagi raqobat sharoiti boshqaruv tizimiga ham alohida talablar qo‘yadi. Shu munosabat bilan oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish tamoyillari asosida zamonaviy boshqaruv strategiyalarini belgilash, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish asosida boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalaridagi boshqaruv mexanizmlarini innovatsion yondashuvlardan kelib chiqqan holda takomillashtirishning ilmiy-nazariy aspektlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Transformatsiya, ta’limda menejment, innovatsion yondashuvlar, strategik va funksional menedjment, integratsiya.

Введение. В мировом сообществе в процессе глобализации возрастает значение качества и стабильности деятельности высших образовательных учреждений. Это, в свою очередь, предоставляет возможность освоения новых навыков и компетенций, направленных на реализацию задач ЦУР (SDGs) «создание возможности получения качественного образования на протяжении всей жизни» [1].

В мире проводится ряд научных исследований по флексибилизации образовательных программ, кампусному и кластерному развитию современных университетов, модернизации цифровой инфраструктуры вузов, повышению социальной миссии университетов и формированию единого мирового цифрового образовательного пространства. В частности, при создании эффективной поддерживающей инфраструктуры университета важную актуальность приобретают совершенствование организационно-управленческих механизмов, разработка маркетинговых стратегий посредством риска менеджмента, развитие soft компетенций руководящего персонала, в частности управления изменениями, постановки стратегических и тактических целей, а также принятия решений.

Зарубежный опыт, накопленный в развитых странах, показывает необходимость совершенствования механизмов эффективного применения интегрированных управленческих моделей в условиях интернационализации, которая будет способствовать повышению роли университетов в новом технологическом укладе.

Анализ литературы по теме. Трансформационные процессы в образовании и стремительное развитие конкуренции на рынке труда предъявляют инновационные требования к системе менеджмента образования, особенно к менеджменту высшего образования его методологии и механизмам реализации. В связи с этим актуальной проблемой остаётся совершенствование механизмов стратегического

управления за счёт обеспечения адаптивности управления образованием к инновационным процессам в обществе.

Стратегический менеджмент (strategic management) представляет собой совокупность действий, направленных на долгосрочную цель развития учреждения и разработку осуществление показателей и предполагает проектирование деятельности, управление ресурсами и их развитие на основе изменяющихся требований рынка труда.

Функциональный менеджмент (functional management) сосредоточивает свои функции на конкретных мероприятиях по управлению разработкой, внедрением, производством и коммерциализацией новшеств. Системы функционального менеджмента имеют достаточно информации по направлениям деятельности, и исходя из целей и задач, концентрирует внимание на краткосрочной и долгосрочной перспективе.

Один из представителей классического менеджмента F.Taylor ориентируясь на теорию функционального менеджмента, функциональное управление интерпретирует разделение труда в менеджменте как структуру управления, позволяющую каждому сотруднику и структуре реализовывать и достигать результатов исходя из своих задач и полномочий [9].

Ученые P.Drucker [3], M. Mescon [9], И. Маврина [6], Е.Кудрявцева [5] определили, что менеджмент должен быть ориентирован на эффективность и результативность деятельности организации или учреждения, а также стратегический менеджмент — это не только принятие стратегических целей, планов и управленческих решений, но и должное обеспечение быстрой адаптации организации к изменениям.

В нашей республики такие ученые как, У.Иноятов» [4], Д.Мухамедова [7], Б.Усманов [11], М.Мирсолиева [8], У.Ходжамкулов [12] пришли к выводу что, основная цель инновационного подхода к управления высшим образовательным учреждением состоит в переосмысление самой миссии образования, чтобы создать условия для эффективного достижения целей, постоянно анализировать результаты, а стратегическое проектирование с использованием инновационных технологий, направленной на достижение запланированного результата каждым субъектом образовательного процесса.

Из анализа зарубежного и отечественного опыта видно, что теория

и модели управления изменяются и совершенствуются в связи с социально-экономическими, политическими, технологическими изменениямии развитием человеческих ресурсов в данном обществе.

Методология исследования. Управление образованием — это отношения между системой управления и управляемым объектом, вид деятельности, который требует от системы управления выполнения определенных действий и задач для обеспечения того, чтобы управляемые процессы были целенаправленными или организованными. Эмпирический анализ показывает, что информационно-аналитический, мотивационно-целевой, стратегическое-планирование, организационно-деятельностный, контрольно-мониторинговый, коррекционно-рефлексивный и интегративный компоненты как основные функции управления образованием в трансформационных процессах имеют определённые особенности.

Закономерности управления образованием отражают объективно существующие и повторяющиеся существенные взаимосвязи различных элементов и явлений в процессе управления. Их общие и частные аспекты различаются. Общие закономерности свойственны всем системам управления, а частные законы связаны с деятельностью отдельных учебных заведений и организаций. К общим закономерностям управления можно отнести: преимущественной эффективности и сознательного планомерного управления; соотносительности управляющей и управляемой систем, субъекта и объекта управления; усиления процессов разделения и кооперации труда в управлении. К частным закономерностям можно отнести: изменения функций управления, оптимизации числа ступеней управления, концентрации функций управления и закономерность распространенности контроля. Таким образом, принципы управления образованием носят универсальный характер и затрагивают все области управления. Общие принципы управления состоят из: целеустремленности, планирования, компетентности, дисциплины, мотивации и иерархии.

Результаты теоретического анализа подтверждают, что в современной методологии управления ВУЗами существует множество определений самого понятия интеграции и трансформации. На наш взгляд, образовательная среда и развитие, основанное на инновационных подходах в высших учебных заведениях, ориентированы на повышение качества образования, внедрение инновации в социокультурных и экономических сферах, а также формированию индивидуальных потребностей индивида. Это, в свою очередь, определяет необходимость трансформационных процессов, основанных на улучшении содержания управленческой деятельности высших учебных заведений, применению инновационных форм и методов образовательного и управленческого процессов, повсеместном внедрении современных информационных и коммуникационных технологий.

Интеграция стратегического и функционального менеджмента представляет собой научно обоснованный целеустремленный процесс, определяющий цели, формы и методы осуществления инновационной деятельности образовательного учреждения на основе принципов инновационного менеджмента. При этом определяются такие основные принципы, как ориентация на требования, инновационно-технологическое лидерство, системный подход к управлению, принятие решений на основе фактических данных, социальное и стратегическое сотрудничество.

По нашему мнению, интеграция стратегического и функционального управления представляет собой циклический процесс, обеспечивающий устойчивое и инновационное развитие вуза, что предполагает эффективное распределение имеющихся ресурсов для развития вуза и внедрение гибких механизмов управления.

Поэтому, на наш взгляд, под интегрированным процессом управления понимается адаптация вектора развития и содержания деятельности объекта управления к инновационным изменениям, обеспечивающая взаимную интеграцию между управленческими структурами, а также повышение уровня стратегической значимости управленческих решений, которое осуществляется субъектом управления и имеет место в результате него.

Анализ и результаты. Интеграция стратегического и функционального менеджмента системы образования представляет собой научно обоснованный целеустремленный процесс, определяющий цели, формы и методы осуществления инновационной деятельности образовательного учреждения на основе принципов инновационного менеджмента. При этом

определяются такие основные принципы, как ориентация на требования, инновационно-технологическое лидерство, системный подход к управлению, принятие решений на основе фактических данных, социальное и стратегическое сотрудничество.

Инновационный менеджмент выполняет определенные задачи, определяющие формирование системы управления высшим учебным заведением при реализации процесса интегрированного управления: основные (проектирование, организация, координация, мотивация и др.) и обеспечивающие (социально-психологические, технологические) задачи.

Управление инновациями – относительно новое понятие в научно-технической, производственно-технологической и управленческой сферах деятельности управленческого персонала системы образования. Инновационный менеджмент основывается на следующих основных условиях: во-первых, поиск идеи, служащей основой для инноваций; во-вторых, организация инновационного процесса для данной инновации; в-третьих, процесс продвижения и внедрения инноваций на рынке труда (образовательных услуг).

В условиях инновационного развития качество образования является результатом процессов интеграции стратегического и функционального управления, а мониторинг является важным диагностическим инструментом управления качеством образования.

По мнению Н.В. Третьяковой, идеи управления качеством образовательного процесса в процесс организации учебной деятельности можно успешно реализовать только на основе концепции, созданной с учетом требований международных стандартов качества ISO.

При этом важно учитывать достижения науки и опыт создания систем менеджмента качества в сфере производства и услуг, а также основные положения педагогики (достижения в области педагогической квалиметрии, внутри образовательного организационного управления, педагогического менеджмента, педагогического проектирования, управления адаптивной образовательной организацией, теории содержания образования, качества знаний и т. п.) [10].

Мы считаем, что наиболее эффективен подход, который направлен на выявление закономерностей в организационных структурах управления, в деятельности руководителей по обеспечению качества образования, а также на разработку механизмов его измерения и оценки.

Исходя из этого, в исследовании были предложены следующие механизмы развития интегрированного менеджмента на уровне образовательного учреждения:

- формирование внутренней потребности к изменениям;
- разработка стратегии качества;
- разработка проекта качества по каждому направлению, учебной программе, всем видам деятельности в ОУ (учебно-воспитательной, научной, производственной, предпринимательской);
- осуществление проекта – внедрение составляющих системы контроля в учебный процесс по разработанной схеме;
- анализ и мониторинг проделанной работы – наибольшее значение на первых этапах инновационного менеджмента уделяется итоговому контролю, потому что именно его параметры подлежат корректировке, доработке и изменению;
- оценка качества образовательных услуг: анализ итоговой аттестации, контроль дальнейшей образовательной траектории выпускника или адаптации на рабочем месте в первые полгода работы на предприятии, отслеживания адаптации выпускников в течение года после окончания ОУ.
- поиск путей корректировки подставленных задач, содержания, технологии образования, стратегический маркетинг и диверсификации образовательных услуг.

Выводы и рекомендации. На основе анализа исследования определены содержание, задачи и принципы понятий интеграция стратегического и функционального менеджмента.

Интеграция стратегического и функционального менеджмента в системе высшего образования создает необходимость внедрения адаптивной системы управления, обеспечивающей гармонизацию трансформационных процессов в образовании. С этой точки зрения в совершенствовании механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента в системе высшего образования научно доказана важность внедрения инновационной программы развития и адаптивной модели управления в соответствии с уровнями профессионально-предпринимательских услуг и определения требований к стратегическому к маркетингу на основе потребностей.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указа Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы/ Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г.
2. International Commission on the Futures of Education. 2020. Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. Paris, UNESCO.
3. Друкер, Питер, Ф., Макьярелло, Джозеф А. Д. Менеджмент.: Пер. с англ. — М .: ООО “И.Д. Вильямс", 2010. - 704 с .
4. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже. Дисс. докт. пед. наук. Т.: 2004, 578 с.
5. Кудрявцева Е. Когнитивный менеджмент.: Монография.-Петрозаводск. 2013. 234 стр.
6. Маврина, И. Н. Стратегический менеджмент: учебное пособие / И. Н. Маврина. – Екатеринбург: УрФУ, 2014. – 132 с.
7. Мухамедова Д. Теоретико-методологические основы социальнопсихологических аспектов инновационного менеджмента в образовании. Монография, ISBN-978-9943-19-260-7, Ташкент-2013 с. 160.
8. Мирсолиева М., Ишмухамедов Р., Акрамов А. Раҳбарнинг инновацион фаолияти. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 124 б.
9. М.Мексон, М.Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М.: Дело, 1997. 492 с.
10. Mohamed Hashim MA, Tlemsani I, Matthews R. Higher education strategy in digital transformation. Educ Inf Technol (Dordr). 2022;27(3):3171-3195. doi: 10.1007/s10639-021-10739-1. Epub 2021 Sep 14. PMID: 34539217; PMCID: PMC8438547.
11. Тазиев С.Ф. Инновационный менеджмент в образовании: Учебное пособие. - Елабуга, 2009. – 158 с.

12. Усмонов Б.Ш. Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кластерли ёндашувлар асосида инновацион ривожлантириш/Монография. Тошкент Тафаккур нашриёти, 2020, 208 бет.
13. Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: Тошкент вилояти тажрибаси Монография. – Т.: Университет, 2020. – 174 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:796.42:015.154.431.25

Shahribonu MANNONOVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti doktoranti
E-mail: bonu mannonova@mail.ru

TMI dotsenti F.Karimov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF THE ANNUAL PREPARATORY TRAINING OF THE TRIPLE JUMPERS IN THE TRAINING GROUP

Annotation
This article studied and analyzed the goals and objectives of sports preparatory classes, methods of organization, the volume of tools and loadings used in training and training of three jumpers in the training group.
Key words: Long-term training, training tools, general-specific physical training, technical-tactical training, training loads.

ЗНАЧЕНИЕ ГОДОВОЙ ПОДГОТОВКИ ПРЫГУНОВ ТРОЙНЫМ ПРЫЖКОМ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ

Аннотация
В данной статье рассматриваются и анализируются цели и задачи спортивной подготовки прыгунов тройным прыжком учебно-тренировочной группы, методы организации, средства, используемые в тренировках, и объемы нагрузок.
Ключевые слова: Многолетняя подготовка, средства тренировки, обще – специфическая физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, тренировочные нагрузки.

O‘QUV MASHG‘ULOT GURUHIDAGI UCH HATLAB SAKROVCHILARNI YILLIK TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya
Mazkur maqola o‘quv mashg‘ulot guruhidagi uch hatlab sakrovchilarni sport tayyorgarlik mashg‘ulotlarining maqsad va vazifalari, tashkil qilish usullari, o‘quv-mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan vosita va yuklamalar hajmi o‘rganilgan va tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Ko‘p yillik tayyorgarlik, mashg‘ulot vositalari, umumiy-maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, mashg‘ulot yuklamalari.

Dolzarbligi. Yengil atletika sport turlarida, ayniqsa, uzunlikka va uch hatlab sakrash turlarida sport natijalarining o‘sishi yosh sportchilarning ko‘rsatayotgan natijalari keskin ravishda yuqorilab borayotganligini, sohada qo‘llaniyotgan yangi metodik usullar, mashg‘ulot jarayonlarini innovatsion texnologiyalarda boshqarish, olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar natijalarining xulosalariga tayanib sport turlariga birmuncha erta kelish yoki shiddat bilan tezlashgan tayyorlash uslublari qo‘llanib kelinmoqda. Bu borada yengil atletikaning uch hatlab sakrash turida ham aynan bolalar sportiga e’tibor orqali sport razryadlarini erta bajarish va yuqori natijaga erishilmoqda. Ya’ni yoshlarni yuqori sport natijasiga erishishida ularning organizmini funksional, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga kompleks yondashuv sabab bo‘lmoqda.Shunday ekan, yengil atletikaning uch hatlab sakrash turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni kompleks tayyorlashda ko‘p jihatdan mashg‘ulotlarni jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, mashg‘ulot mazmuni va mashg‘ulot vosita va usullariga, yuklamalar hajmiga e’tibor qaratish kerakligini soha olimlari tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalarida keltirib o‘tgan. Yengil atletikaning sakrash turlari bilan shug‘ullanayotgan yosh sportchilarni mashg‘ulot jarayonlarini kompleks tayyorgarligini boshqarish va o‘rganish bo‘yicha mahalliy olimlar tomonidan kam o‘rganilganligini e’tirof etish mumkin. Lekin yurtimiz olimlari (Olimov M.S.; To‘xtaboyev N.T; Shakirjanova K.T., Rafiyev X.T., Matkarimov R.M., Ruzamuxamedov K.F.) tomonidan jismoniy tayyorgarlik xususiyatlari, jismoniy rivojlanish yoki texnik tayyorgarlik bo‘yicha alohida ishlar olib borgan bo‘lsada, ularning yosh davlari hamda sport tayyorgarlik guruhlari bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘tishida yuzaga keladigan muoammolar bo‘yicha ishlar yetarlicha o‘rganib chiqilmagan. Shu boisdan ham olib borilayotgan mazkur tadqiqot ishida aynan yosh sportchilarni tayyorgarlik bosqichlarida katta sportga kirib kelishining yutuq va muammolarini zamonaviy yechimlarini izlab topish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. O‘quv mashg‘ulot guruhidagi uch hatlab sakrovchilarni yillik sport tayyorgarligini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va mazmuni tadqiq qilish.

Tadqiqot vazifalari.

– o‘quv mashg‘ulot guruhidagi uch hatlab sakrovchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari mavzunini o‘rganish;

– uch hatlab sakrovchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida qo‘llaniladigan vosita va usullarni o‘rganish va tahlil qilish;

– o‘quv mashg‘ulot guruhidagi uch hatlab sakrovchilarni musoboqaoldi yillik tayyorgarlik mashg‘ulot rejalarini tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.A.Shustov, Ye.A.Shirkoves, N.G.Ozolin, V.B.Popov, A.I.Pyanzinlar tomonidan yengil atletikaning sakrash turlarida mashg‘ulot jarayonini boshqarish nazariyasi va texnologiyasi, siklik sport turlarida sportchilarni tayyorlash, boshqarish mezonlari va uni amalga oshirish mexanizmlari bo‘yicha yuqori malakali sakrovchilarni tayyorlash tizimi ishlab chiqilgan.

Bir qator mualliflar T.S.Usmanxodjayev, D.X.Umarov, I.A.Koshbaxtiyev, S.S.Tajibayev va boshqalar tomonidan sportchilarning kompleks tayyorgarligida tezkor-kuch sifatini sakrash bilan harakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash, ko‘p yillik

tayyorgarlik jarayonida tezkor-kuch yuklamalarini optimallashtirish, mashq qilishning salomatlik uchun foydasi to‘g‘risida ko‘plab amaliy tavsiyalar berib o‘tishgan.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Uch hatlab sakrovchilarni ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonini ma’lum bir qonuniyatlarga bo‘ysunadigan yaxlit jarayon, shaxsiy rivojlanish yo‘liga ega, o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Deyarli hamma sport turlarida, shu jumladan yengil atletikaning sakrash turlarida yuqori sport natijalari, odatda, tayyorgarlik sifatini oshirish, mashg‘ulot usuliyatini keyinchalik takomillashtirish, fan va texnikaning yangi yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq.

Yosh sportchilarning ko‘p yillik muntazam tayyorgarligi kishi rivojlanishining yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi, tanlangan sport turining o‘ziga xos xususiyatlarini qat’iy hisobga olgan holdagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ko‘p yillik o‘quv-mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun optimal yosh chegarlariga e’tibor qaratish lozim.Mashg‘ulot jarayonlarini bosqichma-bosqich olib borishda tayyorlov guruhlarining yosh va jins chegaralari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa yuqori malakali yengil atletikachilarni tayyorlashda ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonlarida sport tayyorgarlik guruhlarida mashg‘ulot mazmuni qat’iy qonuniyat asosida tashkil etiladi. Xususan o‘quv mashg‘ulot guruhlarida shug‘illanish 12-13 yoshdan qabul qilinadi va bu guruhda mashg‘ulot ma’lum bir yillik tayyorlov bosqichlar orqali amalga oshiriladi.

O‘quv mashg‘ulot guruhida sport tayyorgarligining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: shug‘ullanuvchining har tomonlama jismoniy tayyorgarligi, sog‘lig‘ni mustahkamlash, umumiy chidamlilik va tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash, musobaqani kombinatsiyali usulda olib borish asoslarini egallash, maxsus chidamlilikni rivojlantirish, musobaqada tajribasiga ega bo‘lish.

1-jadval

O‘quv mashg‘ulot guruhlaridagi uch hatlab sakrovchilarning yillik (52 haftalik) o‘quv- mashg‘ulotlarining rejasi

№	Tayyorgarlik bo‘limlari	Birinchi o‘qitish yili	Ikkinchi o‘qitish yili	Uchinchi o‘qitish yili	Uch yildan ko‘p o‘qitish
1.	Nazariy tayyorgarlik	12	14	18	20
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	160	185	241	266
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	168	196	242	270
4.	Texnik tayyorgarlik	234	271	357	398
5.	Psixologik tayyorgarlik	14	22	28	30
6.	Nazorat sinovlari	8	8	10	12
7.	Hakamlik va yo‘riqchilik amaliyoti	10	12	16	18
8.	Musobaqalarda ishtirok	Ommaviy sport tadbirlari taqvim rejasi bo‘yicha			
9.	Tiklanish tadbirlari	18	20	24	26
	Jami	624	728	936	1040

O‘quv mashg‘ulot guruhida sport tayyorgarligining asosiy vazifasi:

1. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish (tezlik, chidamlilik, tezkor-kuch qobiliyatlari).
2. Maxsus jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish.
3. Barcha texnik usullarni malaka va bilim darajasida egallash.
4. Individual va guruhli taktik harakatlarni egallash.
5. Tayyorgarlikni individuallashtirish.
6. Jamoaning taktik harakatlari asosini egallash.
7. Musobaqa faoliyati malakalarini tarbiyalash.

Bu bosqichda mashg‘ulotning asosiy uslublari: o‘yin, bir tekis, o‘zgaruvchan, takroriy, musobaqa, aylanma. Mashg‘ulot vositalari: sport o‘yinlari, kross yugurish, tanlangan tur maxsus mashqlari, akrobatika mashqlari, kichik og‘irliklar bilan mashqlar, musobaqa xususiyatidagi o‘quv-trenirovka bellashuvlarini o‘z ichiga oladi.

Bir yildan kam bo‘lmagan tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan va umumjismoniy hamda maxsus tayyorgarlik bo‘yicha qabul qilish meyorlarini bajargan sog‘lom shug‘illanuvchilardan tanlov asosida shakllantiriladi. Bu guruhda o‘quv yillariga o‘tkazish shug‘illanuvchilar tomonidan umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarlik bo‘yicha o‘tkazish – nazorat me’yorlarini bajarish sharti hamda sport toifasining borligi bilan amalga oshiriladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlikning (UJT) maqsadi organizmning yuksak darajadagi ish qobiliyatiga erishishidan iborat bo‘lib, u sportchi organizmini umumiy rivojlantirish va mustahkamlash: ichki organlarning funksional imkoniyatlarini oshirish, mushaklar tizimini rivojlantirish, koordinatsiya qobiliyatlarini yaxshilash, gavda tuzilishidagi nuqsonlarni tuzatishga yo‘naltiriladi. Bunda sakrovchi ixtisosligining xususiyatlari va talablari hisobga olinadi. Ularga snaryadlarda (gimnastika devori, o‘rindig‘i va b.), snaryadlar bilan (to‘ldirma to‘plar, qumli qoplar, shtanga blinlari, gantellar va h.k.) trenajyorlarda bajariladigan mashqlar, harakatli va sport o‘yinlari, krosslar, chang‘ida yurish, suzish va b. kiradi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) sportchilarnining alohida mushak guruhlarini rivojlantirishga, uning tanlangan sport turi texnikasini chuqur o‘zlashtirib, natijalarini o‘stirib borishiga bevosita yordam beradigan tegishli harakat ko‘nikmalarini egallashiga qaratilgan bo‘lishi lozim. U harakatlar amplitudasi, mushak kuchlanishlarining xususiyati va kattaligi, yurak-qon tomir, nafas olish tizimlariga beradigan yuklamasi, psixik zo‘riqishlar va h.k. nuqtai nazaridan o‘xshashroq mashqlardan iborat bo‘lishi kerak. Bularga sportning tanlangan turi elementi, qismini yoki uni to‘laligicha o‘z ichiga oladigan maxsus tayyorlov mashqlari kiradi.

2-jadval

O‘quv mashg‘ulot guruhida sport mashg‘ulotlarining musobaqaoldi tayyorgarligi siklidagi o‘quv yuklamalarining vazifalari va hajmi

T/r	Oylar		Yanvar				Fevral		
	Haftalar		1	2	3	4	5	6	7
	Musobaqalar	Yetakchi							
		Nazorat							
		Asosiy							
	Yillik tayyorgarlik sikli	Davrlar	Musobaqaoldi						
		Bosqichlar	Umumiy tayyorgarlik						
	Bosqichlardagi asosiy vazifalar		Bosqichlardagi asosiy vazifalar						
1	Mashg‘ulotlar soni		5	5	5	5	5	5	5
2	Mashg‘ulotlar uchun belgilangan vaqt		9	9	9	9	9	9	9
3	Maksimal tezlikda yugurish 100 m gacha		0.2	0.2	0.2	0.2	0.2	0.2	0.2
4	100 m dan uzoqroq masofalarda yugurish shiddati 60-70%, km		0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5
	Krosslar, km		0.2	0.2	0.2	0.2	0.2	0.2	0.2
5	G‘ovlar osha yugurish va maxsus imitasion mashqlar, marta		2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5
6	Uzunlikka sakrash va maxsus imitasion mashqlar, marta		0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5

7	Balandlikka sakrash va maxsus imitasion mashqlar, marta	45	45	45	45	45	45	45
		35	35	35	35	35	35	35
8	Pliometrik mashqlar, marta	40	40	40	40	40	40	40
		8	8	8	8	8	8	8
9	Uloqtirishlar, marta	40	40	40	40	40	40	40
		7	7	7	7	7	7	7
10	Egiluvchanlik va cho‘zilish mashqlari	50	50	50	50	50	50	50
		7	7	7	7	7	7	7
11	Turli yuklar bilan maxsus sakrashlar, marta	40	40	40	40	40	40	40
		6	6	6	6	6	6	6
12	To‘liq yugurib kelishdan balandlikka sakrash, marta	50	50	50	50	50	50	50
		3	3	3	3	3	3	3
13	Maxsus texnik mashqlar, marta	30	30	30	30	30	30	30
		3	3	3	3	3	3	3
Н.С.Пряжников, Е.Ю.Пряжникова (2005) в своей работе говорят о «модели специалиста», которую сложно применить к такой творческой и сложной профессии, как психолог. Обычно приводится примерно такое обоснование: невозможно втиснуть в «модель» все характеристики профессиональной деятельности, а также невозможно выделить общепризнанный, стандартно-образцовый «профиль личностных и профессиональных качеств специалиста», под который можно было бы «подгонять» будущих психологов [7].

«Чтобы психолог состоялся как профессионал, ему недостаточно овладеть профессионально важными знаниями, умениями и навыками, методами и нормами работы; недостаточно даже рефлексивных способностей и других метаумений» [5].

По мнению В.А.Михеева (2005, 1996) профессионалом можно стать, только стремясь к постоянному движению вверх, пытаясь преодолеть то, чего уже достиг[6].

Е.В.Юдина (2003) предлагает рассмотреть ряд личностных черт, которые могут составить модель личности эффективного психолога-диагноста:

эмпатия, включая ее эмоциональный и когнитивный компоненты, социальный интеллект, как способность к пониманию поведения других людей и распознавания отклонения в нем;

открытость, способность к безоценочному суждению;

гибкость поведения, мышления; ответственность;

положительная Я-концепция, самопринятие, способность к личностному росту, самопознанию;

низкий уровень тревожности;

эмоциональная устойчивость, развитый самоконтроль;

высокий интеллект, как личностная особенность[8].

Методологическая база исследования. Таким образом, исходя из методологической базы настоящего исследования, имеющихся концептуальных положений построения модели специалиста. Основу данной разработки составили соответствующие компоненты, отражающие актуальные профессионально-важные качества современного психолога. Вместе с тем, для их

выделения нами была организована и проведена экспертная оценка по заранее подготовленному опроснику. Основу данного инструментария составили ранее выделенные, по результатам теоретического анализа следующие обобщённые профессионально-важные качества психолога, объединённые в соответствующие структурные компоненты:

-интеллектуальный компонент - развитая социальная составляющая интеллекта; общие умственные способности; способность к обобщению и анализу информации; отсутствие эмоциональной деструкции; гибкость мыслительных процессов; способность к концентрации внимания; способность к обобщению и анализу; способность к пространственному мышлению;

-личностный компонент – оптимизм; энергичность; высокая работоспособность; жизнестойкость; планомерность; целеустремленность; настойчивость; самоорганизация; ориентация на настоящее; интеллигентность; самоэффективность; мобильность; самоорганизация деятельности.

Кроме того, для разъяснения процедуры проведения оценки, была подготовлена следующая разъяснительная инструкция для экспертов: «Уважаемый эксперт! Ниже представлен перечень обобщённых профессионально-важных качеств, объединённых в условные структурные компоненты, которые были выделены по результатам теоретического анализа изучаемой проблемы. Вам необходимо внимательно ознакомиться с нижеприведенными качествами и оценить каждое из них по отдельности на предмет соответствия профессионально-важным качествам современного психолога Республики Узбекистан. При этом в ходе оценки необходимо использовать специально подготовленную шести бальную шкалу, где:

от 1 до 2 баллов - низкий уровень соответствия качества;
от 3 до 4 баллов - средний уровень соответствия качества;
от 5 до 6 баллов - высокий уровень соответствия качества.

Все полученные результаты экспертной оценки будут применятся в обобщённом виде в целях выработке рекомендаций для совершенствования процесса подготовки психологов в высших образовательных учреждениях. При этом, те качества, которые получили оценки от 5 до 6 баллов (высокий уровень соответствия качества) будут рассматривается как актуальные профессионально-значимые качества современного психолога Республики Узбекистан».

Всего в экспертной оценке приняло участие 211 человек (экспертов), как женского (57,3 % - 121 чел.), так и мужского пола (42,7 % - 90 чел.), из числа наиболее подготовленных практических психологов (54 % - 114 чел.), а также педагогов (46 % - 97 чел.) - непосредственно принимающих участие в подготовке данной категории специалистов (будущих психологов). рис. 2.1.

При этом, отбор экспертов проходил по соответствующим критериям:

практический опыт, стаж работы, должность;

критическое мышление, т.е. способность к критическому восприятию действительности;

конструктивность мышления, т.е. способность к выработке новых знаний, подходов, совершенствований и пр.

Результаты и анализ исследования. По итогам экспертной оценки все полученные результаты были обобщены в сводной таблице (приложение № 3), что позволило вычислить такие первичные описательные статистики как мода (Mo), медиана (Md), среднее (M) относительно каждого оценённого качества (таб. 1).

Таблица 1

Обобщённые результаты экспертной оценки профессионально-важных качеств современного психолога (n=211)

№	Наименования обобщённых профессионально-важных качеств	Среднее (M)	Мода (Mo)	Медиана (Md)	Уровень значи-мости
1. Интеллектуальный компонент					
1.1	умение выделять общее в разном	5,555	6	6	высокий
1.2	способность к обобщению и анализу информации	5,540	6	6	высокий
1.3	гибкость мыслительных процессов	5,521	6	6	высокий
1.4	общие умственные способности	5,507	6	6	высокий
1.5	способность к концентрации внимания	5,498	5	5	высокий
1.6	отсутствие эмоциональной деструкции	5,493	5	5	высокий
1.7	способность к пространственному мышлению	3,682	4	4	средний
1.8	развитая социальная составляющая интеллекта	3,526	3	3	средний
2. Личностный компонент					
2.1	настойчивость	5,536	6	6	высокий
2.2	жизнестойкость	5,526	6	6	высокий
2.3	ориентация на настоящее	5,526	6	6	высокий
2.4	самоорганизация	5,517	6	6	высокий
2.5	планомерность	5,507	6	6	высокий
2.6	самоорганизация деятельности	5,507	6	6	высокий
2.7	целеустремленность	5,498	5	5	высокий
2.8	самоэффективность	5,488	5	5	высокий
2.9	интеллигентность	3,773	4	4	средний
2.10	мобильность	3,749	4	4	средний
2.11	энергичность	3,739	4	4	средний
2.12	оптимизм	3,735	4	4	средний
2.13	высокая работоспособность	3,725	4	4	средний

Так, согласно обобщённых мнений экспертов, из 40 представленных качеств лишь относительно 28 качеств были получены коэффициенты моды, медианы, а также среднего показателя от 5 до 6 экспертных баллов (высокий уровень соответствия). Данный факт наглядно демонстрирует, что данная категория качеств может быть отнесена к высокому уровню соответствия профессионально-важным качествам современного психолога.

Рассмотрим их более подробно. В интеллектуальный компонент вошли следующие профессионально-важные качества психолога:

умение выделять общее в разном (M-5,555; Mo-6; Md-6); способность к обобщению и анализу информации (M-5,540; Mo-6; Md-6); гибкость мыслительных процессов (M-5,521; Mo-6; Md-6); общие умственные способности (M-5,507; Mo-6; Md-6); способность к концентрации внимания (M-5,498; Mo-5; Md-5); отсутствие эмоциональной деструкции (M-5,493; Mo-5; Md-5).

Личностный компонент охватил следующие профессионально-важные качества: настойчивость (M-5,536; Mo-6; Md-6); жизнестойкость (M-5,526; Mo-6; Md-6); ориентация на настоящее (M-5,526; Mo-6; Md-6); самоорганизация (M-5,517; Mo-6; Md-6); планомерность (M-5,597; Mo-6; Md-6); самоорганизация деятельности (M-5,507; Mo-6; Md-6); целеустремленность (M-5,498; Mo-5; Md-5); самоэффективность (M-5,488; Mo-5; Md-5).

Вместе с тем, относительно оставшихся 12 качеств были получены коэффициенты моды, медианы, а также среднего показателя от 3 до 4 экспертных баллов (средний уровень соответствия). Таким образом данная группа качеств по мнению экспертов не соответствует профессионально-важным качества современного психолога: чувствительность (M-3,716; Mo-4; Md-4); внутренние резервы личности (M-3,479; Mo-4; Md-4); терпимость и гибкость (M-3,735; Mo-4; Md-4); последовательность (M-3,725; Mo-4; Md-4); выносливость (M-3,540; Mo-4; Md-4); способность к пространственному мышлению (M-3,682; Mo-4; Md-4); развитая социальная составляющая интеллекта (M-3,526; Mo-4; Md-4); интеллигентность (M-3,773; Mo-4; Md-4); мобильность (M-3,749; Mo-4; Md-4); энергичность (M-3,739; Mo-4; Md-4); оптимизм (M-3,735; Mo-4; Md-4); высокая работоспособность (M-3,725; Mo-4; Md-4).

В целом, полученные результаты экспертной оценки, как указывалось выше, позволили подготовить структурную модель профессионально-важных качеств современного психолога.

Выводы. Рассматривая предложенную структурную модель, полагается целесообразным отметить, что практически любая из характеристик (профессионально-важное качество) модели может быть присуща каждому человеку, однако существует разница в уровне их выраженности у разных людей. Должный комплекс профессионально-важных качеств будущих психологов возникает в результате развития соответствующих характеристик и их активного взаимодействия. Это происходит за счет оптимального уровня функционально-смыслового наполнения профессионально-важных качеств будущих психологов. Им чрезвычайно необходимо наполнять профессионально-важные качества таким образом, чтобы практически все они развивались и достигли должного уровня.

Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что проведённая экспертная оценка (n=211) по заранее подготовленному опроснику позволила подготовить структурную модель профессионально-важных качеств современного психолога основу которой составляют уточнённые, актуальные профессионально-важные качества этой категории специалистов объединённые в следующие, взаимообусловленные структурные компоненты: интеллектуальный компонент выражающийся в умение выделять общее в разном, способность к обобщению и анализу информации, гибкость мыслительных процессов, общие умственные способности, способность к концентрации внимания, отсутствие эмоциональной деструкции; личностный компонент, выражающийся в настойчивости, жизнестойкости, ориентации на настоящее, самоорганизации, планомерности, самоорганизации деятельности, целеустремленности, самоэффективности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Агарков Ю.А. Взаимодействие научных и житейских понятийных структур в процессе профессионального становления будущего психолога. Образование в регионе. Тамбов, 2001. - Выпуск 4. - С. 86-88.
2. Бодалева А.А. Рабочая книга практического психолога: модель, алгоритм, технология эффективной профессиональной деятельности. 2-е изд. пере-раб. и дополн.- М.: 2000. – 514 с.
3. Гильфантинова Д.Р. Модель профессиональной адаптации выпускников-психологов: контекстный подход. // Перспективы науки - 2018. - №3(102) - С. 87-91.
4. Костригин А.А. Личность психолога-консультанта: теоретико-эмпирическая модель ключевых компетенций. // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. - №1-2. - 2014. - С. 445-451.
5. Клищевская М.В. К проблеме профессионального развития. // Вестник МГУ, серия 14. Психология. – 2001. - №4. – С. 3-11.
6. Михеев В.А. От проблемы феноменологического подхода в психологии к задаче введения в профессию психолог. Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 14. Психология. 2005. №2.
7. Пряжников Н.С., Пряжникова Е.Ю. Психология труда и человеческого достоинства. Издательство: Академия, 2005.
8. Юдина Е.В. Соотношение личностных качеств практического психолога и эффективности диагностической деятельности: Дис. канд. психол. наук: 19.00.01. - М.: РГБ, 2003.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 373.882

Munisa ORIPOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Psixologiya fanlari doktori, professor U.Qodirov taqrizi asosida

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODKORLIGINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada “ijodkorlik” tushunchasining mohiyati ochib berilgan, umuman shaxsning ijodkorligini, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan o‘rganishning zamonaviy usullari tavsiflangan va tahlil qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda bolaning ijodiy vazifasini hal qilish jarayonini o‘rganishga qaratilgan bolaning ijodining sifat xususiyatlarini aniqlashga imkon beradigan usullardan foydalanish eng maqbul ekanligi ko‘rsatilgan. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijodini o‘rganishda kuzatish va suhbat usullarining imkoniyatlari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: “Ijodkorlik” tushunchasi, maktabgacha ta’lim muassasalari, zamonaviy usul, ijodiy vazifa, diagnostikakuzatish va suhbat usullari.

МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ТВОРЧЕСТВА ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В стате раскрываеця сущност понятия «творчество», описываюця и анализируюця современные методы изучения творчества человека в селом, в частности, применительно к детям дошколного возраста. В работе с дошкольниками показано, что оптимально исползоват методы, позволяющие определит качественные характеристики творчества ребенка, направленные на изучение процесса решения творческой задачи ребенка. Описаны возможности методов наблюдения и интервю в изучении творчества дошкольников.

Ключевые слова: Понятие «творчество», дошколные образовательные учреждения, современный метод, творческое задание, методы диагностического наблюдения и беседы.

DIAGNOSIS METHODS OF CREATIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article reveals the essence of the concept of "creativity", describes and analyzes modern methods for studying human creativity in general, in particular, in relation to preschool children. In work with preschoolers, it is shown that it is optimal to use methods that make it possible to determine the qualitative characteristics of a child’s creativity, aimed at studying the process of solving a child’s creative problem. The possibilities of observation and interview methods in studying the creativity of preschoolers are described.

Key words: And phrases: the concept of "creativity", preschool educational institutions, modern method, creative task, methods of diagnostic observation and conversation.

Kirish. Inson qobiliyatlari muammosi doimo gumanitar fanning turli sohalari olimlarining alohida e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda rivojlanish davrida ijodiy qobiliyat va ijodkorlik muammosi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Chunki bolaning qanday ulg‘ayishi, uning tabiiy iste’dod va qobiliyatlari qanchalik rivojlanib borishi, nostandart fikrlash, yangi sharoitlarga tez moslashish, hayot muammolarini hal etishga ijodiy yondashishga qanchalik qodir bo‘lishi tarbiyasi-pedagoglarga bog‘liq.

Maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida bolalar ijodkorligini rivojlantirish amaliyotchilardan ma’lum bir yosh davrida ulardan foydalanish imkoniyatlarini izlash bo‘yicha umumiy nazariy qoidalarni tushunishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus olimlari N.S.Leites, N.N.Poddyakov, L.A.Venger, O.M.Dyachenko, V.T.Kudryavtsev, O.K.Tixomirovlar maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida bolalar ijodiy qobiliyatlari intellektual rivojlanish darajasi bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar [1].

N.N.Poddyakovning fikricha, ijodiy qobiliyatlarning asosiy tarkibiy qismi muammoli fikrlash bo‘lib, u bolaning yangi narsalarga ochiqligida, nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklarni izlashda, savol va muammolarni o‘zi shakllantirishda namoyon bo‘ladi [2]. Hatto muvaffaqiyatsizlik ham kognitiv ehtiyojni keltirib chiqaradi, tadqiqot faoliyatini qo‘zg'atadi va ijodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish imkoniyatini beradi. Asosiy tadqiqot usuli muammoli vaziyatdir.

O.M.Matyushkin ijodkorlik harakatini yashirin, aniq belgilanmagan elementlar va munosabatlarga ega bo‘lgan muammoni hal qilish deb tushunadi[3]. Muammoli vaziyatni hal qilish natijasini olish ijodkorlikning yakuniy aktidir.

Tahlil va natijalar. Muayyan sifatni rivojlantirish yo‘lidagi birinchi bosqich – uning shakllanish darajasini diagnostika qilish hisoblanadi[4]. Ijodkorlik shaxsning mulki sifatida integral, murakkab xususiyatga ega, shaxsni bir butun sifatida tavsiflaydi. Ijodkorlikning intellektual parametrlari orasida olimlar quyidagilarni ajratib ko‘rsatishadi:

tezlik (vaqt birligida paydo bo‘ladigan g‘oyalar soni);

moslashuvchanlik (bir g‘oyadan ikkinchisiga o‘tish, ob’ektni yangi burchakdan ko‘rish, undan yangi foydalanish imkoniyatlarini kashf qilish, amaliy qo‘llanilishini kengaytirish qobiliyati);

o‘ziga xoslik (umumiy qabul qilingan qarashlardan farq qiladigan g‘oyalar, tasvirlar, assotsiatsiyalarni yaratish qobiliyati);

qiziquvchanlik (atrofdagi dunyodagi muammolar va qarama–qarshiliklarga nisbatan sezgirlik);

gipotezalarni taklif qilish qobiliyati [5; 6;].

Ijodkorlik nafaqat shaxsning intellektual fazilatlari, balki motivatsion fazilatlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, ular orasida quyidagilar muhim:

o‘zini yaxshiroq anglash, o‘z imkoniyatlarini iloji boricha qondirish, o‘zi uchun yangi, g‘ayrioddiy ishlarni bajarish istagi.

faoliyat turlari va yangi usullarni qo‘llash, tavakkal qilish va o‘z imkoniyatlari chegaralarini sinab ko‘rish istagi [6].

Ijodkorlik uchun dastlabki sinovlardan biri shaxsda so‘zdan foydalanish darajasini, qulayligi va assotsiatsiyalardan foydalanishni aniqlashga qaratilgan[6].

Ko‘proq keng tarqalgan ijodiy tadqiqot testi E.P.Torrens testi bo‘lib, unda topshiriqlar og‘zaki, vizual va ovozli guruhlarga bo‘lingan[6].

Og‘zaki test yordamida ijodkorlikni tekshirganda, sub’ektlarga quyidagilar taklif etiladi:

ma’lum bir tasvirga va muammoli savollarga imkon qadar ko‘proq savollar berish;

rasmda ko‘rsatilgan narsaning iloji boricha ko‘proq sabablari va oqibatlarini taxmin qiling;

rasmda ko‘rsatilgan o‘yinchoqni o‘zgartirish (yaxshilash)ning ko‘proq usullarini, tanish ob’ektdan foydalanishning qiziqarli va g‘ayrioddiy usullarini va boshqalarni o‘ylab topish[7].

D.Bogoyavlenska ta’kidlaganidek, “ijodiy qobiliyatlarni o‘lchash birligini – “intellektual tashabbus”ni ajratib ko‘rsatdi, bu aqliy qobiliyatlar va shaxsning motivatsion tuzilishi sintezi bo‘lib, “aqliy faoliyatning zaruriy yechimdan tashqarida davom etishida namoyon bo‘ladi” [2].

Intellektual tashabbusni aniqlash uchun D.Bogoyavlenska ijodkorlikni o‘lchashning an’anaviy test modelidan voz kechdi. Uning fikricha, bu aniq keng ko‘lamli tadbirlarni tashkil etishni talab qiladi va umumiy tasvirlarni o‘z ichiga olgan o‘xshash vazifalar tizimidan foydalanishni taklif qiladi. Bu tizim, bir tomondan, berilgan ko‘rsatmalar bo‘yicha topshiriqni bajarish jarayonida intellektual tashabbusni aniqlashni ta’minlaydi.

Intellektual tashabbus tadqiqot muammosini mustaqil ravishda shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Bu metodologiya vazifasini bajarish uchun utilitar ehtiyoj bilan rag‘batlantirilmaydi. Berilganidan tashqariga chiqish, vaziyat talablaridan tashqari o‘rganishni davom ettirish qobiliyati kognitiv va motivatsion omillarning birligini aks ettiruvchi shaxsiy xususiyatdir.

Ijodkorlik diagnostikasining yuqorida tavsiflangan yondashuvlari bir-birini istisno qilmaydi, balki to‘ldiradi. Ijodkorlik ko‘p o‘lchovli mavjudot bo‘lganligi sababli uning turli tomonlarini ma’lum texnikalar yordamida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bolalar ijodini diagnostika qilishning zamonaviy usullari moslashuvchan xatti-harakatlar algoritmi va sifatli talqini bilan eksperimental testlar xarakteriga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini aniqlash usullaridan biri 4-5 yoshli bolalarning universal ijodiy qobiliyatlarini diagnostika qilish usuli (V. Sinelnikov, V. Kudryavsev) to‘rt diagnostika vazifasidan iborat. Ular bolaning xayolot realizmining shakllanish darajasi, qismlardan oldin butunni ko‘rish qobiliyati, vaziyatdan tashqari va o‘zgartiruvchi xarakterdagi ijodiy qarorlar, tajriba o‘tkazish qobiliyatini aniqlashga imkon beradi [8].

1-topshiriq. "Xonadagi quyosh".

Tashxis qilinadigan sifat: Tasavvurning realligi.

Maqsad: Nomuvofiqliklarni bartaraf etish orqali bolaning ma’lum bir vaziyatda "noreal"ni "haqiqiy"ga aylantirish qobiliyatini aniqlash.

Material: odam, quyosh, qalam bo‘lgan xonaning tasviri bilan chizish.

O‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Psixolog bolaga rasmni ko‘rsatib, shunday deydi: "Men sizga bu rasmni beraman. Ehtiyotkorlik bilan qarang va unda nima chizilganligini ayting. Rasmda tasvirlangan tafsilotlarni (stol, stul, odam, chiroq, quyosh va boshqalar) sanab o‘tgach, psixolog quyidagi vazifani qo‘yadi: "To‘g‘ri. Biroq, ko‘rib turganingizdek, bu erda quyosh xonada bo‘yalgan. Iltimos, ayting-chi, bu mumkin-mi? Rassom bu yerda xato qildimi? Chizma to‘g‘ri bo‘lishi uchun uni tuzatishga harakat qiling.

Bolaga qalam ishlatish shart emas, u chizilgan rasmni "to‘g‘rilash" uchun nima qilish kerakligini tushuntirishi mumkin.

Ma’lumotlarni qayta ishlash. Tekshiruv davomida psixolog bolaning rasmni tuzatishga urinishlarini baholaydi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash besh balli tizim bo‘yicha amalga oshiriladi:

1 ball: Javob yo‘q, topshiriqni rad etish ("Men qanday tuzatishni bilmayman", "Chizimni tuzatish kerak emas").

2 ball: Nomuvofiqlikni rasmiy ravishda yo‘q qilish (o‘chirish, quyoshga bo‘yash).

3 ball: Nomuvofiqlikni mazmunli bartaraf etish, ammo yechim oddiy (boshqa joyda chizish – "Ko‘chada quyoshli").

4 ball: Nomuvofiqlikni mazmunli bartaraf etish, ammo yechim qiyin (rasmni qayta ishlash).

5 ball: Konstruktiv javob (nomaqbul elementni boshqalardan ajratib, uni ma’lum bir vaziyat kontekstida saqlang ("Rasm chizish", "Deraza chizish", "Quyosh atrofida ramka chizish" va boshqalar).

2–topshiriq. “Murakkab rasm” Tashxis qilinadigan sifat: qismlardan oldin butunni ko‘rish qobiliyati.

Maqsad: Nomuvofiq vaziyatda tasvirning ajralmas kontekstini saqlab qolish qobiliyatini aniqlash.

Materiallar: To‘rtta burmali (o‘lchami 10 x 15 sm) o‘rdak tasviri bilan katlanadigan karton rasm.

O‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Psixolog bolaga rasmni ko‘rsatib, shunday deydi: "Endi men sizga bu rasmni beraman. Iltimos, diqqat bilan qarang va unda nima chizilganligini ayting?".

Javobni tinglagandan so‘ng, psixolog rasmni chizadi va so‘raydi: "Agar biz rasmni shunday chizsak, o‘rdak bilan nima bo‘ladi?". Bolaning javobidan keyin rasm to‘g‘rilanadi; qayta yasaladi va bolaga xuddi shu savol beriladi. Beshta yig‘ish varianti ishlatiladi: "burchak", "ko‘prik", "uy", "quvur", "akkordeon".

Ma’lumotlarni qayta ishlash. Bolani tekshirish vaqtida psixolog topshiriqni bajarish vaqtida uning javoblarining umumiy mazmunini qayd etadi. Ma’lumotlarni qayta ishlash uch nuqtali tizim bo‘yicha amalga oshiriladi.

Har bir vazifa rasmni egishda bitta pozitsiyaga mos keladi. Har bir topshiriq uchun maksimal ball – 3 ball. Jami – 15 ball. Javoblarning quyidagi darajalari ajratiladi:

1 ball: Javob yo‘q yoki topshiriqni rad etish (“Bilmayman”, “Hech narsa bo‘lmaydi”, “Bo‘lmaydi”).

2 ball: Tasvirning ko‘rish sohasida yoki undan tashqarida joylashgan tafsilotlarini sanab o‘tgan tavsifli javob, ya’ni rasm kontekstini yo‘qotish ("O‘rdakning boshi yo‘q", "O‘rdak singan", "O‘rdak qismlarga bo‘linadi" va boshqalar).

3 ball: Birlashtirilgan turdagi javoblar: chizmani egishda tasvirning butunligini saqlash, chizilgan belgini yangi vaziyatga qo‘shish ("O‘rdak sho‘ng‘idi", "O‘rdak qayiq orqasida suzdi"), yangi kompozitsiyalar qurish ("Aytishlaricha, ular quvur yasashgan va ustiga o‘rdak chizishgan") va hokazo.

Ba’zi bolalar tasvirning umumiy kontekstining saqlanishi ma’lum bir vaziyatga emas, balki rasm yig‘ilgandan keyin olinadigan o‘ziga xos shaklga "bog‘langan" javob beradilar ("O‘rdak uyga aylandi", "Bu shunday bo‘ldi" ko‘prik" va boshqalar). Shunga o‘xshash javoblar birlashtirilgan turga tegishli bo‘lib, ular ham uch ball bilan baholanadi.

Topshiriqlar bajargandan so‘ng tashxis natijalari umumlashtiriladi va bolaning ijodiy fazilatlarini shakllantirish darajasi quyidagi parametrlar bo‘yicha aniqlanadi: yuqori, o‘rta, past.

A. Raxmonqulova va boshqalar [9] ijodkorlikni ikki ko‘rsatkich bo‘yicha tashxislashni taklif qiladilar:

faoliyat mahsulotlarining ijodiy qiymatini, ya’ni yangilikni aks ettiruvchi mahsuldor ko‘rsatkich;

ijodiy xulq–atvorning motivatsion asosini aks ettiruvchi motivatsion va shaxsiy ko‘rsatkich.

Ijodkorlikning diagnostikasi teatrlashtirilgan o‘z–o‘zidan paydo bo‘lgan o‘yin jarayonida sodir bo‘ladi, uning davomida bolalar tomonidan ixtiro qilingan o‘yin hodisalarining tabiati va ularning o‘rnini bosuvchi ob’ektlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari qayd etiladi.

Spontan o‘yin jarayonida o‘qituvchi tashqi kuzatuvchi rolini o‘ynaydi: u ijodiy jarayonga aralashmaydi, izoh bermaydi, baholamaydi, o‘z harakat rejasini taklif qilmaydi. Uning vazifasi ishtirokchilarning jismoniy va ruhiy xavfsizligiga g‘amxo‘rlik qilish, shuningdek, sodir bo‘layotgan voqealarning "Kuzatuv xaritasi" ni yuritishdir. O‘yinchilar soni 7–8 kishi. O‘yin ishtirokchilari har qanday ertak yoki hayoliy hikoyani o‘ylab topishga taklif qilinadi. Hikoyaning boshlanishi va qahramonlar o‘qituvchi tomonidan taklif qilinishi mumkin. Keyinchalik, bolalar ushbu syujet qanday rivojlanishini kelishib olishlari kerak, uni sahnalashtirish (o‘z-o‘zidan teatrlashtirish), teatrlashtirilgan harakatlar va sahna ko‘rinishlari uchun kerakli ob’ektlar va materiallardan foydalangan holda.

Yuqorida tavsiflangan maxsus ijodiy diagnostika usullaridan tashqari, boshqa empirik usullarni – kuzatish va suhbatni qo‘llash ham maqsadga muvofiqdir. Usullarning har biri, bir tomondan, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u boshqasini to‘ldiradi, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ko‘p qirrali va chuqur bilim beradi.

Kuzatish usuli maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida katta guruh maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotiy faoliyatini takroriy kuzatishni o‘z ichiga oladi. Ushbu usuldan foydalanish quyidagilar haqida ob’ektiv ma’lumot olish imkoniyatini beradi:

katta yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish bo‘yicha pedagoglar faoliyatini tashkil etish;

bolalarning ijodiy faoliyatga qiziqishining mavjudligi.

Kuzatish natijalarini bayonnomada qayd etish maqsadga muvofiqdir, bu esa olingan ma’lumotlarning hisob–kitoblari va tahlilini xolis va aniq amalga oshirish imkonini beradi. Bayonnomada quyidagilar qayd etilishi kerak:

ijodiy faoliyatga qiziqish mavjudligi/yo‘qligi;

ijodiy faoliyat jarayonida bolalarning hissiy ko‘rinishlari;

bolalarning ijodiy maxsulotlari haqidagi gaplarining mazmuni;

tarbiyachi faoliyatini katta guruh maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirishga yo‘naltirish.

Kuzatish jarayonida olingan ma’lumotlarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish uchun bolaning ijodiy faoliyatga munosabatini chuqurroq bilish va tushunish imkonini beradigan suhbat usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Katta guruh maktabgacha yoshdagi bolalar bilan suhbat o‘tkazish uchun taxminiy savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Siz biror narsa yaratishni yo chizish, loyihalash, qo‘shiq aytish, ertak yaratish yoqtirasizmi?

Siz buni qanchalik tez-tez qilasiz?

Sizga nima ko‘proq yoqadi?

Bir vaqtning o‘zida qanday his-tuyg’ularni his qilasiz?

O‘zingiz yoki kimdir bilan biror narsa yaratishni yoqtirasizmi?

Xulosa. Mavzuga oid psixologik-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish asosida xulosa qilishimiz mumkin:

ijodkorlik – bu ijodiy bo‘lish, hayot sohalarida yangi narsalarni yaratish va turli sohalarda nostandart vazifalarni hal qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan individual xususiyatdir;

maktabgacha yoshdagi bolalar bilan pedagogik faoliyatda bolaning ijodining sifat xususiyatlarini ochishga imkon beradigan va ijodiy vazifani hal qilish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;

ko‘plab tadqiqotchilar ijodiy tasavvur va fikrlashni ijodkorlikning majburiy tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko‘rsatishadi, bu esa, ushbu shaxsiy fazilatlarni tashxislash usullarining yo‘nalishini belgilaydi;

kuzatish va suhbat usullari har bir bolada ijodkorlik darajasini tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Психологические исследования творческой деятельности / [под ред. О.К. Тихомирова]. – М.: Наука, 1975. – 253 с
2. Поддьяков А.Н. Мышление дошкольников в процессе экспериментирования со сложными объектами / Поддьяков Н.Н. // Вопросы психологии. – 1996. – № 4. – С. 14-23.
3. Матюшкин А.М. Психологическая структура, динамика и развитие познавательной активности / Матюшкин А.М. // Вопр. психологии. – 1982. – № 4. – С. 5-17.
4. Богоявленская Д. Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества [Текст] / Д. Б. Богоявленская. – Ростов-на-Дону, М., 2002
5. Анастази А. Психологическое тестирование: в 2 кн. [Текст] / А. Анастизи; под ред. К. М. Гуревича, В. И. Лубовского. – М., 1982. – Кн. 1–2.
6. Психологическая диагностика: учеб. для вузов [Текст] / под ред. М. К. Акимовой, К. М. Гуревича. – СПб.: Питер, 2003. – 652 с.: ил.
7. Бердалиева Г.А. Мактабгача таълим муассасалари нутқ ўстириш машғулотларида болаларни мустақил фикрлашга ўргатиш методикасини такомиллаштириш. 13.00.08 – “Мактабгача таълим ва тарбия назарияси ва методикаси”. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатsiяси автореферати. Тошкент – 2019.
8. Психологический словарь / под ред. В. П. Зинченко, Б. Г. Мещерякова. – М.: Астрель: АСТ: Транзиткнига, 2006.
9. Рахмонқулова А. ва бошқ. Мактабгача ёшдаги болаларни атроф–муҳит билан таништириш (илк, кичик, ўрта гуруҳлар учун). Т.: 2015.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 37.018 .8

Salamat OTAYEVA,
Urganch davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:otayevasalamat@gmail.com

UrDU katta o‘qituvchisi b.f.f.d. (PhD) I.Avazmetova taqrizi asosida

THE CONTENT AND SPECIFIC ASPECTS OF THE PERSON-CENTERED APPROACH

Annotation
In this article, the essence and specific aspects of the person-oriented approach are interpreted pedagogically and psychologically. The article explains that the person-oriented approach is a process aimed at developing students' personality, self-expression, self-expressive personality traits, sense of responsibility, and critical thinking.
Key words: Person-centered approach, student, objective, subjectivity, educational concept, technology, humanism.

СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

Аннотация
В статье по педагогическим и психологическим аспектом осмыслены сущность и особенности личностно-ориентированного подхода. В статье поясняется, что личностно-ориентированный подход представляет собой процесс, направленный на развитие у студентов личности, самовыражения, самовыражающих качеств личности, чувства ответственности, критического мышления.
Ключевые слова: Личностно-ориентированный подход, студент, объективность, субъектность, образовательная концепция, технология, гуманизм.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDOSHUVNING MAZMUN MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya
Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni mazmun-mohiyati va oziga xos jihatlari pedagogik va psixologik jihatdan talqin qilinadi. Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabalarda o‘z shaxsiyati, o‘z-o‘zini ifoda etishi, o‘zini namoyon qiladigan shaxs qirralari, javobgarlikni his etishi, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan jarayon ekanligi yoritiladi.
Kalit so‘zlar: Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, talaba, ob’ektiv, sub’ektivlik, ta’lim konsepsiyasi, texnologiya, insonparvarlik.

Kirish. Hozirgi kunda talabaning shaxsiyatiga va individualligiga e’tibor berish, uning shaxsini qiziqishlariga mos ravishda yo‘naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo‘llab-quvvatlanishi bularning hammasi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi nomli kitobida “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.”-deb ta’kidlab o‘tgan[1].

Darhaqiqat bugungi globallashuv sharoiti talabalarni qisqa muddatda asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini xususan o‘z ixtisosligini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishi, o‘z ustida ishlashi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi bularning hammasi shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuvni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabaga yo‘naltirilgan yondoshuv - bu o‘rganishni tashkil etish usuli hisoblanadi. Tinglovchilarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini inobatga olish va ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutiladi. Ko‘plab olimlar bu muammoning yechimini topish uchun turli yo‘nalishlar va yondoshuvlar asosida tadqiqotlar olib borganlar, xususan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’limni tashkil qilishning mazmun mohiyati haqida B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov[2], Sh. S. Shodmonova, N.S. Mirsagatova, M.T. Mirsolieva, G.N. Ibragimovalar[3] o‘zlarining qarashlarini bayon etganlar. Shuningdek xorij olimlaridan K.Rojers, I.S. Yakimanskaya, Y. V. Bondarskiy, V.V.Serikov, N.A. Yedalina[4] kabi bir qator tadqiqotchi olimlar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuvni fanda qo‘llanilishi va amaliyotga tadbiq qilinishi borasida ish olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv har bir talabaning individual xususiyatlarini ochib berishga yordam berishi yoritiladi. Bu quyidagilarda o‘z aksini topadi: jarayonlar, yodlash, e'tibor, tashabbuskorlik, ijodkorlik namoyon bo‘lishida, yangi materialni o‘zlashtirganda. Umuman olganda har xil usullar bilan qiziqtirish va bilimlardan turli yo‘llar orqali foydalana olish kabilar muhokama qilinadi.

Tahlil va natijalar. Ta’limni modernizayiyalashtirish ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo‘lib qolmaydi. O‘quvchi shaxsini mustaqillk, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog‘liq funksiyalarni ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan tizimi - vositasida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchi ta’lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha ta’lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarni (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqil fikrlash va boshqalar)ni hisobga olgan holda, o‘quvchiga uning o‘ziga xosligi (individalligi)ni rivojlantirish imkonini berish va buning uchun sharoit yaratish lozimligi haqida ish ko‘radi.

Ta’limda talaba shaxsiga faliyatli yondashuv bu ta’lim tizimi kosepsiyasini tashkil etib, bunda shaxs “sub’ekti” kategoriyasi erkinlikka intilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglaniladi, o‘quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari-maqsad, mazmun, metod,shakl, usul, vositalar o‘quvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega

bo‘lgach, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatada tadbiq etiladi.

Agar o‘quvchi o‘quv faoliyatini mohiyatini anglay olmasa, o‘quv maqsadini tan olmaydi, o‘qituvchi qo‘ygan vazifani tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etilgan barcha hatti-harakatlar majburiyat ostida bo‘lib, uning bilimlari rasmiy harakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo‘ladi. Bilim ularni amaliyotga tadbiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. O‘quvchining ruhiy xususiyatlari o‘rganish, o‘zlashtirilayotgan bilimlarning o‘quvchiga shaxsan qiziqarli va kerakli bo‘lishi zarurligi, aks holda ular shubhasiz rad etilishini ko‘rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub’ektivlashadi, o‘ziga xos individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to‘qnashuvi, bahs-munozara, o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o‘zlashtiriladi, bu esa o‘quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllari (bahs-munozara, o‘zaro hamkorlik)ni talab etadi. O‘qituvchi o‘z darsida shunday shart-sharoitlar yaratish lozimki, natijada o‘quvchi uchun dastlab neytral bo‘lgan ob'ekt kutilmaganda sub’ektiv xususiyat kasb etsin. Buning natijasida o‘quvchi o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi, izlanadi va o‘qituvchi o‘quv maqsadlariga erisha boradi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari o‘quvchi bilim faoliyatini tashkil etishi metodlar bilan uzviy bog‘liq. Bu usullar: muammoli izlanish, tadqiqot, dialogik, munosabat metodlari (dialog, evrestik suhbat, munozara, guruhli ish turlari va boshqalar).

Shaxsga yo‘naltirilgan ta'limning maqsadi shaxsning quyidagi funksiyalarini har tomonlama rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir:

insonning tanlash qobiliyati;

o‘z hayotini aks ettirish, baholash qobiliyati;

hayotning ma’nosini izlash, ijodkorlik;

“Men” obrazini shakllantirish;

javobgarlik (“Men hamma narsa uchun javobgarman” iborasiga muvofiq);

shaxsning avtonomiyasi (rivojlanar ekan, u boshqa omillardan borgan sari ozod bo‘ladi).

Shuningdek, B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O‘.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimovlarning Pedagogika izohli lug‘atida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga quyidagicha izoh beriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. Unga ko‘ra o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanadi. Bunda o‘quvchining qadriyatli yo‘nalishlari inobatga olinadi. Ushbu ta’limning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining asosiy ob’ekti o‘quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) bo‘lib, uning shaxsi, qadr-qimmati yuqori o‘ringa qo‘yiladi. Asosiy e’tibor shaxsning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma’naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi[5].

G.A.Kasen, A.K.Minbayeva, Z.M. Sadvakasovalarning “Shaxsga yo‘naltirilgan, loyiha va muammolarga yo‘llangan yondashuvlar” nomli risolasida K. Rodjerstning “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida insonparvarlik yo‘nalishi tamoyillari yotadi.”[6] – deb ta’kidlagani keltirilgan.

Haqiqatdan ham ta’lim tizimining barcha qismlarini insonparvarlashtirish va insonparvarlashtirishning zamonaviy sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘qituvchining har bir bola va jamoa bilan o‘zaro munosabatlaridagi pozitsiyasini belgilaydigan asosiy qadriyat yo‘nalishi hisoblanadi. Talabaga yo‘naltirilgan yondashuv talabaga o‘zini shaxs sifatida bilishga, o‘zining imkoniyatlarini aniqlashga, ochib berishga, o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishga, ijtimoiy jihatdan maqbul o‘zini o‘zi belgilashga, o‘zini o‘zi anglash qobiliyatini shakllantirishga yordam berishni o‘z ichiga oladi. Kollektiv ta’lim va tarbiyada bu insonparvarlik munosabatlarini yaratishni anglatadi, buning natijasida o‘quvchi o‘zini shaxs sifatida anglaydi va odamni boshqa odamlarda ko‘rishni o‘rganadi. Jamoa har bir insonning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning kafolati sifatida ishlaydi.

S.M. Gulyans o‘zining “Zamonaviy ta’lim konsepsiyalari nuqtai nazaridan ta'limda o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati” nomli maqolasida

V.V.Serikovning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni turli xil talqin qilishda uchta asosiy yo‘nalishni belgilanganligini ko‘rsatib o‘tadi. Ular quyidagicha:

1. O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv – ta’lim yo‘nalishi, o‘quv rejasi, ta’lim muassasasi va boshqalarni tanlashda bolaning huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslangan umumiy insonparvarlik hodisasi.

2. O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv - shaxsni tarbiyalash istagiga asoslangan pedagogik faoliyatning maqsadi, dasturi.

3. O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv - bu shaxsning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi mexanizmlarini “ishga tushiradigan” ma’lum ta’lim tizimini yaratishga asoslangan ta’limning alohida turi[7].

N.A. Edalinaning qarashlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim va tarbiya g‘oyasini psixologik-pedagogik asoslashni ta'minlash zarurligi va buning uchun uchta vazifani hal qilish: 1) “shaxs” tushunchasining mohiyatini madaniy, tarixiy va ma’rifiy sharoitda ochib berish; 2) jarayonda “individ”, “shaxs” va “individuallik” tushunchalarini solishtirish, inson rivojlanishi; 3) shaxsga yo‘naltirilgan va individual yondashuvlarning nisbiy mustaqilligi va o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish[8] -kerakligi izohlanadi.

G.F. Trubina o‘zining “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim haqida zamonaviy tushunchalar” deb nomlangan maqolasida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tushunchalarini yoritishda I.S.Yakimanskayaning “shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning vazifasi - bu shaxs uchun muhim bo‘lgan sub’ektiv tajribani boyitishdir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - bu o‘quvchining sub’ektiv tajribasini ochib beruvchi va tizimlashtiruvchi texnologiya.

I. S. Yakimanskayaning fikricha, ta’lim dasturi ikkita bilim tizimini o‘z ichiga olishi kerak:

1) ob’ektiv voqelik haqida;

2) ob’ektiv voqelik haqidagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishni ta'minlovchi aqliy texnikalar (amaliyotlar)ning mazmuni va ketma-ketligi[9]-da aks etishini keltirib o‘tadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan qarashlardan kelib chiqib talabaga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tushunchalarini keltirib o‘tamiz. Ular quyidagicha izohlanadi:

Individuallik -shaxs yoki guruhning o‘ziga xosligi, ulardagi individual, maxsus va umumiy xususiyatlarning o‘ziga xos kombinatsiyasi, ularni boshqa shaxslardan ajratib turadi.

Shaxsiyat -doimiy o‘zgaruvchan tizimli sifat, u individual xususiyatlarning barqaror to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi va shaxsning ijtimoiy mohiyatini tavsiflaydi.

O‘zini namoyon qiladigan shaxs - ongli va faol ravishda o‘z-o‘zini bilish istagini amalga oshiradigan, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to‘liq ochib beradigan shaxs.

O‘z-o‘zini ifoda etish -shaxs tomonidan o‘ziga xos fazilatlar va qobiliyatlarning rivojlanishi va namoyon bo‘lishi jarayoni va natijasi.

Mavzu-ongli va ijodiy faoliyatga, o‘zini va atrofdagi voqelikni bilish va o‘zgartirish erkinligiga ega bo‘lgan shaxs yoki guruh.

Sub’ektivlik -sifat shaxs yoki individual sub’ekt bo‘lish qobiliyatini aks ettiruvchi va faoliyatni tanlash va amalga oshirishda faoliyat va erkinlikka egalik o‘lchovi bilan ifodalangan guruh.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda asosiysi shaxsning to‘liq namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Bir so‘z bilan aytganda shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv talabalarning yetakchi g‘oya va farazlarini rag‘batlantirish, o‘qituvchi orqali talabalarning o‘zini namoyon qilish imkoniyatlari haqida fikr yuritish, talabaning faolligi va tashabbusini to‘xtatmasdan savollar berish imkoniyatini berish, fikr almashishni tashkil etish, har bir talaba uchun muvaffaqiyatli vaziyatini yaratish istagini tug‘dirish, talabalarning charchoqlarini kamaytirish uchun ish turlarini, vazifalar turlarini rejali holda almashtirish jarayonni muvafaqqiyatli amalga oshirishda o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston nashriyoti, 2022. 218- b.
2. Abdullayeva B., Usmonbayeva M., Asqarova O‘., Ehsonova F., Hakimov S. Pedagogika. Izohli lug’at. Toshkent: Innovatsiya ziyo nashriyoti, 2020. – 275 bet.
3. Shodmonova Sh. S., Mirsagatova N.S., Mirsolieva M.T., Ibragimova G.N. Pedagogik texnologiyalar fanidan metodik qo‘llanma. Toshkent-2010. 80-bet.
4. Трубина Г.Ф. Современные концепции личностно ориентированного образования, Педагогическое образование в России. 2014. № 9; 165-с. https://core.ac.uk/download/pdf/42051798.pdf/.; Н.А. Едалина Проблемы личностно-ориентированной педагогики. Екатеринбург 1998 г. 25-с. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/28026/1/philos_edu_5.pdf; Гульянц С.М.Сущность личностно-ориентированного подхода в обучении с точки зрения современных образовательных концепций. Педагогика и Психология. Вестник ЧГПУ 2’2009. 41 с.
5. Abdullayeva B., Usmonbayeva M., Asqarova O‘., Ehsonova F., Hakimov S. Pedagogika. Izohli lug’at. Toshkent: Innovatsiya ziyo nashriyoti, 2020. – 275 bet.
6. Касен Г.А., Мынбаева А.К., Садвакасова З.М. Личностно-ориентированный, проектный и проблемно-ориентированный подходы в обучении. Алматы Қазақ университеті 2013 г. 13 с
7. Гульянц С.М.Сущность личностно-ориентированного подхода в обучении с точки зрения современных образовательных концепций. Педагогика и Психология. Вестник ЧГПУ 2’2009. 41 с.
8. Едалина Н.А. Проблемы личностно-ориентированной педагогики. Екатеринбург 1998 г. 25-с. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/28026/1/philos_edu_5.pdf
9. Трубина Г.Ф. Современные концепции личностно ориентированного образования, Педагогическое образование в России. 2014. № 9; 165-с. https://core.ac.uk/download/pdf/42051798.pdf

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:152.26:796.83(045)

Abdulatif RAXIMOV,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo‘rayev taqrizi ostida

O‘SMIR BOKSCHILARNING MUVAFFAQIYATGA ERISHISHIDA IRODAVIY SIFATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘smir bokschilarning muvaffaqiyatga erishishida irodaviy sifatlarning o‘rni va ahamiyati o‘rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, shaxs, o‘smir, sport, boks, muvaffaqiyat, motiv, iroda, xulq-atvor, musobaqa, frustratsiya.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В ДОСТИЖЕНИИ УСПЕХА ПОДРОСТКОВ-БОКСЕРОВ

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение силы воли в достижении успеха подростками-боксерами. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными в связи с этим. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.

Ключевые слова: Общество, личность, подросток, спорт, бокс, успех, мотивация, воля, поведение, соревнование, фрустрация.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF VOLITIONAL QUALITIES IN ACHIEVING THE SUCCESS OF TEENAGE BOXERS

Annotation

The article discusses the role and importance of willpower in achieving success by teenage boxers. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, about the scientific research conducted by scientists in connection with this. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.

Key words: Society, personality, teenager, sport, boxing, success, motivation, will, behavior, competition, frustration.

Kirish. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda sport sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bolalar sportiga katta e’tibor qaratilib, qator tadbir va o‘zgarishlar amalga oshirilib, mamlakatimizning barcha hududlarida sport inshootlari zamonaviy talablar doirasida qurilib, ular zamonaviy sport uskunalari bilan jihozlanmoqda. Bunday harakatlar asosida yaratilayotgan sharoit bolalarda sportga bo‘lgan munosabat o‘zgarishiga olib kelmoqda. Endi ular faqat bo‘sh vaqtlarida sport bilan shug‘ullanishga emas, balki sport salomatlik va ko‘rkamlikning asosi ekanligini anglab muntazam shug‘ullanib borishga odatlanmoqdalar.

Respublikamizda yakkakurash sport turlaridan biri boksni rivojlantirish, boks maktablari faoliyatini yanada jadallashtirish va yoshlarni boksga ko‘proq jalb etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 - yil 29 - apreldagi PQ-5099-sonli “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori juda muhim bo‘lib, unda mamlakatimiz yoshlarning boksga bo‘lgan ommaviy qiziqishini oshirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) tizimini yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag‘batlantirilishini yaxshilash, shuningdek, o‘zbek boksining dunyodagi yetakchiligini saqlab qolish va davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ulug‘vor ishlarning natijasi o‘laroq O‘zbekiston tom ma’noda boks mamlakatiga aylanib borayotganligi, milliy terma jamoamiz a’zolari ko‘p bora butun dunyoga o‘zlarini yaqqol namoyon etayotganligi, mazkur g‘alabalar natijasida “O‘zbekiston boks maktabi”, “O‘zbekiston bokschilari” degan so‘zlarni jahon sporti tarixiga oltin harflar bilan muhrlab qo‘yayotganligi hech kimga sir emas. Bu g‘alabalarning yana bir muhim tomoni shundaki, u mamlakatimizda boshqa sport turlarining rivojiga ham qudratli turtki beradi, o‘z navbatida, yoshlarni barcha sohalarda marrani baland olib, doimo g‘alaba sari intilib yashashga o‘rgatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida aholini, ayniqsa yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish orqali salomatligiga ahamiyat berish bo‘yicha huquqiy-meyoriy asoslar yaratildi. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar ishlab chiqish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish”ga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli

ishlarni amalga oshirishda psixologik tadqiqotlar uchun alohida vazifalar belgilangan. Shu o‘rinda, o‘smir sportchilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ularning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni baholashning metodik ta’minotini tubdan takomillashtirish, birinchi navbatda, sportchilarning psixologik, ma’naviy, mafkuraviy, irodaviy, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligiga muhim ahamiyat berish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Shuning uchun ham mamlakatimiz psixologiya fani sohasida o‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ularning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash uchun bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham bunday izlanishlar davom ettirilmoqda. Bunday tadqiqot ishlari mamlakatimiz psixolog olimlari E.G‘.G‘oziyev, M.M.Mamatov, A.I.Rasulov, O.E.Hayitov, Y.N.Masharipov, Z.H.Fayziyev, R.A.Abdurasulov, Z.G.Gapparov, Z.E.G‘oziyeva, D.I.Ilxamova, J.S.Iskenderov, G.I.Sattarova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ular shaxsda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, iroda va irodaviy sifatlar muammosining nazariy-metodologik masalalari, ixtiyoriy harakatlar va ularni o‘zlashtirish, irodaviy sifatlar shakllanishining yosh xususiyatlari, o‘quvchilarda sport motivlari hamda axloqiy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari masalalari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda o‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ularning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash maqsadida Qarshi va Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari qoshidagi “Boks” sport turi bo‘yicha shug‘ullanuvchi sportchi-o‘quvchilarni respondent sifatida tanlab oldik. Tadqiqot ishimizda o‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ularning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash maqsadida bir qator metodikalar, jumladan, L.I.Vassermanning “Ijtimoiy frustratsiya darajasi” metodikasi, T.D.Dubovitskayaning “Yengib o‘tuvchi xulq-atvorni o‘rganish” so‘rovnomasi, M.V.Chumakovaning “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi va T.Elers tomonidan ishlab chiqilgan “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish” kabi so‘rovnomalardan foydalandik.

Biz o‘z tadqiqot ishimizni amalga oshirishda o‘smir bokschilarning irodaviy sifat xususiyatlari o‘rtasidagi statistik ko‘rsatkichlar va birliklarni e’tiborga olgan holda umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar va omilli tahlilini ko‘rib chiqdik. Tadqiqotda qatnashgan bokschi o‘smirlarning ijtimoiy frustratsiya va shaxs irodaviy sifatlari so‘rovnomalari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatlari quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Frustratsiya va shaxs irodaviy sifatlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

Frustratsiya	Ijtimoiy frustratsiya	0,485*
	Impunitiv	0,572**
	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,468*
	Matonatlilik	0,498*
Ijtimoiy frustratsiya	Ekstrapunitiv	0,446*
	Impunitiv	0,596**
	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,464*
Ekstrapunitiv	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,482*
	Jur’atlilik	0,490*
Intrapunitiv	Impunitiv	0,468*
	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,523**
Impunitiv	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,464*
	Qat’iylik	0,482*
Irodaviy mas’uliyatlilik	Jur’atlilik	0,545**
Jur’atlilik	Matonatlilik	0,552**
Matonatlilik	Qat’iylik	0,457*
Qat’iylik	Impunitiv	0,525**
G‘ayratlilik	Ijtimoiy frustratsiya	0,516**

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Sportchilarda irodaviy sifatlarning psixologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sport maktablarida ta’lim olib borayotgan bokschi o‘smirlarning irodaviy sifatlar va frustratsion holatlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi imkoniyatlarni o‘rganish so‘rovnomalari bo‘yicha shkalalar orasidagi korrelyatsion aloqalar ko‘proq frustratsiya omillari: ijtimoiy frustratsiya (r=0,485, r≤0,05), impunitiv (r=0,572, r≤0,01), irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,468, r≤0,05) va matonatlilik (r=0,498, r≤0,05) omillari bilan, ijtimoiy frustratsiya shkalasi: ekstrapunitiv (r=0,446, r≤0,05), impunitiv (r=0,596, r≤0,01) va irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,464, r≤0,05) omillari bilan ekstrapunitiv shkalasi: irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,482, r≤0,05) va jur’atlilik (r=0,490, r≤0,05) omillari bilan, intrapunitiv shkalasi: impunitiv (r=0,468, r≤0,05) va irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,523, r≤0,01) omillari bilan, impunitiv shkalasi: irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,464, r≤0,05) va qat’iylik (r=0,482, r≤0,05) omillari bilan, irodaviy mas’uliyatlilik shkalasi: jur’atlilik (r=0,545, r≤0,01) omillari bilan, jur’atlilik shkalasi: matonatlilik (r=0,552, r≤0,01) omillari bilan, matonatlilik shkalasi: qat’iylik (r=0,457, r≤0,05) omillari bilan, qat’iylik shkalasi: impunitiv (r=0,525, r≤0,01) omillari bilan, g‘ayratlilik shkalasi: ijtimoiy frustratsiya (r=0,516, r≤0,01) kabi omillar orasida o‘rta darajada korrelyatsion aloqalar kuzatilayotganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi jadvalda ham bokschi o‘smirlarning yengib o‘tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish so‘rovnomalari bo‘yicha o‘zaro korrelyatlari keltirilgan.

2-jadval

Yengib o‘tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish -muvaffaqiyatsizlikdan qochish so‘rovnomalari o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

Matonat	Vaziyatni yengib o‘tish	0,485*
	Oqilona harakat	0,470*
	Nazorat	0,546**
Vaziyatni yengib o‘tish	Jur’atsizlik	0,478*
	Kechinmalar namoyishi	0,591**
	Muvaffaqiyatga erishish	0,471*

Oqilona harakat	Jur’atsizlik	0,596**
	Nazorat	0,474*
	Madad istagi	0,464*
Jur’atsizlik	Madad istagi	0,524**
	Muvaffaqiyatga erishish	0,675**
Nazorat	Oqilona harakat	0,481*
	Jur’atsizlik	0,526**
Kechinmalar namoyishi	Oqilona harakat	0,486*
	Matonat	0,494*
	Madad istagi	0,557**
Madad istagi	Muvaffaqiyatga erishish	0,462*
	Kechinmalar namoyishi	0,589**
Muvaffaqiyatga erishish	Oqilona harakat	0,452*
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	Muvaffaqiyatga erishish	0,552**

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Bokschi o‘smirlarda yengib o‘tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish so‘rovnomalari bo‘yicha olingan natijalar shuni namoyon qildiki, sport maktablarida ta’lim olayotgan bokschi o‘smirlarning yengib o‘tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqador omillar ko‘proq irodaviy matonat shkalasi: vaziyatni yengib o‘tish (r=0,485, r≤0,05), oqilona harakat (r=0,470, r≤0,05) va nazorat (r=0,546, r≤0,01) omillari bilan, vaziyatni yengib o‘tish shkalasi: jur’atsizlik (r=0,478, r≤0,05), kechinmalar namoyishi (r=0,591, r≤0,01) va muvaffaqiyatga erishish (r=0,471, r≤0,05) omillari bilan, oqilona harakat shkalasi: jur’atsizlik (r=0,596, r≤0,01), nazorat (r=0,474, r≤0,05) va madad istagi (r=0,464, r≤0,05) omillari bilan, jur’atsizlik shkalasi: madad istagi (r=0,524, r≤0,01) va muvaffaqiyatga erishish (r=0,675, r≤0,01) omillari bilan, nazorat shkalasi: oqilona harakat (r=0,481, r≤0,05) omillari bilan, kechinmalar namoyishi shkalasi: oqilona harakat (r=0,486, r≤0,05), irodaviy quvvat (r=0,494, r≤0,05) va madad istagi (r=0,557, r≤0,01) omillari bilan, madad istagi shkalasi: kechinmalar namoyishi (r=0,589, r≤0,01) va muvaffaqiyatga erishish (r=0,462, r≤0,05) omillari bilan, muvaffaqiyatga erishish shkalasi: oqilona harakat (r=0,452, r≤0,05) omillari bilan, muvaffaqiyatsizlikdan qochish (r=0,552, r≤0,01) orasida yuqori darajada korrelyatsion aloqalarga kirishganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. O‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, irodaviy sifatlar shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar va ularning individual o‘ziga xosligini psixodiagnostik jihatdan o‘rganish masalasi bugungi zamonaviy psixologiya oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu jihatdan bokschi sportchilarning irodaviy sifatlarini tadqiq qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Sportchilarda irodaviy sifatlarni psixologik jihatdan yanada komleks ravishda yoritish uchun ularning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari, sport mashg‘ulotlari davomida yuzaga keladigan emotsional tushkunlikni oldini olish, trenerlar va o‘qituvchilar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda turli noxush vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik va nostandart vaziyatlarni oldini olish jarayonida irodaviy sifatlarning o‘rni yuqori darajada rivojlanganligi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, sportning maqsadi kishilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g‘alabalarga erishishdir. Buning uchun esa sport jamoasida inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiati haqida ma’lum bir psixologik ma’lumotlarga ega bo‘lish muhim o‘rin tutadi. Sport jamoasi yoshi, jinsi, qobiliyati va axloqiy-ruhiy darajasiga ko‘ra turli toifali, xarakterli va xulqli kishilardan iborat bo‘lib, uni boshqarish har bir murabbiydan yuksak bilim va boshqaruvchanlik mahoratiga ega bo‘lishlikni talab etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda har bir zamonaviy murabbiy o‘z jamoasini muvaffaqiyatli boshqarish uchun boshqaruvga oid malakalar, sportchi shaxsining individual psixologik xususiyatlari va irodaviy sifatlari haqida muayyan bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. ning Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 03.06.2017 y. PQ-3031 sonli Qarori. Lex.uz.
2. Abdurasulov R.A. Sport mashg‘ulotlarining o‘quvchi-sportchilar shaxsini shakllantirishdagi roli (yakkakurash turlari misolida): psixologiya fan. doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati: 19.00.06. -T.: 2018.
3. Arzikulov D.N. Psixologiya va sport psixologiyasi. -CH.: O‘zDJTSU, 2020.
4. Gorbunov G. D. Psixologiya fizicheskoy kulturi i sporta: Uchebnik dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy. -M.: 2009.
5. Mamatov M. Tatbiqiy sport psixologiyasi. -T.: Universitet, 2019.
6. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
7. Fayziyev Z.H. Kazusli vaziyatlarda sportchi emotsional holatini korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: psixologiya fan. bo‘yicha fal. doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati: 19.00.05. -Б.: 2020.
8. Hayitov O.E. Sport faoliyati psixologiyasi. -T.: Umid Design, 2021.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:37.026

Nasiba SALIKHOVA,
Uzbekistan State World Languages University Senior teacher of the department of English in primary education
E-mail: nasitun@mail.ru

Recommendation given by Ahmedov O.S., the doctor of philology science at USWLU

ASSESSING STUDENTS SPEAKING ABILITY USING COMMUNICATIVE LANGUAGE APPROACH

Annotation

This article describes how speaking is a crucial language skill which we use every day to communicate with others, to express our views, and to project our identity. In today's globalized world, speaking skills are recognized as essential for international mobility, entrance to higher education, and employment. However, despite its primacy in language pedagogy and assessment, speaking has been considered as an intangible construct which is challenging to conceptualize and assess in a reliable and valid manner.

Key words: Speaking ability, methods, improvements, communicative, opportunities, support, collective choices.

ОЦЕНИВАНИЕ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ ГОВОРИТЬ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОММУНИКАТИВНОГО ЯЗЫКОВОГО ПОДХОДА

Аннотация

В этой статье описывается, что разговорная речь является важнейшим языковым навыком, который мы используем каждый день для общения с другими, для выражения своих взглядов и для проецирования своей идентичности. В современном глобализированном мире навыки разговорной речи признаны необходимыми для международной мобильности, поступления в высшие учебные заведения и трудоустройства. Однако, несмотря на свое главенство в языковой педагогике и оценивании, речь считается нематериальной конструкцией, которую сложно концептуализировать и оценить надежным и обоснованным способом.

Ключевые слова: Умение говорить, методические приёмы, улучшение, общаться, поддержка, возможности, коллективный выбор.

KOMMUNIKATIV TIL YONDASHUVIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNING NUTQ QOBILIYATINI BAHOLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada gapirish qanday muhim til mahorati ekanligi tasvirlangan, biz har kuni boshqalar bilan muloqot qilish, o‘z nuqtai nazarimizni ifodalash va o‘zligimizni aks ettirish uchun foydalanamiz. Bugungi globallashgan dunyoda nutq qobiliyatlari xalqaro harakatchanlik, oliy o‘quv yurtlariga kirish va ishga joylashish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, til pedagogikasi va baholashdagi ustuvorligiga qaramay, nutq ishonchli va asosli tarzda kontseptsiyalash va baholashni qiyinlashtiradigan nomoddiy tuzilma sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: Gapirish qobiliyati, metodik usullar, yahshilanish, muloqot, imkoniyatlar, qo‘llab-quvvatlash, kollektiv tanlov.

Assessment is the process of determining the ability and performance of students and therefore becomes the essential aspect of education. After providing teaching materials in class, teachers should use the most appropriate tools, methods, and procedures to evaluate students to obtain accurate information. The assessment results of the student’s knowledge of specific English skills can be information. And then can determine the best strategy or actions to improve the weakness. Assessment is a continuous process using various methodological methods [Abduh, 2021; D. Brown & Abeywickrama, 2010]. According to Patricia, this is a neutral tool that can objectively measure an individual’s performance level. Assessment speaking seems easy because it can be directly observed. However, This can be difficult because these observations are permanently colored. Due to the accuracy and effectiveness of the examiner’s listening skills, the reliability and usefulness of the oral proficiency test will inevitably be impaired. The teacher’s assessment of these results is related to the student’s learning, and therefore, it is essential to give assessments to students. [Patricia., 2002]

The current world requires from a person to be aware of all the news happening around. The need for being in touch with everyone and everything throughout the world resulted in existence of several world languages dominant of which is the English. It is not secret to anyone that the English language is becoming widespread around the earth, so more and more people are trying to learn it.

Our article is considered to be very vital in teaching and assessing the students’ speaking skills. The best way to assess the learner’s speaking abilities is to get him to speak. We are, teachers should provide spoken interactions which motivate students and allows the teacher to observe the pupils’ achievements and shows which step should be taken next to improve a learner’s knowledge. As speaking being a productive skill displays the knowledge a learner acquired during the education period, it should be assessed right after the performance so it requires from a teacher to be very careful to provide feedback in order not to kill the learner’s ambitions. So we want to focus on the criteria of giving feedback for their speaking performance of learners.

So, in this period language learners start to furnish their speech with logic and criticism. In this period learners need more feedback on their speech performance to get motivated for further education. The range of purposes for learning and the meanings of success and achievement in learning are more complex and diverse in relation to adult

learners, and one might expect this diversity to be reflected in political debates about and the regulation of assessment in this context, but this is not the case [Black and William, 1998, Black et al., 2002].

Assessment is a critical component of the learning process. As a result, this is seen as the teacher's success in instructing students. Teachers are required to explain science to students and offer assessments. After completing the evaluation, the teacher determines what percentage of students passed the lessons presented by the teacher. While the teacher finds out when assessing students that more students earn good grades above the standard, the teacher has succeeded in teaching. Nevertheless, if more students fail, it means that students fail, and teachers fail in the teaching process of students in class. As a result, a teacher should not criticize his students by using harsh words just because the student failed the class but instead use the failure to improve in the following lesson. Communicative language testing is one type of language assessment. Teachers can utilize communicative language assessment to assess their students' abilities to use the language in realistic content specific settings and assignments. According to Morrow, communicative language testing assesses students' capacity to communicate, receive, and understand ideas and information from another speaker/reader and vice versa using one or more of the language's syntactic, semantic, and phonological systems.[Morrow., 1981]

According to Guskey, when teachers’ classroom assessments become an integral part of the instructional process and a central ingredient in their efforts to help students learn, the benefits of assessment for both students and teachers will be boundless. [Guskey., 2003] But McMillan also discusses the importance of a teacher’s ability to integrate assessment and classroom instruction claiming that it gives the teachers clues as to what lessons and level of teaching that may be appropriate. [McMillan., 2000]

We think, in order the teachers should take full advantage of assessments, they must be open and willing to view them as achievement gauges, student motivators, and instructional guides and be responsible for the assessment of their students.
While being assessed the learners should be motivated, motivation is more important rather than need or force. It gives the learners a desire to achieve a goal and undertake their study. Assessment for learning is any assessment for which the first priority in its design and practice is to serve the purpose of promoting students‟ learning. It thus differs from assessment designed primarily to serve the purposes of accountability, or of ranking, or of certifying competence. An assessment activity can help learning if it provides information to be used as feedback, by teachers, and by their students, in assessing themselves and each other, to modify the teaching and learning activities in which they are engaged. Such assessment becomes „formative assessment ‟when the evidence is actually used to adapt the teaching work to meet learning needs.

Conferring to Absolum’s argument, the school learners must „own‟ both: the process and the content of learning. He claims that self-assessment is an essential element in effective learning that is „owned‟ by learners, and he offers many methods in which teachers can organize and support it [Absolum, 2006].

This article describes the ways of communicative language testing emergence, including their measurement and theoretical foundation. Furthermore, an analysis of the models on which communicative language testing is founded and how communicative testing varies from other types of language testing will be presented. Then, an example of a speaking test performed in preparatory year EFL classrooms at the secondary level will be described to see if they match the requirements they claim to test. Finally, the many issues that communicative language testing encounters and how these concerns have been solved will be discussed.

University teachers present specific topics for students to discuss in most speaking classes throughout the pandemic era. The teacher then assigns a topic-related activity to the students and is invited to speak on video without further action from the professors. When the teacher does not specify what is being assessed, the students must talk adequately to receive a score. These pointless practices are common in public speaking classes. Furthermore, because there are many inactive students in speaking, the assessment approaches do not help them develop. The assessment approach employed by teachers should motivate them to grow. In this instance, the passive students feel ignored and do not get more experience from the speaking session.

Finally, Boud argues that we need to develop a new language more appropriate for assessment for learning. He points to the damaging nature of what he calls the „final‟ language of assessment: a vocabulary which uses terms such as “good‟, “right”, “rigorous”, “professional standards” and the like. Assessment of oral skills is a area which has many interesting sides to it. First of all, for instance final exams/exercises in courses are normally written and not spoken, so it would imply that evaluating spoken language has to be done during lessons. Secondly, it is also usually thought that in upper secondary schools the main emphasis is to get the students through the matriculation examination where oral skills are not tested. This could mean that speaking skills are not that much emphasized during studies. Thirdly, assessing speaking in a normal classroom situation has some obvious problems, the main one having to do with time: how to assess the speaking skills of around 20 people if the situation is not recorded? Creating equal test or evaluation situations during lessons is also challenging.

Moreover, speaking, especially in classrooms, is a public action which might cause anxiety etc. Fourth point is that assessing speaking requires different kind of exercises depending on whether one is assessing for instance grammar or pronunciation. This sets requirements for the exercises used in classrooms: they need to be versatile enough and teachers need to know what those exercises focus on rehearsing. In overall, assessing oral skills have numerous levels which need to be taken into consideration. That is why most of the studies focus on test situations where it is easier to focus on all those aspects. However, those aspects should be taken into account in classrooms as well. The current research is dedicated to the role of teacher and peer feedback in improving pupils’ speech performance in language classes.

After observing the teacher ought to pay attention to the participation in activities of each of her learners by providing them constructive feedback after the lesson. Together with teachers’ grades the facilitator should sometimes have learners as assessors. When checked by their classmates pupils try to be more careful not to do mistakes, also learners who are assessors learn by analyzing others mistakes they try to avoid the mistakes by themselves. In addition teachers often should ask self-evaluation from pupils. It is very helpful for learners to correct their mistakes without the assistance of their teacher. While providing feedback a teacher should be very careful about the quality of it. Positive feedback is good to provide in front of the other learners, but negative feedback can cause bad effects if provided in group so they should be explained individually in face to face environment.

Scientific suggestion to teachers is that they should work out their own strategy of providing feedback for the oral performance of their learners. They should be very active in

assessing pupils’ speaking. Pupils who receive some attitude toward their each idea are proved to succeed more in comparison to others.

As teachers, we must find ways to test and assess the abilities of each student. We can find out the extent to which a student has mastered the learning material that has been delivered. Language testing and language assessment are interrelated. According to Brunfaut, a language test is used to see a person's proficiency in reflectively using a certain language. Assessment is usually used to see students 'abilities based on the teacher's activities to measure students' abilities. [Brunfaut., 2021] The basis of language assessment involves the standards of the language content. Language testing and assessment determine the expectations, results, and objectives that must be completed. Besides that, an essential factor that is the goal of language testing and assessment is the standard of language performance itself. This determines the language skills a student should develop to pass the assessment. Based on the definition above, language testing is related to language assessment. We can assess students’ ability based on the test related to the course or the topic, including four English skills: reading, writing, speaking, and listening.

REFERENCE

1. Abduh M. Y. M. (2021). Full-time online assessment during COVID-19 lockdown: EFL teachers’ perceptions. Asian EFL Journal, 28(11), 26–46.
2. Absolum M 2006: Clarity in the classroom: using formative assessment, Auckland: Hodder Education 2006;
3. Alderson J. Charles. (2005). Diagnosing foreign language proficiency: the interface between learning and assessment. London: Continuum.
4. Black, P., Wiliam, D.,“Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment,Phi Delta Kappan, vol/issue: 80(2), pp. 139-148, 1998.
5. Brown D., & Abeywickrama, P. (2010). Language assessment principles and classroom practices (2nd ed.). Pearson Education.
6. Boud D 2000: Sustainable assessment: rethinking assessment for the learning society, Studies in Continuing Education, 22(2) 151-167
7. Brunfaut T., Kormos, J., Michel, M., & Ratajczak, M. (2021). Testing young foreign language learners’ reading comprehension: Exploring the effects of working memory, grade level, and reading task. Language Testing.
8. Guskey T. R. How Classroom Assessments Improve Learning. [Electronic Version]. Educational Leadership, 2003. – pp. 6-11.
9. McMillan J. H. (2000). Fundamental Assessment Principles for Teachers and School Administrators. Practical Assessment, Research & Evaluation, 7(8).
10. Morrow K. (1981). Communicative Language Testing: Evolution or Revolution? In J. C. Alderson & A. Hughes (Ed.), Issues in Language Testing (p. 217). British Council.
11. Patricia B., Paul, W., & Winter, J. (2002). Assessment What’s In It For Schools? Routledge.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:175.8.328.11

Dilshodbek SAMATOV,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: dilshodbek.samatov.86@mail.ru

ADPI professori M.Artiqova taqrizi asosida

ACTUAL ISSUES OF TEACHING PHILOSOPHY IN HIGHER EDUCATION IN A CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation

Teaching philosophy in a credit-modular system in pedagogical higher education institutions of Uzbekistan, which is being comprehensively updated in this article, is a complex process, which is carried out not only according to the requirements of state educational standards, but also based on the requirements and proposals of students and professors. Therefore, information has been provided that improving the training of personnel in the process of teaching philosophy in the higher education system provides ample opportunities for the introduction of clear and novel mechanisms of training of personnel with higher education that adequately meet the requirements of the Times. Also included in the competition science blog in the study plans are described the peculiarities of granting students the right to choose philosophy on the basis of ECTS (European Credit Transfer System).

Key words: Philosophy, credit-modular system, education and upbringing, teaching methodology, modeling, educational market, socio-humanities.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

Преподавание философии в педагогических высших учебных заведениях Узбекистана по кредитно-модульной системе, которая всесторонне обновляется в данной статье, представляет собой сложный процесс, который осуществляется не только в соответствии с требованиями государственных образовательных стандартов, но и исходя из требований и предложений студентов и профессорско-преподавательского состава. Поэтому дана информация о том, что совершенствование подготовки кадров в процессе преподавания философских дисциплин в системе высшего образования дает широкие возможности для внедрения четких и новых механизмов подготовки кадров с высшим образованием, адекватно отвечающих современным требованиям. Также в учебной программе описаны особенности предоставления студентам права выбора предмета философии на основе ECTS (European Credit Transfer System), включенного в блог конкурсных дисциплин.

Ключевые слова: Философия, кредитно-модульная система, образование и воспитание, методика преподавания, моделирование, рынок образования, социально-гуманитарные науки.

OLIY TA’LIMDA FALSAFA FANINI KREDIT-MODUL TIZIMIDA O‘QITISHNING AKTUAL MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada har tomonlama yangilanayotgan O‘zbekistonning pedagogik oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanini kredit-modul tizimida o‘qitish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, u nafaqat davlat ta’lim standartlari talablariga, balki talabalar va professor-o‘qituvchilarning talab va takliflaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shu boisdan ham oliy ta’lim tizimida falsafa fanini o‘qitish jarayonidagi kadrlar tayyorlashni takomillashtirish zamon talablariga munosib javob beradigan oliy ma’lumotli kadrlar tayorlashning aniq va yangicha mexanizmlarini joriy etishga keng imkoniyatlar berishi haqidagi ma’lumotlar berilgan. Shuningdek o‘quv rejalardagi tanlov fanlar blogiga kiritilgan ECTS (European Credit Transfer System) asosida talabalarga falsafa fanini tanlash huququni berishning hususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Falsafa, kredit-modul tizimi, ta’lim va tarbiya, o‘qitish metodikasi, modellashtirish, ta’lim bozori, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Kirish. Jahonning zamonaviy xabga aylangan oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida falsafani o‘qitish orqali talabalar intellektual madaniyatini tanqidiy tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish va analitik fikrlash ko‘nikmalari asosida rivojlantirishning samarali metod va vositalariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Taraqqiyotning murakkab va tahlikali davriga qadam qo‘ygan insoniyatning o‘z oldidagi global muammolarni anglashi, jamiyatning biorobotlashuvini oldini olish uchun bugungi kun ta’lim oluvchilarida falsafiy bilimlar asosida intellektual mas’uliyatni shakllantirish dunyo pedagogikasi oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Butun dunyoda globallashuv sharoitida talabalarning intellektual madaniyatini yuksaltirish jarayonlari bilan bog‘liq muammolar o‘qitishning innovatsion usullar texnologiyasi – pedagogik, falsafiy, amaliy rivojlantirishga bog‘liqdir. Zero, dunyoning rivojlangan mamlakatlarining kadrlar marketingidagi asosiy dolzarb vazifa ijodiy tafakkur va mantiqiy xulosa chiqarish, analitik tafakkur kabi intellektual madaniyat komponentlariga ega yuksak mutaxassislarni tayyorlash bilan izohlanadi. Chunki, dunyo taraqqiyotining ertangi istiqboli pedagogik jarayonda o‘zining ilmiy, ijodiy, kasbiy faoliyatini yuksak insoniy, axloqiy mezonlar asosida olib boradigan intellektual madaniyat egalarini shakllantirish muammosi bilan bog‘liqdir.

Ta’lim tizimida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berayotgan mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirmasdan turib, malakali, serqirra mutaxassis bo‘lib bo‘lmaydi. Har tomonlama

barkamol shaxsni kamol toptirish uchun ta’lim tizimini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish lozim. Modulli ta’lim tizimi yordamida o‘qituvchi va o‘quvchining intellektual, kasbiy, axloqiy, ma’naviy, fuqarolik va boshqa ko‘plab insoniy jihatlarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ta’lim jarayonini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim muhitini o‘zgartirish milliy manfaatlarni umuminsoniy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish, falsafiy fanini o‘qish va o‘qitish tizimini rivojlantirish – milliy taraqqiyot sharti sifatida ko‘rsatilmoqda[1].

Falsafa fanini kredit-modul tizimida o‘qitish metodikasini takomillashtirish shubhasiz bugungi kunning dolzarb muammolarini o‘z ichiga qamrab oladi. Chunki oliy ta’lim tizimida falsafa fanini yangi pedagogik talablar asosida o‘qitish ijtimoiy va gumanitar fanlar blokida alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi [2]. Xususan, falsafa fanini o‘qitish alohida ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitishdagi dolzarb muammolar alohida tadqiqot ob’ektidan iborat. Shuningdek yoshlar tarbiyasining maqsadlari va tamoyillarini o‘rganish ham o‘ziga xos ilmiy izlanishlarni taqozo etadi. Ochig‘i, mavzuning bu muhim jihati mamlakatimizda yaqin yillardan boshlab keng muhokama qilina boshladi. Umuman oliy ta’lim tizimida falsafani o‘rganish ilmiy jamoatchilikning alohida tadqiqot mavzusiga aylanmadi va hatto ta’lim sohasidagi islohotlar, siyosiy jihatdan tub o‘zgarishlar ham bu muammoni hal etishda yetarli imkoniyatlarni yarataolmayapti.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globallashuv sharoiti dunyoda oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatiga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etmoqda [3]. Oliy ta’lim o‘quv jarayonida talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan jamiyat talabi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jahonning ilg‘or universitetlarida ta’limni virtuallashtirish (Virtualization), maqbullashtirish (Software Optimization) va internet tarmog‘idagi ommaviy onlayn ochiq kurslar, megaportallar, innovatsion ta’limning (3D learning; e-learning platforms: Moodle, Ilias va h.q.) jadal ravishda ommalashib borayotganligi oliy ta’lim muassasalari talabalarining tadqiqotchilik malakalarini doimiy ravishda rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Jamiyatning faol qismi hisoblangan talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, ularning iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim va erishgan natijalarini rag‘batlantirish O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatining strategik vazifalari qatoriga kiradi. Oliy ta’lim o‘quv jarayonida falsafa fanini o‘qitish metodlarini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini tadqiq etish keltirib o‘tilgan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta’kidlash lozimki, xorijiy olimlar, tadqiqotchilar tomonidan talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirish bo‘yicha juda ko‘p ilmiy ishlar nashr qilingan. Jumladan, ilmiy tadqiqotlarning ta’lim, fan, texnologiya rivojidagi ahamiyati David F. Noble, Elizabeth Masterman va Marion Manton, Katherine Bassett, Paul Kirschner va Niki Davis, K.Ratheeswari, Suryani Adi, A.Sangra va M.Gonsales-Sanmamed, J.Lourens va A.Usman Tar kabilarning monografiya va ilmiy maqolalarida o‘rganilgan. Shu bilan birga, ta’limni tashkil etish shaklining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligiga ta’siri V.Lamanauskas, D.Augienė, D.Cranfield, D.R.Garrison, N.D.Vaughan, B.R.Belland, C.Kim, M.J.Hannafin, L.I.N.Lu [4] va boshqalar.

O‘zbekistonda ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirishning metodologik masalalariga oid tadqiqotlar R.Djurayev1, R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, N.Sayidaxmedov Sh.Abdullayeva, U.Xodjamqulov, U.Begimqulov, B.Adizov, A.Maxmudov, D.Maxmudova, B.Xodjayev, Z.Axrorova, U.Tolipov, M.Usmonboyeva kabilarning ilmiy, ilmiy-metodik ishlarida o‘z aksini topgan.

So‘nggi o‘n yillikda ko‘p jihatdan taniqli oliy o‘quv yurtlarining filiallari shaklida yangi universitet va institutlar sonining keskin ko‘payishi bilan oliy ta’limdagi umumiy vaziyat o‘zgardi. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining miqdoriy ko‘rsatkichlari doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Umuman olganda, oliy ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim kasbiy tayyorgarlikdan tashqari, asosiy yoshlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishi, ularning ma’nosi va kasbiy faoliyatdagi samaradorligini oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biroq, shuni aniq aytish mumkinki, aynan bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi jamoatchilik fikri axloqiy tarbiya muammosini falsafiy nuqtai-nazardan o‘rganish zarurligini anglab yetmoqda. Jumladan, bugungi kunda bir qator mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida talabalar bilan o‘quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qancha dasturlar ishlab chiqildi. Xatto ayrim oliy o‘quv yurtlarida tarbiyaviy maqsadlardan kelib chiqib falsafa fanini o‘qitishni yangi amaliy tizimini joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga misol sifatida Andijon davlat pedagogika instituit Ijtimoiy gumanitar fanlar va san’at fakulteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida falsafa fani o;quv dastiruda uchta moduldan tashkil topgan bo‘lib bular, birinchi modul falsafa, ikkinchi modul korrupsiyaga qarshi kurash, uchinchi modul dinshunoslik qismidan tashkil topgan [5]. Ushbu modullarda jami o‘n beshta mavzu har biri ikki soatdan qilib belgilangan. Bular; falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati. Bo‘lg‘usi pedagoglarda o‘qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati; ontologiya borliq haqidagi falsafiy ta’limot; gnoseologiya bilish haqidagi ta’limot; mantiq; jamiyat va inson falsafasi; etika; estetikal; global jarayonlar va barqaror taraqqiyot; global korrupsiya ijtimoiy madaniny inqirozning oqibati; korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari; dinshunoslik; buddaviylik va xristian dini tarixi va falsafasi; islom dini tarixi va falsafasi; islom qadriyatlari; hozirgi zamon va din mavzularini o‘z ichiga olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘pchilik rahbarlarning xulq-atvori va faoliyati ularning bilimiga bog‘liq. Odamlarni yaxlit fikrlashga va yaxlit yondashuvga o‘rgatish uchun universitetlarda axloq falsafasi fanini yangi pedagogik talablar asosida o‘rgatish kerak. Bugungi kunda ta’lim bozorida raqobat juda kuchli, yangi xususiy universitetlar ochilmoqda. Ko‘rinishidan, ta’lim marketingi uning sifatini yaxshilashga yordam beradi. Universitetlar o‘rtasidagi raqobat, iloji boricha ko‘proq talabalarni jalb qilish istagi ularni tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishini oldini olish kerakligini bugungi kundagi holatdan ham yaqqol bilib olishimiz mumkin.

Ta’lim hali tarbiya funksiyasini yo‘qotmagan, ijtimoiy taraqqiyotning demoralizatsiya jarayonini cheklash mumkin bo‘lgan mamlakatlarda ta’lim jarayoni tarbiyaviy funksiyaga ega. Ta’lim faqat pullik asosda ko‘rsatiladigan davlat xizmatiga aylangan mamlakatlarda ruxsat etilganlik chegaralari olib tashlanadi, shaxsning shakllanishi yoki degradatsiyasi jarayoni rivojlanadi. Misol uchun, Yevropada, xususan, Germaniyada jinsiy ozodlikka garov qo‘yiladi: ota-onalar o‘z farzandlarini o‘n to‘rt yoshga to‘lgandan keyin qandaydir tarzda cheklay olmaydilar, deb hisoblashadi. Ularga ma’ruzalar o‘qilmaydi, aks holda balog‘atga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov kuchga kiradi. Bu oilaning ijtimoiy birlik sifatida shakllanishiga yordam bermaydi.

“Falsafa” fanini o‘qitishdan maqsad talabalarda dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy toifalari, ta’lim va tarbiya sohasidagi axloqiy va amaliy tadqiqotlar usullari to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu fanni rivojlantirishga xizmat qiladi [6]. Axloqiy-tarbiyaviy muammolarni tushunish, ularni turli pedagogik sharoitlarda tahlil qilish ko‘nikma va malakalari, boshlang‘ich matnlar

bilan ishlash ko‘nikmalari, axloqiy me’yorlarni modellashtirish, ta’lim va tarbiya sohasidagi axloqiy masalalar bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib borish hamda o‘z bilimlarini shakllantirish axloq falsafasi doirasidagi kredit-modul tizimida o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali amalga oshadi [8]. Ushbu maqsadni amalga oshirish talabalarning o‘quv va ilmiy-tadqiqot va o‘quv va kognitiv faoliyat sub’ektlari sifatida harakat qilishlarini talab qiladi, shuning uchun o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro ta’siri sub’ekt darajasida amalga oshirilishi kerak. Professor-o‘quvchilarning talabalarda insonparvarlik borasidagi fikrlash uslubini o‘ziga xos tomonlarini topish qobiliyatini shakllantiradigan, o‘quv va tadqiqot faoliyatining mazmuni va usullarini tanlashda burch, mas’uliyat va tashabbusni rag‘batlantiradigan, ma’naviy-axloqiy me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan jihatlarini izlab topish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Bizning nazarimizda nafaqat ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fakultetlar balki aniq fanlar, tabiiy fanlar va texnika fanlarini o‘qitishga moslashgan fakultetlarda ham bir yillik axloq kursini o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Iqtisodiyot fakultetida biznes etikasi, filologiya fakultetida “Jahon adabiyotida axloqiy g‘oyalar” va “O‘zbek adabiyotida axloqiy g‘oyalar”, tibbiyot fakultetida bioetika, biologiya, matematika, jismoniy tarbiya fakultetlarida esa “Pedagogik etika” kurslarini o‘qitishni keng miqyosda joriy qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ko‘pgina universitetlarda axloqshunoslik fanini o‘qitish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar bor [7]. Ular ko‘proq falsafa tarixi va mumtoz axloqiy ta’limotlarni juda yaxshi biladigan falsafa fakulyetini bitkazgan olimlardan iborat. Aynan mavjud adabiy vaziyat tufayli an’anaviy yo‘ldan yurgan soha vakillari zimmasiga endilikda axloqshunoslikning yangi amaliy sohalari va nofalsafiy ixtisosliklarga mo‘ljallangan kurslarni yaratish har qachongidan ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Ma’ruza jarayonida talabalar axloq tushunchasi, uning asosiy g‘oyalari va kategoriyalari haqida bilim oladilar, mahalliy va xorijiy davlatlardagi axloqiy muammolar va jarayonlarni tahlil qilishning alternativ nazariyalari va yondashuvlarini o‘rganadilar. Bunday ma’ruzalarda materialni taqdim etishda muammoli yondashuvni qo‘llash, etika, axloq falsafasining ayrim masalalari bo‘yicha mualliflarning turli xil muqobil pozitsiyalarini solishtirish kerak bo‘ladi. Seminarlar esa dialogik shaklda mashg‘ulotlarni tashkil etish amaliy mashg‘ulotlarni individuallashtirishni, professor-o‘qituvchilarning talabalar bilan yaqindan ishlashini nazarda tutadi, bunda ularning individual xususiyatlari va qobiliyatlari alohida hisobga olinishi shart. Buning uchun seminar o‘tkazishning suhbat, trening va boshqalar shakllaridan samarali foydalanish kerak. O‘qituvchi muhokamani qo‘llab-quvvatlashi, nizoning dalillarini qo‘shimcha savollar orqali ochib berishi kerak, chunki munozara ishtirokchilari nafaqat o‘z nuqtai nazarini himoya qilishlari, balki buning aksini ham rad etishlari kerak.

Xulosa va takliflar. Xullas, bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish yoshlarga oid davlat siyosatida ham o‘z aksini topmoqda.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida intellektual salohiyati yuksak kadrlar, yangicha tafakkur va dunyoqarashga ega mutaxassislarga ehtiyojning mavjudligi talabalarda intellketual madaniyatni rivojlantirishning ob’ektiv ijtimoiy-pedagogik zaruratini asosladi. Bu esa, falsafa ta’limining bosh pedagogik vazifasi teran fikrlashga o‘rgatish va mantiqiy tafakkurni o‘stirish tamoyilining ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda falsafa fani talabalarda bilimning faqatgina bir darajasi – chiziqli ratsional tafakkur, nazariya bilangina cheklanmasdan, nochiziqli tafakkurni hamda ilmiy va estetik intuitsiyani shakllantirishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Falsafa fanini kredit-modul tizimida o‘qitishda kompaktlashtirilgan tizim asosida tashkillashtirishning samarasi tajriba sinov ishlari natijasiga ko‘ra asosli ekanligi isbotlandi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Samarqand gazetasi, 10-dekabr 2016 yil № 99 (2038) 3-bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 8 - oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. // Xalq so‘zi, 2019 yil 9 oktyabr.
3. Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 16-31.
4. Innovasion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: Sano standart nashriyoti, 2015. – 81-b.
5. Fayzullayev O.F. Falsafa va fan metodologiyasi. –Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. – 124 b.
6. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent:Sharq, 2004. – 495 b.
7. Nazarov Q. Falsafa asoslari. Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012. – 1008 b.
8. Ishmuhamyedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:94(575.1)

Xusan SUVONQULOV,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: h-suvonqulov2023@gmail.com

GulDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, D.E.Toshtemirov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN DEVELOPING STUDENTS' INTEREST IN NATIONAL VALUES

Annotation

The article provides recommendations for teaching the subject "Education" in general education schools and developing students' interest in national values. The meaning, content and tasks of the subject "Education" in the formation of national ideas and national values are described. Also, the subject "Education" provides important information aimed at developing the national idea and national values, improving the content of classes.

Key words: Education, national idea, national value, educational content, educational tool, learning, independent learning, independent thinking.

ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ «ОБРАЗОВАНИЕ» В РАЗВИТИИ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТИ

Аннотация

В статье даны рекомендации по преподаванию предмета «Образование» в общеобразовательных школах и развитию у учащихся интереса к национальным ценностям. Описаны значение, содержание и задачи предмета «Образование» в формировании национальных идей и национальных ценностей. Также предмет «Образование» предоставляет важную информацию, направленную на развитие национальной идеи и национальных ценностей, улучшение содержания занятий.

Ключевые слова: Образование, национальная идея, национальная ценность, содержание образования, образовательный инструмент, обучение, самостоятельное обучение, самостоятельное мышление.

O‘QUVCHILARNING MILLIY QADRIYATLARGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish va uning mazmunida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar o‘z aksini topgan. Milliy g‘oya va milliy qadriyatlarni shakllantirishda “Tarbiya” fanining ahamiyati, mazmuni va vazifalari yoritilgan. Shuningdek, “Tarbiya” fanida milliy g‘oya va milliy qadriyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlar, olib boriladigan mashg‘ulotlar mazmunini takomillashtirishga qaratilgan muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, milliy g‘oya, milliy qadriyat, tarbiya mazmuni, tarbiya vositasi, o‘quv mashg‘uloti, mustaqil ta’lim, mustaqil fikrlash.

Kirish. Bugungi globallashgan jamiyatda milliy uyg‘onish, milliy g‘oya, milliy qadriyat kabi tushunchalar hayotimizga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Tarixiy taraqqiyot amaliyotida fuqarolar ruhiyati, tafakkurida o‘zgarish bo‘lmas ekan, taraqqiyot haqidagi fikrlarni tasavvur qilish qiyin. Shuningdek, sog‘lom ruhiyat va qarashlarga e’tiborli bo‘lish, ularni isloh qilishga alohida ahamiyat berilmas ekan, rivojlangan davlat va jamiyat barpo etish g‘oyasi aytilgan natijaga erishmasligi mumkin. Bu borada mamlakatimizda juda katta amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunga misol qilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining barcha 1-11 sinf o‘quvchilariga “Tarbiya” deb nomlangan o‘quv predmeti kiritilishini keltirishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy g‘oya va milliy qadriyatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish borasida juda ko‘plab mamlakatimiz olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borib, bu borada muhim manbalarni taqdim etgan. Bunday manbalarga: A.Ibrohimov, X.Sultonov, M.Jo‘raevlar muallifligida “Vatan tuyg‘usi”, M.Imomnazarovning “Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar”, N.Maxmudovning “Ma’rifat manzillari”, S.Otamurotovning “O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish” va “Globallashuv va millat”, I.Saifnazarovning “Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari”, M.Quronovning “Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi” kabilarni keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. “Tarbiya” fani o‘quvchilarga vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik, moddiy va ma’naviy meros, milliy g‘oya, milliy qadriyatlardan foydalanish masalalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalar berishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda moddiy va ma’naviy meros, xususan milliy qadriyatlar e’tibor jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Shu bois “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga oid olib borilayotgan tadqiqotlarni bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammo ekanligini e’trof etish mumkin. Tadqiqotni o‘tkazishda pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, to‘plangan ma’lumotarni taqqoslash va solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlardan ma’lumki, ruhiyat islohatini muayyan g‘oya belgilaydi va xalq ongini harakatga keltiradi. Milliy g‘oya va mafkura xuddi ana shu vazifani o‘z zimmasiga oladi. Biz ana shu g‘oyaga qarab intilmog‘imiz va har bir qarashimiz, harakatimizni miliy g‘oya mazmuniga moslashtirishimiz kerak. Har bir kishi o‘zi yashayotgan jamiyat va davlatning aniq bir tarixiy davrida o‘z oldiga

qo‘ygan maqsadini ifoda etadigan g‘oyalarni bilishi, aniq tasavvur etishi kerak, shunda bu maqsadlar ifodasi bo‘lgan g‘oyalar uning ongi va qalbidan joy oladi, asta-sekin ishonch, e’tiqodga aylanadi. Shuningdek, e’tiqod mustahkam bo‘lsa, inson g‘oya, ezgu maqsad yo‘lidan chekinmay olg‘a qadam bosadi. Milliy g‘oya odamlarning o‘zaro hamjihatligi uchun asos bo‘ladi, kuchli ma’naviy ruhiy omilga aylanib, taraqqiyotga xizmat qiladi [1], [2].

Shunday ekan, mamlakatimizning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitishda milliy g‘oya, ma’naviyat va huquq sohalarining mohiyati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, etakchi tamoyillari, falsafiy jihatlarini chuqurlashtirish, ushbu fanni o‘qitish bilan bog‘liq samarali yo‘llar va usullarini izlab topish muhim masalalardan biridir.

“Tarbiya” fanini o‘rganish davomida o‘quvchilarlar milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari bo‘yicha o‘zaro aloqador muammolarni tahlil qilish hamda nutq madaniyati bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. O‘quv fanining maqsadi – milliy g‘oyani odamlar ongiga singdirish va uni e’tiqodga aylantirishning samarali usullarini ishlab chiqish, ma’naviyat asoslarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, vositalari, dars va uning turlari va tuzilishini o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, o‘quv fanning vazifalari – o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, zamon talablari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishdan iborat.

“Tarbiya” fanini o‘qitishning mazmuni, vositasi va asosi quyidagilardan iborat:

1) ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar;

2) milliy g‘oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari;

3) ilmiy va mumtoz pedagogik meros;

4) ilg‘or pedagogik tajribalar;

5) zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari va boshqalar.

“Tarbiya” fanini o‘qitish mazmunida milliy g‘oya tushunchasi o‘quvchilarda quyidagi bilimlarni shakllantiradi:

1) Yurt tinchligi- yurtparvarlik va tinchlikparvarlik;

2) Vatan ravnaqi- vatanparvarlik va taraqqiyparvarlik;

3) Xalq farovonligi- xalqparvarlik va farovonlik;

4) Millatlararo totuvlik- millatparvarlik va totuvlik;

5) Dinlararo bag‘rikenglik- sog‘lom e’tiqodlilik va bag‘rikenlik;

6) Ijtimoiy hamkorlik- ijtimoiy faollik va hamkorlik;

7) Komil inson- etuk shaxs bo‘lish.

Maktab o‘quvchilari ongi, axloqi va faoliyat ko‘nikmasida ana shu g‘oyalar, sifatlar va xususiyatlar shakllantirilishi kerak.

Buning uchun o‘quvchilarda maqsadni va tizimli yondashuvni shakllantirib olish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarni milliy g‘oya va milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish vositalariga quyidagilarni keltirish mumkin:

1) dars jarayoni;

2) ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;

3) to‘garaklar mashg‘ulotlari.

Dars jarayoni o‘quvchilarga milliy g‘oya va milliy qadriyatlarni singdirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Buning uchun “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- voqealik va hodisalarni o‘quvchilarga tushuntirish;

- inson, jamiyat va tabiatga nisbatan o‘quvchilarning munosabatini shakllantirish;

- o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Bu ko‘rsatkichlarga erishilsa o‘quvchilarining ijtimoiy ongi shakllanadi. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil ijtimoiy munosabat tarkib topadi va nihoyat mustaqil fikrlash shakllanadi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilarga milliy g‘oya va milliy qadriyatlarni o‘rgatishda asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bunday tadbirlarni o‘tkazishda quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi [3], [4]:

a) tadbirlarning qiziqarli va milliy g‘oyaga asosan o‘tkazilishi;

b) tadbirlarni tayyorlashda o‘kuvchilarni keng jalb qilish va hayotiy voqelikka asoslanish;

v) tadbirlarning samaradorligini kuzatib borish va yangi mavzularga asosiy e’tiborni qaratish.

Milliy g‘oya va milliy qadriyatlarni egallash, komil inson tarbiyasi ta’lim – tarbiya jarayoni orqali amalga oshiriladi va pedagogik tajribalar asosida tarkib topadi. Buning uchun quyida keltirilgan manbalarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish, o‘zlashtirish va ularni o‘z turmush tarzimiz va pedagogik faoliyatimizda joriy etishimiz lozim:

Muqaddas “Avesto”da ilgari surilgan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tuzimi bo‘yicha fikr yurishni o‘rganish, ya’ni bunyodkorlik g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga singdirish metodikasi qo‘llash va yoshlar tarbiyasida ulardan foydalanish;

Qur’oni Karim, Hadisi Shariflardagi manbalar bo‘yicha yoshlar ongiga ma’naviy – ruhiy poklik mezonlari va tamoyillarini singdirish;

Abu Nasr Farobiyning Fozil odamlari haqidagi ta’limoti asosida ta’lim – tarbiya berish;

Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al – Farog‘oniy, Abu Ali ibn Sino va Muhammad ibn Muso al-Xorazmiylarning pedagogik va falsafiy qarashlari asosida ta’lim – tarbiya berish;

Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson insonlar haqidagi ta’limotlari asosida ta’lim-tarbiya berish;

Abduholiq G’ijdivoniy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Marg‘iloniy, Najimiddin Kubro, Motrudiy, So‘fi Olloyor va boshqa allomalarning komil inson haqidagi ta’limotlari asosida ta’lim – tarbiya berish;

Amir Temur “Tuzuklari”, Muhammad Qozizodaning “Hukumdorga o‘gitlari ” asosidagi ta’limotlari asosida ta’lim – tarbiya berish;

Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va komil inson ta’limoti asosida ta’lim – tarbiya berish;

O‘zbek xalqi pedagogikasi namoyondalarining barkamol inson ta’lim – tarbiyasi haqidagi nazariyalari asosida ta’lim – tarbiya berish va boshqalar [5], [8].

Bu manbalardan foydalanish, o‘quvchilarning ta’lim va tarbiya faoliyatiga joriy etish imkoniyatlari mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishishi natijasida va erkin fikrlashga to‘liq imkoniyatlar pedagogikada sog‘lom aql, ijod muhit, milliy ruhiyat va an’analar, urf-odatlar, marosimlarga mos tarzda ta’lim – tarbiyani olib borish imkoniyatini yaratiladi.

Hozirgi kunda milliy pedagogikamizda millat ruhiyatining nozik jihatlariga kirib borish va dunyo tarbiyashunosligida eng so‘nggi yutuqlarni ham hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Ana shu sababli ham bugungi milliy pedagogikamiz muntazam ravishda taraqqiy etmoqda va unga barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifa qo‘yilgan. Ayni paytda barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta’lim – tarbiya jarayonining ob’ektigina emas, balki sub’ekti, ya’ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e’tibor berilmoqda.

Bu ta’lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning mustaqil hamda erkin fikrlarini ta’minlashga imkon bermoqda. Eng asosiysi yoshlarda tarbiyalash va o‘qishga ehtiyoj uyg‘otishga yo‘naltirilgan holda ta’lim – tarbiya ishlari olib borilmoqda.

Natijada, bugungi pedagogikamiz uchun muayyan bilimlar yig‘indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadriyatiga aylandi. Shu sababli ham bugungi yoshlarga qo‘yiladigan talab faqatgina bilimli bo‘lish emas, balki izlanuvchan,

tashabbuskor, fidoyi, intellektual salohiyatli bo‘lishini ham talab qilmoqda. Shu ma’noda zamonaviy milliy pedagogikamiz oldida quyidagi dolzarb muammolarni hal qilish vazifasi turibdi:

- uzluksiz ta’lim tizimida bola tarbiyasini rivojlantirishining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash kontseptsiyasini ishlab chiqish hamda barkamol avlodni shaklllantirishga zamonaviy ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanishga erishish.

- mustaqillik mafkurasini insonlar ongiga singdirish usullari, shakllari, yo‘llari, vositalari va ularning axboratli ta’minotini ishlab chiqish, hayotga joriy etish orqali yoshlarda o‘zligini bilash, o‘z – o‘zini boshqara bilishi, o‘z – o‘zini tarbiyalay olishi kabi xislatlarni takomillashtirish.

- ta’lim – tarbiya sohasidagi barcha xatti – harakatlarimizni O‘zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun va boshqa shu kabi davlat me’yoriy hujjatlari asosida olib borishga erishish va boshqalar.

Shuningdek, ulug‘ mutafakkir Abdurauf Fitrat ijtimoiy tarbiya negizida jismoniy tarbiyani tashkil etish, shaxsning salomat va baquvvat qilib tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etishiga urg‘u beradi. Uning «Rahbari najot» asarining «Bola tarbiyasi» nomli bobida badan tarbiyani tashkil etish borasidagi quyidagi fikrlar ilgari surilgan: «Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a’zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a’zolaridan biriga halal tegsa, u kishi ishdan qo‘lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi».

Bizga ma’lumki ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongiga va qalbiga milliy-ma’naviy qadriyatlarni singdirish muhim tizim hisoblanadi. Milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘quvchilar ongi va qalbiga singdirishda “Tarbiya” darslaridan keng foydalanib insoniy fazilatlarni shakillantirishga harakat qilinadi. O‘quvchilarni dars jarayonida milliy-ma’naviy qadriyatlarga o‘rgatib borish bugungi kunning asosiy talabidir. O‘quvchilar ongi va qalbiga milliy-ma’naviy qadriyatlarni singdirish orqali, pok qalblarda insoniy fazilatlarni tarkib toptiriladi. Bugungi kundagi ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan bosh maslalardan biri ham aynan shu bilan belgilanadi.

Barkamol avlod, barkamol shaxs birinchi navbatda, o‘z Vatanini, milliy tili, urf-odati, tarixi, an’analarini sevadigan, avlod-ajdodlari yaratgan ilm -u hunar javohirlarini to‘la to‘kis egallagan va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlaydigan kishilar bo‘lganliklari bois ham milliy-ma’naviyatimiz gurkirab yaashayveradi [6].

Milliy g‘oya milliy mafkura asosida tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi xalqning o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilaydi. Milliy g‘oya mazmunini qamrab oluvchi bir qancha omillar bor. Ulardan biri oila va uning madaniyati, bolalarning oila va jamiyatdagi roli, ya’ni, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalariga borib taqaladi [7].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida shunday islohatlar amalga oshirilmoqdaki uni ko‘z bilan ko‘rib qalb bilan his etish kerak. O‘sib ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad shundan iboratki, bugungi kunning yoshlari ertangi kun davlatimizni ravnaqiga xizmat qiladigan uning buyukligini yanada yuqoriga ko‘taradigan, ota-bobolarimiz tomonidan bizlarga qoldirgan ulkan boy ma’naviy merosini boyitib, sayqal berib, takomillashtirib kelgusi avlodlarga etkazib beradigan shaxs qilib tarbiyalash kerak. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaaratilayotgan shart-sharoitlar, o‘sib ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, shaxs qilib voyaga yetkazishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev M. Vatan tuyg‘usi – T.: O‘zbekiston, 1998, – 398 b.
2. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T.: Sharq: 1998, – 239 b.
3. Maxmudov N. Ma’rifat manzillari. – T.: Ma’naviyat. 1999, – 63 b.
4. Otamurotov S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. – T.: Yangi asr avlodi. 2003, – 263 b.
5. Otamuradov S. Globallashuv va millat. – T.: 2008.
6. Saifnazarov I. Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari. T.: Mehnat, 1997.
7. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. – T.: Akademiya, 2008.
8. Ma’naviyat yulduzlari: Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar G’ O‘zb. Resp. FA , Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik in-ti; To‘plovchi va mas’ul muharrir: M.M. Xayrullaev. – To‘ld. qayta nashr. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 408 b.
9. Ismatova N. va boshqalar. Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
10. Kenjayev D. va boshqalar. Tarbiya. 11-sinf uchun darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:327.8

Baxtiyor SULTANOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

P.f.d.dosent. R Zamilova taqrizi asosida

FITNES TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ULARNI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fitnes texnologiyalarini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari va ularni o‘rta maktabda jismoniy tarbiya darslarida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi va muhokama qilinadi; adaptiv jismoniy madaniyatda zamonaviy texnologiyalar; sportchilarni tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari; zamonaviy jismoniy madaniyat va sog‘liqni saqlash texnologiyalari. Fitnes texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlar metodologiyasi va uning jismoniy tayyorgarlikka ta’siri va o‘rta maktab o‘quvchilari o‘rtasida jismoniy tarbiya darslariga motivatsiya tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy tendentsiyalar, texnologiyalar, fitnes texnologiyalari, fitnes texnologiyalari, motivatsiya, faollik monitorlari, puls oksimetrlari, aqlli soatlar, aqlli trenerlar, fitnes o‘yinlari.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФИТНЕС-ТЕХНОЛОГИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В данной статье анализируются и рассматриваются современные тенденции развития фитнес-технологий и возможности их применения на занятиях физической культуры в старших классах; современные технологии в адаптивной физической культуре; современные технологии подготовки спортсменов; современные физкультурно-оздоровительные технологии. Анализируется методика занятий с использованием фитнес-технологий и ее влияние на физическую подготовленность, и мотивацию к урокам физической культуры у школьников в старших классах.

Ключевые слова: Современные тенденции, технологии, фитнес-технологии, физкультурно-оздоровительные технологии, мотивация, мониторы активности, пульсоксиметры, умные часы, smart-тренажеры, фитнес-игры.

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF FITNESS TECHNOLOGIES AND THE POSSIBILITY OF THEIR APPLICATION IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

This article analyzes and discusses current trends in the development of fitness technologies and the possibility of their application in physical education classes in high school; modern technologies in adaptive physical culture; modern technologies for training athletes; modern physical culture and health technologies. The methodology of classes using fitness technologies and its influence on physical fitness and motivation for physical education lessons among schoolchildren in high school are analyzed.

Keywords: Modern trends, technologies, fitness technologies, fitness technologies, motivation, activity monitors, pulse oximeters, smart watches, smart trainers, fitness games.

Введение. Одно из важных направлений социальной политики в Республике Узбекистан – развитие физической культуры и спорта, так как это способствует здоровому образу жизни общества, воспитывая молодое поколение сильным, всесторонне развитым и гармонично совершенным. Спорт играет особую роль в формировании высокой культуры и патриотических чувств у подрастающего поколения. Достижения в этой области не только превозносят страну на мировой арене, но и наполняют чувством гордости, национального самосознания и патриотизма всех наших соотечественников.

Шавкат Мирзиёев поручил увеличить число регулярно занимающихся физкультурой и спортом юношей. В течение года спортивными мероприятиями должны быть охвачены 6 млн. ребят Указом и постановлением президента Узбекистана от 18 февраля 2022 года было организовано Министерство по развитию спорта. Одной из важнейших его задач является популяризация спорта среди детей и молодежи[1].

Методы. На современном этапе развития в системе физической культуры в средних образовательных школах разрабатывается большое количество инновационных технологий, методик и оздоровительных программ. Это предопределило появление в теории и практике физической культуры новых терминов: «инновационные технологии», «фитнес-технологии», «здоровьесберегающие технологии» и др.

Применение определенных методик занятий с фитнес-технологиями на уроках физической культуры со старшими классами позволит повысить уровень физической подготовленности учащихся, а также мотивацию к физической культуре.

Для развития гармонично развитого подрастающего поколения, имеются широкие возможности для занятия фитнесом с использованием эффективных традиционных подходов к организации и содержанию занятий физической культурой учащихся в старших классах. Научное обоснование фитнеса, разработка его программно-методического обеспечения, определение роли в модернизации физкультурного образования детей школьного возраста, подготовка кадров является актуальным для теории и практики физической культуры.

Таким образом, в Узбекистане число занимавшихся в 2019 году физической культурой на уроках физкультуры достигло 6631,1 тыс. человек, из них 6114,5 – в общеобразовательных учреждениях, 72,9 тыс. – в академических лицеях, 239,5 тыс. – в профессиональных колледжах и 204,2 тыс. – в высших образовательных учреждениях. Следует отметить, что наибольшая часть занимавшихся физической культурой на уроках физкультуры среди образовательных учреждений в том же году приходится на долю общеобразовательных учреждений (92,2 %) [2].

Физическая культура в школе является самым важным и доступным фактором укрепления и сохранения здоровья школьников. Главнейшей задачей системы образования является сохранение и укрепление здоровья учащихся, формирование у них навыков здорового образа жизни, применения образовательных технологий, соответствующих возрасту, устраняющих перегрузки и сохраняющих здоровье школьников [3].

Современные тенденции развития фитнес-технологий предлагают широкий спектр возможностей для использования на занятиях физической культурой в средних общеобразовательных школах. Некоторые из современных тенденций, которые могут быть использованы на занятиях, включают следующие:

1.Мониторы активности и пульсоксиметры. С помощью этих устройств учащиеся могут отслеживать свою активность, пульс, кол-во шагов, потраченные калории на занятиях физической культуры и другие индикаторы здоровья. Учителя могут использовать эти данные для мониторинга здоровья учеников и адаптации упражнений в зависимости от потребностей каждого ученика [4].

Мониторы активности и пульсоксиметры являются устройствами, которые могут помочь ученикам отслеживать свою физическую активность на занятиях физической культуры. Мониторы активности отслеживают количество шагов, пройденное расстояние, количество сожженных калорий и другие показатели здоровья. Пульсоксиметры могут измерять концентрацию кислорода в крови и частоту сердечных сокращений.

Эти устройства могут быть полезны для учеников, которые хотят отслеживать свою физическую активность и здоровье. Они могут использовать эту информацию, чтобы лучше понимать свое состояние и собрать данные для улучшения своих физических показателей. Учителя также могут использовать эти данные для оценки здоровья учеников и настройки упражнений в зависимости от индивидуальных потребностей каждого ученика.

Некоторые мониторы активности и пульсоксиметры могут синхронизироваться с приложениями для мобильных устройств, что позволяет дополнительно упростить процесс мониторинга. Сохранение данных из этих устройств также может помочь учителям, чтобы они могли анализировать информацию на основе большего количества учащихся и делать точные выводы о здоровье группы в целом.

2.Умные часы и приложения. Ученики могут использовать умные часы и приложения для контроля своих физических показателей, общения и соревнований с другими учениками, а также для получения уведомлений о запланированных занятиях физической культуры [5].

Умные часы и приложения для мобильных устройств позволяют ученикам контролировать свою физическую активность и здоровье, общаться и соревноваться с другими учениками, а также получать уведомления о запланированных занятиях физической культуры.

С помощью умных часов ученики могут отслеживать свою физическую активность, как и в случае с мониторами активности и пульсоксиметрами, но также могут получать уведомления о прогрессе и настроении своего тела. Они также могут использовать функцию беспроводной связи для коммуникации с другими учениками, чтобы заниматься вместе и развивать навыки социализации.

Результаты. Приложения для мобильных устройств также могут помочь ученикам отслеживать свою физическую активность, обучаться новым видам спорта и получать информацию о здоровом образе жизни, а также о том, как правильно заботиться о своем теле и душе. Они могут также помочь ученикам найти помощь и поддержку со стороны специализированных организаций, если у них возникнут проблемы со здоровьем.

В целом, умные часы и приложения для мобильных устройств становятся все более популярными и могут быть полезными для учеников, которые хотят контролировать свое здоровье и физическую активность. Они могут помочь ученикам улучшить свои результаты и достичь целей, а также дать им дополнительную мотивацию и поддержку в этом процессе.

3.Образовательные фитнес-игры. Эти игры могут быть использованы как учебный материал и для мотивации учеников на занятиях физической культуры, такие игры включают интерактивные соревнования и совместные упражнения, которые способствуют развитию физических навыков и командных навыков учащихся [6].

Образовательные фитнес-игры – это игры, которые заточены на развитие физических навыков и могут использоваться как учебный материал на занятиях физической культуры. Однако, они могут быть использованы и в качестве мотивации для учеников.

Такие игры могут быть интерактивными соревнованиями между учениками или совместными упражнениями, которые помогают развивать командные навыки и физическую выносливость. Многие из этих игр определяются на основе определенных упражнений, и ученики могут учиться выполнять упражнения, находясь в ходе игры.

Образовательные фитнес-игры могут быть сделаны крайне интересными и затягивающими, особенно если ученики могут участвовать в них, используя свои смартфоны или планшеты. Такие технологии позволяют ученикам взаимодействовать со своими одноклассниками и выполнить физические упражнения, превращая тренировочные занятия в творческий и интерактивный процесс.

Одной из преимуществ использования образовательных фитнес-игр является то, что они помогают ученикам научиться социальным навыкам, таким как работа в команде, лидерство и уважение к другим. Это важно в социальном и спортивном контексте, помогая им успешно управлять собой и другими в будущем.

В целом, образовательные фитнес-игры представляют собой важный инструмент для учителей и тренеров, чтобы помочь ученикам получить доступ к увлекательным и креативным способам занятий физической культурой. Они могут помочь в повышении мотивации и интереса к тренировкам и обучению, а также способствовать социальной адаптации и развитию лидерских качеств учеников.

4.Smart-тренажеры. Они предоставляют подробную информацию о форме и технике выполнения упражнений, что упрощает работу инструктора и улучшает качество занятий [7].

Заключение. Smart-тренажеры – это тренажеры, которые оснащены современными технологиями и могут быть подключены к мобильным приложениям и интернету. Они предоставляют подробную информацию о форме и технике выполнения упражнений, что позволяет пользователям добиваться лучших результатов и улучшать свою физическую форму. Эти устройства также упрощают работу инструктора, помогая ему сосредоточиться на отдельных учениках и повышении эффективности занятий.

Smart-тренажеры могут быть полезными как для профессиональных спортсменов, так и для неопытных любителей фитнеса. Они могут обеспечить пользователей информацией о том, направлена ли тренировка на нужные группы мышц, о правильной технике выполнения упражнений и об уровне физической формы.

Основным преимуществом smart-тренажеров является то, что они позволяют пользователям следить за своими достижениями, сохранять свои результаты и отслеживать свой прогресс во времени. Это также помогает инструкторам оценить эффективность занятий и изменить тренировочные программы, если это необходимо.

При использовании smart-тренажеров ученики могут чувствовать себя увереннее в своих способностях, так как получают мгновенную обратную связь об уровне своей физической подготовки во время тренировок. Это также позволяет им легче преодолевать свои лимиты, потому что они знают, что получают наиболее эффективную тренировку, подходящую именно для них.

В целом, smart-тренажеры представляют собой инновационный подход к занятиям фитнесом, который сочетает в себе передовые технологии и упражнения для улучшения качества фитнес-программ. Они предоставляют пользователям множество инструментов для повышения своей физической формы и оказывают поддержку в процессе достижения своих целей в тренировках.

Процесс физического воспитания школьников в старших классах должен быть направлен на овладение двигательными умениями и навыками, развитие физических качеств и данные технологии могут помочь учащимся лучше понимать и контролировать свое физическое состояние, достигать лучших результатов, мотивироваться и получать удовольствие от занятий физической культурой. Они также могут помочь учителю эффективнее управлять занятиями и помогать каждому ученику достигать своих целей.

ЛИТЕРАТУРА

1. https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoev-poruchil-uvelichit-chislo-regulyarno-zanimayushihsya-fizkulturoy-i-sport
2. https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/novosti-goskomstata-2020/3912-9375-fizicheskaya-kul-tura-i-sport-v-respublike-uzbekistan.
3. Андреева С. Н. Применение фитнес-технологий как способ повышения мотивации у школьников к урокам физической культуры / С. Н.Андреева // Материалы XIII Международной студенческой электронной научной конференции Студенческий научный форум – 2021. – URL: https://scienceforum.ru/2021/article/2018025983 (дата обращения: 05.01.2022)
4. Костевич О. В., Слабуха Е. В., Черкашина Л. В. Использование фитнес-технологий в занятиях физическими упражнениями старшеклассников // Молодежь и современный мир, 2019.
5. Фитнес-технологии на уроках физической культуры в школе: методические рекомендации для учителей физической культуры / С. Г. Козлов, Н. С. Ракова, Н. В. Фурса, Е. В. Егорова. - Москва : Спорткнига, 2016.
6. Захарова Л. А., Ратчина Т. Ю. Фитнес-технологии как средство формирования здоровьесберегающего поведения учащихся старших классов // Теория и практика общественного развития, 2019.
7. Мастерова О. В., Чернова И. А., Евсеева О. Ю. Применение фитнес-технологий в преподавании физической культуры в старших классах // Физическая культура и здоровье, 2017.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:370:372.650 (575.1)

Muhammad TAYLAKOV
O‘z PFTI tayanch doktoranti
E-mail:m.taylakov@mail.ru

O‘z JOKU, p.f.f.d. G.Hasanova taqrizi asosida

THE CONTENT OF IMPROVING THE MANAGEMENT PROCESS OF A COMPREHENSIVE SCHOOL IN THE CONTEXT OF THE MODERNIZATION OF EDUCATION

Annotation

The world pays attention to the introduction of consistency and consistency in the management of secondary schools, the effective use of modern resource management technologies in an innovative educational environment. In particular, in the context of innovative education, the development of modernizing management mechanisms, the introduction of intensive assessment tools and strategies for monitoring quality and efficiency in the system of general secondary education are becoming relevant. This article talks about the content of improving the process of managing a general education school in the context of the modernization of education.

Key words: Modernization training, innovation, mentoring, strategy, general training, accelerated learning, information, communication, teaching and educational.

СОДЕРЖАНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛОЙ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В мире уделяется внимание внедрению согласованности и системности в процесс управления общеобразовательными школами, эффективному использованию современных технологий управления ресурсами в инновационной образовательной среде. В частности, в условиях инновационного образования актуальное значение приобретает разработка модернизирующих механизмов управления, внедрение инструментов интенсивной оценки и стратегий контроля качества и эффективности в системе общего среднего образования. В данной статье говорится о содержании совершенствования процесса управления общеобразовательной общеобразовательной школой в условиях модернизации образования.

Ключевые слова: Обучение модернизации, инновации, наставничество, стратегия, общее обучение, очное обучение, ускоренное обучение, информационные, коммуникационные, учебно-воспитательные.

TA’LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINI BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Dunyoda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshqaruv jarayonida uzviylik va tizimlilikni amalga oshirish, innovatsion ta’lim muhitida resurslarni boshqarishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Xususan, innovatsion ta’lim sharoitida umumiy o‘rta ta’lim tizimida boshqaruvning modernazatsion mexanizmlarini rivojlantirish, sifat va samaradorlikni monitoring qilishning intensiv baholash instrumentlari hamda strategiyalarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirish mazmuni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’limni modernizatsiyalash, innovatsiya, menejment, strategiya, umumiy o‘rta ta’lim, boshqaruv shakllari, boshqaruv texnologiyalari, axborot, kommunikatsiya, ta’lim-tarbiya.

Kirish. Ta’lim muassasalarini boshqarish zamonaviy ilm-fanning alohida sohasi bo‘lib, rahbarning muayyan ish tajribasi, shuningdek, uning o‘ziga xos tashkilotchilik qobiliyati, iqtidori hamda shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Jamiyatning mavjud taraqqiyoti ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy mahoratlarini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, rahbarlarning kasbiy mahoratlari ta’lim muassasalarida ijtimoiy talablarga muvofiq innovatsion faoliyatni tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Boshqarish har qanday jamiyatga, hayotning barcha sohalariga xos bo‘lib, asosiy maqsad fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini tobora to‘la qondirish uchun ishlab chiqarishni, barcha ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. Ijtimoiy-siyosiy boshqarish kishilarning turli jamoalari (sinflar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, elatlar va hokazolar) o‘rtasidagi munosabatlarni ham, ana shu jamoalar ichidagi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni ham boshqarishdir[1].

Mavjud manbalarda yosh avlodning ta’lim va tarbiyasini boshqarishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyat, ya’ni pedagogik boshqaruvni nazariy jihatdan quyidagi uch guruhga ajratish taklifi ilgari surilgan:

1) muayyan ta’lim muassasalari tomonidan tashkil etilayotgan shaxs shakllanishi jarayonini boshqarish;

2) har bir muassasada mustaqil tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsni shakllantirish jarayonini boshqarish;

3) shaxsning yaxlit rivojlanishi jarayonida ta’lim va tarbiya jarayonlarining har bir tarkibiy qismini yo‘naltirishni boshqarish

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik boshqaruv o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Jumladan: ta’limdagi boshqarish axloqiy o‘lchovga ega bo‘lib, u “maqbullik” so‘zi

bilan aniqlanadi. Ta’limni boshqarish – ham san’at, ham fan, chunki unda odamlar (bizningcha, sub’ektlar deyishiligi maqsadga muvofiq edi) bilan munosabat va fanni bilish katta rol o‘ynaydi; shaxsiy, davlat va jamoat manfaatlarining dialektik birligi boshqarish mazmunida o‘z aksini topadi. Ta’limni boshqarishda jamoatchilikning keng ishtiroki ta’minlanadi. Ta’limni boshqarishda turli xil, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik va boshqa uslublardan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublarni muntazam takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir[2]

U.I.Inoyatovning fikricha, ta’lim tizimini boshqarish darajasi va yo‘nalishlariga ko‘ra farqlanadi. Jumladan: 1) darajasiga ko‘ra – umumdavlat, tarmoqlararo, tarmoq, mahalliy va umumiy ta’lim maktablarining ichki boshqaruvi; 2) yo‘nalishlariga ko‘ra – tashkiliy, tizimli, mazmunli, kadrlar masalasi nuqtai nazaridan va metodik[3].

R.X.Djuraev va S.T.Turg‘unovlarning qayd etishlaricha, maktabni boshqarish – bu rahbarlar bilan pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatidan iborat bo‘lib, ta’lim-tarbiya arayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish, mazkur jarayon ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o‘quvchilarga fanlar bo‘yicha chuqur bilish va axloqiy tarbiya berish, kasb tanlashga yo‘llash va har tomonlama rivolangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan faoliyat[4]

Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishga bo‘lgan nazariy yondashuvlar borasidagi tasavvurga ega bo‘lish uchun “ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati” tushunchasini mohiyatini anglash va ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati mazmunini pedagogik nuqtai nazardan ifodalash va tamoyillarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Ta’limni boshqarishda innovatsiya muhim ahamiyatga ega. “Innovatsion faoliyat” tushunchasi mohiyatini anglashga intilish jarayonida V.I.Slobadchikov tomonidan bildirilgan quyidagi fikrni asosli deb topish mumkin: “innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoki mavjud me’yor bilan yangi shakllanayotgan me’yori o‘rtasidagi to‘qnashuv natijasida vujudga keluvchi majmuaviy muammolarni yechishga qaratilgan amaliy faoliyat” demakdir[5].

V.Slastenin va L.S. Podimova innovatsion faoliyatning tuzilishida ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash va muomala madaniyatining ko‘zga tashlanishiga e’tiborni qaratadi. Mualliflarning fikricha, innovatsion faoliyatni samaradorlik darajasiga ko‘ra reproduktiv, evristik, kreativ innovatsiyalar tarzida guruhlash mumkin[6].

Faoliyatga innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish bosqichlari to‘g‘risidagi qarashlarga tayangan holda aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarini innovatsion boshqarish faoliyati quyidagi to‘rt bosqichda tashkil etiladi: 1. Boshqaruv muammolarini aniqlash. 2. Samarali boshqaruv tizimini loyihalash. 3. Boshqarishda samarali o‘zgarishlar va yangiliklarni yaratishni rejalashtirish. 4. Rejalashtirilgan samarali o‘zgarishlar va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish.

Yuqorida qayd etilgan bosqichlar bevosita har qanday faoliyatda bo‘lgani kabi tayyorgarlik, rejalashtirish va amalga oshirishga qaratilgan harakatlar mazmunini ifodalaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini samarali boshqarishga erishish maqsadida taklif etilayotgan innovatsion takliflarning amaliyotga mosligi va amaliyotda qo‘llaniluvchanligi tahlil natijalariga ko‘ra aniqlanadi. Tahlilni amalga oshirishda quyidagi uch holat inobatga olinadi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini innovatsion taklif (yangilik)larni amaliyotga tatbiq etishdan avval o‘rganish va ob’ektiv baholash.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatiga innovatsion taklif (yangilik)larni tatbiq etish davrini bevosita tahliliy o‘rganish.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatiga innovatsion taklif (yangilik)lar bevosita tatbiq etilgandan keyingi holatni tahliliy o‘rganish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini innovatsion boshqarish shakllari: individual va jamoaviy; metodlari esa monitoring va nazorat; vositalari esa – loyihalar, sxemalar, xaritalar, ko‘rsatmalar, yozma bayonnomalar, hisobotlar va hokazolar sanaladi.

Ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, birinchisi, demokratik (boshqaruvda pedagogik jamoa, o‘quvchilar hamda ular ota-onalari ishtirokining ta’minlanganligi) hamda ma’muriy (buyruqlar va majburlashga asoslanuvchi) boshqaruv. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda demokratik va insonparvarlik tamoyillariga muvofiq ish ko‘rish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Demokratik boshqaruvda rahbarlar bilan umumiy ta’lim maktablarining jamoasi o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat qaror topadi, bir-birlarini tushuna olgan holda yagona maqsad yo‘lida birgalikda harakat olib boriladi, jamoaning har bir a’zosi (xoh rahbar, xoh xodim, xoh o‘quvchi bo‘lishidan qat’iy nazar) o‘z zimmalaridagi vazifalarni bajarishga mas’uliyatli yondashib, ularni sidqidildan, vijdonan, halol bajaradilar.

Ma’muriy (byurokratik) boshqaruv mazmunida, bizning fikrimizcha, bir-biriga zid qoida va yo‘riqnomalarning amal qilinishi, sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklar, bir-birlarini tushunmaslik va hurmat qilmaslik, xodimlarning zimmalaridagi vazifalarni ixtiyoriy ravishda, mas’uliyat bilan emas, balki majburiy nuqtai nazardan bajarishlari, rahbarlar ta’ziqidan qo‘rqish kabi holatlar ko‘zga tashlanadi.

Muassasa negizida faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari (pedagogik kengash, ota-onalar kengashi, metodik birlashma va boshqalar) o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik mavjud emas, ular alohida-alohida ish ko‘radi, ular o‘rtasidagi aloqa sust bo‘lib, o‘zaro axborot almashish murakkablashgan. Muassasa boshqaruv organlarining har biri alohida maqsadlarga ega.

Ma’muriy boshqarishga asoslangan umumiy ta’lim muassasalarida kundalik, mayda muammolarni hal qilish muhim sanaladi. Ularning faoliyat tarzi an’anaviy qoidalardan chetga chiqishga asoslanadi va o‘zgarishlar qo‘llab-quvvatlanmaydi. Umumiy ta’lim maktablarini boshqarish yo‘nalishiga ko‘ra ham farqlanadi, ya’ni menejerlik boshqaruvi hamda innovatsion boshqaruv.

Menejerlik boshqaruviga asoslangan umumiy ta’lim maktablari rasmiyatchilik, byurokratiyaga asoslangan boshqaruv tartibidan sifat darajasiga ko‘ra farqlanadi. Bu kabi ta’lim muassasalari uchun mavjud tajribalarga tayanish, ta’limni ijtimoiylashtirish, insonparvarlashtirish va demokratlashtirish kabi xususiyatlar xosdir. Ularning rahbarlari muassasa faoliyatini ma’lum darajaga ko‘tarish, uni saqlab qolishni ko‘zda tutadilar hamda boshqaruvning psixologik-pedagogik va iqtisodiy metodlaridan foydalanishni afzal ko‘radilar.

Tadqiqot metologiyasi. Faoliyatida doimiy va mahsuldor innovatsion yo‘nalish yetakchilik qiluvchi ta’lim muassasalaridagi o‘zgarishlar doimo qo‘llab-quvvatlanadi. Innovatsion boshqaruvga asoslanuvchi ta’lim muassasalarida o‘zaro hamkorlik pedagogik faoliyatning hal qiluvchi katalizatori hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish murakkab tarkibiy tuzilmaga ega jarayon sanaladi. Mavjud manbalarni o‘rganish asosida

innovatsion faoliyat tarkibiy tuzilmasida quyidagi qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Boshqarish – ta’lim muassasalarining maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi hamda boshqarish jarayonida tashkil etiluvchi harakatlar: vaziyat va imkoniyatlarni tahlil qilish; harakatlarni rejalashtirish (dastur asosida); izchil innovatsion faoliyatni tashkil qilish; rahbarlik; nazorat.

2. Darajali innovatsion faoliyat – turli darajadagi o‘zaro bog‘liq – individul, guruhli, umumiy ta’lim maktablari doirasida, tuman (shahar) va mintaqa miqyosida tashkil etiluvchi innovatsion faoliyatlarni aks ettiradi.

3. Sub’ektlar – umumiy ta’lim maktablari faoliyatini yo‘lga qo‘yishda faol ishtirok etuvchi shaxslar (muassasa direktori, rahbar xodimlari, fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, o‘quvchilar, ularning ota-onalari, homiylar va boshqalar) tomonidan tashkil etiluvchi innovatsion faoliyat mohiyatini aks ettiradi. Bunda innovatsion faoliyat sub’ektlarning vazifalari nuqtai nazaridan ham baholanadi.

4. Innovatsion faoliyat motivlari – umumiy ta’lim maktablari sub’ektlarining faoliyat yo‘nalishlari, istaklari, kasbiy layoqatlari, odatlari, qiziqishlari va intilishlarini ifodalaydi.

5. Innovatsion faoliyat mazmuni – o‘ziga xos boshqaruv tashxisi bo‘lib, muammolarni aniqlash, innovatsion loyihalash, yangiliklarni turkumlash, ularni ommalashtirish, natijalarni tahlil qilish kabi holatlarni tavsiflaydi.

6. Innovatsion faoliyat jarayoni (sikli) – tashabbuslar (innovatsion g‘oyalar)ni ilgari surish, innovatsion g‘oyalarni asoslash (opponentlar bilan kurashish), ularni ommalashtirish, keng ko‘lamda o‘zlashtirilishiga erishish, innovatsion g‘oyalarning vaqt nuqtai nazaridan eskirishi, odatiy holga aylanishi, ularning rad etilishi yoki mazmunan yangilanishi (V.M.Demin, N.Fridman), yangilangan innovatsiyalarni tarqatish kabi harakatlar majmuidan iborat.

Tahlil va natijalar. Yuqorida bildirilgan fikrlar umumiy ta’lim maktablarining innovatsion faoliyati tizim sifatida namoyon bo‘ladi degan xulosani qat’iylashtiradi. Tizim – bir-biri bilan doimiy munosabatda bo‘lgan va o‘zaro bog‘liq yagona, bir butunni hosil qiluvchi unsurlar majmuai bo‘lib, tabiiy, biologik, ijtimoiy kabi mohiyatga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tizimning xarakterli xususiyatlari aniq maqsadga yo‘naltirilganlik va uzviylik yoki tabiiylik hisoblanadi. Uzviylik – o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi yaxlitlik yoki bir butunlik bo‘lib, murakkab hamda tabaqali bosqichlardan iborat. Ijtimoiy tizimlarning tabiiyligi va aniq maqsadga yo‘naltirilganligi boshqaruv vazifalarini amalga oshirish asosida ta’minlanadi.Tizimni tahlil qilish asosida quyidagi ob’ektlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- kirish (jarayonning kechishi uchun zarur bo‘lgan va unda o‘zgaradigan barcha narsalar (sub’ektlar, asbob-uskunalar, axborot va b.sh.);
- chiqish (tizim faoliyatining natijasi yoki oxirgi holati, kirishda mavjud bo‘lgan barcha narsalarning chiqishda o‘zgargan holatga kelishi);
- jarayon (kirishning chiqishga o‘zgarishi);
- cheklash (tizim jarayoni va natijalariga bo‘lgan talablar).

Raqobatga bardoshli umumiy ta’lim maktablari mavjud ijtimoiy ehtiyojlarini qondira oluvchi, keng ko‘lamli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va mavjud huquqiy, axborot va psixologik-pedagogik ta’minotga muvofiq o‘z faoliyatini dolzarblashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan sub’ektdir. Bu kabi umumiy ta’lim maktablari yuqori obro‘ga egaligi bilan boshqa muassasalardan ajralib turadi, pedagogik ma’lumotga ega mutaxassislar ularda kasbiy faoliyatni tashkil etishga intiladilar, o‘quvchilar tanlov asosida o‘qishga qabul qilinadilar. Rahbarlar sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishida turg‘unlikni ta’minlay oladilar, muassasaning moddiy-texnik asosini mustahkamlab borilishiga jiddiy e’tibor qaratadilar. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi: 1) qarorlarni qabul qilish; 2) qarorlarni e’lon qilish; 3) faoliyatni takomillashtirishda imtiyozlar va rag‘batlantirish usullaridan birgalikdagi foydalanish; 4) sub’ektlar va rahbarlar orasida vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash; 5) sub’ektlar va rahbarlar maqsad, vazifalarining muvofiqligini aniqlash[7].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirish ta’lim muassasalari amaliyotida muayyan o‘zgarishlarni sodir etishga yo‘naltirilgan rahbarlik faoliyati bo‘lib, uning samarasi umumiy ta’lim maktablari faoliyatining ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etilishi, ta’lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasining oshganligi, ularning yuksk ma’naviy-axloqiy sifatlarga egaliklari, ta’lim jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda samaradorlikka erishishda yetakchi tamoyillar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Мирқосимов М. Мактабни бошқаришнинг назарий ва педагогик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 158 б.
2. Ўзбекистонда ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимида бошқариш самарадорлигини ошириш йўллари. Муаллифлар: А.А.Хўжаев, Л.Хейки. Х.Ф.Масудов ва Г.Сонневельд таҳрири остида. Масъул муҳаррир: Ш.Авезов. – Т.: Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими маркази. 2001. – 147 б.
3. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Автореф. дисс. ... докт.пед.наук. – Т.: 2004. – 44 с.
4. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: “Voris-Nashriyot” нашриёти, 2006. – 263 б.
5. Слобадчиков В.И. Инновационное образования // Ж. Школьные технологии. – М.: 2005. №2. – С. 4-12.
6. Сластенин В.А. Подымова Л.С. Педагогика – инновационная деятелъность. – М.: Изд-во Магистр, 1997. – 221 с.
7. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Автореф. дисс. ... докт.пед.наук. – Т.: 2004. – 44 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:004:372(575.1)

Shaxnoza TAYLAKOVA,
O‘z JOKU fakultet dekani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail:shakhnozataylakova86@gmail.com

P.f.d. K.Qilicheva taqrizi asosida

THE ROLE OF THE MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF MEDIA EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS: INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCE

Annotation

A new direction of education, in a word, education in the field of mass media and communication is media education. The term media education is used in a narrow context as a general cultural component of education. This is in line with the goals of general education. In pedagogy, the words media culture and news culture are also used as synonyms for the word media education. Today, news culture and media literacy are considered very topical issues. The article analyzes in detail the role of the media in the development of media education in secondary schools.

Key words: General secondary education, media education, information culture, media literacy, mass media, pedagogical approaches.

РОЛЬ СМИ В РАЗВИТИИ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ

Аннотация

Новым направлением образования, одним словом, образования в области массовой информации и коммуникации является медиаобразование. Термин медиаобразование используется в узком контексте как общекультурный компонент образования. Это соответствует целям общего образования. В педагогике слова медиакультура и новостная культура также используются как синонимы слова медиаобразование. Сегодня новостная культура и медиаграмотность считаются очень актуальными вопросами. В статье подробно анализируется роль средств массовой информации в развитии медиаобразования в общеобразовательной школе.

Ключевые слова: Общее среднее образование, медиаобразование, информационная культура, медиаграмотность, СМИ, педагогические подходы.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MEDIATA’LIMNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

Annotatsiya

Ta’limning yangi yo‘nalishi, bir so‘z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasidagi ta’lim bu - mediata’limdir. Mediata’lim termini tor mazmunda ta’limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo‘llaniladi. U umumiy ta’limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata’lim so‘zining sinonimi sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so‘zlari ham qo‘llaniladi. Bugun axboriy madaniyat va mediasavodxonlik o‘ta dolzarb masala hisoblanadai. Maqolada aynan umumta’lim maktablarida mediata’limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Umumiy o‘rta ta’lim, mediata’lim, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, pedagogik yondashuvlar.

Introduction. A modern person is faced with a huge flow of information from childhood. Children are particularly susceptible to the influence of mass media, as they have not yet been able to filter information, distinguish fact from opinion and pure information from propaganda material. This means that the specialized mass media intended for the children's audience are of special importance to the society, their main task is the social responsibility that carries out the primary socialization of the individual.

Main part. UNESCO adopted the Media Education Declaration in 1982. According to it, "Media education is closely connected with all types of media (print, graphic, sound, screen, etc.) and various technologies. It gives people knowledge such as understanding how to use mass communication in social consciousness, mastering the skill of using media while communicating with other people.

Also, the following skills are formed:

analysis, critical view and creation of media texts;

identify the sources of media texts, their political, social, commercial or cultural interests in context;

media texts distributed by the media and their importance interpretation;

other suitable for creating their own media texts selection of media texts and finding an audience interested in it;

to obtain the possibility of open access to the media"[1].

Media education is part of a person's right to receive and distribute information. UNESCO recommends introducing media education into the national curricula of the educational systems of all countries of the world. Currently, in countries such as European countries, the USA, Australia and Russia, media education is included in the education system as a compulsory subject. Organization of media education classes, forms and methods of the media education process in the audience of pupils and students of the monograph “Methodology and technology of media education at school and university”[2] by the teacher of Rostov State University of Economics I.V. Chelysheva and technique section, the following example is given about the importance of

periodicals in studying media education: "Another interesting way of working in class involving media sources can be review of scientific and technical articles in periodical press. Regularly, with the publication of one or another popular scientific magazine, schoolchildren introduce the audience to the most interesting publications orally or in writing (in the form of an abstract or creative work). Later, these works can be published in the school wall newspaper.

The word "media education" entered the territory of the CIS countries in the 80s of the last century. It is not appropriate to simply translate the English word "media education". It can be used in different meanings depending on its place in the text. Nevertheless, we need to define the basic concept of media education. A.A. Jurin divided them into three types:

1. Pedagogical science that studies the impact of mass media on children and adolescents and develops theoretical issues, prepares students for a meeting with the media world.

2. Joint practical activities of teachers and students preparing children and teenagers to understand the role of mass media in the world.

3. The part of education that provides knowledge about the role of mass media in understanding the culture and the world and forms the ability to effectively work with media information[3].

Currently, media education is defined as an interdisciplinary field that combines a number of disciplines (pedagogy, sociology, psychology, linguistics), studies the laws of mass communication and the possibilities of using media resources by various social groups.

More than 200 children's newspapers and magazines are published in Russia. Therefore, in the typology of Russian children's publications, publications are divided into several groups according to the scale of distribution: publications distributed throughout Russia, publications distributed throughout the CIS countries and near foreign countries (“Пионер”, “Мы”, “Штучка”, “Путеводная звезда”, “Круто”, “Tom and Jerry” and other magazines); Publications distributed throughout Russia and CIS countries (“Мурзилка”, “Маруся”, “Бумеранг”, “Молоток”, “Браво”, “Yes!” etc. magazines); publications distributed only throughout Russia (“Для самых-самых маленьких”, “Карапуз”, etc. magazines); publications in Russian and national languages throughout the region, in most cases bilingually (90 such magazines are published in Russia today.

F.M.Dostoevsky once asked himself the following question: "Is it possible to accept the world without evil, but without children?" And he answers: It's better to leave everything as it is, but let it be with the children. Children hold the absurdity and evil in the world in balance. Man has a great, noble ability - to think about the future, regardless of whether it will happen in the future or not. Why? Because our children will live in the future. Children are the eternal theme of this world. They have always been at the center of humanity's main concerns, thoughts and hopes[4]."

Taking into account that it is impossible to completely separate children of today from Internet networks, especially Telegram, Instagram, Facebook, and especially YouTube, the magazine will inform about channels and pages with interesting and, most importantly, clear information for children in these networks, this channel and cooperation with pages is likely to create a positive creative environment. If today's children are used to getting information through the gadgets in their hands, it may be the most correct way to return them to printed publications with the help of these gadgets. Today, children's rights are regularly covered in the mass media of the world's leading countries. In November 1999, media workers, journalists, and experts on children's rights gathered in Oslo, Norway, and sought answers to the question of how the media can contribute to the development of children's rights around the world, and they determined 5 directions in this regard. These directions are:

the right of children to the mass media, as well as participation in the new mass media;

children's right to education in media;

children's right to media;

the right of children to be protected from harm from media;

the role of mass media in the protection and promotion of children's rights.

The point of children's right to be protected from harm from mass media is realized through the functions of children's media education. The Children's Information Provider acknowledges that children's publications may be held liable for violating this right. How children are portrayed in the media motivates the formation of such an attitude towards them in others. It is the media that can be the cause of positive or negative resolution of children's issues. In most cases, the media portrays children as passive, silent victims. Allowing children and adolescents to speak on their own behalf will lead to the formation of an opinion in the media about what they want, their achievements, and the issues they are thinking about. According to the information of the International Federation of Journalists, in the formation of children's images, the mass media in most cases use the same myth[5].

These are: the situation of families who have lost their individuality and humanity, living in developing countries, children living in poverty, victims of war and natural disasters[6].

It can be effective to integrate media education with the science of "Education" in general education schools of Uzbekistan. In the continuous education system of Uzbekistan, it is appropriate to focus on increasing the effectiveness of using media education in pre-school educational institutions, schools, lyceums, vocational colleges, as well as higher educational institutions. What results can we achieve in this?

Based on the child's age and development, teaching to divide the media into types in a preschool educational institution:

verbal – viewing and observation: explaining the true nature of various cartoons, children's programs and shows;

non-verbal – listening information: interpreting the content of fairy tales, legends, stories and poems;

audiovisual – radio programs, interpreting the information on audio-recorded discs in a way understandable to children, in connection with real life[7].

it is necessary to convey the information belonging to these types of media to the child's consciousness in a simplified form, and most importantly, to teach the child to understand the difference between real life and the visual world.

In primary and secondary (5-6) grades:

be able to choose media forms and tools (for example, choosing and distinguishing photography, paintings, magazine illustrations); creating and defining a visual text or short plot plan (photo, video, comic, fairy tale, computer graphics, etc.)

prepare and present a presentation of their media project[8].

In the upper grades of the school:

create different plots based on the photo (by changing the shape and elements of the photo);

making decisions regarding the use of available media (photo, video, press, etc.), discussing and justifying their decisions;

perform and present their own media project.

In academic lyceums and vocational colleges:

conducting experiments based on the use of special texts and "messaging‘ sending forms and technologies;

use of various techniques in the creation and planning of media texts, accurate and critical analysis of the result;

being able to create media products intended for a special audience, anticipating how that audience will receive them;

perform and present their own media project. Despite the concrete proposal for the issue 8 years ago, the problem is still relevant and unsolved.

In conclusion, the role of mass media in the development of media education in secondary schools today is a large number of newspapers and magazines on various topics for independent individuals. For children who are thirsty for knowledge and cannot distinguish white from black, the fact that there are only a few children's periodicals with an affordable price and content equal to gold is the most urgent problem. Encouraging children to think should not be limited to fiction.

LITERATURE

1. Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999.
2. Челышева И.В. Методика и технология медиа образования в школе и вузе. –М.: Директ-медиа, 2013.
3. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы. Медиаобразование. – М., 2005.
4. Лебедева А.Э. Приобщение детей к чтению классики как международная социальная и педагогическая проблема. – М., 1999г.
5. Права ребенка и журналистика. Практический аспект: опираться на права. Учебная программа, одобренная региональным офисом ЮНИСЕФ по Центральной и Восточной Европе и Содружеству Независимых Государств(ЦВЕ\СНГ)© UNICEF - Дублинский технологический институт, 2007.
6. Qosimova N. Toshpo‘latova N. O‘zbekiston OAV da bolalar mavzusining yoritilishi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2014.
7. Бэзэлгэт К. Ключевые аспекты медиаобразование. Доклад на российско-британском семинаре по медиаобразованию. –М., 1995
8. Федоров А.В. Медиобразование и медиаграмотность. Учебное пособие для вузов. –М., 2007.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:54:371.3

Nurali TEMIROV,
TDPU Kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
E-mail:nurali_temirov@mail.ru

O‘zMU professori, k.f.d., Z.Smanova tqarizi asosida

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA FANGA OID KOMPETENSIYASINI TAKOMILASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada pedgogika oliy ta’lim tizimida umumiy kimyo fanini amaliy mashg‘ulotini o‘qitish jaryonida integrativ yondashuv aosida tashkil etishilishi keltirilgan. Hamda fanga oid kompetensiyasini takomilashtirishda, mavzuni to‘liq yoritib berish uchun qanday ma’lumotlarga e’tibor berish kerakligi va integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kimyoviy bilimlarini oshirishga xizmat qilishi takidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Integrativ yondashuv, fanga oid kompetensiya, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari, eritmalar, eritmalar konsentratsiyalari, umumiy kimyo, amaliy mashg‘ulot, oliy ta’lim.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДМЕТНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье представлена организация практических занятий по общей химии на основе интегративного подхода в педагогических вузах. Также подчеркнуто, на какие сведения нужно обратить внимание, чтобы глубже объяснить тему, усовершенствовать предметную компетенцию и способствовать повышению химических знаний будущих учителей химии на основе интегративного подхода.

Ключевые слова: Интегративный подход, предметная компетентность, будущие учителя химии, растворы, концентрации растворов, общая химия, практическое занятие, высшее образование.

IMPROVING THE SUBJECT COMPETENCE OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation

The article presents the organization of practical classes in general chemistry based on an integrative approach in pedagogical universities. It also highlights what information you need to pay attention to in order to explain the topic in depth, improve subject competence and contribute to the improvement of chemical knowledge of future chemistry teachers based on an integrative approach.

Key words: Integrative approach, subject competence, future teachers of chemistry, solutions, concentrations of solutions, general chemistry, practical training, higher education.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 -yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli Farmonida belgilab berilgan vazifalarga muvofiq ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan, ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish ishlari tashkil etish ko‘zda tutilgan [1].

Shu bois bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarida integrativ yondashuvni amalga oshirish usullari va metodlari masalasi – bu kimyo fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirishni umumiy muammolarining biri, deb hisoblanadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kimyo o‘qitish metodikasi sohasida o‘zbek olimlari tomonidan kimyo fanida ijodiy bilish faoliyatini shakllantirish hamda kimyo darslarida o‘quvchi va talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha H.T.Omonov, N.G.Raxmatullaev, M.Umarov, A.Mamajonov, J.Fayozov, Sh.M.Mirkomilov, M.Nishanov, R.Sh.Berdiqulov kimyo o‘qitishda axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘qitish bo‘yicha F.A.Alimova, L.T.Zaylobov, E.U.Eshchanov, B.M.Dumanov va I.E. Shernazarovlar tomonidan o‘rganilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘qitish metodikasining didaktik tamoyillari, ta’lim jarayonini axborotlashtirish va testlardan foydalanish barcha darajadagi ta’limni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, fan asoslarini o‘rganish, butun o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi[3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta’limda integrativ yondashuv asosida pedagogika oliy ta’lim mussasalarida, jumladan, “Umumiy kimyo” fanining amaliy mashg‘ulotlarida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarida amalga oshirish orqali o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, integrativ yondashuv asosida, didaktik imkoniyatlarini yanada to‘laroq aniqlab olish, ularning o‘qitishdagi funksiyalarni aniqlash va shu bilan bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga integrativ yondashuv asosida o‘qitish jarayonida samarali foydalanish uchun dastak berish lozim[4].

Pedagogika oliy ta’lim tizimining 60110800-Kimyo ta’lim yo‘nalishidagi bakalavriat bosqichining I bosqich «Umumiy kimyo» fanidan amaliy mashg‘ulotlaridan eritmalar mavzusi yuzasidan amalga oshirilgan integrativ yondashuv jarayonini keltirib o‘tamiz.

Mavzu: Eritmalar

Dars rejasi:

1. Eritmalardan har xil konsentratsiyali eritmalar tayyorlash.

2. Eritmalar konsentratsiyalarini aniqlash.

O‘tiladigan mavzu mohiyatini tushuntirishda integrativ yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, eritmalar mavzusini o‘qituvchi integrativ yondashuvlar asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga tushuntirib beradi.

Bu jarayonda o‘qituvchi kimyoviy bog‘lanish va kristall panjara, elektrolitik dissotsiyalanish, vodorod ko‘rsatkich (pH), ion almashinish reaksiyalari hamda tuzlar gidrolizi mavzulari bilan gorizantal (sinxron) va biologiya, fizika, matematika, geografiya va boshqa fanlar bilan vertikal (asinxron) integrativ yondashuvlar amalga oshiriladi (1-rasm)[6].



1-rasm. Eritmalar mavzusida amalga oshirilgan integrativ yondashuv[7].

Dars rejasining 1-bo‘limi mazmunini yoritib berishda umumiy kimyo fanining amaliy mashg‘ulotlardan eritmalar mavzusini matematika fani bilan integrativ yondashuvlar asosida eritmalardan har xil konsentratsiyali eritmalar tayyorlash guruhlarga bo‘lingan holatda tayyorlashadi.

Mavzu rejasini 1-bo‘limining mazmuni tushuntirib berilgandan so‘ng, talabalarga muammoli savol bilan murojaat qilinadi. Masalan, matematika fani bilan integrativ yondashuvlarni amalga oshirib, eritmalardan har xil konsentratsiyali, eritmalar tayyorlashlari uchun talabalarga murojaat qilinadi.

Guruh talabalari sonidan kelib chiqib 3 yoki 4 nafardan qilib kichik guruhlarga bo‘linadi. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari kichik bo‘lingandan so‘ng, kichik guruhlarga quyidagi topshiriq beriladi. Beriladigan topshiriq shundan iborat ya’ni berilgan eritmalardan foydalanib yangi eritmalar tayyorlash kerak bo‘ladi[8].

Topshiriq:

1. 500 g 50 % li NaOH eritmasini tayyorlash uchun 60 % li va 30 % li eritmalardan qanchadan (g) olish kerak?

2. 20 % li sulfat kislota eritmasidan 150 g tayyorlash uchun 60 % li va 10 % li eritmalaridan necha g dan olish kerak?

3. Sirka kislotasining 70 % li eritmasidan foydalanib, 5 % eritma tayyorlang.

Yangi eritma tayyorlash uchun amalga oshirilgan hisob-kitobdan so‘ng bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari kislotalarni suyultirishda quyidagi xavfsizlik qoidasiga rioya qilishlari qattiy nazoratga olinadi (2-rasm)[9].

2-rasm. Kislotalarni suyultirishda quyidagi xavfsizlik qoidasi.

Mavzu rejasining 1- bo‘limi amalda bajarib bo‘lgandan so‘ng 2-bo‘limining mazmuni fan o‘qituvchisi tushuntirib beradi hamda talabalarga ruxsat beriladi.

2. Eritmalar konsentratsiyalarini aniqlash (Bu ish o‘qituvchining nazorati ostida bajariladi).

Eritma tarkibi uning zichligi (ρ) bilan ifodalash, berilgan massa yoki hajmda erigan moddaning miqdoriga nisbatan eritma zichligining o‘zgarishiga asoslangan.Eritmaning zichligini aniqlash uchun areometrdan foydalaniladi (3-rasm).

3-rasm. Areometr bilan suyuqlik aniqlash.Areometr mayda sharchalar yoki simob bilan to‘ldirilgan uchi ingichka shisha naychadan yasaladi. Naycha ma’lum aniqlikdagi shkala bilan ta’minlangan.Har xil suyuqliklarda areometr har xil chuqurlikda botadi. Bundan u o‘z massasiga teng suyuqlik massasini siqib chiqaradi. Bu massa suyuqlik zichligiga teskari mutanosib[10].Areometr suyuqlikga qancha shkala bo‘limigacha cho‘ksa, shu bo‘limi suyuqlik zichligini bildiradi. O‘lchanayotgan zichligining aniqligiga qarab bir yoki bir nechta, har xil shkalali areometrlar qo‘llaniladi.

Suvning zichligidan katta suyuqliklar zichligini o‘lchaydigan areometrni nol bo‘limi shkalasining yuqori

qismida, suvdan yengil suyuqliklar uchun shkalani pastki qismida joylashgan.

Eritma zichligi orqali uning tarkibini aniqlash mumkin.

Agar jadvalda areometr shkalasiga mos qiymatlar yo‘q bo‘lsa, ikki yaqin qiymatlar (bir oz katta yoki kichik) yordamida aniq qiymat hisoblanadi.

Tajribada aniqlangan sulfat kislota eritmasining zichligi 1,200 g/sm3. Ilovadagi jadvaldan zichlik qiymatlari 1,174 g/sm3 va 1,205 g/sm3 mos holda 24% va 28% eritmalarga to‘g‘ri kelishini topamiz[11].

Uzun silindrga eritma quyib, unga areometr idish devoriga tegmasligi shart. Idishdagi suyuqlikning balandligi areometrning shkalasiga to‘g‘ri kelishi belgilanadi.

Topilgan chegarada ω% eritmaning zichligini to‘g‘ri mutanosib deb faraz qilaylik. Zichligining oshishi (1,205-1,174)=0,031 g/sm3, ω% ni (28-24)=4% ga o‘zgarishiga mos keladi. Eritma zichligi bilan jadvaldagi past qiymat farqi 1,200-1,174=0,026 g/sm3 ni tashkil qilsa, proporsiya orqali:

$$\frac{0{,}031}{0{,}026} = \frac{4}{X} \; dan \; X = 3{,}35\% \; bo‘ladi$$

Demak, berilgan eritmaning zichligi: ω%=24%+3,35=27,35%.

Eritma zichligi hamma vaqt uning tarkibiga mutanosib o‘zgarmaydi. Shuning uchun yuqoridagi hisoblash taxminiy deb qabul qilinadi, ammo amaliy maqsadlar uchun aniqligi yetarli bo‘lad[12].

Fan o‘qituvchisi tomonidan rejaning 2-bo‘limi tushuntirib bo‘lingandan so‘ng talabalarga quyidagi moddalar beriladi. H2SO4, HCl, HNO3, CH3COOH kislotalar hamda KOH va NaOH larning zichligi, necha %, necha molyarli yoki normalli ekanligini topish vazifasi beriladi. Buning uchun har bir kichik guruhga bittadan areometr va kislota va ishqor eritmalarining % konsentratsiyasi va zichligi (2.1-jadval) beriladi moddalar eritmalarining zichligini aniqlash uchun.

T/r	Moddalar formulasi	Moddalarning zichligi	Moddalarning foiz konsentratsiyasi	Moddalarning molyar konsentratsiyasi	Moddalarning normal konsentratsiyasi
1.	H2SO4				
2.	HCl				
3.	HNO3				
4.	KOH				
5.	NaOH				
6.	CH3COOH				

2.1-jadval

Kislota va ishqor eritmalarining % konsentratsiyasi va zichligi (150C da).

%	H2SO4	HNO3	HCl	CH3COOH	KOH	NaOH
1	2	3	4	5	6	7
4	1,027	1,022	1,019	1,0052	1,033	1,046
8	1,055	1,044	1,039	1,0113	1,065	1,092
12	1,083	1,068	1,059	1,0171	1,100	1,137
16	1,112	1,093	1,79	1,0228	1,137	1,181
20	1,143	1,119	1,100	1,0284	1,176	1,225
24	1,174	1,145	1,121	1,0337	1,217	1,268
28	1,205	1,171	1,142	1,0388	1,263	1,310
32	1,238	1,198	1,163	1,0436	1,310	1,352
36	1,273	1,225	1,183	1,0481	1,358	1,395
40	1,307	1,251		1,0523	1,411	1,437
44	1,342	1,277		1,0562	1,460	1,478
48	1,380	1,303		1,0598	1,511	1,519
52	1,419	1,328		1,0631	1,564	1,560
56	1,460	1,351		1,0660	1,616	1,601
60	1,503	1,373		1,0685		1,643
64	1,547	1,394		1,0707		
72	1,640	1,429		1,0740		
76	1,687	1,445		1,0747		
80	1,732	1,460		1,0748		
84	1,776	1,474		1,0742		
88	1,808	1,486		1,0726		
92	1,830	1,486		1,0696		
96	1,840	1,504		1,0644		

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari areometr yordamida berilgan eritmalarning zichligin aniqlashadi va shu natijadan foydalanib, 6 ta idishdagi eritmalarning necha %, necha molyarli yoki normalli ekanligini topishadi.

Guruhlar berilgan topshiriqni bajarib bo‘lgandan so‘ng har bir guruh talabalari chiqib himoya qiladi. Shundan keyin boshqa guruhdagi talabalar himoyachiga turli savollar beradilar[13].

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda “Venn diagrammasi” grafik organayzerdan foydaniladi.

Venn diagrammasi orqali har bir talaba o‘zi mustaqil molyar va normal konsentratsiya o‘ziga xos xususiyatlari va farqli tomonlarni yozib to‘ldiradi[14]

“Venn diagrammasi” metodi.



Darsning yakuniy qismida talabalar faol ishtirokiga qarab baholanadi hamda uyga vazifa beriladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo darslarida integrativ yondashuvni amalga oshirish bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining bilimga chanqoqligini boshqarish, ular uchun qiziqarli qilib o‘quv jarayonini olib borishda, yangi bilimlarni egallashda, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[15]. Bunday mashg‘ulotlarda talabalar kimyo

fanidan nazariy bilimlardan tashqari kundalik hayotda ularni amaliy qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, shu bilan bir qatorda fanga oid kompetensiya shakllandi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallngan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60 sonli Farmoni.
2. Orifjonovich T. N. The importance of improving science competencies through interdiscipline integration //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
3. Темиров Н. О., Миркомилов Ш. М., Алимова Ф. А. К Вопросу об обучении прикладном значении металлов //ВВС 94 Z 40. – С. 46.
4. ergashovich S. I., Orifjonovich T. N. Clear and Natural in Teaching Higher Education Institution Students on the Basis of the International Stem Education Program Characteristics of Integration of Sciences //JournalNX. – Т. 6. – №. 12. – С. 234-237.
5. Temirov N. O., Mirzaliyev Z. M., Soyibova D. B. The amplification of outlooks in students by solving tasks related to nuclear reaction //ВВС 94 Z 40. – С. 42.
6. Temirov N.O. Kimyo fani uzluksizligini ta’minlashda bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarni integrativ yondashuv asosida fanga oid kompetensiyasini rivojlantirish. Uzluksiz ta’lim. Toshkent-2021. №3, 74-51-b.
7. Alimova, F. A. (2021). Project activities of students in the digital educational environment. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(12), 97-99
8. Темиров Н.О., Бердиқулов Р.Ш., Алимова Ф.А., Миркомилов Ш.М. Галогенларнинг биологик аҳамиятини кимё курсида ўрганиш масалалари. //ЎзМу хабарлари журнали.−Тошкент.-2018.-3/1-сон.-Б. 264-268.
9. Темиров Н.О., Алимова Ф.А., Миркомилов Ш.М. Одам организимида кимёвий элементларнинг амалий аҳамияти мавзусини ўқитиш методикасининг хусусиятлари. // ТДПУ илмий ахборотлари.−Тошкент.-2019.-2-сон.-Б. 43-48.
10. Temirov N.O. Umumiy kimyoni o‘qitishda fanlararo integratsiya orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllanishi. //ЎзМу хабарлари журнали.−Тошкент.-2021.-1/4-сон.-Б. 176-179. (13.00.00 №15)
11. Темиров Н.О. Кимё фанини узлуксизлигини таъминлаш мақсадида бўлажак ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида фанга оид компетенциясини такомиллаштириш. //Узлуксиз таълим журнали.−Тошкент.-2021.-3-сон.-Б. 47-51. (13.00.00 №9)
12. Темиров Н.О. Умумий кимё фанидан фанлараро интеграциясидан фойдаланиб ўтказилган педагогик эксперимент натижалари. // International multidisciplinary scientific conference on the engineering&technology.–Egypt 2021. B. 220-223.
13. Темиров Н.О. Умумий кимё фанининг амалий ва лаборатория машғулотларида фанлараро интеграциянинг қўллашнинг мақсад, вазифалари. // Innovative research of the XXI centry: science and education international conference. –Indonesiya 2021. B. 145-147.
14. Temirov N.O. Integratsion yondashuv asosida tayanch kompetensiyasini takomillashtirish. //Tabiiy fanlarning zamonaviy yutuqlari va o‘qitishda innovatsiyalar Respublika ilmiy-amaliy anjumani.−Toshkent 2021. B. 279-281.
15. Temirov N.O. Umumiy kimyo fanini o‘qitishda integrativ yondashuv va xalqaro steam ta’lim dasturini o‘rni. //Aniq va tabiiy fanlar o‘qitish sifatini oshirishda innovatsion yondashuv: integratsiya, metodologiya, amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy anjumani.−Toshkent 2021. B. 228-231.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:327

Maxsuda TILLASHAYXOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti v.b.
E-mail: mtillyashayxova@gmail.com

PhD. K.Mamadaliyev taqrizi asosida

MASOFAVIY TA’LIM TIZIMINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Masofaviy ta’lim tushunchalari, atamalari tizimi va tamoyillari nazariy jihatdan tadqiq qilindi. Masofaviy ta’lim asosiy tushunchalarining tadqiqi bo‘yicha ilmiy asoslangan fikrlar keltirilgan bo‘lib, ular asosida masofaviy ta’lim muammolarini ancha aniq belgilovchi yangi ta’rif taklif etilgan bo‘lib, masofaviy ta’lim asosiy tushunchalarining tadqiqi bo‘yicha ilmiy asoslangan fikrlar keltirilgan. Masofaviy ta’lim rivojlanishining to‘rtta asosiy strategiyalari belgilab berildi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, tamoyil, masofaviy ta’lim, masofaviy ta’lim, strategiya.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ПРИНЦИПЫ СИСТЕМЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Теоретически исследованы понятия, терминологическая система и принципы дистанционного обучения. Представлены научно обоснованные взгляды на изучение основных понятий дистанционного образования, на основе которых предлагается новое определение, более четко определяющее проблемы дистанционного образования. Определены четыре основные стратегии развития дистанционного образования.

Ключевые слова: Образование, информационные и коммуникационные технологии, Интернет, принцип, дистанционное образование, дистанционное образование, стратегия.

BASIC CONCEPTS AND PRINCIPLES OF THE DISTANCE EDUCATION SYSTEM

Annotation

Concepts, terminological system and principles of distance learning are theoretically investigated. Evidence-based views on the study of the basic concepts of distance education are presented, on the basis of which a new definition is proposed that more clearly defines the problems of distance education. Four main strategies for the development of distance education have been identified.

Keywords. Education, information and communication technologies, Internet, principle, distance education, distance education, strategy.

Kirish. Masofaviy ta’lim birdaniga va to‘lig‘icha sodir bo‘lgan emas. Rivojlanish jarayoni sekin-asta amalga oshib borgan. Bilim berishning yangi texnologiyalari paydo bo‘lishi bilan masofaviy ta’lim tizimiga qo‘llanila borib, uning turli ko‘rinishlari taraqqiy eta borgan. Hozirga kelib esa, masofaviy ta’lim texnologiyalarining turli avlodlari va multimediani o‘z ichiga olgan, to‘liq multimedialashtirilgan materiallarga asoslangan modeli ko‘rinishini oldi. Bularning barchasi texnologiyalar bir-birining o‘rnini egallashi emas, balki bir-birlarini to‘ldirishlari natijasidir.

Metod va materiallar. Qo‘yilgan maqsadga erishish va vazifalarni hal qilishda tadqiqotning tahlil va sintez, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23- sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo‘lgan 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi. Ta’lim olish shakllari. Ichida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy) ko‘rsatib o;tildi. Ushbu maqolada MT Masofaviy ta’lim tizimining tarixi asosiy tushunchalari va tamoyillari to‘xtalib otishni lozim deb topdim

Masofaviy ta’limning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, u 19 asrdayoq pochta orqali yozma va bosma materialllar tarqatish bilan o‘zini namoyon qilgan. Bu tizim «pochta orqali kurslar» deb nomlanib, talaba o‘quv qo‘llanma, darsliklar, qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati bilan ta’minlangan. Bu kurslarda talabalar savollarga yozma javoblar qaytarishgan va shu orqali masofadan turib o‘qituvchi tomonidan tekshirilgan va baholangan. Radio (1920 yillarda) va televideniye (1950-yillar) paydo bo‘lishi bilan bu «yangi» informatsion va kommunikatsion texnologiyalar masofaviy ta’limga yangi shakl olib kirdi.

Masofaviy ta’limga (MT) tegishli ilmiy adabiyot va meyoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, masofaviy o‘qitish va masofaviy ta’lim tushunchalarining mazmun mohiyatini ifodalovchi yagona ta’rif yo‘q ekan.

Bu esa meyoriy-huquqiy hujjatlarda tushunmovchiliklarga, ilmiy-pedagogik faoliyatda MT muammolari bo‘yicha ishning samarasizligiga sabab bo‘ladi. Shularni hisobga olib, quyida masofaviy o‘qitish (MO‘) va masofaviy ta’lim tushunchalarining ko‘plab mualliflar tomonidan berilgan ta’riflarini keltiramiz.

Masofaviy o‘qitish - bu sirtqi o‘qitishning yangi pog‘onasi bo‘lib, unda shaxsiy kompyuterlar, video-audiotexnika, fazoviy va optik tolali texnikalar ishlatilishiga asoslangan axborot texnologiyalarining qo‘llanishi ta’minlanadi [1].

Masofaviy o‘qitish – axborot-kommunikatsiya texnologiya (kompyuterlar, telekommunikatsiya, multimedia) vositalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab, ta’lim (kunduzgi, sirtqi, eksternat) olish shaklidir[2].

Masofaviy o‘qitish – bu o‘qituvchi va talabaning interfaol (dialog), asinxron yoki sinxron o‘zaro va ta’lim vositasi yordamida aloqasining bir maqsadga yo‘naltirilgan

jarayoni bo‘lib, bu jarayon ularning fazoviy joylashuviga invariant va vaqt bo‘yicha kelishilgandir[3].

Masofaviy o‘qitish – bu aniq mavzular, o‘quv fanlaridan tashkillashtirilgan, o‘quvchi va o‘qituvchi, hamda o‘quvchilarning o‘zaro ma’lumot almashishini ko‘zda tutuvchi o‘quv jarayoni bo‘lib, unda zamonaviy informatsion texnologiyalar vositalari (audiovizual vositalar, shaxsiy kompyuterlar, telekommunikatsion vositalar) maksimal darajada qo‘llanadi [4].

Masofaviy o‘qitish – o‘qituvchi turgan joydan uzoqroqda amalga oshiriluvchi, bir maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ta’lim. Bunda, dars berish va uni tinglash jarayonlari nafaqat masofa jihatidan, balki vaqt jihatidan ham ayrodir[5].

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan va ma’lum bo‘lgan ta’riflar asosan, bu ko‘p qirrali hodisaning bir yoki bir necha tomonlarini ko‘rsatuvchi bayonlar bo‘lib, ulardan masofaviy o‘qitishda an’anaviy axborot texnologiyalaridan (nashr etilgan kitoblarga o‘xshash) umuman foydalanilmaydi, o‘qish davomida o‘qituvchi bilan tinglovchi orasida umuman aloqa yo‘q, degan fikr kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, shunisi muhimki, MO‘ jarayoniga, ta’lim jarayoni qatnashchilari hududiy uncha uzoqda bo‘lmasalar ham (bir shaharda, tumanda yashasalar ham) o‘qish davomida ish grafigi va hayot faoliyatining asinxronligi sababli (vaqt jihatidan mos kelmaganligi sababli) o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lmaslik holatini ham kiritish mumkinligi hisobga olinmayapti. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan ta’riflarda, interfaol o‘zaro ta’sir, nafaqat o‘quvchi bilan o‘qituvchi orasida, balki o‘quvchilarning o‘zaro va ta’lim vositalari bilan aloqalari bo‘lishi mumkinligi, ta’lim jarayoni sub’ektlari fazo va vaqtga nisbatan bog‘liq emasliklari, eng asosiysi, jarayon maxsus didaktik tizimda amalga oshirilishi o‘z aksini topmagan.

Masofaviy o‘qitish muammolarini ancha aniq belgilovchi quyidagi ta’rifni keltiramiz.

Masofaviy o‘qitish - bu o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro va ta’lim vositalari bilan interfaol o‘zaro ta’sirining bir maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni bo‘lib, bu jarayon ularning fazo va vaqtga nisbatan joylashishiga invariant (indifferent) holda maxsus didaktik tizimda amalga oshiriladi.

Ta’lim, qo‘yilgan maqsadga qarab yo‘naltirilgan harakat jarayoni sifatida, o‘qituvchi va talabalarning sub’ektiv-ob’ektiv harakatlari bilan xarakterlanadi. Va nihoyat, ta’limni, ta’lim faoliyati jarayonida paydo bo‘lgan, ta’lim sohasi mahsulotlarining barcha iste’molchilari uchun iqtisodiy, ma’naviy, intellektual holatlarida ahamiyatli bo‘lgan barcha qadriyatlar texnologiyasini davlat, jamiyat va shaxs tomonidan o‘zlashtirish natijasi deb qarash mumkin.

Yuqoridagilardan, xulosa qilib, shuni aytish kerakki, “O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi” da MO‘ va MT juda keng ta’rif berilgan.

Masofaviy o‘qitish – bu ta’lim oluvchiga standartlarga mos keluvchi o‘quv fanlarini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan o‘zaro fikr almashish (dialog) imkonini beruvchi, o‘qitishning an’anaviy, yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalar va texnik vositalarning keng spektrini qo‘llashga asoslangan, ta’limning universal insonparvar shakli bo‘lib, ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining turar joyi va olish vaqtiga bog‘liq emas va u ta’lim muassasasiga kelmasdan, lekin muntazam ravishda ta’lim muassasasining o‘qituvchisi yoki shu ta’lim muassasasining sertifikatiga ega kishilarning (tyutorlar) maslahatlari bilan ta’lim olish imkoniga ega.

Masofaviy ta’lim – masofaviy o‘qitish jarayoni amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, u ta’lim oluvchining keyingi ijodiy va mehnat faoliyatining asosi bo‘ladigan muayyan ta’lim darajasiga (ta’lim senziga) erishish va tasdiqlash maqsadini amalga oshiradi[6].

Quyida masofaviy ta’limning ikkita ta’rifni keltiramiz.

Masofaviy ta’lim – bu zamonaviy informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida masofaviy o‘qitish jarayoni qo‘llanadigan, ta’lim darajasini (ta’lim senzini) tasdiqlovchi, ta’lim olishning pedagogik tizimidir[7].

Masofali ta’lim – axborot texnologiyasidan foydalangan holda, masofadan turib, o‘quv axborotlarining almashuvini ta’minlaydigan, o‘quv jarayonini olib borish hamda boshqarish tizimini amalga oshiradigan bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayoninidir[8].

O‘tkazilgan tahlil va mantiqiy fikrlash natijasi sifatida, masofaviy ta’limning, muallifning bu muammoga qarashlarini belgilovchi, quyidagi ta’rifini keltiramiz.

Masofaviy ta’lim – bu masofaviy o‘qitish jarayoni amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, ta’lim oluvchi tomonidan ta’lim senziga (ta’lim darajasiga) erishish va tasdiqlash uchun amalga oshiriladi.

Bu ta’rif mohiyatini to‘la va to‘g‘ri tushunish uchun, uni yuqorida keltirilgan masofaviy o‘qitishning ta’rifi bilan birga keltirish kerak, albatta.

Masofaviy ta’lim turli geografik mintaqalarda joylashgan o‘qituvchi va talabani bog‘lovchi jarayon bo‘lib, o‘zaro aloqalar maxsus texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. O‘zaro aloqalarni amalga oshirishda turlicha usullar qo‘llaniladi: pochta va telefaks orqali tipografik bosma materiallar almashish, audiokonferensiya, videokonferensiya, kompyuter orqali virtual konferensiya. O‘quv yurtidan uzoqda yashovchilar, qatnab o‘qish uchun sharoiti bo‘lmaganlar, malakasini oshirishni hohlovchilar, nogironlar va yana boshqa turli sabablarga ko‘ra bevosita oliy o‘quv yurtlarida bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlar masofadan turib bilim va ta’lim olishga talab ortib borishi tabiiy. Ayniqsa, ish bilan band bo‘lgan katta yoshdagi kishilar, ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olishni hohlovchilar uchun masofaviy ta’lim juda qulay vositadir.

Masofaviy ta’limni quyidagi beshta asosiy holat bilan tavsiflanuvchi ta’lim sifatida qarash mumkin:

o‘qituvchi va o‘quvchining mavjudligi;

ta’lim jarayonining ma’lum masofada amalga oshirilishi;

o‘rgatuvchi va o‘quvchining o‘zaro ikkiyoqlama muloqati;

masofaviy o‘qish uchun mo‘ljallangan maxsus materiallarning mavjudligi;

har ikki tomonning kompyuter va boshqa texnika va kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlanganligi.

Masofaviy o‘qitish tizimi ta’lim sohasiga nafaqat yangi pedagogik va informatsion texnologiyalarni, balki bir qator yangi tushuncha va atamalarni ham olib kirdi:

virtual sinf (guruh);

o‘qitish ta’minoti;

o‘quv-telekommunikatsion loyihalar;

qayta aloqa;

dialogli texnologiya;

kompyuter orqali aloqa,

telekonferensiya;

kooordinator, moderator, telekonferensiya fasilatori, tyutor.

Virtual sinf – o‘quv topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilarning kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiradigan birgalikdagi harakatlarining umumlashmasi.

O‘qitish ta’minoti – masofaviy ta’limda o‘qituvchi tomonidan masofadan turgan holda o‘quvchiga turli o‘quv materiallari va ma’lumotlar orqali yordam berib borishi.

O‘quv telekommunikatsion loyiha – bir maqsadga erishishga qaratilgan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlaridir. Bunda o‘quvchi oldiga o‘quv xarakteridagi maqsad emas, balki ilmiy yoki ishlab chiqarish faoliyatini modellashtiruvchi maqsad qo‘yiladi. Shu bilan o‘quvchilarni

kollektivda ishlash, mehnatni taqsimlash kabi ko‘nikmalarni hosil qilishda yordam beradi. O‘quv telekommunikatsion loyihaning muhim belgilari:

uning vaqti aniq va cheklanganligi (bir necha haftadan 2-3 oygacha muddat);

virtual sinf hosil qiluvchi loyihaning barcha qatnashuvchilari o‘zaro axborot almashishda kompyuter telekommunikatsion tarmoqlar va dasturiy vositalardan foydalanishlari;

loyiha koordinatori tomonidan o‘quvchilar faoliyatini aniq tashkil qilinishi zarurligi.

Masofaviy o‘qitishda qayta aloqa – masofaviy o‘quvchi faoliyatini o‘qituvchi tomonidan baholash natijasiga ko‘ra, o‘quvchiga yuborilayotgan axborot oqimidir. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchining o‘zlashtirishiga o‘z munosabatini bildiradi va uning faoliyatini baholaydi. O‘z vaqtida va ratsional tashkil qilingan qayta aloqa o‘qitish faoliyatini barqaror rag‘batlantirish pozitsiyasini shakllanishiga olib keladi. An’anaviy o‘qitishda, qayta aloqa o‘qituvchi tomonidan ovozi intonatsiyasi, turli mimik harakatlar orqali osonlik bilan o‘rnatilishi mumkin. Masofaviy ta’limda, o‘qituvchi va o‘quvchining ko‘pgina verbal imkoniyatlari cheklanganligi sababli ham qayta aloqa, masofaviy ta’limni tashkil qilish va rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Dialogli texnologiya – erkin muloqot o‘rnatishda dasturiy ta’minot, qurilmalar, shuningdek, shaxslarning o‘zaro muloqotlari va faoliyatining uyg‘unligidan iboratdir.

Telekonferensiya – manfaatdor kishilarning turli axborot va xabarlarni o‘zaro almashish usuli.

Kompyuter orqali aloqa – aloqani tashkil qilishda kompyuter va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish usullari majmuidan vosita sifatida foydalanishdir. Kompyuter orqali aloqa o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

elektron pochta, u orqali tarmoqdan foydalanuvchilar o‘zaro xabarlar yuborish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

telekonferensiyalar, ular barcha ishtirokchilar bilan bir vaqtda muloqot qilish imkoniyatini beradi;

boshqa axborot manbalaridan foydalana olish, masalan, virtual kutubxona zahiralariga, ma’lumotlar bazasiga, serverlarga va h.k.

Masofaviy ta’lim hozirgi kunda dunyo miqyosida o‘z rivojining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu o‘qitishning asosiy texnologiya va usullari o‘zgarmay qolgan holda asosan yangidan-yangi texnik vositalarning rivojlanib, omma imkoniyatlari darajasiga aylanib borayotganligi bilan bog‘liq.

Agar 80-yillarda masofaviy ta’lim uchun o‘quv materiallari va ularni yetkazib berish, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqotlar texnologiyasi anchayin sodda bo‘lgan bo‘lsa, o‘n yillar o‘tib hayotga yangi texnik va texnologik vositalarning kirib kelishi bilan ahvol tamomila o‘zgardi. Masofaviy ta’limga mikroto‘lqinli televideniye, audiografika, siqilgan video, telekonferensiya, audiokonferensiya kabi turli interaktiv vositalar kirib keldi. Shu bilan birga, masofaviy ta’limda so‘nggi paytda yanada yangi raqamlashtirilgan texnologiyalar qo‘llanila boshladi. U o‘zida gipermedia dasturlarini mujassamlashtirib, o‘quvchiga o‘quv materiallarini qay darajada o‘zlashtirganligining nazoratini bevosita o‘zi amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘ziga qulay, uyi yoki ish joyidan turib Internet yoki boshqa tarmoqlar orqali umumiy ma’lumotlar bazasiga, Videokurslarga, audiomateriallarga va boshqa dasturiy tizimlar ulanishi va foydalanishi mumkin.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarining takomillashuvi va kengayishi shu jarayonga bevosita yoki bilvosita aloqador tashkilotlar va tuzilmalar doirasini kengayishiga olib kelmoqda. Texnologiyalar o‘quv dargohining bir qismiga aylanib bormoqda: bundan buyon nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ma’muriy boshqaruv, balki o‘qitish jarayoniga oid tadqiqotlar ham bir xilda muhimdir.

Masofaviy ta’limning rivojlanish strategiyalaridan bir nechtasini keltirish mumkin:

O‘quv muassasalari masofaviy ta’limni o‘zlarining yakka dasturlari tarzida tashkil qilishdan chekinib, uni o‘quv yurtlarining o‘zaro munosabatlari ko‘rinishiga olib chiqishlari.

O‘quv muassasalari aniq dasturlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga yangi texnologik imkoniyatlarni moslashtirish maqsadida masofaviy ta’limni tashkil qilish va boshqarishni takomillashtirishlari.

O‘quv yurtlari masofaviy ta’limning maqsad va kelgusidagi holatini oydinlashtirib olishlari zururligi. Shuningdek, masofaviy ta’limning o‘quv, texnik va ma’muriy maqsadlarini aniqlab olishlari, masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yishda qanday o‘quv dasturlari yutuqga olib kelishi, masofaviy ta’limni joriy qilish ko‘lami qay darajada bo‘lishi lozim, kabi muammolar hal qilinishi.

O‘quv yurtlari o‘zlarining o‘zaro birgalikdagi harakatlari modelini ishlab chiqishlari lozim. Bu model o‘rta maktab, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari, ishlab chiqarish va bizneslarning potensial munosabatlarini, hamda regiondagi, mamlakatdagi va boshqa chet el o‘quv muassasalari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishi lozim.

Masofaviy ta’lim o‘tgan o‘n yillikda, oliy ta’limda kelajakdagi jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Shu o‘rinda MTning ta’limni boshqa shakllariga nisbatan afzalliklari va qulayligini, jumladan, ta’lim sifati va samarasini oshirishga ijobiy ta’sirini o‘rganish muhim masalalardan biridir.

Yangi axborot texnologiyalari ta’lim jarayonining sifati va darajasiga jiddiy talablar qo‘yadi. Axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quv-tarbiyaviy jarayon sezilarli darajada optimallashtiriladi. Shuningdek, ular asosiy ikki tamoyil − integratsiyalashganlik va texnologiyalashganlikni joriy qilishni ta’minlaydi.

Xulosa. Bugun zamonaviy hayotni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish mushkul. Zero, bu texnologiyalar qisqa muddat ichida bizning turli aloqa tizimlari orqali muloqot qilish imkoniyatlari va axborot olish usullari to‘g‘risidagi tasavvurlarimizni ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi. Hozirgi vaqtda AKT jamiyat turmushining barcha sohalarida – davlat boshqaruvida, iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, fan va madaniyat, maishiy turmush va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Hech qanday mubolag‘asiz aytish mumkinki, biron-bir mamlakat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirmay turib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Домрачеев В.Г. Дистанционное обучение возможности и перспективы // Высшее образование в России №3, 1994 г.
2. Абдуқодиров А.А., Пардаев П.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Т.: Фан, 2009, 46 б.
Методология исследования. Проблемы совершенствования личности волновали умы таких философов-мыслителей как Ибн Араби, Санайи, Саади, Аттар, Руми, Джами, Ансари, Навои, Накшбанди, И.Кант, Гегель, Ницше, Н.А.Бердяев, В.В.Розанов, А.Швейцер и другие. Поучительным примером может служить духовно-нравственный поиск Льва Толстого. «События жизни Толстого в 1909-1910 годах (последние годы жизни – Р.З) свидетельствуют о том, что он достиг цели (цели совершенства – Р.З), хотя в полной мере насладиться достигнутым им совершенным состоянием и воссоздать его в своих творениях у него уже не осталось времени и сил. Но то, что он оставил людям подробнейшее описание и детальный анализ своих поисков, ошибок, сомнений и колебаний на этом пути, чтобы идущие вслед за ним их не повторили, обеспечило ему достойное место среди великих Учителей человечества» [180].

Единого суфизма не было. Однако все же известные элементы общности есть. (Э. Бертельс). По утверждению Э.Бертельса, эти элементы общности можно обнаружить, когда мы исследуем и психологические основы суфизма и предлагаемые суфиями методы совершенствования. Такой путь называется тарикатом (дорога, путь), куда относят основатели тарикатов – орденов тауба (товба, покаяние), вара (различие дозволенного – халала и запретного – харама), зухд (воздержанность), факир (нищета), сабр (терпение), таваккул (упование на Бога), ридо (покорность). Хакикат завершается достижением хакика, то есть постижение истины, пребывание в «подлинном бытии»[180].

Преодоление этих путей, соблюдения нормы тарикат требуют от личности героического усилия, огромного терпения и самообладания, риска. По нашему мнению, суфии, достигшие совершенства являются не только нравственными идеалами, образцами поведения, но и истинными героями, совершившими духовные подвиги.

Поиск модели совершенной личности – это поиск ответа на вопросы: что есть личность, каково ее место в этом мире, зачем ей дан разум, познание, в чем смысл жизни, зачем ей нравственные идеалы, самосовершенствования? Эти вопросы неоднократно обсуждались в этико-философской литературе, выдвигались разные, даже противоположные концепции, постулаты, но они время от времени, особенно при переходе к новой историко-культурной парадигме, вновь будоражили умы людей, заставляли ученых искать более приемлемые варианты ответов, практических рекомендаций. Одни ученые придерживались мнения, что совершенствование – удел немногих, отважных личностей, другие сомневались в возможности человека найти истину, достижении им совершенствования, третьи, более здравомыслящие, избегали обсуждения вопросов совершенствования, так как эта проблема не для ограниченного ума. Исходя из этих концепций и постулатов, можно сказать, что совершенная личность – это идеал, к чему всегда стремилось человечество.

Американский философ права Рональд Дворкин задается аналогичным вопросом: «Существует ли объективная истина? Или мы должны наконец признать, что… нет никакой «реальной», или «объективной», или «абсолютной», или «основополагающей»… истины о чем-то, и что наши самые глубокие убеждения относительно того, что случилось в прошлом, или из чего сделан универсум, или кто мы есть, или что такое прекрасное, или кто является безнравственным, – суть именно убеждения, именно соглашения, именно идеология, именно знаки силы, именно выбранные нами правила языковых игр, именно продукт нашей неугомонной предрасположенности делать вид, будто мы обнаружили там, в некоем внешнем, объективном, вечном, независимом от сознания мире то, что́ на самом деле мы придумали для себя, исходя из наших инстинктов, воображения и культуры?»[234]. И вообще, «Мы могли бы относиться к морали как к "полезной фикции", предоставляя ей возможность оказывать регулятивное влияние на нашу жизнь и решения, может быть даже играть при этом центральную роль, но в то же время мы не должны совершать теоретической ошибки и принимать на веру ложные утверждения об объективном существовании моральных ценностей» [236]. Однако есть универсальные объективные ценности (свобода, права человека, благоговение перед жизнью, не кради…), героическая защита которых служит подтверждением, что героическое – абсолютная ценность. Если разделять субъективистские трактовки нравственных категорий, то в конечном счете придем к отрицанию значимости моральных норм и ценностей, к аморализму. Нельзя ограничить важность категории героического только регулятивной функцией общественного идеала.

Совершенства можно достичь в каждом деле. Дифференциация профессий происходит благодаря совершенствованию, овладению секретами совершенства. Без совершенства нет дифференциации, дифференциация – это признак совершенствования. Но это еще не показатель совершенной личности. Совершенство в профессии и в деле – одно, а совершенная личность – совсем другое. Личность проявляет свою социальную сущность в работе, в выполнении своих обязанностей. Работа, обязанность еще не сама ее сущность, они лишь одно из ее качеств. Даже духовно-нравственные качества не могут быть абсолютным мерилом совершенства человека, так как они тоже являются лишь его частью, а части никогда адекватно не отражают всю полноту бытия, системы. Ограниченность частей не дает возможности отождествлять отдельные качества с моделью совершенной личности. Где же выход? Как определить совершенную личность без ее социальной деятельности и духовно-нравственных качеств? Разве такое возможно?

Все философы единогласно утверждают, что человек не совершенное существо. Человек не только богоподобен, но в нем есть и дьявольское, порочное и зло. «Трудно быть хорошим», говорил Питтак [226]. Почти то же утверждает через 25 веков Фр.Ницше. Он пишет: «Лучшее средство хорошо начать день состоит в том, чтобы, проснувшись, подумать, нельзя ли хоть одному человеку доставить сегодня радость»[30]. Для Фр. Ницше «человек – стыд и боль»[35], «последний человек» - позор, который должен быть преодолен [35]. Противоречивый, двойственный характер личности отметил и Н.А.Бердяев. Он пишет: «Человек странное существо – двоящееся и двусмысленное, имеющее облик царственный и облик рабский, существо свободное и закованное, сильное и слабое, соединившее в одном бытие величие с ничтожеством, вечное с тленным» [35]. В таком понимании личность вряд ли добьется совершенства, она будет вынуждена жить в мире амбивалентном, флюктуация станет ее образом жизни и образом мысли. Это противоречие, по мнению Фр. Ницше и Н.А. Бердяева, преодолимо. «Бесконечный дух человека, – пишет русский философ, – претендует на абсолютный, сверхприродный антропоцентризм, он сознает себя абсолютным центром не данной замкнутой планетной системы, а всего бытия, всех миров. Человек не только природное существо, но и сверхприродное существо, существо божественного происхождения и божественного предназначения, существо, хотя и живущее в «мире сем», но не от мира сего». Этот абсолютный антропоцентризм, побеждающий дурную бесконечность звездного неба пребывающей в человеке…» [35]. Философы надеются на сверхчеловека. Сверхчеловек – это преодоление человеком всего дурного в себе, рождение нового, совершенного человека. Сверхчеловек – герой, преодолевающий свою ограниченность, двойственность. Сверхчеловека нельзя моделировать, создать его портрет, он космичен, опирающийся на микрокосмос, он преобразователь, пропагандирующий сверхгуманизм, сверхчеловеческое. Ему присущи преодоление своей ограниченности, вечный поиск, самосозидание и самосовершенствование. Его величие состоит в глубокой вере, в божественности и альтруизме.

Изучая стиль работы И.А. Каримова, его жизнь и деятельность, социально-креативные качества люди, знающие его, исследователи, изучавшие его методы руководства, отмечают присущие И.А.Каримову качества: патриотизм, самоотверженность, смелость, харизматичность, оптимизм, приверженность демократическим ценностям, честность, справедливость, дальновидность, терпимость, прагматизм, гуманизм, нравственность и другие [215; 50; 156; 117.].

Эпистимологически-созерцательные качества присущи ученым, философам, поэтам и тем, кто предпочитает посвятить свою жизнь метафизическим размышлениям. Героизм этих личностей состоит в теоретическом анализе и исследовании человеческого бытия, поэтического осмысления действительности и судьбы человека, в создании художественных произведений возвеличивающих героическое в жизни народа и его великих представителей. Изучение художественных и литературных произведений О.Шарафитдинова, И.Гафурова, Х.Дустмухамедова, У.Норматова, А.Расулова, Б.Каримова, М.Махмудова, И.Хаккула, Х.Даврона, Э.Агзама показывают, что эпистимологически-созерцательное творчество узбекской интеллигенции направлено на раскрытие духовной,

художественно-мировоззренческой потенции современного художника, его философско-эстетических взглядов в контексте мировой литературы и культуры. Для них герой нашего времени – это личность, воспитанная духовным опытом своего народа, глубоко почитающая традиции и ценности своих предков, преданная идеям гуманизма и нравственности. Для мыслительно-созерцательной работы необходимы условия, чтобы ученый, философ, поэт смог сконцентрировать свое внимание на проблемы совершенствования социального бытия и личности. Познание и раскрытие законов социального бытия, закономерности человеческих и общественных отношений всегда требовали созерцательную работу. «Проникновение в то, что совершается в порыве озарения, созерцания, составляет основу искусства» [30], писал А.Мицкевич. Леонардо да Винчи писал: «Жалок тот мастер, произведение которого опережает его суждение; тот мастер продвигается к совершенству искусства, произведения которого превзойдены суждением, созерцанием» [30].

Гносеологические опыты Нагарджуны, Ньяя и Шанкары, Аристотеля, Ф.Аквинского, А.Блаженного, Р.Декарта, Ф.Бэкона, Я.Беме, Гельвеция, Фейербаха, Спинозы, И.Канта, Б.Рассела, С.Кьекогора, А.Н.Уайтхеда, Э.Гуссерля дают примеры, достойные называться самоотверженными, научными подвигами. Современные ученые восхищаются этими мыслителями, их научный подвиг достоин подражания.

Экстравертивно-альтруистические качества близки к социально- креативным качествам героя, но они не одно и тоже явление. Альтруизм есть одна из форм проявления социально-креативной деятельности, социально-креативная личность не может себя проявить без самопожертвования, альтруизма. Экстравертивно-альтруистическая личность глубоко осознает, что ее жизнь, поступки, деятельность немыслимы без социума, без взаимодействия с обществом, с другими людьми, экстравертивность для нее является единственной возможностью проявления своей социальной сущности, самоактуализации.

Реформы, проводимые в Узбекистане, требуют действенного участия личности в делах государства и общества, умения брать на себя ответственность, проявлять самоотверженность. Жить и работать для блага народа, людей – это жизненное кредо креативной личности. Экстравертивно-альтруистические качества включают в себя самоотверженность, подвиг, энтузиазм, мобилизации своих сил и возможностей для улучшения жизни людей. Жизнь полна тревог, забот, несовершенства, даже зла и подлости. Деструктивность, девиантные явления встречаются на каждом шагу, плохо то, что они иногда совершаются разумными людьми. Поэтому только экстравертивно настроенные, альтруистические личности, готовы совершать подвиги и могут искоренить все плохое, злое и девиантное.

Жизнедеятельность сотрудников МЧС, органов внутренних дел, военных ведомств и противопожарных учреждений, медиков, по сути, является экстравертивно-альтруистической. Можно вспомнить героизм старшего лейтенанта отдела внутренних дел Кибрайского района Азизжона Турсунова смело вступившего в бой с террористами, старшины Кадыра Рахмонова, сотрудника отдела внутренних дел Шайхнтаурского района, Эркина Саидова и Мухитдина Омонова из ОВД Мирзо Улугбекского района города Ташкента, прикрывших своим телом безвинных людей от нападения преступников, предателей Родины [72].

Труд медика, врача – героический. Они борются за жизнь человека. Больной – беспомощное существо, новорожденный ребенок, – говорит герой Узбекистана, заведующий отделом Наманганского областного роддома М.Темирова, – нуждается в особом уходе. Медики, врачи живут и трудятся ради других, помогая им выздороветь и встать на ноги, чувствуют себя счастливыми. Они совершают благородное дело, жертвуя своим здоровьем, спасают жизнь других.

Значит, экстравертивно-альтруистические мотивы являются непременным условием, атрибутом подвига, поступков героических личностей. Их помыслы и намерения направлены на улучшение жизни других людей, на то, чтобы сделать их жизнь эстетичной, привлекательной и радостной. Служа другим, обществу они служат себе, своей семье.

Заключение. Феноменологические качества – это редкое, необычное, исключительное явление. Его невозможно повторить, скопировать. Исключительность отделяет его от других явлений, качеств. Такие явления встречаются в сфере политики, художественного творчества, науки, трансцендентальном самоискании и самосозерцании. Феноменологической является политическая жизнь И.А. Каримова. Поэтому академик М.Шарифходжаев отмечает, что феномен И.А. Каримова – уникальное явление в истории узбекского народа [215].

Феноменологическими качествами обладают герои Узбекистана Э.Вахидов, А.Арипов и Т. Каипбертанов. Каждое произведение этих художников становится уникальным явлением в культурной жизни узбекского народа. Их читают и экранизируют, о них спорят и пишут статьи, исследования.

Совершенство – уникальное, неповторимое явление. У каждой совершенной личности свои исключительные пути и способы достижения цели. Но у современных героев есть общие черты, достоинство – это служение Родине, народу. «Историческая правда показывает, что только человек, у которого в крови национальная гордость, любовь к Родине и народу способен на великие дела, героизм. Мы должны создать такую духовную среду, чтоб в каждом уголке страны, в облике всех городов и кишлаков, чтобы от гордости за Родину засияли наши глаза, расцвела душа» [72]. Как измерить служение Родины, народу, ведь иногда никем незамеченный, особо не выделяющийся из своего окружения человек становится, признается героем. О нем пишут стихи, книги, сочиняют музыку, создают его портрет, награждают медалями, орденами, почетными званиями. Значит, в поведении героя есть скрытое, неэксцитативное, неосознаваемое. Это не просто столкновение нового и старого, прогрессивного и консервативного, доброго и злого, а проявление загадочности человеческого существа, его не всегда познаваемого внутреннего мира. Не исследуя, не изучая этих особенностей личности героя невозможно определить пути и способы достижения ею совершенства, стремления к ее подвигу и героизму. Подвиг, героизм – лишь один из путей достижения и способов проявления совершенства, но оно ими не ограничивается. Совершенство – противоречивый поиск путей самовыражения, где нет самоактуализации там и нет совершенства. Поэтому самоактуализация есть преодоление этой противоречивости, самовыражение через креативность есть преодоление своей ограниченности, внутренней флюктуации и депривации.

Героизм, подвиг художников – писателей, поэтов, философов не всегда совпадает с героизмом, подвигом сотрудников органов внутренних дел, военнослужащих. Поэтому феномен героизма различается по роду

социальной деятельности личности, профессиональной направленности ее поведения, выполнения ею своего общественного долга.

Выше приведенные примеры и качества позволяют нам представить героя нашего времени как человека высокой духовной нравственности, стремящегося, путем социально-креативной деятельности к совершенствованию, обладающего такими достоинствами, как мужество, самоотверженность, трудолюбие, альтруизм, патриотизм, справедливость, смелость, новаторство, преданность заветам предков и Родине, жизнелюбие и человеколюбие (филантропия).

ЛИТЕРАТУРА

1. Мирзиеев Ш.М. От национального возрождения - к национальному прогрессу. Ташкент, 4 том, 2020.
2. Анастасия Боровикова. Правда Востока. Молодежь – мощная сила, способная на великие дела. 30 июня 2022.
3. Словарь по этике. – М.: Политиздат, 1981.
4. Свердлин М., Рогачев П. Патриотизм и современный прогресс. – М.: Знание, 1985.
5. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. – Москва.: ЭКСМО, 2008.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК: 372.3/.4(075.8)

Elyorbek XOLMIRZAYEV,
Viloyat hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha kotibiyati mudiri
E-mail:xolmirzayev@mail.ruz

TDPU professori, p.f.d B.S.Abdullaeva taqrizi asosida

PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY OF UNORGANIZED YOUTH

Annotation
This article will talk about public youth policy, the conditions being created for young people and the systematic work carried out with them. In particular, attention is paid to the fact that the development of social activity of unorganized youth is an urgent task.
Key words: Youth, youth-related public policy, unorganized youth, social activism, global problem, state, care.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ НЕОРГАНИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация
В этой статье пойдет речь о государственной молодежной политике, условиях, создаваемых для молодежи, и проводимой с ними системной работе. В частности, обращено внимание на то, что развитие социальной активности неорганизованной молодежи является актуальной задачей.
Ключевые слова: Молодежь, государственная политика, связанная с молодежью, неорганизованная молодежь, социальная активность, глобальная проблема, государство, забота.

UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar va ular bilan olib borilayotgan tizimli ishlar haqida so‘z boradi. Ayniqsa, uyushmagan yoshlarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish dolzarb vazifa ekanligiga e’tibor qaratilgan.
Kalit so‘zlar: Yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, uyushmagan yoshlar, ijtimoiy faollik, global muammo, davlat, g‘amxo‘rlik.

Kirish. Jahon miqyosida jamiyat barqarorligini harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi yoshlarning o‘rni, ularning jamiyatda ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalari dalzarb muammolardan hisoblanadi. BMT ning bosh qotibi Antoniu Guterrish “tinchlik, faol iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, bag‘rikenglikni ta’minlash-bularning barchasi va yana juda ko‘p narsalar yoshlarning jamiyatda ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq” ekanini ta’kidlaydi. Yoshlar siyosati va dasturlari haqidagi “Lissabon+21” deklaratsiyasida xamda BMTning 2030 - yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida yoshlar farvonligini ta’minlash, jamiyat hayotidagi ishtiroki va ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish barqaror rivojlanish va dunyoda tinchlikni ta’minlashning o‘ta muhim omillari ekani e’lon qilindi. Jahonda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta’minlash, ular uchun munosib ta’lim va mehnat sharoitlarini yaratish orqali ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari xamda manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohatlar, yoshlarga oid davlat siyosatida erishilgan yutuqlar va ijobiy natijalar bilan birga uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy texnika taraqqiyoti shaxsiy va intellektual salohiyatning rivojlanishi o‘sishi rag‘batlantirilmoqda, bu esa o‘z navbatida yoshlarning dunyoqarashi o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlar muammolarining ustivor ekanligini hisobga olib, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasida bir qator ilg‘or islohatlar amalga oshirilmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari qabul qilingan, yoshlar muammolari bilan shug‘ullanuvchi yangi tuzilmalar tashkil etilmoqda. Prezidentimiz 2017 - yil 30 - iyunda “Kamolot” YOIH ning IV quriltoyida yoshlar bilan uchrashuvida hududlardagi rahbar hodimlarni yoshlar siyosatini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tanqidiy baholab, “Sizlar rahbar bo‘lgan hududlarda yashaydigan yoshlar zerikkanidan nima qilishni bilmasdan, bemaza ishlarga berilishi, bezorilik, jinoyat yo‘liga kirishi, zararli oqimlarga qo‘shilib ketishi mumkinligi nahotki sizlarni bezovta qilmasa! Yoshlar uchun barcha sharoitlarni muhayyo qildik, deb biz kimni aldayapmiz. Shu munosabat bilan barcha katta-kichik rahbarlar qulog‘iga qo‘rg‘oshindek quyib olsin: biz endi sizlarning faoliyatingizga paxta yoki g‘allaga qarab emas, eng avvolo, sizlarning yoshlarga, yoshlarga oid davlat siyosatiga bo‘lgan munosabatingizga qarab baho beramiz” - degan fikrlarini bildirgan edi. Demak, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mahalliy hokimyat tizimi oldiga qo‘ygan dolzarb vazifalar tizimi kengaytirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, 2017 - yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevtashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil qilindi hamda 30 - iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” deb qilindi. Bundan tashqari, O‘zbekiston amaliyotida butunlay yangi tizim, ya’ni yoshlarning turli dolzarb muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan maxsus – Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi. Ushbu muassasaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi qoshida tashkil etilganligi

institutning ilmiy-metodik va tahliliy-tadqiqot faoliyatini zamon talablari asosida shakllantirilishi uchun asos bo‘ldi.

Bugun dunyoda yoshlar misli ko‘rilmagan darajada ko‘pchilikni – 2 milliarddan ziyodni tashkil qilmoqda. Bu insoniyat tarixida yoshlar sonining eng yuqori ko‘rsatkichidir. Jahondagi yoshlarning qariyb 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi va ular aholining salmoqli qismini tashkil etadi. Yoshlar — innovatsiyalar, g‘oya va yechimlarning bitmas-tuganmas manbai. Bugungi kunda yoshlar faolligi har qachongidan ham muhim, zero, ular jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuchdir. Shu bois, aynan yosh avlod zimmasiga yorqin kelajak barpo etish vazifasi ishonib topshirilgan. Xalqaro hamjamiyat har qanday mamlakat taraqqiyotida sog‘lom va barkamol, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlar o‘ta muhim o‘rin tutishini alohida e’tirof etadi. Xususan, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish “tinchlik, faol iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, bag‘rikenglikni ta’minlash — bularning barchasi va yana ko‘p narsalar yoshlar imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog‘liq” ekanini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda birgina yoshlar masalalariga doir BMT doirasida 10 dan ortiq xalqaro hujjat qabul qilindi. BMT Bosh Assambleyasining Jahon yoshlariga tegishli Harakat dasturida (1995 - yil) yoshlar hayotini yaxshilash borasida milliy harakatlar va xalqaro qo‘llab-quvvatlashga oid siyosat asoslari hamda amaliy tavsiyalar belgilandi. Harakat dasturi yoshlar bilan bog‘liq o‘n beshta ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan bo‘lib, ularning har biri amaliy harakatlar bo‘yicha aniq takliflarni o‘z ichiga olgan. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiya davrida maktablar, oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari yopilishi sababli o‘qiyotgan yoki ta’lim olishni ish bilan birga olib borayotgan yoshlarning 70 foizdan ortig‘i ma’naviy va moddiy yo‘qotishlarga duch keldi. Hozirda yoshlar duch keladigan muammolar shu darajada ko‘p qirraliki, ularni ijobiy yechishda davlatlar va xalqaro hamjamiyatdan har tomonlama qat’iy harakatlar talab etilmoqda.

Bugun O‘zbekiston muhim deografik chegarada turibdi. 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qiladi. Buni respublika uchun o‘ziga xos qimmatbaho “demografik dividend”, deb atashimiz mumkin. Keyingi yigirma yil ichida bugungi bolalar va yoshlar O‘zbekiston tarixidagi eng katta ishchi kuchiga aylanadi. Demakki, yoshlarni rivojlantirishga sarmoya to‘g‘ri sarflansa, aynan shu yigit-qizlar O‘zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan avlod bo‘lib shakllanadi. Xalqaro e’tiroflarga ko‘ra, yangi O‘zbekiston yoshlari jamiyatni o‘zgartirishning faol sub’ekti va odernizatsiya jarayonlari uchun muhim manba, shuningdek, iqtisodiy o‘sish, avlodlar arovonligini ta’minlash yo‘lida bebaho inson resursidir. Bugun mamlakatda yoshlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Yoshlik – bu jo‘shqinlik, eng sermahsul ijodkorlik davri. Shu bilan birga, ushbu davrda o‘g‘il va qizlar nisbatan zaif bo‘lib, qo‘llab-quvvatlashga, kattalar diqqat-e’tiboriga muhtoj. Xalqaro miqyosda yoshlar muammolariga e’tibor qaratish zaruratiga ham shu omillar sababdir. Buyuk nemis faylasufi Gyote shunday degan: “Garchi butun dunyo olg‘a harakat qilayotgan bo‘lsa ham, yoshlar bu jarayonni har safar yangidan boshlashi kerak”. BMT doirasida va ushbu tashkilotdan tashqarida ham yoshlar huquqlarini ta’minlash masalasi tobora ko‘proq muhokama markazida bo‘lib kelmoqda va global rivojlanish davrida ushbu masalada bir necha qadam oldinga tashlash taqozo etilmoqda.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi va Prezidentimizning beshta muhim tashabbusi doirasida qator muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Konsepsiyada hal etishga qaratilgan asosiy vazifalar qatoridan jismonan sog‘lom, ma’nan rivojlangan yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarga faol jalb etish masalalari o‘rin olgan.

Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy ko‘rsatkichi ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, eng muhim vazifani hal qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda: bu — yoshlar bandligini ta’minlash, munosib daromad olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. «Yoshlar» tushunchasining mohiyati haqida so‘z borar ekan, shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining 2016 - yil 14 - sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi (qonunining 3-moddasida «Yoshlar (yosh fuqarolar) – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir», deya huquqiy ta’rif berilgan . Demak, yoshlar aholining o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan qatlami bo‘lib, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning hissasi aholining 58,8 foizini tashkil etadi.

«Uyushmagan yoshlar» tushunchasi haqida so‘z borar ekan, ushbu ibora «uyushmagan» va «yoshlar» so‘zlari birikmasidan tashkil topgan. «Uyushmagan» so‘zining o‘zagi «uyushiq» bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida «uyushgan, jipslashgan, ahil», unga ma’nodosh bo‘lgan «uyushma» so‘ziga esa «bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi» mazmunida izoh berilgan. Demak, mantiqan olib qaraganda, «uyushmagan» so‘zi «uyushiq» yoki «uyushma» so‘zlarining aksi, ya’ni antonimi bo‘lib, «jipslashmagan, ahil bo‘lmagan, muayyan bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan» ma’nolarini anglatadi. Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish haqida so‘z yuritishdan oldin, avvalambor, uyushmagan yoshlarning o‘zini, ularning ongi, xulq-atvori, ijtimoiylashuv darajasi, shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega . Uyushmagan yoshlar o‘zining jinoyat sodir etishga moyilligi bilan yoshlarning boshqa qatlamidan ajralib turadi. Umuman olganda, har qanday jinoiy harakat, avvalo, odamning intellektual, emotsional va axloqiy fazilatlari va xislatlarini aks ettirishini inobatga olganda, ilmiy tadqiqotlarda quyidagi shaxslar, xususan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lishi asoslangan yoshlar.

Xorijiy manbalar va ilmiy adabiyotlar taxlili shuni ko‘rsatdiki, «uyushmagan yoshlar» tushunchasiga na huquqiy, na ma’naviy, na ijtimoiy ta’rif berilmaganini ko‘rsatadi. Mazkur tushunchaga avvalom bor huquqiy nuqtai nazardan ta’rif berish, uning ilmiy jihatdan mohiyatini ochib berish uchun, avvalo, uning asosiy xususiyatlarini aniqlab olish talab qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev uyushmagan yoshlar xususida bildirgan fikrlarida ishlamaslik, o‘qimaslik, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmaslik, salbiy ta’sirlarga beriluvchanlik xususiyatlari ularga xosligiga alohida urg‘u bergan bo‘lishiga qaramasdan, «uyushmagan yoshlar» tushunchasiga nisbatan aniq ta’rif ishlab chiqilmagani va mazkur toifa yoshlar bilan ishlashga doir aniq chora-tadbirlarning belgilanmagani ushbu dissertatsiya mavzusining naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Eng asosiysi, dissertatsiya ishimiz Davlat buyurtmasi asosida xamda Prezidentimiz topshiriqlariga “labbay” deb javob berishlik asosida tayyorlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik,

pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; pedagogik kuzatish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma); pedagogik eksperiment; monitoring; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida shu aniq bo‘ldiki, uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishni amalga oshiruvchi sub’ektlar faoliyatining tahlili uyushmagan yoshlarning hisobini yuritishda aniqlik yetishmayotganini, ushbu toifaga kimlar kirishi hamda ular bilan qanday ishlar tashkil etilishi haqida aniq konsepsiya mavjud emasligini ko‘rsatdi. Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning huquqiy jixatlari “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” borasida ichki ishlar organlari tomonidan belgilangan tizimli ishlar kam bo‘lsa xam olib borilayotganligi, lekin eng asosiysi, uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari ochib berilmaganligi taxlil qilindi.

«Uyushmagan yoshlar» – o‘z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, primitiv, nofaol tarzda samarasiz amalga oshirayotgan, hech qayerda o‘qimaydigan, ishlamaydigan yoshlar guruhini anglatadi. Bu toifadagi yoshlar o‘z maqsadini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaydi. Ularda ijtimoiy faollik, huquqiy, siyosiy ong va madaniyat darajasi past bo‘ladi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, uyushmagan yoshlarda ijtimoiy faollik darajasini rivojlantirish dolzarblilik jixatidir. Tadqiqotning maqsadi xam aynan uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faollik darajasini rivojlantirish, huquqiy, siyosiy ongini shakllantirish va madaniyat darajasi yuksaltirish orqali ularni jamiyatga ijtimoiylashuvini pedagogik jixatlari ochib berish va pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Uyushmagan yoshlarga berilgan ta’rifni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning yosh xususiyatlari e’tiborga olinmaganligini ko‘ramiz. Shundan kelib chiqib, uyushmagan yoshlarga mualliflik ta’rifini kiritishni taklif qildik:

«uyushmagan yoshlar – ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan, ishga joylashish, ijtimoiy faolligi past bo‘lgan, ta’lim olish hamda fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokining boshqa shakllarini amalga oshirish bo‘yicha yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmagan 14 yoshga to‘lgan 30 yoshdan oshmagan shaxslar toifasi»dir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, uyushmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlarining muayyan salmog‘ini tashkil etuvchi, o‘zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g‘oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo‘lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik choratadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi // http://www.press-service.uz/uz/lists/view/729 (30.06.2017).
2. Rasulev A.K. Axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik choralarini takomillashtirish: Yurid. fan. b-cha d-ri (DSc) dis. ... avtoref. — T., 2018. — B. 22-23.
3. O‘razaliyev M.Q. Alkogolizm, fohishalik va giyohvandlikning jinoyatchilik bilan aloqadorligi, ularning kriminologik xususiyatlari va oldini olishni takomillashtirish: Doktorlik dis. ... avtoref. — T., 2016. — B. 18,
4. Ganiyev Sh.A. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlikni takomillashtirish: Doktorlik dis. ... avtoref. — T., 2016. — B.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:577.3(075.8)

Yulduzxon XAYITOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Biofizika fani o‘qituvchisi
E-mail: xayitova940@gmail.com

THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF TEACHING THE BIOPHYSICS MODULE IN MEDICINE BASED ON INNOVATIVE APPROACHES AND THE ROLE OF PHYSICS IN THE STAGES OF DEVELOPMENT

Annotation
Motion is the basis of all processes in nature. Therefore, various incidents and events take place subject to natural laws. The main goal of biophysics natural sciences (chemistry, biology, geology, etc.) is to discover and study these laws.
Key words: “Metrology”, “Geodesy” astrophysics, geophysics, radiophysics, electrophysics (electrokinetic potential).

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ МОДУЛЯ БИОФИЗИКИ В МЕДИЦИНЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ И РОЛЬ ФИЗИКИ НА ЭТАПАХ РАЗВИТИЯ

Аннотация
Движение лежит в основе всех процессов в природе. Поэтому различные происшествия и события происходят в соответствии с законами природы. Главной целью биофизики естественных наук (химии, биологии, геологии и др.) является открытие и изучение этих законов.
Ключевые слова: “Метрология”, “Геодезия” астрофизика, геофизика, радиофизика, электрофизика (электрокинетический потенциал).

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TIBBIYOTDA BIOIZIKA MODULINI O‘QITISHNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARIDA FIZIKA FANINIG O‘RNI

Annotatsiya
Tabiatda kechadigan barcha jarayonlarning asosida harakat yotadi. Shunday ekan turli hodisalar va voqealar tabiiy qonuniyatlarga bo‘ysungan holda yuz beradi. Hozirgi zamon biofizikasi darajasiga yetishiga qadar bir qancha fizik taraqqiyotning tarixiy bosqichlarini bosib o‘tishi bilan biofizika tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, geologiya va boshqalar) ning asosiy maqsadi bu qonuniyatlarni ochish va o‘rganishdir.
Kalit so‘zlar: “Metrologiya” “Geodeziya” astrofizika, geofizika, radiofizika, elektrofizika (elektrokinetik potensial).

Innovatsion yondashuvlar asosida tibbiyotda bioizika modulini o‘qitishning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlarida fizika faninig o‘rni asoslab berilgan. Tabiatda kechadigan barcha jarayonlarning asosida harakat yotadi. Shunday ekan turli harakatlar asosida tabiatda kechadigan jarayonlar, hodisalar va voqealar tabiiy qonuniyatlarga bo‘ysungan holda yuz beradi. Barcha tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, geologiya va boshqalar) ning asosiy maqsadi bu qonuniyatlarni ochish va o‘rganishdir. Bioizika tibbiy fanlar orasida alohida fan sifatida rivojlanib, hozirgi zamon biofizikasi darajasiga yetishiga qadar bir qancha fizik taraqqiyotning tarixiy bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu bosqichlarni shartli ravishda to‘rtta asosiy davrlarga bo‘lish mumkin:

1.Qadimgi antik davrdan XVI asrgacha bo‘lgan davr;

2.Fizikaning fan sifatida shakllanish davri (1600 -1700 yil

3.Mumtoz (klassik) fizikaning yaxlit nazariya sifatida shakllanishi

(XVII asr oxiri XX asrning boshi) davri;

4. Hozirgi zamon fizikasi

Antik davr fizikasining asosini ko‘proq Yunon olimlarining tabiat hodisalarini ilmiy ravishda kuzatish va tekshirishlar natijasida yaratgan qonuniyatlar tashkil etadi.

Demokrit tomonidan moddalarning bo‘linmas mayda zarrachalardan tashkil topganligi haqidagi fikrlari (er.av.IV-III asr)ning olg’a surilishi, Arastu (Aristotel) tomonidan (er.av. IV asr) o‘sha davrdagi mexanik hodisalar haqidagi bilimlar majmuasi sifatida “Fizika” asarining yaratilishi, fizikaning fan sifatida boshqa tabiiy fanlardan ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa bu davrda olamning geliotsentrik tizimi to‘g’risidagi fikrlarning paydo bo‘lishi (er.av. III asr), Evklid tomonidan yorug’likning to‘g’ri chiziq bo‘ylab tarqalish qonuniyatining kashf etilishi, Arximed tomonidan statistika asoslari, parallel kuchlarni qo‘shish va richaglar nazariyasining yaratilishi hamda uning nomi bilan bog’liq bo‘lgan jismlarning suzish shartlarini o‘z ichiga olgan gidrostatistika qonunlarining yaratilishi fizika faning taraqqiyotiga, biofizikaning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. O‘rta asrlarga kelib Sharqiy Arab va O‘rta Osiyo mamlakatlarida ilm-fan keskin rivojlana boshladi. Ayniqsa IX-XII asrlardan boshlab fizikaning optika, Statika, gidravlika, mexanika va boshqa sohalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy kuzatishlar va tekshirishlar olib borildi. IX-XVI asrlarda O‘rta Osiyoda Sharq mutafakkirlarining fizikani fanini rivojlantirishdagi hissasi butun dunyo olimlarinim hayratga soldi.

Sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino (980-1037) tibbiyot, al-kimyo, matematika kabi sohalardan tashqari fizikaning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. U harakat, kuch, bo‘shliq kabi falsafiy masalalar bilan shug’ullanish bilan birga yorug’lik to‘g’risidagi fikrlarni ham rivojlantirdi. Jumladan, u inson ko‘zining ko‘rish sabablari haqida atroflicha maolumotlar berdi. Ibn Sinoning Beruniy bilan savol-javoblari moddalarning issiqlik ta’sirida kengayishi, soviganda esa torayishi, Yerning tortish kuchi, yorug’likning sinishi, linzalarning kattalashtirishi va ulardan foydalanish haqidagi fikrlari, fizika sohasida o‘z davriga nisbatan bir necha asr ilgarilab ketganligini ko‘rsatadi. IX-XII asrlarda Abu Nasr Forobiy (980-1051) Arastuning “Metafizika”, “Osmon to‘g’risida”, “Metrologiya” kabi ilmiy ishlariga Batlimus (Ptolemey) va Evklidning matematika va astronomiya

sohasidagi ishlariga sharhlar yozdi va ularning fikrini yanada kengaytirdi.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048)ning ilmiy ishlari esa fizika fanining taraqqiyotida olamshumul tarixiy ahamiyatga ega. U tabiat hodisalari – yomg’ir, shudring, qirovning hosil bo‘lishi, chaqmoq, kamalakning paydo bo‘lish sabablarini, Quyosh nuridan hosil bo‘ladigan shafaq hodisasini, jismlarning Yerga tomon intilishini, Yerning sharsimon shaklida ekanligini ilmiy asosda tahlil qildi. U o‘zining “Tafhim” nomli asarida buloq suvining otilib chiqish sabablarini, dengiz suvining ko‘tarilishi Oyning tortish kuchi ta’sirida ro‘y berishini izohlaydi. Beruniy “Geodeziya” kitobida o‘zi yasagan asboblar yordamida osmon yoritgichlarining holati va harakatini, joylarning kengliklarini aniqlaganligini bayon qiladi. Beruniy o‘z ilmiy izlanishlari bilan amaliy fizika va biofizikaga ham ulkan hissa qo‘shdi. U dunyoda birinchi bo‘lib moddalarni mexanik, yorug’lik va boshqa xossalariga qarab guruhlarga ajratdi. 50 ga yaqin moddaning solishtirma og’irliklarini hozirgi zamon aniqlik darajasida hisoblab chiqardi

XV-XVI asrlarda Italiyalik olimlar Leonardo da Vinchi (1452-1519) va Galileo Galiley (1564-1642) larning astronomiya va matematika sohasidagi ilmiy izlanishlari fizikaning muayyan tamoyillarga asoslangan fan sifatida shakllanishiga o‘lkan zamin yaratdi. Fizikaning fan sifatida shakllanish davri XVII-XVIII asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Iogann Kepler sayyoralarning harakat qonunlarini, Isaak Nyuton (1643-1727) butun olam tortishish qonunini, Ryomer tomonidan yorug’likning qutblanishi va Gyugens tomonidan to‘lqin nazariyalari yaratildi. Mumtoz (klassik) fizika yaxlit nazariya sifatida XVII asr boshidan XX asr boshlariga kelib yaratildi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib ba’zi bir hodisalarni (masalan, mutlaq qora jismning nurlanishi, metallarning issiqlik sig’imi, atomlarning nurlanishi. va boshqalar) mumtoz fizika qonuniyatlari yordamida tushuntirib bo‘lmay qoldi. Maks Plank, Yernst Rezerford, Alpbert Eynshteyn, Nilps Bor va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida fizika o‘zining hozirgi zamon bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi tasavvurlar, mumtoz fizikaning qonuniyatlari, xususiyati biofizik holat sifatida fanni o‘z ichiga oladi.

Jahon tibbiy ta’lim taraqqiyotida biofizika va tibbiyotning rivojlanishi doimiy yangi g’oyalarni tug’ulishiga olip keldi. Hozirgi kunda tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan biofizikaning yangi tarmoqlari: kimyoviy fizika, astrofizika, geofizika, radiofizika, elektrofizika kabi fanlar keskin rivojlanmoqda. Radiofizika va elektrofizikaning rivojlanishi radioastronomiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Yarim o‘tkazgichlarni o‘rganish mikroelektronikaning rivojlanishiga va tibbiyotda kardialogiyaning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Fizika fani o‘zining rivojlanishi bilan biofizika faniga ham chuqur kirib bormoqda. Respublikamiz fizik olimlari ham fizikaning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. O‘zbek fizika maktabining namoyandalaridan S.A.Azimov fizikaning eng “yosh” yo‘nalishlaridan biri o‘ta yuksak energiyalar va kosmik hamda yarim o‘tkazgichlar fizikasi sohasida ilmiy izlanishlar olib bordi. Uning rahbarligida 1987-yilda “Quyosh” ilmiy ishlab chiqarish kompleksi qurildi. Akademik S.U. Umarov (1908-1964) ning kinetika, statistik fizika sohasidagi izlanishlari, P.Q.Habibullaevning issiqlik fizikasi sohasidagi ishlari, A.Q.Otaxo‘jaev, S.V.Starodubuev (1914-1967) M.S. Saidov, U.O.Orifov (1909-1976) kabi o‘zbek olimlarining molekulyar fizika, fizikaviy elektronika, kosmik nurlar fizikasi, yarim o‘tkazgichlar fizikasi, geliotexnika, paxta fizikasi kabi sohalardagi ilmiy izlanishlari respublikamizda fizika fanining rivojlanishiga qo‘shgan o‘lkan hissalaridir. Fizika fani sohasidagi ilmiy izlanishlar yadro fizikasi instituti, issiqliklar fizikasi instituti, fizika – texnika instituti “Quyosh” ilmiy ishlab chiqarish kompleksi hamda respublikamizdagi barcha universitetlar va oliygohlarda yetakchi fizik olimlar rahbarligida olib borilmoqda. O‘zbek olimlarining tashabbusi bilan respublikamizda bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari, ilmiy ishlab chiqarish komplekslari qurildi va faoliyat ko‘rsatmoqda.

Biz tabiatda kechadigan jarayonlarni o‘rganish davomida shunday atamalardan foydalanamizki, bu atamalarni faqat ta’riflar yordamida izohlash bilan bir qatorda ular son qiymatlariga ham ega bo‘ladilar. Ta’riflar yordamida izohlanishdan tashqari son qiymatlari bilan ifodalanadigan atamalarga fizikaviy kattaliklar deyiladi. Masalan, yo‘l, tezlik, tezlanish, kuch, mexanik ish, quvvat va hokazo atamalar fizikaviy kattaliklardir. Fizika fanida uchraydigan barcha kattaliklar Xalqaro Birliklar Tizimi (XBT) Statistikasida qabul qilingan 7 ta asosiy va 2 ta qo‘shimcha kattaliklar yordamida ifodalanadi 1-jadval.

Asosiy va qo‘shimcha fizikaviy kattaliklar va ularning XBT dagi birligi.

№	Kattalikning nomi	Belgisi	Birligi
Asosiy kattaliklar			
1.	Uzunlik	L	metr (m)
2.	Vaqt	t	sekund (s)
3.	Massa	m	kilogramm (kg)
4.	Modda miqdori	M	molp (molp)
5.	Termodinamik harorat	T	Kelpvin (K)
6.	Tok kuchi	I	Amper (A)
7.	Yorug’lik kuchi	J	kandela (kd)
Qo‘shimcha kattaliklar			
1.	Yassi burchak	a, b, g, …	radian (rad)
2.	Fazoviy burchak	ω (omega)	steradian (sr)

Yuqori mustahkamlik chegarasi ega bo‘lgan jismlar elastik jismlardir (metallar). Mo‘rt jismlarning (cho‘yan, shisha, muz) elastiklik chegarasi kichik bo‘ladi. Jismning mexanik xossalari temperaturaga bog‘liq. Temperatura ortishi bilan jismning plastikligi ortadi, temperatura kamayishi bilan mo‘rtligi oshadi. Organizm to‘qimalarining mexanik xossalari ularning innovatsion tuzilishiga bog‘liq. Suyakning biriktiruvchi asosidagi to‘qima suyakka elastiklik bersa, undagi fosfor va kalsiyning asosga shimiluvchi tuzlari – qattiq va puxta qiladi. Suyak tuzilishini shakllanishi tashqaridan qo‘yiladigan yukka moslashgan bo‘ladi.

Yumshoq to‘qimalar asosan oqsil polimerlardan tuzilgan bo‘lib, yuqori elastikligi va yopishqoqligi bilan farq qiladi. Bu xususiyat deformatsiyaning oshishiga olib keladi. Bunday jismlar elastomerlar deyiladi, ular Guk qonuniga bo‘ysinmaydi. Fizik va biofizik qonularni tahlil etishda asosan pedagogik- metodik yondashuvlarga e’tibor qaratiladi.

Pedagogikada izchillik, uzluksiz ta’lim tizimidagi shaxsni rivojlanishining metodologik qonunchiligi asosida uzluksiz ta’lim tizimidagi pedagogik jarayon xizmat qiladigan, umumiypedagogik tamoyil, boshq didaktik tamoyillar asosida talabalarga tibbiy ta’limda bilim olishga, fanlarning izchilligini qabul qilishga olib keladigan pedagogik-metodik tamoyil sifatida qabul qilinadi.

Tibbiy ta’lim taraqqiyotini ilmiy bilish, zamonaviy innnovatsion ta’lim texnologiyalari asosida axborot mediata’lim dunyosida ma’lum bir yuksaklikka erishgan davrda, insoniyatning ilmiy bilishi borliq, olam haqida ma’lum bir miqdordagi bilimlarni hosil qilish natijasida vujudga keladi. Ilmiy izlanishlar olib borishimizda ob’ektni o‘rganishga kirish jarayonida, o‘rganilayiotgan fan yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo‘lib qolmasligimiz, buning uchun shu fanni yoki hodisa ustida ma’lum bir vaqt uzluksiz har xil usullar, yo‘llar va vositalardan ya’ni ilmiy bilish metodlaridan foydalanishimiz lozim. Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi tadqiqotchiga o‘rganayotgan fan yoki hodisa haqidagi, uning mohiyatini ifodalaydiganqonunva qonuniyatlarniochishga yordam beradi va natijada tadqiqot ishlarining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Didaktik tadqiqotlarning metodologik jihatlariga e’tibor berish natijasida, izchillik tamoyili alohida didaktik tamoyil maqomini oldi. Ushbu tamoyil Jan Jak Russo tomonidan ilmiy asoslangan.

Izchillik – rivojlanish jarayonidagi hodisalarning o‘zaro bog‘lanishidir. U inkorni-inkor, miqdor o‘zgarishlarini sifat o‘zgarishlariga o‘tishiga tegishli dialektika qonunlarining alohida namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Tabiatda, jamiyatda va bilishda har doim namoyon bo‘lishi bilan u ob’ektiv hamda umumiy ma’noga ega bo‘ladi. Ushbu tamoyilning asosiy ma’nosi, har qanday yangi narsa eskining asosida paydo bo‘lishini, jamiyatning o‘zgarishiga yarasha eskini butunlay yaroqsiz qilishdan chetga chiqib, yaroqlisi saqlanib qoladi. Shuning uchun, izchillik dialektik o‘zgarishni, rivojlanishning asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotlarning barcha usullari miqdoriy natijalarga erishishi lozim. Faqat shundagina tirik sistemaning fizikaviy ko‘rsatkichlari, o‘zgarishlarining miqdoriy bog‘lanishlarini topish mumkin. Shuning uchun biofizika tadqiqotlarning matematik usullari, fizik va matematik modellashtirish, shuningdek, turli texnik moslamalarni qo‘llaydi. Shunday ekan, biofizika, biologiya, biokimyo fanlari tibbiyotda juda muhim ahamiyat kasb etadigan fanlar sirasiga kiradi hamda tibbiyotni yuksaltirishga zamin yaratadi.

Biofizika fizik va fizik-kimyoviy jarayonlarni, biologik tizimlar ultratuzilmasini tashkil qilishning hamma sohalarini submolekular va molekulalardan to to‘qima va to‘liq organizmgacha o‘rganadigan fandir (Y.Hayitova).

Demak, tirik organizmda sodir bo‘ladigan turli jarayonlarning murakkabligiga va o‘zaro bog‘liqligiga qaramasdan, ular ichidagi fizik jarayonlarni ajratib ko‘rsatish mexanizmi. Masalan, qon aylanishi bu jarayon suyuqlikning oqimi (gidrodinamika), tomirlar bo‘ylab elastik to‘lqinlarning tarqalishi (akustika), yurakning ishi va quvvati (mexanika), biopotensiallar generatsiyasi (elektr), nafas olishda gaz harakati (aerodinamika), issiqlik uzatish (termodinamika), va hokazo bo‘limlarda o‘rganiladi. Tirik organizmda fizik mikrojarayonlardan tashqari molekular jarayonlar ham sodir bo‘ladi va ular biologik tizimlarning holatini belgilaydi. Ichki jarayonlarning fizikasini tushunish organizm holati, ba’zi bir kasalliklarning tabiatini anglash, dorilarning ta ’sirini va shu kabilarni to ‘g‘ri baholash uchun zarurdir. Tibbiyotda turli davolash usullari ichida davolashning fizik omillari ham alohida o‘rin egallaydi. Masalan, suyak singanda gipslash, davolash maqsadida sovitish (krioterapiya), isitish yoki elektr yordamida isitish usullari, ultrabinafsha, infraqizil, rentgen, gamma nurlar davolashda keng qo‘llanilmoqda. Tibbiyotda ishlatilayotgan materiallar fizik xossalarini o‘rganish ham muhimdir, chunki bunday materiallar mavjud sharoitda ishlatilishini baholash uchun ular tayyorlangan materiallar biofizik xossalarini o‘rganish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Bazarbayev M.I, Mullajonov I. va boshq. Biofizika, Darslik. Toshkent. 2018
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika, Darslik. Toshkent, 2005 y.
3. Ремизов А.Н. Медицинская и биологическая физика, Учебник.2016 г.
4. Антонов В.Ф. Биофизика, Учебник. Москва. 2006г.
5. Хитун В.А. и др. Практикум по физике для медицинских вузов. М. Высшая школа, 1972 г.
6. Internet saytlari
7. http://www.physexperiment.narod.ru/physics.htm
8. http://www.medbiophys.ru/
9. http://biophysics.spbstu.ru/useful_links

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

O‘DK: 99(727.1)

Sayyora HAYTBAYEVA,
Toshkent shahar Chilonzor tumani 178-IDUM biologiya fani o‘qituvchisi
E-mail: sayyora.haytbaeva@icloud.com

TDPU dotsenti v/b., p.f.f.d. (PhD) D.N.Abdullayeva taqrizi asosida

CREATION OF ELECTRONIC INFORMATION EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPLEMENTATION OF COMPETENT APPROACH TO BIOLOGY EDUCATION AND OPTIMIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

The principles of socio-economic development of our country, which is on the path of independent development, require to further increase our spiritual potential and economic power, to take a worthy place among the developed countries of the world, and to reconstruct them in a way that meets the requirements of scientific and technical development of the 21st century. For this, it is necessary to further develop the free and independent thinking skills of our youth, to increase their educational potential in accordance with world standards, and to create conditions for them to become professionals who will diligently serve our people in the future. This article presents opinions on improving the content of biology education in secondary schools based on competence approaches and the importance of electronic information educational resources in developing the level of competence of students. Also, today's existing problems of informatization of biology education, pedagogical and psychological requirements for the creation of EATR in science are highlighted.

Key words: Educational system, competency-based approaches, development of students' competence, informatization of education, biology education, electronic information and educational resources, innovative technologies, informatization tools.

СОЗДАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА К БИОЛОГИЧЕСКОМУ ОБРАЗОВАНИЮ И ОПТИМИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

Принципы социально-экономического развития нашей страны, находящейся на пути самостоятельного развития, требуют дальнейшего наращивания нашего духовного потенциала и экономической мощи, чтобы занять достойное место среди развитых стран мира, перестроить их в путь, отвечающий требованиям научно-технического развития 21 века. Для этого необходимо и дальше развивать свободное и самостоятельное мышление нашей молодежи, повышать ее образовательный потенциал всоответствии с мировыми стандартами, создавать условия для того, чтобы они стали профессионалами, которые в будущем будут усердно служить нашему народу. В данной статье представлены взгляды на совершенствование содержания биологического образования в общеобразовательной школе на основе компетентностных подходов и значение электронных информационных образовательных ресурсов в развитии уровня компетентности учащихся. Также освещены существующие на сегодняшний день проблемы информатизации биологического образования, педагогические и психологические требования к созданию ЭАТРО в науке.

Ключевые слова: Образовательная система, компетентностные подходы, развитие компетентности обучающихся, информатизация образования, биологическое образование, электронные информационно-образовательные ресурсы, инновационные технологии, средства информатизации.

BIOLOGIYA TA’LIMIGA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUVNI JORIY ETISH VA TA’LIM JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISHDA ELEKTRON AXBOROT TA’LIM RESURSLARINI YARATISH

Annotatsiya

Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin olish uchun ma’naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularning bilim salohiyatlarini jahon andazalariga mos ravishda oshirish hamda kelajakda xalqimizga astoyidil xizmat qiladigan kasb egasi bo‘lib yetishishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Ushbu maqolada umumta’lim maktablari biologiya ta’limi mazmunini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o‘quvchilarning kompetentlik darajasini rivojlantirishda elektron axborot ta’lim resurslarining ahamiyati bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda biologiya ta’limini axborotlashtirish bo‘yicha mavjud muammolar, fan bo‘yicha EATRni yaratishga qo‘yiladigan pedagogik, psixologik talablar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, kompetensiyaviy yondashuvlar, o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish, ta’limni axborotlashtirish, biologiya ta’limi, elektron axborot ta’lim resurslari, innovatsiyaon texnologiyalar, axborotlashtirish vositalari.

Kirish. Bugungi zamon ta’lim tizimini jahon miqyosida barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030 - yilgacha belgilangan yangi ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu konseptual yondashuv doirasida, umumta’lim muassasalarida biologiya ta’limida innovatsion texnologiyalar hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga o‘quvchilarning kasb

mahorati va o‘quv faoliyatlarini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini muntazam yuksaltirish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda xalqaro miqyosda biologiya ta’limining sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning kompetentlik darajasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va axborot texnologiyalarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablariga moslashtirish va yuqori samaradorlikka erishish maqsadida bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [2] ning Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan yo‘nalishida “Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish” vazifasi alohida belgilab berilgan.

Shuningdek, Xalq ta’limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; o‘qitish usullarini takomillashtirish, o‘qituvchilar hamda maktab ma’muriyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari bilan ta’minlash; ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish” [1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli Qarorida [3] “Elektron o‘qitish bazasini yaratish, ta’lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish; umumta’lim maktablarining barcha o‘quvchilarini kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga keng ko‘lamda o‘qitishni ta’minlash” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan. Mazkur qarorda belgilab qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun zamonaviy texnika vositalariga asoslangan holda kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tadbiq etish davr talabiga aylangan.

Biologiya darslarida elektron axborot ta’lim resurslarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish asosida ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilar kompetentlik darajasini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Pedagog-olim M.H.Lutfillayevning ta’kidlashicha elektron axborot ta’lim resurslari (EATR) keng ma’noda ob’ekt, jarayon, hodisalar to‘g‘risida ma’lumotlarni olish, to‘plash, qayta ishlash, uzatish vositalari va usullarining kombinatsiyasidan foydalanadigan jarayonni anglatadi. Bunda ta’lim oluvchiga vizual axborotli ma’lumotlarni qiziqarli ravishda taqdim etishga keng imkoniyatlar yaratadi [4].

H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonovlarning fikriga ko‘ra, axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo‘lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati, shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallganligi sababli, ularni ta’lim tizimiga yanada kengroq joriy etish usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjud [5].

E.B.Novikovaning fikricha, biologiya darslarida ta’lim oluvchilarni “Darsni qo‘llab-quvvatlash” dasturini mustaqil tayyorlash, mavjud elektron qo‘llanmalar ssenariysini o‘zgartirish va to‘ldirish, pedagogik amaliyotga tegishli bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlashga yo‘naltirib borish lozim [6].

L.M.Qaraxonovaning “Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” nomli dissertatsiyasida 7-sinf o‘quvchilarini darsda va darsdan tashqari o‘quv faoliyatida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish metodikasi keltirilgan va o‘qitish samaradorligi o‘rtacha 12% ga oshganligi isbotlangan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim jarayonlarida elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanishga oid tadqiqotlar Rossiya davlat boshqaruv akademiyasida o‘tkazilgan bo‘lib, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quv-ma’lumotlarini vizual shaklda taqdim etish o‘quvchilarning bilim darajasi 10-20% ga, o‘quv sifati 15-20% ga oshirganligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, sust o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar o‘qish sifatining yuqori o‘sishi kuzatilgan. Bunga har bir o‘quvchi uchun eng maqbul bo‘lgan individual o‘quv yo‘llarini tanlash imkoniyati yordam bergan, bu esa yaxshi va sust o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarni tayyorlash darajasi o‘rtasidagi tafovutning sezilarli darajada pasayishini ta’minlagan.

Kompetensiyaviy yondoshuv asosida biologiya fanini o‘qitishda va o‘quvchilarning kompetentligini rivojlantirishda elektron ta’lim vositalaridan foydalanish an’anaviy usullarga nisbatan yuqori natijadorlikka ega bo‘lsada, uning didaktik imkoniyatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi sir emas. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan ta’lim jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish bo‘yicha bir qancha muammolar mavjud ekanligi aniqlangan bo‘lib, bular quyidagilar:

1. Texnik muammolar. Bu ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishga oid qo‘yiladigan talablarni, ularni amalda qo‘llash xususiyatlarini takomillashtirishni talab etadi;

2. Dasturiy ta’minot muammolari. Bu ta’lim jarayonida foydalanish uchun pedagogik dasturiy vositalarning tarkib va turlarini, ularning qo‘llashga oid xususiyatlarini takomillashtirishni anglatadi;

3. Tayyorgarlik muammolari. Bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyati va malakasi bilan bog‘liqdir.

Demak, elektron axborot ta’lim resurslari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo‘lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, elektron axborot ta’lim resurslari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallganligi sababli, ularni ta’lim tizimiga yanada kengroq joriy etish usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjud.

Manbalar va metodlar. Umumta’lim maktablari biologiya ta’limiga zamonaviy yondashuvli tub islohotlar joriy etilayotgan ayni paytda o‘quv predmetining o‘quvchi tomonidan samarali o‘zlashtirilishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy innovatsiyalar, interfaol o‘qitish vositalar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanish, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va albatta, o‘quvchilarning intellektual salohiyat darajasiga chambarchas bog‘liq masalalardan biri hisoblanadi.

Biologiya darslarida o‘quvchilarning kompetentlik darajasini elektron axborot ta’lim vositalari asosida rivojlantirish uchun fan yuzasidan zamonaviy elektron ta’lim resurslarini yaratish zarur bo‘ladi. Buning uchun esa yaratishning quyidagi pedagogik va psixologik talablariga amal qilish lozim [9]:

1.Elektron ta’lim resurslarini taqdim etish nafaqat og‘zaki-mantiqiy, balki hissiy-idrok va kognitiv jarayonning vakillik darajalariga ham mos kelishi talab etiladi. O‘qitishni

axborotlashtirish vositalari quyidagi kognitiv aqliy jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi kerak:

idrok etishga (eshitish, sezish) asoslangan;

diqqat (uning barqarorligi, o‘zgaruvchanligi, e’tiborning taqsimlanishi va hajmi);

nazariy va amaliy fikrlash;

xotira (lahzali, qisqa muddatli, tezkor, uzoq muddatli ma’lumotlarni taqdim etish);

xayol.

2. Elektron ta’lim resurslarining mazmuni ma’lum yoshdagi kontingentning tezkor va lingvistik tarkibiga, o‘quvchilarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga yo‘naltirilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ta’limni axborotlashtirish vositalari o‘quvchilarning bilim tizimi va uning til uslublarini hisobga olgan holda yaratilishi lozim. O‘quv materialining taqdimoti tinglovchilarning ma’lum yoshiga qarab aniq bo‘lishi, ammo bu juda oddiy bo‘lmasligi lozim. Chunki, e’tiborning pasayishiga olib kelishi mumkin.

3. Elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarning tasviriy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi.

Shuningdek, ma’lumot darajasiga qarab, axborotlashtirish vositalariga bo‘lgan aniq talablar oliy kasb-hunar ta’limi, yoshlar va kattalar uchun qo‘shimcha ta’lim hamda imkoniyati cheklangan o‘quvchi-yoshlarni o‘qitishning axborotlashtirish xususiyatlariga asoslanib, belgilanadi.

Yuqorilardagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, umumta’lim maktablari biologiya ta’limini axborotlashtirish uchun yaratilgan elektron axborot ta’lim resurslari quyidagi bir nechta talablarga javob berishi kerak:

1. Tegishli axborotlashtirish vositalarining mazmuni va ishlash usullari umumta’lim maktablarining ta’lim standartlari talablariga mos bo‘lishi.

2. Elektron ta’lim resurslarning muammoli va tadqiqot vazifalari, intellektual o‘quv quyi tizimlaridan foydalanish imkoniyati.

3. Elektron ta’lim resurslarni tegishli ma’lumotlarni qidirish, to‘plash, saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish kabi ta’lim faoliyatining avtomatlashtirilishini o‘z ichiga olishi.

4. Nazorat vazifalarini bajarishda ma’lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish.

5. Murakkab ob’ektlarning ishlashini taqlid qilish va modellashtirish vositalari, turli hodisalar va jarayonlarning real, tezlashtirilgan yoki sekinlashgan vaqt shkalalarida bo‘lishi.

6. Elektron ta’lim resurslarining o‘quv qurollari o‘quvchini kelajakdagi virtual muhitda keyingi o‘quv faoliyatiga tayyorlashi.

7. O‘rganilayotgan ob’ektlar yoki jarayonlarning o‘zgaruvchan qiymatlarini, ularning xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini namoyish etish.

O‘quvchilarning axborot savodxonligini oshirish, ularda ijodiy va izlanuvchanlik faoliyati o‘sishi hamda yuqori darajadagi kompetentlikka ega bo‘lishlari uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz. O‘quvchilarning biologik kompetentligini oshirishda zamonaviy elektron ta’lim vositalarini ta’lim texnologiyalariga integratsiyalash asosida tashkil etilsa, ushbu fanda o‘quvchilarning komptentligini oshirish uchun muhim o‘qitish metodikasiga erishish mumkin bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayni paytda, ta’limda bilim, ko‘nikma va malakalar paradigmalaridan, kompetensiyaviy paradigmasiga o‘tish belgilab qo‘yilmoqda [8]. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, asosiy qadriyatlar yo‘nalishiga aniqlik kiritishga yordam beradi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy komponentasi maktab o‘quvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatini tashkillashtirishdir. Uning asosida “ong va faoliyat tamoyili, ya’ni, ta’limda kompetensiyaviy yondashuv” amalga oshiriladi. Bu borada, N.Sh.Turdiev, Y.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.Sh.Temirovlarning fikriga ko‘ra, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi [9].

Biologiya ta’limida kompetensiyaviy yondashuv umumta’lim maktablarining ta’limini amaliy xarakterini kuchayishini taqozo etadi. Bunda o‘qituvchining pozitsiyasi ham o‘zgaradi. U darslik bilan birgalikda o‘quvchiga berilishi lozim bo‘lgan “ob’ektiv bilimlar” manbai bo‘lib qolmaydi. Uning bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil ravishda bilimlarni olishga o‘rganishni, tashabbus ko‘rsatishni, qarorlar qabul qilishni, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etishi kabi malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim. Bu borada, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, biologiya darslarida kompetentlikka yo‘naltirilgan hamda elektron ta’lim resurslari vositasida ishlab chiqilgan topshiriqlarni o‘quvchilar tomonidan bajarish orqali ularda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlaydilar va o‘zaro kommunikatsiyaga kirishadilar, zaruriy axborotlarni qidiradilar, ulardan zarurlarini ajratib oladilar. Mazkur jarayon o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy faol bo‘lishni hamda biologik savodxonliklarini namoyon qiladilar.

Xulosa va takliflar. R.Ishmuhamedov A.Abduqodirov, A.Pardaevlarning ta’kidlashicha, ta’lim muassasasi o‘qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo‘lishi kerak va u har doim: “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?” degan savollarga javob topishi, ta’lim-tarbiya xususiyatlari e’tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerak [10].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda axborotlarning hajmi oshishi hamda globallashuv jarayonlari kuchaygan bir davrda o‘quvchilarning biologik kompetentligini rivojlantirishda elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanish davr talabidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 29 - apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5712-conli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09/19/161/2600-son 25.02.2019 y.
4. Lutfillayev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2007. – 246 b.
5. Omonov H.T., Xo‘jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat // Darslik. – Toshkent, 2012. – 199 b.

6. Novikova E.B. Organizatsiya samostoyatelnoy raboti studentov na osnove distansionnogo obucheniya i metoda proektov. Diss.avtoref. k.p.n., Moskva–2009, − 23 s.
7. Qaraxonova L.M. Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7-sinf misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 46 b.
8. Obrubova A. V. Formirovanie strukturno-funksionalnoy modeli elektronno-obrazovatelnogo resursa po iskusstvoznaniyu v usloviyax vuzovskoy podgotovki pedagoga-xudojnika // Diss. ... na soisk. uchen. step, kand. ped. nauk. – Sankt-Peterburg, 2015. – 239 s.
9. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, 2015. – 160 b.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste’dod – 2008. 87 bet.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.3/.4(075.8)

Abdulhakim HAKIMOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail:hakimov@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.S.Abdullaeva taqrizi asosida

INTEGRATIVE EDUCATIONAL METHODOLOGY IN IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING BIOPHYSICS ON THE BASIS OF A CREATIVE APPROACH

Annotation

On a global scale, mechanisms for the effective use of educational technologies on the basis of a creative approach are being introduced in various areas of the development of society, special attention is paid to the widespread use of integrative educational methods in the development of the creativity abilities of students of higher educational institutions in the context of informatization of Education. The article reflects on these issues.

Key words: Creative approach, student,biophysics, Integrative Learning techniques, creative potential, cognition, efficiency.

ИНТЕГРАТИВНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОФИЗИКИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В глобальном масштабе механизмы эффективного использования образовательных технологий на основе творческого подхода внедряются в различных сферах развития общества, особое внимание уделяется широкому использованию интегративных образовательных методов в развитии творческих способностей студентов высших учебных заведений в контексте информатизации образования. В статье рассматриваются эти вопросы.

Ключевые слова: Творческий подход, студент, биофизика, интегративные методы обучения, творческий потенциал, когнитивные способности, эффективность.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BIOFIZIKA FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV TA’LIM METODIKASI

Annotatsiya

Jahon miqyosida jamiyat rivojining turli sohalarida kreativ yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlari joriy etilmoqda, ta’limni axborotlashtirish sharoitida Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta’lim metodlari keng qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqolada ana shu masalalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kreativ yondashuv, talaba, biofizika,integrative ta’lim metodlari, kreativ potensial, bilish, samaradorlik.

Kirish. Jahon ta’lim muhitida fanlararo integratsiya sharoitida oliy ta’lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida biofizika o‘qitishni takomillashtirish mexanizmlari tatbiq etilgan. Iqtisodiy xamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) “Ta’lim va ko‘nikmalar kelajagi – 2030” loyihasi homiyligida 2030-yilgacha ta’limni dinamik yuksaltirish borasida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Oliy ta’lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida biofizika o‘qitishni takomillashtirish, fanlararo integrativ yondashuv mexanizmlarini rivojlantirish, talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kreativ va kompetentli mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash orqali ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida biofizika ta’limini rivojlantirish, biofizika o‘qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan keng foydalanish, xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, takomillashtirish, biofizikani o‘qitishga integrativ yondashish, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’limga innovatsion axborot texnologiyasini joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga talabalarning biofizikani o‘rganishga nisbatan kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish, biofizika o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, o‘qitishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitish texnologiyasini rivojlanishi bilan bog‘liq holda mashg‘ulotlarni tashkil etishning yangi shakllarini tatbiq etish, ta’lim sifati va samaradorligini va ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashning me’yoriy asoslari yaratildi. Uzluksiz ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlash, fanlararo integratsiya asosida fanlarni chuqurlashtirilgan holda o‘qitish, nazariya bilan amaliyotni uyg‘un olib borish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmini yaratish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarida biofizikani kreativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 5 - iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda ishtirokini ta’minlash” bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3775-son qarorlarida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar ijrosi xam aynan talabalarimizning dunyoda ro‘y berayotgan voqea hodisalarga

kreativ fikrlash, kreativ g‘oya va kreativ yangiliklar yaratadaigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu nuqtai nazardan, maqolada biofizika fanida fanlar integratsiyasidan foydalanib, quyosh fotoenergetikasiga doir fundamental tushunchalarni o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslariga doir tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari bayon etiladi. Biofizika fanida zamonaviy fan-ta’lim, ishlab chiqarish uzviyligi asosida tabiiy va sun’iy energiya manbalari va ulardan tibbiyotda foydalanish mazmunidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda integrativ o‘quv materiallarini tanlash mezon va tizimlari ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Bunda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan (fanlararo bog‘lanish asosida) foydalanib o‘qitish katta imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi va tabiiy va sun’iy energiya manbalari mazmunidagi nazariy va amaliy bilimlarni integrativ metodlardan foydalanib o‘qitishga doir metodik tavsiya va ko‘rsatmalar ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. Pedagogik eksperimentlar quyidagi tajriba-sinov ishlarida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat tibbiyot institutida davolash fakulteti talabalari ishtirokida olib borildi. Tajriba- sinov ishlarini tashkil etishda tajriba va sinov guruxlari sifatida 102 “A”-guruh talabalari, xususan, tajriba guruhi sifatida 102 “A” (16 nafar talaba), sinov guruhi 102 “V” (15 nafar talaba) tanlab olindi. Ma’lumki, Davolash yo‘nalishi fan dasturida «Jismlarning issiqlik nurlanishi. Issiqlik nurlanish qonunlari. Organizm issiqlik nurlanishi. Termografiya xaqida tushuncha» nomli modul keltirilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar tabalarda quyosh energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirishning fizikaviy jarayonlarini to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Shuning uchun tajriba-sinov ishlarida talabalarda quyosh nurlanish energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirishning fizikaviy asoslariga doir zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsad qilib olindi. O‘qituvchi o‘z pedagogik mahoratini ishga solgan holda, talabalarga quyosh energetikasiga doir nisbatan to‘liqroq yetkazish imkoniyatlarini izlab topishda birinchi navbatda talabalarning psixologik-ruhiy holatlari, qiziqtirish imkoniyatlari, kreativlik, ya’ni nostandart ilmiy-ijodiy qobiliyatlari darajalarini belgilab olishi kerak. Bu masalalarning imkon qadar yechimini topish uchun tadqiqot ishini tashkil etishda mavzuga doir ishlab chiqilgan test savollari va maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnomalar bir vaqtda ularning fikrlash qobiliyati, bilimi va darsni o‘zlashtirish darajalari turlichadir. Bu esa talabada ma’lum bir qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ya’ni mavzuga tegishli ma’-lumotlarni talabalarga yetkazishda murakkab vaziyatlar vujudga keladi. Bunda o‘qitishning yangi metod va usullaridan foydalanish zaruriyati paydo bo‘ladi. Bu vaziyatda biz integrativ ta’lim metodtdan foydalanamiz. O‘qitishning yangi metod va usullarini tanlashda guruh talabarining ma’lumotlarni o‘zlashtira olish qobiliyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabalarda mavzuga doir ma’lumotlarga qiziqtirish, o‘rganish ishtiyoqini uyg‘otishda ularning kreativlik qobiliyatlari, psixologik, ya’ni ma’lumotlarni nisbatan aniq va qulayroq qabul qilish psixologik holatiga ham e’tibor berish talab etiladi. Issiqlik energiya manbalariga doir fundamental tushunchalar, ayniqsa issiqlikdan nurlanish qonunlari asosida issiqlik energiyasi hosil qilish prinsiplarini talabalarga tushuntirish nihoyatda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya’ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so‘ng darsda ko‘rgazmali organayzerlar, ko‘rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Har qanday hodisa va jarayon o‘rganilganda fanlarning tadqiqot usul va metodlaridan foydalanib, hodisa yoki jarayonning ro‘y berishi baholanadi. Bunda qonun yoki qonu niyatlarning o‘rinli ekanligini tushuntirishning asosiy jihatlaridan biri natijalarni umumlashtirib, aniq va to‘g‘ri xulosaga erishishdir. Bunday natijaga erishishda fanlararo bog‘lanish, ya’ni integrativ ta’lim metodidan foydalanish asosiy amaliy ahamiyatga egadir. Biofizika fanida ham fanlar integratsiyasidan foydalanib, quyosh energiyasi va issiqlikdan nurlanish energiya manbalari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini o‘rga- nishda ham yuqori natijalarga erishish mumkinligi amaliyotda juda ko‘p isbotini topdi. Integrativ metodlardan fizika o‘qitish jarayonlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishda ayrim kamchiliklar paydo bo‘ladi. Fanlararo bog‘lanishda ham uzviylikni ta’minlash, bilimlarning bir-birini to‘ldirishi, tasdiqlashi, umumiy tushunchalar hodisa yoki jarayonni har tomonlama anglash, bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘quvchilarda yetarlicha hosil bo‘lishini ta’minlashda kreativ yondashuv asosida o‘qitish samarali hisoblanadi. Fanlararo bog‘lanishda o‘quvchilarning psixologik-ruhiy holatlari, qiziqishlarini hisobga olib, fizik jarayonlar va ularning ro‘y berish qouniyatlarini nisbatan sodda va tushunarli holatda bayon qilish imkoniyatlari mavjuddir. Buni tasdiqlash uchun fanlar integratsiyasidan foydalanib yuqorida keltirilgan mavzuni o‘qitishda pedagogik tadqiqot o‘tkazildi. Quyosh fotoenergetikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar fizika fanining optika bo‘limidan so‘ng shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Tajriba-sinov ishlarini olib borishda tabiiy fanlardan fizika, kimyo, ekologiya fanlari qonuniyatlaridan foydalanib, quyosh fotoenergetikasi to‘g‘risida umumiy ma’lumotga ega bo‘lish tajriba-sinov ishlarida aniqlandi.

Issiqlikdan nurlanish hodisasiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda fanlar integratsiyasidan foydlanish

Pedagogik tadqiqotlarda issiqlikdan nurlanish energiya manbalari to‘g‘risidagi fundamental ma’lumotlarni biofizika ta’limida shakllantirishda fizika – kimyo – ekologiya-biologiya fanlari integratsiya- sidan foydalanish samarali natija berishi tajribada aniqlandi. Biofizika, kimyo, biologiya va ekologiya fanlari integratsiyasidan foydalanib biofizika ta’limi jarayonida issiqlik nurlanish hodisaslari va organizmni issiqlik nurlanishi tushunchalarini shakllantirishni bosqichma-bosqich o‘qitish nazarda tutilgan. 1-rasmda bu fanlar orasidagi bog‘lanishlar, ya’ni noan’anaviy energiya manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning biofizika o‘qitish jarayonidagi tabiiy fanlar integratsiyasi ifodalangan. Sxemadan ko‘rinib turibdiki, fanlar integratsiyasidan foydalanish mavzuga tegishli ma’lumotlarni to‘liq va aniq o‘zlashtirish, bilim hamda ko‘nikmalarga nisbatan to‘liq ega bo‘lish, kreativ yondashiv asosida kreativ kompetensiyaga erishish imkoniyatini yaratadi. Keltirilgan ma’lumotlarda faqatgina fizika –kimyo – ekologiya-biologiya fanlaridan foydalaniladi, jarayonlarni barcha tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanib o‘rganish, tadqiq qilish juda katta samaradorlikka egadir. Jismlarning issiqlikdan nurlanishi va organizmdagi nurlanish

konunlarining fizikaviy asoslari to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarni biofizika ta’limi jarayonida shakllantirishda fizika–kimyo–ekologiya-biologiya fanlari integratsiyasi bo‘yicha quyidagi asosiy fundamental tushunchalar ketma-ketligi dars jarayonida tatbiq etiladi:

- yuqorida keltirilgan fanlar taqsimotini o‘rganilayotgan hodisa va jarayon
- yoki o‘rganilish ob’ektiga qarab, o‘qituvchi o‘z imkoniyatiga asoslanib tanlaydi;
- nazariy yoki amaliy ma’lumotlarni o‘rganilish ehtiyojidan kelib chiqib hamda o‘qituvchi kasbiy mahorati asosida fanlar integratsiyasidan foydalanishning samarali tizimi yaratiladi;
- biror-bir hodisa yoki jarayonni o‘rganishda fanlar integratsiyasidan foydalanish bu jarayon yoki hodisaning butun tizimga qanday ta’sir ko‘rsatishining aniq va yetarlicha xulosalangan tushunchalar, ma’lumotlar shakllantirish imkoniyatini hosil qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, biofizika ta’limida issiqlik nurlanish va uning inson organizmina ta’siriga doir yetarlicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning har bir o‘quv faoliyati bo‘yicha (dars texnologik xaritalari, mavzular va ularning ketma-ketligi, ko‘rgazmali qurollar va maketlar, tarqatma materiallar, prezentatsiya va slaydlar) metodik tavsiya va takliflar ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga tatbiq etish yuqori natijador- likka ega hisoblanishi tajriba-sinov ishlarida aniqlandi. Termografiya va organizmning issiqlikdan nurlanish hodisasiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga kreativ yondashuv asosida rivojlantirish o‘qitishning no‘anaviy metod va usullarini tatbiq etish va yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etildi va natijalar tahlil etildi. Bundan tashqari, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanib, uzluksiz biofizika ta’limida o‘zlashtirish murakkab bo‘lgan fundamental va amaliy tushunchalarni o‘qitishning metodik va didaktik asoslariga doir metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga tatbiq etildi va shu asosida biofizika o‘qitish jarayonini zamonaviy bilimlar bilan takomillashtirishga erishildi. Ayniqsa, talabalarning ilmiy-ijodiy, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda integrati ta’lim metodlarini qo‘llash orqali rivojlantirishga erishish mumkinligini pedagogik tadqiqot natijalari ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
2. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. – 2014. – С. 101-104.
3. Эргашева Г. Development of teachears innovative activities //Ученый XXI века. – 2018. – №. 4-3. 12. Эргашева Г. The effectiveness of theuseof interactive learning on the lesson
4. Абраухова В.В. Инновационные подходы в деятельности учреждения дополнительного образования как средства его развития.Автореф. дис канд. пед. наук. Ростов н/Д., 1997. - 23с.
5. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. -М.: Наука, 2000.-335 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:378.14

Fazilat SHARIPOVA,
UrDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sharipova.fazilat83

P.f.d., dots. S. Xodjaniyazov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF BIOLOGY TEACHER

Annotation

This article reveals the essence of the concept of professional competence. Information about the pedagogical factors of the development of the professional competence of the biology teacher is given. Ways to pedagogically develop professional competence of learners are shown. The content of the set of competencies, which determines the level of development of pedagogical competence that can be acquired by future biology teachers, is highlighted.
Key words: Competence, professional competence, personal experience, technologies, practical activity, development.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье раскрывается сущность понятия профессиональной компетентности. Приведены сведения о педагогических факторах развития профессиональной компетентности учителя биологии. Показаны пути педагогического развития профессиональной компетентности обучающихся. Выделено содержание комплекса компетенций, определяющего уровень развития педагогической компетентности, которую могут приобрести будущие учителя биологии.
Ключевые слова: Компетентность, профессиональная компетентность, личный опыт, технологии, практическая деятельность, развитие.

BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun mohiyati ochib berilgan. Bilogiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik omillari haqida ma’lumotlar berilgan. Ta’lim oluvchilarda kasbiy kompetentlikni pedagogik jihatdan rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilar uchun egallanishi mumkin bo‘lgan pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan kompetensiyalar majmuasi mazmuni yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, shaxsiy tajriba, texnologiyalar, amaliy faoliyat, rivojlantirish.

Kirish. Xorijiy davlatlarda Oliy ta`limning biologik ta`lim sohasida nazariy va amaliy bir qator tadqiqotlarni - Arbuzova E.H., Varduni T.V., Ermakova AC, Kolmykova V.A., Makarova E.A., Mironova M.N., Orlova L.N., Ponomareva T.M., Solomin V.P., L.N.Sukhorovalar olib borgan. Mehnat bozori, axborotlashtirish, ta'lim jarayonlarining uzluksizligiga yo‘naltirilgan tendentsiyalar hozirgi vaqtda biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashning yangi usullari va vositalarini izlash va mavjudlarini o‘zgartirishni belgilab beradi. Biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashning muammoli masalalari maxsus o‘qitish mazmunining nisbatan barqaror tuzilishi va biologiya fanining kelajakdagi kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydigan an'anaviy usullar va shakllardan foydalanish tufayli aniqlanadi [4,5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining kasbiy faoliyatiga oid ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida (Babanskiy M.V., Bespalko V.P., Markova A.K., Mitina L.M., Rykov A.N., Slastenin V.A., Shcherbakov A.I.) pedagogik faoliyatga nisbatan, uning tarkibiy qismlarini o‘qituvchining nisbatan mustaqil funktsional faoliyati sifatida aniqlash yondashuvi ustunlik qiladi (Slastenin V.A.). Ta`lim maqsadlarini ishlab chiqishning birinchi bosqichida talaba tayyorlanayotgan tipik vazifalar tizimini aniqlashni taklif qiladigan va vazifani faoliyatning tarkibiy qismi sifatida belgilaydigan N.F.Talyzinaning ishlarining tahlili tipik vazifalarni aniqlashning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Faoliyat nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar (Vygotskiy L.S., Leontiev A.N., Rubinshteyn S.L. va boshqalar) asosida shunday xulosaga kelindi: faoliyat tamoyillari, faoliyatning ob`ektivligi va uning ijtimoiy shartliligi, murakkabligi, izchilligi, determinizmi kabi faoliyat nazariyasining bir qator uslubiy tamoyillariga asoslanib, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy vazifalari mazmunini aniqlash maqsadga muvofiqdir [4].

Respublikamizda “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”, ish beruvchilarning talab va ehtiyojlariga mos mutaxassisliklar bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida nazariy: muammolarni nazariy tadqiq etishda uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish, ma’lumotlarni tizimlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash zarurati tizimlar, hodisalar, jarayonlar va ob’ektlarni

har qanday o‘rganish uchun muhim metodologik talab rolini o‘ynaydi. “Shartsharoit” tushunchasini tahlil qilganda, V.A.Oganesov buni “bir tomondan, biror narsaga bog‘liq bo‘lgan holat sifatida, boshqa tomondan, biror narsa amalga oshiriladigan muhit sifatida” izohlaydi [8].

Tadqiqotlarda keltirilishicha, kompetentlik ma'lum bir faoliyat jarayonida shakllanadi va insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan yaxlitlikda namoyon bo‘ladi. L.V.Golish fikriga ko‘ra, raqobatbardosh mutaxassis modeli quyidagi uchta komponentdan iborat bo‘lishi kerakligi haqida fikir bildirgan: kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, shaxsning ijtimoiy muhim sifatlari va xususiyatlari [4].

Kompetensiya – lotincha «Competentia» so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo‘lgan» kabi ma’nolarni bildiradi. Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati [2].

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir [2].

Ijtimoiy kompetentlik- Ijtimoiy tashkilotlar va sub`ektlar bilan o‘zaro munosabatda bo`la olish ko`nikma , malakalariga egalik qila olishi bila birgalikda kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o‘zlashtira olganlik darajasi hisoblanadi.

Shaxsning ijtimoiy muhim sifatlari va xususiyatlari- - muvaffaqiyatli hayotiy faoliyat uchun muhim ahamityaga ega bo‘lgan umumijtimoiy sifatlar va xususiyatlarning umumiy ko‘rsatkichlaridir [2].

Ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining mohiyati va mazmuniga oid turlicha qarashlar mavjud. I. I. Sokolova, V. P. Solomin, P. V. Stankevich va boshqalar dominant komponent sifatida predmet komponentini ajratib ko‘rsatadilar, ammo P. D. Vasilyeva, N. O. Vereshchagina, M. A. Shatalov va boshqalar metodik kompetentsiyani asosiy komponent sifatida belgilaydilar, bu fan natijalarini va bo‘lajak mutaxassisning umumiy pedagogik tayyorgarligini birlashtiradi.

Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob`yekt yoki ob`yektlar sinfiga ko`ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma`lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo`ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma`noga ega bo`ladi - deb tushuntiradi [3].

Tadqiqotchi olim N.Muslimovning fikricha, kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida .

M.H.Sa’dullaevaning fikriga ko`ra, ijtimoiy kompetensiya bu shaxsni yangidan paydo bo‘lgan umumiylashtirilgan ijtimoiy o‘zaro bog‘langan sifatlari bo‘lib, ijtimoiy rollarini muvoffaqiyatli bajarishga, sotsium va ushbu jamiyat sharoitida kerak effektiv faoliyat uchun zarur jihatlardir. Shunga muvofiq, bo‘lajak pedagogni ijtimoiy kompetensiyalari deganda kasbiy pedagogik faoliyat davomida kerakli, unumli sifatlar ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy psixologik bilimlar, mahorat, ko‘nikma, faoliyat usuli tushuniladi. Kompetentlik yondoshuv esa, pedagogik ta’lim dasturlari mazmunini belgilashda metodologik komponent sifatida joriy qilinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining tuzilishini uning pedagogik mahorati orqali ochish mumkin bo‘ladi. O‘qituvchining kasbiy malakasi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida yordam beradi. Quyida pedagogik mahorat 4 ta guruhga birlashtirilgan bo‘lib [6];

1. Ta`limning ob`ektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga “tarjima qilish” qobiliyati: shaxs va jamoaning yangi bilimlarni faol o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini aniqlash va shu asosda rivojlanishni loyihalash. Jamoa va individual o‘quvchilar; ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi vazifalar majmuasini ajratish, ularni aniqlashtirish va ustun vazifani aniqlash.

2. Mantiqiy tugallangan pedagogik tizimni qurish va harakatga keltira olish: ta`lim vazifalarini kompleks rejalashtirish; ta`lim jarayonining mazmunini oqilona tanlash; uni tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini optimal tanlash.

3. Ta`limning tarkibiy qismlari va omillari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o‘rnatish, ularni amalda qo‘llash qobiliyati: zarur shart-sharoitlarni yaratish (moddiy, ma`naviy-psixologik, tashkiliy, gigiyenik va boshqalar); o‘quvchi shaxsini faollashtirish, uni ob`ektdan ta`lim sub`ektiga aylantiradigan faoliyatini rivojlantirish; birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish; maktabning atrof-muhit bilan aloqasini ta`minlash, tashqi dasturlashtirilmagan ta`sirlarni tartibga solish [8].

4. Pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash ko‘nikmalari: o‘quv jarayoni va o‘qituvchi faoliyati natijalarini introspeksiya qilish va tahlil qilish; dominant va bo‘ysunuvchi pedagogik vazifalarning yangi majmuasini aniqlash.

«O‘qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O‘qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Buning uchun u: - ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi; - ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim [8,9].

Xulosa. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni o‘z navbatida tizimli hamda faoliyatli yondashuvni taqozo etadi. Bunda albatta, yuqorida qayd etilgan ta’lim jarayoniga kasbiy kompetentlikning asosiy maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda mazkur jarayonning har bir bosqichini, mezonlarini, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish, ulardan samarali foydalanish talab etiladi.

Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kelgusidagi kasbiy pedagogik faoliyati “o‘qituvchi-o‘quvchi” o‘zaro aloqasi negizida olib boriladi, aynan shu jarayonda ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiymadaniy kompetentligini o‘rganishda, eng avvalo, kommunikativ (muloqot) kompetentligiga e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 7 - fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-son Farmoni. www. lex. uz.

2. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demoratik o‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida. /Zamonaviy ta'lim/ Sovremennoe obrazovanie. 2016 - yil 10- son, 3-b.
4. Бахарева С.Р. Методические подходы к формированию предметной компетентности будущих учителей биологии на основе профессиональных задач (на примере подготовки бакалавров), Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, М-2013.
5. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.
6. Egamberdiyeva N. - Ijtimoiy pedagogika T-2009
7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B.Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / — Toshkent, 2015. — 94 bet.Toshtemirova, Saodat Abdurashidovna (2022) The need to improve social competences in future teachers,Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2022 : Iss. 1 Article 4.
8. Оганесов В.А. Подготовка конкурентоспособного специалиста в условиях диверсификации высшего образования: автореф. дис. канд. пед. наук / В.А. Оганесов. – Ставрополь, 2003.
9. Turdaliev A.T. Tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi // Janubiy Orolbuyi biologik xilma-xilligini saqlash, qayta tiklash va muhofaza qilishning ekologik masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiynazariy anjuman. Nukus, 2018. 46-47 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:37.013.(42)

Dilnoza EGAMBERGANOVA,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: saurov.ravshonbek@gmail.com

Urganch davlat universiteti professori, p.f.d. M.Xajiyeva taqrizi asosida

ABULHASAN MOVARDIYNING “DUNYO VA DIN ODOBI” KITOBIDAGI AXLOQIY TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, Abulhasan Movardiyning «Dunyo va din odobi» asari besh qismdan iborat bo‘lib, asarda, aqlning fazilati va “havo”ning yomonligi deb nomlanib unda an’anaviy islom axloqining asosiy mavzularidan biri bo‘lgan aql va nafs to‘qnashuvi haqida muhim qarashlari ilgari surilganligi hamda, ilmning qadri, ilm va din o‘rtasidagi munosabat, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta’lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, fan-amal munosabatlari, olimlarning ma’naviy burch va majburiyatlari kabi masalalar pedagogik jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Aqliy va ilmiy asoslar, aql, bilim, “Dunyo va din odobi”, huquqshunos, qozi, mutafakkir va adabiy shaxs, adabiy-didaktik, axloq, san’at va insoniyat, sahih hadis, falsafa yoki hikmat, siyosat va huquq.

ОСОБЕННОСТИ ТЕОРИИ НРАВСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В КНИГЕ «МИРОВАЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ ЭТИКА» АБУЛХАСАНА МОВАРДИ

Аннотация

В данной статье поясняется, что работа Абулхасана Моварди «Мировая и религиозная этика» состоит из пяти частей, в произведении она названа добродетелью ума и злом «воздуха», в нем выдвигаются важные взгляды на конфликт разума и души, являющийся одной из основных тем традиционной исламской этики, а также, педагогически анализируются такие вопросы, как ценность науки, соотношение между наукой и религией, отношение народа к науке и ученым, методы и правила обучения и воспитания, отношения ученика и учителя, отношения науки и практики, нравственные обязанности и обязанности ученых.

Ключевые слова: Интеллектуальные и научные основы, интеллект, знание, «Мировая и религиозная этика», правовед, судья, мыслитель и литературный деятель, литературно-дидактический, мораль, искусство и человечество, достоверный хадис, философия или мудрость, политика и право.

SPECIFIC FEATURES OF THE THEORY OF MORAL EDUCATION AND UPBRINGING IN THE BOOK "WORLD AND RELIGIOUS ETIQUETTE" BY ABULHASAN MOVARDI

Annotation

This article explains that Abulhasan Movardi's work "World and Religious Etiquette" consists of five parts, in the work it is called the virtue of the mind and the evil of the air, important views on the conflict of mind and soul, which is one of the main topics of traditional Islamic ethics, are put forward, as well, issues such as the value of science, the relationship between science and religion, people's view of science and scientists, methods and rules of education and upbringing, student-teacher relations, science-practice relations, moral duties and obligations of scientists are analyzed pedagogically.

Key words: Mental and scientific foundations, intelligence, knowledge, "World and religious etiquette", jurist, judge, thinker and literary figure, literary and didactic, morality, art and humanity, authentic hadith, philosophy or wisdom, politics and law.

Kirish. Inson kuchli siyosiy va ijtimoiy jihatga ega mavjudotdir. Ijtimoiy mavjudot sifatida odamlar o‘z hayotini saqlab qolish uchun boshqalar bilan muloqot qilishlari kerak. Inson o‘z oldidagi burchlari bo‘lgan mavjudot bo‘lishdan tashqari, o‘z atrofidagi kishilar oldida mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan aqlli va irodali mavjudotdir. Bunday kuchli xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan tuzilgan jamiyatlar, qat’i nazar, kichik yoki katta bo‘lishidan qat’i nazar, bir tartib bilan baxtli yashash uchun bu boshqaruv qanday ishlashini ko‘rsatadigan hokimlar va qoidalarga muhtojligi gumanitar va siyosiy haqiqatdir. Ushbu tadqiqotda biz insoniyatning eng asosiy, siyosiy, ijtimoiy va axloqiy muammosi, ya’ni Abulhasan Movardiyning “Dunyo va din odobi” nomli asarida belgilab qo‘ygan farzand tarbiyasiga doir novatorlik g‘oyalari va innovatsion tamoyillarini muhokama qilamiz. Biz Abulhasan Movardiy farzand tarbiyasiga doir novatorlik g‘oyalari va innovatsion tamoyillari sifatida dinni, kuchli rahbarni va jamiyatlar tartibi sifatida adolat tushunchasini ta’kidlaganini kuzatamiz. Movardiy, shuningdek, xavfsizlik, mo‘l-ko‘llik, boylik va dunyoqarash kengli va keng istiqbolli aqliy faoliyat va boshqa shu kabi qadriyatlarni alohida keltirib o‘tgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Movardiy aqliy tarbiya haqida shunday yozadi: “Bilginki, har bir fazilatning o‘z asosi va har bir odobning o‘z manbasi bor. Bu asos va manba aql bo‘lib, Alloh taolo shu aqlni din tayanchi va dunyo ustuni qilib yaratdi. Qarangki, shariatning amr-qaytariqlarini aqlning kamolot darajasiga qarab belgiladi va dunyo ishlarini shu aql yo‘rigi va tadbiriga binoan boshqarishga yo‘l ko‘rsatdi, maqsad va qiziqishlar har xil bo‘lishiga qaramay, qilinadigan ishlarni ikki qismga ajratdi. Birinchisi, aqlga binoan qilish vojib bo‘lgan qismni shariat tasdiqlaydi. Aql ana shu ikki qismga ustun va tayanch vazifasini bajaradi” [2]. Darhaqiqat, inson o‘z aqli tufayli doimo muammolarga duch keladigan mavjudotdir. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, inson muammoning manbasiga ham, yechimning o‘ziga ham ega. Insoniyat tarixi davomida ana shu haqiqatdan chiqqan mutafakkirlar shaxs va jamiyat tinchligi va baxt-

saodatini ta’minlovchi qonun-qoidalarni o‘zida mujassam etgan siyosiy va iqtisodiy maktablarni shakllantirganlar. Bu voqelik mavzusi va maqsadi inson baxti bo‘lgan ilm-fan sohalari va mutafakkir qarashlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi va ularni yechim izlanishga turtki berdi. Ko‘plab mutafakkir va tadqiqotchilar, xususan, islom faylasuflari va axloqshunoslari ezgu jamiyat va ezgulik asosida boshqaruv tamoyillari va qadriyatlarini ilgari sura boshladilar. Yaxshi va yomon amallarni belgilab, qanday yashashi kerakligini ko‘rsatib o‘tganlar. Ayni shu allomalar qatori Movardiy ham odob ilmini inson tarbiyasidagi o‘rni haqida shunday xulosaga keladi: “Inson ulg‘ayib borgani sari olishi lozim bo‘lgan adab ikki qismdan iborat. Birinchisi, kelishuv va shartlashuv odobi, ikkinchisi riyozat va tuzatish odobi. Kelishuv va shartlashuv odobi aql egalarining bir fikrga kelib, odob beruvchilarning bir ovozdan ma’qullab, rozi bo‘lishlaridan taqlidan olinadi. Ularning odobni istinbot etuvchi kelishuvlari va bir ovozdan rozi bo‘lishlariga yaxshi deb ma’qullashni vojib etuvchi hujjat-dalil mavjud. Bunga muomala qoidalari va kiyinish odobi borasida ular ma’qullab, rozi bo‘lganlari misol bo‘ladi” [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Movardiy ham inson va jamiyatning dunyo va oxirat saodati uchun ideal tartib yaratish haqida g‘oyalar ishlab chiqqan mutafakkirlardandir. X-XI, ayniqsa siyosat va axloq sohalarida yaratgan nazariyalari bilan mashhur. U asrning eng muhim mutafakkirlaridan biridir. Movardiy yashagan Abbosiylar davri ham til, ham adabiyot, ham islom o‘ziga xos tarzda rivojlangan davrdir. Bu davr islom ilmlari nuqtai nazaridan yorqin davr bo‘lgani bois, ma’muriy, harbiy va siyosiy jihatdan ham muhim o‘zgarishlar yuz bergan bir davr edi. Ilmiy va fikriy oqimlar shiddatli bir davrda yashagan Movardiy ilmiy hayotini yoshligidan boshlagan. U o‘z davri ulamolaridan arab, tafsir, hadis, fiqh va foydali fiqh kabi shar’iy ilmlarni o‘rgangan. Basra va Bag‘dodda o‘qishni tamomlab, buyuk ustoz maqomiga erishdi. U bir muddat Ustuvaga mudir etib tayinlandi, keyin Bag‘dodga ketdi.

Tahlil va natijalar. Abulhasan Movardiyning «Dunyo va din odobi» kitobi bugungi kungacha yetib kelgan eng mashhur asarlaridan biridir. Asar dastlab shu nom bilan yozilgan bo‘lsa kerak, keyinchalik ulamolar tomonidan qisqartirilib , shu nom bilan mashhur bo‘lgan. Movardiy o‘zining qisqa muqaddimasida insonning barcha faoliyati ichida eng muhimi diniy va dunyo ishlarini obod yetuvchi asarlar ekanini ta’kidlab, bu asarida hayotning o‘lchov va qoidalarini (odob) diniy ta’limotdan tadqiq etishini ta’kidlaydi. U kitobini tayyorlashda Qur’on va Sunnatdan, donishmandlarning ixcham so‘zlaridan, yozuvchilarning adabiy iboralari va shoirlar she’rlaridan manba sifatida foydalanganligini ta’kidlaydi. Besh qismdan (bob) iborat Movardiyning «Dunyo va din odobi» asarining birinchi qismi “Aqlning fazilati va “havo”ning yomonligi deb nomlanib unda an’anaviy islom axloqining asosiy mavzularidan biri bo‘lgan aql va nafs to‘qnashuvi haqida muhim qarashlari ilgari surilgan. Shu munosabat bilan muallif tomonidan ongning ta’rifi va tabiati, aql-tajriba munosabatlari kabi mavzularga urg‘u berildi.

“Ilm odobi” deb nomlangan ikkinchi bobda ilmning qadri, ilm va din o‘rtasidagi munosabat, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta’lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, fan-amal munosabatlari, olimlarning ma’naviy burch va majburiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bu tushuntirishlar orasida diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, al-Movardiy ilm-fandagi erkinlikni qat’iy himoya qilib, aqliy va ilmiy asoslardan xoli bo‘lgan da’volarga asoslangan ilmiy masalalarni qabul qilish yoki rad etish noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi. Movardiy har bir mavzuda taqlid va taqlidni rad etar ekan, ayniqsa, biror fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini oshkor qilish uchun ma’lum bir hokimiyatga panoh topganlarni tanqid qiladi. Unga ko‘ra, yetarlicha ma’rifatga ega bo‘lmagan mavzu haqida savol berishni takabburlik deb hisoblamaslik kerak. Aql bilan tasdiqlangan bilimga ham taqlid sifatida qaramaslik kerak. Tug‘ma aqlga ko‘ra, bir narsani vujud va adamdan, mavjudlik hudus va qidamdan xoli bo‘lmasligini, yana u ikki zid narsa hech qachon bir-biriga birikmasligi va bir raqami ikkidan kamligini ham bilishga o‘xshaydi. Insondagi ana shu boshlang‘ich bilimni idrok etishni tug‘ma aql deyiladi [2].

Muktasab aql aslida g‘ariziy (tug‘ma) aqlning hosilasi, bilishning nihoyasi, tug‘ma tadbir va fitrat yutug‘idir. Muktasab aqlga had-chegara yo‘q, chunki uni qancha ko‘p ishlatsa, kamayish o‘rniga ko‘payib boradi. Mabodo uni o‘z holiga qo‘yib qo‘yilsa, oldingi holatidan kamayadi. Muktasab aqlning ko‘payishiga ikki narsa sabab bo‘ladi. Birinchisi, ko‘p foydalanish tufayli bo‘lib, agar unga “havo” va shahvoniy to‘siq bo‘lmasa. Bu huddi keksa kishilarda ko‘p tajriba, sog‘lom fikr bo‘lishiga o‘xshaydi [2].

Endi ikkinchi yo‘l-muktasab aql o‘tkir farosat va zakiylik bilan bo‘ladi. Bu narsa to‘satdan paydo bo‘luvchi o‘ta ziyraklik, deb ataladi. Agar u tug‘ma aql bilan birlashsa, xuddi o‘smirlardagi ziyraklik va aqli rasolik o‘zaro birikishida kuzatilgandek, muktasab aqlning ko‘payib borishini keltirib chiqaradi [2].

Asarning “Din odobi” deb nomlangan uchinchi qismida burch va farz muammolari umumiy tarzda ko‘rib chiqiladi. Bu yerda “din” faqat Alloh va banda o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi institut bo‘lishdan tashqari, odamlarning Alloh va boshqa mavjudotlarga nisbatan barcha majburiyatlari va munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar tizimi sifatida qaraladi. Bu majburiyatlarning asosi Qur’ondir. Payg‘ambarimiz sunnatlari Qur’on belgilagan tamoyillarga zarur tafsirlarni keltirgan, ulamolar esa ijtihod orqali farzlarni aniqlab berganlar. Bu bo‘limda asosiy ibodatlarning hikmatlariga alohida to‘xtalib, o‘z-o‘zini tarbiyalash mavzusiga to‘xtalib o‘tadi, inson o‘zining dunyoga haddan tashqari bog‘liqligini yengish uchun qanday yo‘l tutishi kerakligi haqida ma’lumotlar va boshqa adabiy adabiyotlardan misollar keltiriladi.

“Dunyo odobi” deb nomlangan to‘rtinchi bob asarning eng muhim va o‘ziga xos jihatini tashkil etadi. Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi haqidagi g‘oyaga asoslangan ushbu bo‘limda tajribalarga asoslangan izchil va yashashga yaroqli axloqiy tushuncha ilgari surilgan. Movardiy ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni odamlar o‘rtasidagi imkoniyatlar farqiga bog‘laydi va uning fikricha, mutlaq tenglik ehtiyoj-yordam munosabatlarini, shuning uchun jamiyatning yo‘q qilinishiga olib keladi. Dunyo tartibining to‘liq o‘rnatilishi oltita asosiy shartning mavjudligiga bog‘liq: hurmatga sazovor din, kuchli siyosiy hokimiyat, har tomonlama adolat, umumiy xavfsizlik, keng tarqalgan farovonlik, katta umid va ezgu axloqdir. Din insonda ichki hokimiyat vazifasini bajaradi va o‘zini axloqiy ong holatida ushlab turishga imkon beradi. Biroq, hamma ham aql va din me’yorlariga ko‘ra harakat qila olmaydi. Siyosiy hokimiyat bu kamchilikni to‘ldiradi. Adolat tashqi dunyoda ham, insonning axloqiy tuzilishida ham tartibni saqlash uchun kerak. Qanday bo‘lmasin, adolat - bo‘rttirib ko‘rsatish va kamsitish ko‘rinishidagi ekstremal munosabatlardan uzoq bo‘lgan xatti-harakatlar shaklidir. Chunki me’yordan chetga chiqqan kishi adolatdan og‘adi. Shu munosabat bilan Al-Movardiy Arastudan beri davom etib kelayotgan va islom faylasuflari tomonidan qabul qilingan “o‘rta” va “hayo”ga asoslangan fazilatlar tasnifini yangidan shakllantiradi. Odamlarning tinch-osoyishta hayoti, sa’y-harakatlari samaradorligi, begunohlarning xavfsizligi, zaiflarning qulayligi umumiy xavfsizlikka bog‘liq. Farovonlikning tarqalishi tirikchilikni osonlashtiradi, hasadni kamaytiradi, munosabatlarni mustahkamlaydi. Nihoyat, odamlarning ertangi kunga bo‘lgan umid va intilishlari tufayli dunyo obod

bo‘lib, dunyo qurilishi ishlari avloddan-avlodga o‘tib bormoqda. Kimning hayosi bo‘lmasa uni yomonlikdan to‘suvchi va ta’qiq ishlardan qaytaruvchi bo‘lmaydi. Hayo uch turli bo‘ladi. Birinchisi, Alloh Taolodan hayo qilish, ikkinchisi, odamlar hayo qilish va uchinchisi, o‘zidan-o‘zi hayo qilish [2].

Al-Movardiyning realistik axloqiy tushunchasining yorqin ifodalaridan biri bu intilishlarni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida boshqa ko‘plab axloqshunoslar qoralagan bahosidir. Xuddi shu bobda dunyo hayotini tartibli va osoyishta qilishning shartlaridan biri bo‘lgan ijtimoiy birdamlik mavzusi muhokama qilinar ekan, o‘sha davrga qadar yozilgan axloqiy kitoblarda ko‘rilmaydigan mukammal ijtimoiy va iqtisodiy axloq tushunchasi muallif tomonidan yangidan kashf etiladi.

“Nafs odobi” deb nomlangan so‘nggi bo‘limda axloqiy tarbiyada ikki asosiy yo‘l borligi, ya’ni boshqalarning bilim va tajribasidan foydalanish va shaxsiy harakat (riyoz) hamda fazilat sanalgan his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar qabul qilingan an’anaviy islom axloqidagi sharmandalik ana shu ikki sarlavha ostida keng tasniflanadi.

Xulosa. “Dunyo va din odobi” asari muallifning huquqshunos, qozi, mutafakkir va adabiy shaxsining boy mahsuli bo‘lib, u kazuistik usulda va puxta tayyorlangan tizimda ishlangan. Oyat va hadislarga ko‘plab salaf olimlari keltirgan tafsirlardan tashqari, al-Movardiyning o‘zi ham muhim tafsir va ta’villar qilgan. Boshqa tomondan, al-Mavardiy asarga adabiy-didaktik tus berishga g‘amxo‘rlik qilgan va shu maqsadda u axloq, san’at va insoniyatning umumiy qadriyatlarini aks ettiruvchi xorijiy madaniyat mahsulotlaridan keng foydalangan. U Aristotel va Kindining qarashlarini o‘z ichiga olgan va qonundan ko‘plab misollar keltirgan. Biroq keyinchalik G‘azzoliy kabi al-Movardiy ham o‘z asariga kiritgan hadislarning to‘g‘riligi haqida to‘xtalmagan. Darhaqiqat, kitobdagi sahih hadislardan tashqari zaif yoki sahih hadislari ham ko‘p. Asarda axloq va din, keng ma’noda falsafa yoki hikmat, siyosat va huquq o‘rtasida yaqin aloqa o‘rnatilgan va bu jihatdan u tor ma’noda axloqiy kitobdan ko‘ra antropologik xususiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Ayub, Zulfiqar (2 May 2015). The biographies of the elite lives of the scholars, imams & hadith masters. Biographies of The Imams & Scholars. Zulfiqar Ayub Publications. p. 200.
2. Абулҳасан Мовардий. Дунё ва дин одоби. Т.: <<Ҳилол-Нашр>>,2021.-11б.
3. Ҳамроева О.Ж. XX аср бошлари ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018. –Б.16.
4. Родная литература : учебник / сост. Р. Р. Валиуллина, Д. Д. Гурьянова, К. М. Тухбатуллина [и др.] ; Казанский инновационный университет имени В. Г. Тимирясова. - Казань : Познание, 2020. - 153 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 070:323(09)(470)(575.1)

Akbar ELMURODOV,
O‘z JOKU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: elmurodov_akbar@mail.ru

O‘z JOKU professori, s.f.d M.Qirg‘izboyev taqrizi asosida

THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE DEVELOPMENT OF THE IDEA OF ESTABLISHING “TURKISTAN AUTONOMY”

Annotation

The history of the Uzbek press naturally connects with the name of the jadidist movement and the Jadid intellectuals. Jadidism is a socio-political, literary-educational movement, much deeper, complex, contradictory, at the same time full of news, noble aspirations, practical activities. In this article, from a scientific and practical point of view, the role of the modern press in the development of the ideas of establishing the “autonomy of Turkestan” is analyzed.

Key words: Ideology of independence, jadidism movement, history of Uzbek press, jadid press, ideas of Independence, National Interest, information, spiritual and moral views.

РОЛЬ ДЖАДИДСКОЙ ПРЕССЫ В РАЗВИТИИ ИДЕИ СОЗДАНИЯ «ТУРКЕСТАНСКОЙ АВТОНОМИИ»

Аннотация

История узбекской прессы естественным образом связана с именем джадидистского движения и джадидской интеллигенции. Джадидизм – общественно-политическое, литературно-просветительское движение, гораздо более глубокое, сложное, противоречивое, в то же время полное новостей, благородных устремлений, практической деятельности. В данной статье с научной и практической точки зрения анализируется роль современной прессы в развитии идей установления «автономии Туркестана».

Ключевые слова: Идеология независимости, движение джадидизма, история узбекской прессы, джадидская пресса, идеи независимости, национальные интересы, информация, духовно-нравственные взгляды.

JADID MATBUOTIDA MUXTORIYAT TUZISH G‘OYALARINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Jadidchilik – ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy harakatdir. O‘zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy ravishda bog‘lanadi. Mazkur maqolada “Turkiston muxtoriyati” tuzish g‘oyalarining rivojlanishida jadid matbuotining roli ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik mafkurasi, jadidchilik harakati, Turkiston muxtoriyati, o‘zbek matbuoti tarixi, jadid matbuoti, istiqlol g‘oyalari, milliy manfaat, axborot, ma’naviy-ahloqiy qarashlar.

Kirish. Bundan taxminan yuz yildan ortiqroq muqaddam Turkistonda jadidlar milliy manfaat uchun kurash g’oya va mafkurasini ishlab chiqdilar. 1917 - yilning fevral oyidan boshlab Rossiyaning mustamlaka o‘lkalarida, shu jumladan Turkiston o‘lkasida ham “muxtoriyat” g‘oyasi paydo bo‘ldi. Bu iboraning yuzaga kelishini o‘sha davrdagi milliy matbuot materiallarida “Hurriyat”ning e’lon qilinishiga bog‘lab ko‘rsatila boshlandi. “Hurriyat”ning e’lon qilinishi deb, milliy matbuot materiallarida [1] hamda milliy ziyolilarning maqolalarida [2] “Fevral inqilobi” va u kiritgan o‘zgarishlar nazarda tutilgan.

Hurriyat milliy o‘lkalar xalqlarining ko‘zini ochadi. Ilgari rus hukumatiga bosh egish va unga o‘z qismatini topshirib qo‘yishdan boshqa chorasi qolmagan xalqlar, endi o‘zlariga muxtoriyat olishga qaror qildilar.

Turkiston, Rossiya va Kavkaz musulmonlari o‘rtasida muxtoriyat to‘g‘risida turli xil fikrlar, yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Masalan Rossiya musulmonlariga milliy-madaniy muxtoriyat va’da etilgan bo‘lsa, Turkiston musulmonlariga milliy-territorial avtonomiya to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida munozaralar bo‘ldi. Shu munosabat bilan “Turkiston musulmonlari Rossiyadan to‘liq xolda mustaqillik talab qilishadimi yoki yo‘q” – degan savolga javob berishga to‘g‘ri keladi.

Bu savollarga javob olish uchun o‘sha davrdagi milliy matbuot sahifalaridan joy olgan Turkiston musulmonlarining qurultoylari. Milliy demokratik ziyolilarining maqolalariga murojaat qilamiz.

“Turkiston jadidlarining oliy maqsadlari – xalqni, jamiyatni istiqlol va taraqqiyot sari etaklash bo‘lgani holda, unga etishishning turli yo‘llarini tanlaganliklari uchun ham ularni turli guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, ulardan biri Rusiya tarkibidagi Muxtor o‘lka sifatida qolish (Muxtoriyat) g‘oyasini ilgari sursa, yana birovi mutlaqo mustaqil davlat tuzish tarafdori edi. Bundan tashqari, ma’rifatparvarlar ushbu “Muxtoriyat” so‘zini turfa xil tushunganlar va talqin qilganlar. Ayrimlar uni “federasiya” deb tushunishgan, boshqalari esa “avtonomiya” deb bilishardi. Ammo “Kengash”, “Hurriyat” va “Najot” kabi o‘sha davrning vaqtli matbuotlarida chop etilgan maqolalardan bilish mumkinki, “Muxtoriyat” so‘zi shunchalik keng ma’noni qamrab olganki, unda ham federasiya, ham avtonomiya, ham milliy-demokratik davlatni tashkil etish masalalari kiritilgan”[3].

Turkistonda muxtoriyat g‘oyasi birinchi bo‘lib Turkiston musulmonlarining I qurultoyida ko‘tarildi. Uning yuzaga kelishi Turkistonda taraqqiyparvar demokratik ziyolilarning tashabbusi va ayni paytda Toshkent “Sho‘roi Islomiya” jamiyatining faoliyati bilan bog‘liqdir. Bu borada tatar ziyolilaridan Nushirvan Yovushev maqolasida

Turkistonning muxtoriyat olishi to‘g‘risidagi fikrlari juda qimmatlidir. U shunday yozadi: “Rossiyada 30 million turk-tatar xalqlari bor. Ular madaniy jihatdan bir-biriga juda yaqin. Turkiston esa turklarning asl Vatanidir. Shu sababli Turkistonga avtonomiya berilgan taqdirda rossiyadagi boshqa turklar Turkistonli qardoshlariga yordamlashadilar”[4]. Maqolada muallif turli qarshi kuchlarni ham fosh qiladi. U: “Muxtoriyatni qo‘lga kiritgandan keyin, uni boshqarish masalasi ham yuzaga keladi. Buning uchun moddiy va ma’naviy kuch kerak bo‘ladi. Ba’zi birovlar xalq nochor deb bunga qarshi turibdilar. To‘g‘ri hozir ayrim etishmovchiliklar bor. Lekin yosh taraqqiyparvarlar bilan ishga kirishilsa keng yo‘llar ochiladi. Shundan keyin tez orada mamlakatni boshqara oladigan darajaga etamiz”, degan fikr bilan Turkistonning muxtoriyat olish tarafdori bo‘ladi [4].

Islom Shoahmedov tomonidan Turkiston musulmonlarining II qurultoyida muhokama qilish uchun tayyorlangan “Turkiston federasiya” loyihasining ham yuqoridagi savolga javob berish uchun katta ahamiyati bor. Loyiha “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1917 - yil 7-10 sentyabr sonlarida nashr qilingan. Loyiha qurultoy ishida oltinchi masala bo‘lib muhokamaga qo‘yildi va ushbu qonun Turkistonning hamma viloyatlariga yuborilib Turkiston aholisini u bilan tanishtirib, shundan keyingina umum Turkiston musulmonlarining qurultoyda tasdiqlash kerakligi haqida qaror qabul qilindi.

“Ulamo” jamiyati tomonidan 17-20 sentyabr kunlari bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining III qurultoyi ham katta ahamiyatga ega. “Ulamo” jamiyati ham mazkur qurultoyda “federativ-demokratik respublika” nomi ostida davlat e’lon qilish haqida qaror qabul qildi. Shu qarorga binoan Turkiston o‘zining mustaqil milliy armiya va militsiyasini tuzish nazarda tutilgan edi [5].

Ikki musulmon qurultoylarining qarorlarini taqqoslaganda, ularning muxtoriyatga bo‘lgan munosabatlari bir-biriga yaqinligini ko‘ramiz. Turkiston musulmonlarining IV qurultoyida ham muhim qarorlar qabul qilindi. Bu haqda “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 8 - dekabr kungi sonida quyidagicha xabar beriladi: 25-30 - noyabr kunlari bo‘lib o‘tgan IV qurultoy Turkiston milliy muxtoriyatini e’lon qildi. Biroq pochta va telegraf ishlamaganligi sababli ko‘pchilik qurultoyga taklif etila olmadi. Ko‘p jamiyat vakillari qurultoyda qatnashmagan bo‘lsada, maktub jo‘natib qurultoy qarorlariga qo‘shilajaklarini bildirdilar. Qurultoyda asosan Farg‘ona, Samarqand, Ettisuv va Zakazpiy viloyatlaridan 250 vakil ishtirok etdi.

Qurultoy to‘liq demokratik tarzda o‘tib, xalq majlisi a’zolarining uchdan bir qismi evropaliklarga tegdi. Ular quyidagi jamiyatlardan kelgan vakillar edilar: “Temir yo‘l ittifoqi”, “Pochta-telegraf ittifoqi”, “Sotsial revolyusionerlar”, “Sotsial-demokratlar”, “Dehqonlar sho‘rosi”, “Soldat va ishchilar sho‘rosi”, polyaklar, ukrainlar, juhudlar, mahalliy yahudiylar, doshnoqlar, savdo-sanoat a’zolari, koperativlar ittifoqi, hukumat muassasalari, kazak askarlar jamoat vakillari [6].

“Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1917 - yil 8-13 dekabr, “El bayrog‘i” gazetasining 1917 - yil 9 - dekabr kungi sonlarida qurultoy tomonidan saylangan Turkiston Muvaqqat Xalq Sho‘rosi va hukumat a’zolarining ro‘yxati berilgan.

Xalq majlisiga 54 o‘rin belgilandi. Musulmon jamiyatlari tomonidan saylangan 32 a’zo quyidagilar edilar: Ubaydulla Xo‘jaev, Mustafo Cho‘qay, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Sadriddinxon Sharifxo‘jaev, Qo‘ng‘irxo‘ja Xo‘jaqulov, Ismatulla Ubaydullin, Saidnosir Mirjalilov, Sherali Lapin, Said Ja’farboy Saidov, Islom Shoahmedov, Abdurahmonbek O‘razaev, Hidoyatbek Yurali Agaev, Nosirxonto‘ra Komilxonto‘raev, Mirodil Mirzaahmedov, Toshxo‘ja Ashurxo‘jaev, Abdulqodirbek Qo‘shbekov, Obidjon Mahmudov, Jamshidboy Qorabekov, Gersfeld Salomon Abramovich, Abdusamad Abdusalomov, Abaydulla Darbisalin, Muso Akchurin, Mustafo Mansurov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ibrohim Davlatshin, Muhammadjon Tanishpaev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboev, Alixonto‘ra Shokirxonto‘raev, Sobirjon Yusupov, Komil Rahmonberdiev, Odiljon Umarov.

Qurultoyning 27 - noyabr kungi majlisida ijroiya qo‘mita tuzib, unga yaqin orada Turkistonning o‘z Ta’sis majlisini chaqirish vazifasi topshirildi. Muxtoriyatning asosiy yo‘nalishlari va uning qonunlari Turkiston musulmonlari tomonidan chaqirilishi ko‘zda tutilayotgan Ta’sis majlisda hal bo‘lishi kerak edi[6].

O‘sha kunlarda Turkistonning turli shaharlarida Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan turli yig‘ilishlar yanada keng avj olganligi to‘g‘risidagi xabarlar matbuot sahifalarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Toshkentdagi namoyishni “Ulug‘ Turkiston” gazetasi quyidagicha sharhlaydi: “Toshkent shahrida 6 dekabr kuni Jome masjidida muxtoriyat e’lon qilinganligi va Toshkent shahar dumasining bolsheviklar tomonidan tarqatilganligi hamda shaharda bolsheviklar tintuv boshlaganligi munosabati bilan katta namoyish o‘tkazildi. Namoyishda shaharning ulamolari, mulkdorlar, kambag‘allar va ishchilardan iborat 60 ming kishi qatnashdi. Bu yig‘inda Saidg‘ani Maxdum domla rais, Munavvar Qori Abdurashidxonov bilan Sherali Lapin unga yordamchi, Pirmuhammad Olim esa sarkotib etib saylandi. “Ulamo” jamiyat a’zolaridan Saidg‘ani Mahdum, Miyon Buzruk, Sherali Lapin, so‘ngar Munavvar Qori, Mulla Odil va Nizomxo‘ja, shuningdek yana bir necha kishilar bolsheviklar tarafidan uyushtirilayotgan tintuv va bosqinchilik musulmonlarga g‘oyat musibatlar keltirilayotganligini ma’lum qiladilar. Shuningdek, soldat va ishchilar soveti musulmon mardikor va ustalardan 40 kishini zo‘rlik bilan o‘z tarafiga og‘dirib olganliklarini ma’lum qiladilar.

Shundan so‘ng namoyishga chiqqan 60 ming kishilik xalq nomidan Turkiston muvaqqat hukumatidan boshqa hech qanday hokimiyatni tan olmasliklari to‘g‘risida qaror qabul qilindi va bolsheviklarning zo‘ravonliklariga qarshi norozilik bildirildi.

Shu kuni Toshkent dumasida ham majlis bo‘lib o‘tadi. “Ulamo” jamiyatidan tortib sotsial-revolyusionerlarga qadar bir ovozdan Muxtoriyat e’lon qilinganligini tabrikladilar va agar ko‘mak kerak bo‘lsa, albatta ko‘mak berishlarini izoh qildilar. Ammo muxtoriyatning e’lon qilinishi masalasida sotsial revolyusionerlar bmlan sotsial-demokratlar o‘rtasida tortishuv bo‘ldi.

Sotsial-demokratlar, millatlar muxtoriyat olishiga Oktyabr o‘zgarishlari, ya’ni bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan inqilob sabab bo‘lganligini aytsalar, sotsial-revolyusionerlar esa bunga sababchi qilib o‘zlarini ko‘rsatdilar. Ular sotsial-demokratlarning fikriga qarshi “Agar shu gapi rost bo‘lsa Toshkent bolsheviklari boshqaruvni tamomila muxtoriyat hukumatiga topshirib, o‘zlari bu hokimiyatni tan olsinlar”, deydilar.

Milliy matbuot sahifalarida 13 - dekabrda Toshkent shahrida yana katta namoyish bo‘lishi to‘g‘risida xabar e’lon qilingan. Bu namoyishda musulmonlar bilan birgalikda yana rus, yahudiy va arman millati vakillari ham qatnashdilar. Namoyishga uezdlardan 100 ming otliq va piyoda aholi keldi. Namoyishchilar eski shaharning Shayxontohur masjidi oldida yig‘ildilar. 200 ming nafar aholi qizil, ko‘k va yashil rangli yuzga yaqin baroq ko‘tarilgan edi. Avval Munavvar Qori aholini ozodlik bayrami bilan tabrikladi. So‘ngra Turkiston hukumatining milliy majlisi a’zosi Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov yig‘ilgan evropaliklarga ruscha nutq so‘zlab, hukumat nomidan tabrik qildi. Ruslar orasidan miting prezidiumiga Shors saylandi. Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov bilan Sadriddinxon Mahdum kotib bo‘ldilar. Namoyishga Toshkent “Ulamo” jamiyati a’zolari ham qo‘shildilar.

Musulmon jamiyatlari bilan bir qatorda boshqa Yevropa jamiyat a’zolari tomonidan ma’ruzalar o‘qilib, ular ham o‘zlarini xalq kamisarlari deb atayotgan bolsheviklarning zo‘ravonliklaridan shikoyat qildilar va birgalikdagi namoyishni yangi shaharga ko‘chirishni iltimos qildilar [7].

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlil qilinsa, bir qancha fikrlar oydinlashadi. Bu ma’lumotlarda muxtoriyatni e’lon qilgan Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi va uning qonunlarini bolsheviklar avvaliga tan olmagan bo‘lsalar ham, biroq keyinchalik yakkalanib qolayotganligini sezib, e’tirof etganliklari to‘g‘risida milliy matbuotda ma’lumotlar bor.

Bu anjumanda bolsheviklar tomonidan tarqatilgan turli bo‘xton va ig‘volarga xotima berildi va musulmon hukumati siyosiy doirada ma’naviy jihatdan mustahkamlandi.

Turkiston muxtoriyati hukumatning, umuman musulmonlarning muxtoriyat e’lon qilgandan keyin ro‘y bergan sharoitni qiyoslagan holda u qanday mavqega ega bo‘lganligini Orif Klevleevning Petrogradga yuborgan telegrammasidan ham ko‘rish mumkin. Unda shunday satrlar bor: “Turkiston xalqi bir ovozdan Turkiston muxtoriyatini e’lon qilib, o‘lkaning boshqaruv usulini Turkiston Ta’sis majlisi tomonidan ishlab chiqishni taklif qildi. Ruslar va evropaliklar o‘lkaning 2 foizini tashkil qilsada xalq sho‘rosiga saylanganlarning 33 foizini egalladi. Rossiya komissarlari tomonidan Turkiston muxtoriyatini tugatish yo‘lida tadbirlar qilmoqda. Musulmon ishchi va askarlarining I qurultoyi qarorlarini ma’lum qilib, sizni Rossiya demokratik jumhuriyatining oliy idorasi ekanligingizdan boshqaruvni Toshkentdagi kamissarlar sovetidan Turkiston muxtoriyati hukumatiga topshirishiga buyruq berishingizni iltimos qilaman. Toki orada tortishuv boshlanib, Turkiston mamlakati halokatga duchor bo‘lmasin. Harbiy sho‘ro raisi Orif Klevleev, Qo‘qon 1917 - yil 26 - dekabr”[8].

Milliy demokrat ziyolilarning muxtoriyatga oid maqolalari ham biz uchun qimmatlidir. “Ulug‘ Turkiston” gazetasida Islom Shoahmedovning “Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy avtonomiya”[9] nomli maqolasi nashr etilgan. Bu maqolada muxtoriyat e’lon qilingan Turkiston musulmonlarining IV qurultoyidan 10 kun avval muxtoriyat hukumati tuzish uchun Turkistonda hamma sharoit mavjudligi asoslab berilgan.

Abdurauf Fitrat o‘z maqolasida “Biz ellik yildan beri ezildik. Tilimiz, dinimiz, insoniy fazilatlarimiz oyoq osti qilindi. Ongimiz zaharlandi. Lekin biz imonimizni saqladik. Mana muxtoriyat ham e’lon qilindi. Ammo muxtoriyatni bir qurultoy bilan saqlab bo‘lmaydi. Uni moddiy, ma’naviy va siyosiy (harbiy) jihatdan qo‘llab turish kerak. Bu albatta o‘zaro ittifoqqa bog‘liqdir”, deydi [11]

Ziyolilardan Muxtor Bakirovning “Ulug‘ Turkiston” gazetasida muxtoriyatga oid ikkita maqolasi berilgan. Birinchisi “Turkiston muxtoriyati va turkistonliklar” deb ataladi. [10,4] Unda muallif: “Muxtoriyatni e’lon qilinishi turkistonliklar oldiga g‘oyat ulug‘ va ma’suliyatli vazifalarni hal qilishni qo‘ydi. Bular moliyani isloh qilish, qonunlarni tartibga keltirish, yer va suv masalalari, diniy, ijtimoiy, maorif masalalarini hal etish, oziq-ovqat nazoratini tashkil qilish, harbiy mahkama va tashkilotlarni hamda muxtoriyat hukumati uchun asosiy qonunni tuzishdir. Qurultoy a’zolari shu muammolarni anglagan, Turkiston musulmonlarining shijoatlariga ishongan holda ushbu muxtoriyatni e’lon qildi”, deydi.

Ziyolilardan G‘ulom Zafariy ham “Muxtoriyatni saqlash uchun bizga quvvat lozim, bu quvvat askarlardir”, deydi[10].

Milliy ziyolilarning maqolalari va Turkiston muxtoriyatiga oid boshqa materiallarga asoslangan holda xulosa qilib shuni aytish kerakki, muxtoriyat e’lon qilinishi bilan barcha musulmonlarni uni saqlash uchun doim shay turishga chaqirgan. Milliy matbuot materiallarining 1917 - yil iyul-dekabr oylaridagi voqealari tahlili Turkiston musulmonlarining istiqlolga erishish harakatining eng yuksak cho‘qqisi ekanligini ko‘rsatadi. Sentyabr oyidagi ikki musulmon qurultoylarining qarorlari, noyabr oyidagi Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi muxtoriyatning e’lon qilinishi bilan yakunlandi. Unga nisbatan barcha musulmon va siyosiy jamiyatlar o‘z ijobiy munosabatlarini bildirdilar. Avvaliga muxtoriyatni tan olmagan bolsheviklar, aynan shu anjumanda yakkalanib qolganlaridan so‘ng ko‘pchilik fikriga qo‘shilishga majbur bo‘ldilar. Amalda qanday bo‘lmasin bu yangi musulmon hukumatini bo‘g‘ib tashlash harakatida edilar. Shu maqsadda Turkistondagi so‘nggi siyosiy jarayonlar, xususan, Turkiston muxtoriyatining ag‘darib tashlanishi va bolsheviklarning Turkistonda olib borgan bosqinchilik siyosatini ko‘rsatuvchi manbalar bilan tanishib chiqamiz. “Turkiston xalqi musulmon bo‘lgani xolda bolsheviklar qurol kuchi bilan boshqaruvni o‘z qo‘llariga olib hamma ishni soldat va ishchilar qo‘liga topshira boshladilar. Turkistondagi barcha milliy mahkamalarni o‘zgartirdi. Shahar dumasini tugatdi, sud ishlari to‘xtatildi. Bularning o‘rniga oddiy rus soldat va ishchilardan “jamoat hukmi” degan yangi sudlar ixtiro qilindi. Musulmonlarning erlarini qurol kuchi bilan tortib ola boshladilar.

“Soldat va ishchilar bir necha marta qurollanib eski shaharga tushib oziq-ovqat va g‘alla topish uchun tintuv o‘tkazdilar. Yangi shahar (ruslar yashaydigan qismi – A.E.) da o‘zlarining oziq-ovqatlari tugashi bilan eski shahar (musulmonlar yashaydigan qismi – A.E.) ga ko‘z olaytira boshladi. Musulmonlar bu xolni adolat yuzasidan bo‘lmayotganligini bildirdilar” [12].

Bolsheviklar shavqatsizlik, talonchilik, bosqinchilik qilayotgan bir sharoitda bizning ajdodlarimiz – milliy ziyolilar va boy tabaqa kishilari xalqimizning qirilib ketishining oldini olish maqsadida ana shunday oliyjanoblik ishlarini qilganlar. Turkistonda bo‘layotgan voqealarni boricha yoritib borishga tutingan davriy matbuotda keltiriladigan manbalar shuni yanada yaqqol namoyon etadi. Masalan, “Ulug‘ Turkiston” gazetasida bosilgan “Ovqat masalasi”, “Dahshatli ochlik”, “Ochlik balosi”, “Ochdan o‘lganlar”, “Ochlarga yordam etaylik”, “Ochlar foydasiga”, “Och qolgan ishsizlar diqqatiga”, “Ochlar foydasiga teatr”, “Ochlarga yordam”, “Ochlarga yordam”, “Ochlarga yordam”, “Va yana jamiyat hayriya”, “Jamiyat hayriya”, “Jamiyat hayriya”, “Ochlarga yordam” kabilar.

Yuqorida keltirilgan maqola va xabarnomalarga suyangan xolda shuni aytish mumkinki, ochlik xavfi paydo bo‘layotganligi va uning oldini olish uchun milliy taraqqiyparvar ziyolilar katta amaliy ishlarni amalga oshirgan.

Endi Turkiston muxtoriyatining fojiali qismati bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarga murojaat qilamiz.Bu maqolalar quyidagilardan iborat: “Ulug‘ Turki ston” gazetasida “Farg‘ona viloyati muxosara holida”, “Turkiston musulmonlarining fojiasi”, “Qo‘qondan maktab”, “Qo‘qon fojeasi”, “Qo‘qon fojealari”, “Qo‘qonning halolati” maqolalari, “Hurriyat” gazetasida “Qo‘qon fojealari”, “Qo‘qonda qozilar s’ezdi”, “Farg‘onada Ergash harakati” va h.k.

Ushbu maqolalar bir qancha voqea-hodisalarni oydinlashtirish imkonini beradi. Masalan, bolsheviklar shahar xalqini talaganliklari, shaharni bombordimon qilish oqibatida bir nechta Jome masjid, madrasalar va aholi turar-joylari xaroba xoliga keltirilganligi, shuningdek yana boshqa ma’lumotlarni olish mumkin. Oqibatda musulmonlar ruslarga qarshi g‘azavat e’lon qilganliklari ma’lum qilinadi.

Yuqorida keltirilgan manbalardan shunday xulosalarga kelish mumkinki, bolsheviklar bosqinchilik orqali hokimiyat tepasiga kelgandan keyin, faoliyatining dastlabki kunidan boshlab o‘ta adolatsiz siyosat olib borish bilan birga, bosqinchilik, talonchilik bilan ham shug‘ullanishgan. Oqibatda

esa xalqning yashash sharoiti kundan-kunga og‘irlashib, ruslarga nisbatan qaxr g‘azabi ortib bordi.

Nihoyat, xalqimiz yurtni zolimlar qo‘lidan ozod etish uchun yangidan istiqlolchilik harakati kurtak yoza boshladi. Jadidlar yurt mustaqilligiga chorlaydigan maqola va she’rlar bilan xalqni jipslashtirishga va hamjihat bo‘lishga chaqirish bir muddat bo‘lsada to‘xtamadi. 1917 - yilda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi milliy davlatchilik uchun bo‘lgan harakatni qonuniy jihatdan e’lon qildi. Milliy matbuotda muxtoriyat hukumatini Turkistondagi barcha musulmon siyosiy kuch va evropaliklar e’tirof etganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Milliy ziyolilar muxtoriyat hukumatini e’lon qilishi musulmonlar to‘liq ozod bo‘ldi degan gap emas, balki uni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash va bolsheviklarning tajovuzlaridan saqlash kerakligi to‘g‘risida ma’lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarning guvohlik berishicha Turkiston bolsheviklari to 1917 - yilning noyabr oyigacha katta hal qiluvchi kuchga ega bo‘lishmagan. Ular faqat kelishuvchilik yo‘lini tutishdi.

1917 - yil 25 - oktyabrda Rossiyadagi davlat to‘ntarishidan keyin, bolsheviklar Turkistonda ham maqsadlarini qurol kuchi bilan amalga oshirganligini ko‘rish mumkin. Rossiyadagi voqealardan keyin bolsheviklarning harakatlari yanada tezlashdi. Talonchilik, bosqinchilik avj oldi. Turkiston muxtoriyati ag‘darib tashlandi. Musulmonlarning turmush darajasi inqirozli holatga kelib qoldi. Xalqning ruslarga nisbatan qaxr-g‘azabini oshirib yubordi. Agar 1917-1918 - yillardagi milliy matbuot materiallari tahlil qilinsa, shu yillardagi Turkistondagi siyosiy jarayonlarni to‘liq o‘rganish mumkin. Ayniqsa, bolsheviklar tomonidan musulmonlarga qilgan turli xil adolatsizliklar ma’lum bo‘ladi. Bu esa ajdodlarimizning bolsheviklarga qarshi istiqlolchilik harakatining yuzaga kelishga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni beradi.

ADABIYOTLAR

1. Talabalar jamiyatining yig’ilishi // Najot. – 1917. -21 aprel: Maktab va madrasalar islohi//Ulug’ Turkiston gazetasi. -1917.
2. Zaki Validiy. Turkistonda ta’limot masalasi // Kengash. – 1917.19 iyul.
3. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash. – T., Ma’naviyat, 2001. – B.91.
4. Turkistonga avtonomiya oluv haqida – Ulug‘ Turkiston gazetasi. – 1917. – 5 may.
5. Ulamo s’ezdining qarorlari// Ulug’ Turkiston gazetasi. – 1917. – 30 sentyabr
6. Muxtoriyatli Turkiston muvaqqat xalq sho’rosi//El bayrog’i gazetasi - 1917. 22 dekabr
7. Toshkent muxtoriyat namoyishlari//Ulug’ Turkiston gazetasi. -1917. -16 dekabr
8. Petrogradga yuborilgan telegramma//Ishchilar dunyosi. -1918. -17 yanvar. -№ 2.
9. Shoahmedov I. Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy avtonomiya//Ulug’ Turkiston. – 1917. -18 noyabr
10. Turkiston muxtoriyati va turkistonliklar//Ulug’ Turkiston, - 1917. – 20 dekabr
11. Abdurauf Fitrat. Muxtoriyat.Hurriyat gazetasi, -1917. 5 dekabr
12. Eski shaharda tintuv//Ulug’ Turkiston. - 1918. - 4 yanvar

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 524

Mansur YUNUSOV,
Davlat boshqaruvi akademiyasi f.f.d (PhD), dotsent
E-mail: mansur-yunus@mail.ru

TDShU professori, s.f.d S.Saidolimov taqrizi asosida

INCREASING THE ROLE OF PUBLIC RELATIONS IN THE STATE CIVIL SERVICE

Annotation

This article analyzes the development of public relations services in the public service, the effective use of mass media by civil servants to further increase communication with the people.

Key words: Public service, public relations, media, image, public administration, leadership, public civil service, public institution, power, press service, media literacy.

ПОВЫШЕНИЕ РОЛИ СВЯЗЕЙ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЕ

Аннотация

В данной статье анализируется развитие службы по связям с общественностью на государственной службе, эффективное использование государственных служащих средств массовой информации для дальнейшего повышения коммуникации с народом.

Ключевые слова: Государственная служба, связи с общественностью, СМИ, образ, государственное управление, лидерство, государственная гражданская служба, государственное учреждение, власть, пресс-служба, медиаграмотность.

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR ROLINI OSHIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat xizmatida jamoatchilik bilan aloqalar xizmatini rivojlantirish, xalq bilan muloqotni yanada oshirishda davlat xizmatchilarining ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish xususida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Davlat xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, media, imij, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi, rahbar kadrlar, davlat fuqarolik xizmati, davlat organi, hokimiyat, matbuot xizmati, mediasavodxonlik.

Kirish. Davlat fuqarolik xizmatida jamoatchilik bilan aloqalar xizmati rolini tahlil qilishda jamoatchilik bilan aloqalar "jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish" va "jamoatchilik bilan aloqalar" (PR) tushunchalari bilan bir xil. Bu ijtimoiy nazoratning bir turi. Insoniyat jamiyatida boshqaruv boshqa odamlarning manfaatlari, motivlari, ehtiyojlari va hayotiy maqsadlarini hisobga olmasdan mumkin emas. Bu tijorat va notijorat sektorlari, jumladan, davlat boshqaruvi uchun ham amal qiladi.

Ma’lumki, har qanday tashkilotda jamoatchilik bilan aloqalarni o‘rnatish – ijtimoiy muhit bilan o‘zaro samarador muloqotni yo‘lga qo‘yish va buning uchun qulay sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, davlat boshqaruvi organlari uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki davlat xizmatining samaradorligi, birinchi navbatda, aholining hukumatga bo‘lgan ishonchi va hurmati, qolaversa, davlat xizmatchilari va fuqarolarning o‘zaro ishonchga asoslangan birgalikdagi harakati, ya’ni hokimiyat va jamiyatning har tomonlama yaqindan hamkorlik qila olishiga bog‘liq. Davlatning fuqarolarga ta’sir o‘tkazish qobiliyati ma’lum mexanizmlar bilan belgilanadi. Jamoatchilik bilan aloqalar esa, ushbu mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik bilan aloqalar davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi aloqalar tizimini, ya’ni ikki tomonlama vakolatli muloqotni ta’minlab berish uchun tashkil etiladi. Davlat xizmati ijtimoiy institut sifatida axborot berish, odamlarni qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiq ekaniga ishontirish, ular bilan dialog o‘rnatish va qaytma aloqani yo‘lga qo‘yish orqali hokimiyat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida vositachilik vazifasini o‘taydi. Biroq muloqotning maqsadi nafaqat xabar berish, ishontirish va mulohazalarni kuzatib borish, balki muammolarni hal qilishning eng samarali usullarini topishni ham nazarda tutadi.

Fuqarolar ko‘pincha nazardan chetda qolgan yoki atayin e’tibor berilmayotgan muammolarni rasmiylarga ko‘rsatib beradilar. Shuning uchun jamoatchilik bilan aloqalar doimo manfaatlar to‘qnashuvini o‘zida ifoda etib keladi. Bundan tashqari, jamoatchilik bilan aloqalarning yana bir muhim vazifalaridan biri fuqarolar hamda hokimiyat tizimlari o‘rtasida o‘zaro mos kelmaydigan manfaatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish hisoblanadi.

Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish metodologiyasi va metodikasini qo‘llashi uchun rahbar kadrlar zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va muammolari, boshqaruvning innnovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, asoslash va qaror qabul qilish, konsalting va audit, davlat idoralarida tahliliy boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, tashkillashtirish va loyihalash nazariyasi, personalni boshqarish va axborot tahlilini yo‘lga qo‘yish kabi bilimlarga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek, “Mamlakatning ichki axborot makonini isloh qilish, uni global makonining ajralmas qismiga aylantirish va shu bilan davlatning tashqi imidjini shakllantirishda milliy jurnalistika tizimi va milliy ommaviy axborot vositalari ishtirokini yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarish davr talabi”.

Bundan tashqari, axborot makonidagi zamonaviy tendensiyalar boshqaruv kadrlarda axborot madaniyatini oshirish muammolarini ham kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, jamoatchilik bilan aloqalar (PR) sohasining ayrim yo‘nalishlarini boshqaruv kadrlarning axborot madaniyatini

yuksaltirish kontekstida qo‘llash va buning uchun rahbarlarning OAV bilan ishlash borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishni davrning o‘zi talab etmoqda. Chunki davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yurituvchi rahbarlar o‘z faoliyatida OAV bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘ya olsagina jamiyatda barqarorlik hukm suradi. Bu esa, davlat boshqaruvining barcha darajadagi tizimlaridan OAV va blogerlarni o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq axborotlardan tezkor va muntazam ravishda xabardor qilib borishni talab etadi. OAV xodimlari yoki blogerlar tashkilotga tashrif buyurishidan oldin ularga rahbariyat tomonidan matbuot kotiblari bilan hamkorlikdagi rasmiy shakldagi taklifnomalar (press-relizlar) yuborilishiga erishish samarali natijalarni beradi. Bunday yondashuv axborot makonida tashkilot faoliyati haqidagi salbiy axborotlarning tarqalishini oldini olish yoki bartaraf etishda muhim vosita rolini o‘ynaydi.

“Ommaviy aloqalar” atamasining 500 dan ortiq ta’riflari mavjud. Qo‘llaniladigan vositalarga ko‘ra, ular siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik yondashuvlarga bo‘linadi. Muloqot maqsadlariga ko‘ra - altruistik, murosa va pragmatik yondashuvlar bo‘yicha.

Davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalar biznes sohasidagi PR va PR bilan solishtirganda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu farqlar maqsadlar, manfaatlar, resurslar, mas'uliyat, usullar va muhitda. Davlat boshqaruvidagi SOning maqsadlari quyidagilardan iborat: jamiyatdagi jarayonlar haqida ma'lumot olish, fuqarolarni umumiy maqsadlar haqida xabardor qilish va fuqarolarni umumiy maqsadlarga erishishga hissa qo‘shishga undash. Hokimiyat jamiyatning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqaruv qarorlarini qabul qila olishi, jamiyat ularni faol qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalar bir martalik hodisa emas, balki davlat boshqaruvining mustaqil sohasi, jumladan, ilmiy-tadqiqot faoliyati, qonun ijodkorligi, tahliliy va kommunikatsiya makonini qurishdir. Bu faoliyat davlatdan professional yondashuv va katta e'tiborni talab qiladi, chunki umuman davlat boshqaruvi samaradorligi ko‘p jihatdan uning muvaffaqiyatiga bog'liq.

Ijtimoiy hayotda davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslari haqida keng jamoatchilik tomonidan “qobiliyatsiz”, “qonunlarni bilmaydi”, “korrupsiyaga botgan”, “ijro intizomiga rioya etmaydi” va “xalq bilan ayro holda ishlaydi” mazmunidagi fikrlar ko‘p marotaba tilga olinadi. Bunday sharoitda odamlar oldida ishonch, obro‘ga ega bo‘lish, davlat xizmati va uning rahbarlarining ijobiy qiyofasini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Rahbar o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun o‘z xodimlari va aholi bilan ishlash borasida zarur kompitensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Tashkilot yetakchisi qiyofasini shakllantirish usullari va texnologiyalari borasidagi bilimlarini mustahkamlashi lozim.

Mansabdor shaxslar imijini shakllantirishning asosiy manbai sifatida OAV va ommaviy kommunikatsiya vositalarini ajratib ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Chunki aholi aynan ular orqali mansabdor shaxslar faoliyati haqidagi axborotlarni bilib oladilar. Kommunikativ munosabatlar rivojlangan zamonaviy jamiyatda shaxsiy omil hukmronlik qiladi va siyosiy rahbarni tanlash muammosi OAVda e’lon qilingan ma’lumotlar ta’sirida hal etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. «Imij» atamasi XX asr boshida AQSHda paydo bo‘lgan. Dastlabki «imijmeyker»larga dunyo madaniyatini zabt etish va jahonda andoza bo‘la oladigan mamlakatning ijobiy imijini yaratish vazifasi yuklatiladi. Mamlakat prezidenti va birinchi xonimining imij andozasi ishlab chiqilgan. Ayni shu paytlarda «amerikacha hayot tarzi» tushunchasining paydo bo‘lishi, imijmeykerlarda «butun dunyoni egallash» falsafasini yuzaga keltirgan va shaxsning imijini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan... «Imij» so‘zi ilmiy tushuncha sifatida ishlatilayotganiga hali ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, noaniq talqin qilinadi. Bir guruh tadqiqotchilar imijni auditoriya, zamon va makon istiqbollarini hisobga olgan holda shakllantirish kerakligini ta’kidlaydilar. Boshqa bir guruh olimlari esa, odamlarning ongi va xatti-harakatini manipulyatsiya qilish vositasi sifatida imijni shakllantirish etika me’yorlariga to‘g‘ri kelmasligi haqida bahs qiladilar. Bu tushuncha psixologik bilimlarning ko‘p qirralarini o‘zida birlashtirib, psixologiya, siyosatshunoslik, pedagogika kabi fanlarning turli tarmoqlarida ishlab chiqilgan. Imij nafaqat ko‘riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir in’ikosi sifatida ham tushuniladi. Ijobiy imijni shakllantirish ko‘p mamlakatlar hukumatlari intilishlarining muhim bir bo‘lagi bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda imijga ayniqsa, siyosiy faoliyatda talab kuchaymoqda” [1].

Tadqiqot metodologiyasi. OAVdagi mansabdor shaxs imiji deganda, ommaviy ong streotiplari, turli axborotlar, televideniye va radiodagi tahliliy dasturlar, matbuotdagi bosma maqolalar hamda siyosiy reklama asosida shakllangan fazilatlar, xususiyatlarning murakkab birikmasi tushuniladi. Demak, OAV mansabdor shaxsning imiji va obro‘sini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ommaviy kommunikatsiyalar rivojlanishi va ularning mansabdor shaxslarning xalq bilan o‘zaro aloqa vositasi sifatida maydonga chiqishi natijasida siyosiy kommunikatsiyani teatr sahnasiga aylantirdi, ya’ni manfaatlar to‘qnashuvi deganda, tomoshabinlar nazarda tutila boshlandi. Televideniyening texnik va badiiy vositalari axborot tarqatishning hujjatli janridan reklama elementlarini o‘z ichiga oluvchi uslubni qo‘llash imkoniyatini yaratdi. Obro‘si baland bo‘lgan axborot kanallarida chiqish murakkabligi bois OAV jamiyat ko‘proq ishonch bildiradigan, imij yaratish mexanizmi hisoblanadi. Bundan tashqari, ma’lumotlarning takrorlanishi, sifati, ishonchliligi va haqiqatga yaqin ekanligini har kim, har doim ham aniqlay olmaydi [2].

Tashkilotning matbuot xizmati auditoriyaga ta’sir o‘tkazish uchun keng maydon bo‘lgani bois undan katta natijalar kutiladi. Ushbu xizmatning har qanday faoliyati tashkilotning imijini yaxshilashga olib kelishi lozim. Ammo tajribadan ma’lumki, matbuot xizmati har doim ham kutilgan natijaga erisha olmaydi. Sababi axborot maydonidagi turfa xil fikrlar hamda manfaatlar to‘qnashuvi, shuningdek, davlat xizmatlari faoliyati sifatiga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib borishi tashkilot va rahbar imijini yaratuvchi mutaxassislardan PR – jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ko‘proq malakaga ega bo‘lishni talab etmoqda.

Tahlil va natijalar. Matbuot xizmati – davlat muassasasi yoki davlat organining bo‘linmasi bo‘lib, ushbu tashkilotning OAV bilan o‘zaro aloqalarini tashkil etish vazifasini amalga oshiradi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun matbuot xizmati press-relizlar tayyorlash, matbuot anjumanlarini tashkil qilish, telefon yoki internet orqali zarur maslahatlashuvlarni yo‘lga qo‘yish kabilar bilan shug‘ullanadi.

Ma’lumki, PR (Public Relation), ya’ni jamoatchilik bilan aloqalar jamoat tashkilotlari bilan notijorat xarakterdagi aloqalar tizimini ifodalaydi. PR – imidji shakllantiriladigan sub’ektning jamoatchilik oldida obro‘sini oshirish va u bilan aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Xorij tajribasidan ma’lumki, jamoatchilik bilan aloqalar yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari siyosat va biznes yo‘nalishlarida samarali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, PRdan davlat xizmatining ijobiy imidjini yaratishda ham keng qo‘llaniladi.

Ingliz tilidan olingan “Rublic Relations” (Pablik rileyshnz – PR, piar) atamasi – “Jamoatchilik bilan aloqalar”, “Ommaviy aloqalar”, “Jamoatchilik bilan munosabatlar” degan ma’nolarni anglatadi. Bu ibora ilk bor AQSHning

uchinchi prezidenti Tomas Jefferson tomonidan qo‘llanilgan. U 1807 - yili o‘zining “Kongressga yettinchi murojaati”da ushbu atamani birinchi marta qayd etgan. Bundan maqsad, o‘sha davrda hukumatning jamoatchilik bilan aloqalarini davlat darajasiga ko‘tarish, ilmiy-tashkiliy jihatdan yo‘lga qo‘yish edi.

PR asoschilaridan biri Edvard Bernayz ushbu iboraning mohiyatini “jamiyat manfaatlari yo‘lidagi harakatdir”, deb ta’riflagan. Demak, “AQSHda piarning paydo bo‘lishi bevosita siyosiy jarayonlar mahsuli” bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqqan PR xalqaro miqyosda o‘rin tutgan. 1974 - yili piar xalqaro ijtimoiy institut sifatida tan olindi, bu paytda YEPRA – Yevropa pablik rileyshnz assotsiatsiyasi BMT tarkibidagi iqtisodiy va ijtimoiy kengashning maslahatchi organi sifatida qayd qilingan.

Jamoatchilik bilan aloqalar o‘z maqsad va vaziflaradan kelib chiqqan holda;

- jamoatchilikning fikrini o‘rganadi;
- jamoatchilik harakatini kuzatadi;
- tashkilot bilan jamoatchilik o‘rtasida ikki tomonlama manfaatni ta’minlashni nazarda tutadi.

PR-xizmatlari faoliyatining asosiy maqsadi – maqsadli auditoriyaning ishonchiga kirish. Buning uchun soha mutaxassislari maqsadli auditoriyada shakllangan salbiy stereotiplar bilan ish olib boradilar. Xususan, salbiy stereotiplar haqidagi ma’lumotlarni to‘playdilar, ularning ro‘yxatini shakllantiradilar va reja tuzadilar. Muayyan auditoriyaning e’tirozlari bilan qanchalik yaxshi sifat bilan ishlansa, samarali natijaga erishish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

PR-muloqot doirasida tashkilot va tashkilotning birinchi rahbari haqida ijobiy imij yaratish uchun OAV bilan matbuot xizmatlari, matbuot markazlari, matbuot kotiblari, press-byurolar, PR bo‘limlari va boshqalar orqali tashkiliy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish mediarileyshnz (media relations) deb ataladi. Ko‘pincha jamoatchilik bilan aloqalar borasidagi atamalarni qo‘llashda xatolikka yo‘l qo‘yilib, OAV bilan aloqalarni PR deb atashadi. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Media relations – PRning bir qismi bo‘lib, OAV bilan uzluksiz ikki tomonlama axborot almashinuvini ta’minlaydi. PR esa, barcha mavjud aloqa kanallaridan foydalangan holda axborot mazmunini boshqarish va tovar yoki xizmat turi obro‘sini shakllantirish hamda himoya qilishga qaratilgan harakatlar majmuini ifoda etadi.

OAV orqali PRni tashkil qilishni tahminan 3 turga bo‘lish mumkin:

- samarali PR; korporativ PR; -inqirozga qarshi PR.

Samarali PR tovar yoki xizmat turini iste’molchiga taqdim qilish bilan bog‘liq barcha aloqalarni o‘z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi tovar yoki xizmat turining sifati, afzalliklari, imkoniyatlari va boshqa xususiyatlari to‘g‘risida iste’molchiga zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Yuqori sifatli mahsulot yoki xizmat turi PR faoliyatini rag‘batlantiradi va axborot makonida mahsulot yoki xizmatning ijobiy imijini yaratish uchun yordamchi aloqa vositasini bajaradi. Ta’kidlash lozim, davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning ijobiy imijini yaratish borasida ham aynan ushbu holatni e’tibor olish muhim o‘rin tutadi.

Korporativ PR tashkilotning ijobiy imijini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan axborotlar oqimini yaratadi.

Inqirozga qarshi PR ikkita kichik turga bo‘linadi: proaktiv va reaktiv. Proaktiv yondashuv inqiroz paydo bo‘lishini kutish bilan bog‘liq harakatlar majumini ifoda etadi. Reaktiv yondashuv esa, allaqachon paydo bo‘lgan inqirozni lokalizatsiya qilish va zararsizlantirishni nazarda tutadi. Buning uchun OAV tashkilot yoki uning rahbari haqidagi salbiy ma’lumotlarning tarqalishiga qarshi turish metodlari qo‘llaniladi.

PR yoki axborot xizmatining vazifasi tashkilot va uning rahbarini nafaqat mashhur qilish, balki ularni unitilmasligiga ishonch hosil qilishni nazarda tutadi. Ya’ni davlat boshqaruvi organlari va ularning rahbarlari haqida ijobiy imij shakllantirish uchun tashkilot rahbari va xizmat turlariga bo‘lgan odamlarning ishonchini qozonish va mana shu ishonchning yo‘qolmasligi kafolatlanishi lozim.

PR-xabarnomasidagi eng muhim faktlar OAVga birinchi yuboriladi. Chunki teletranslyatsiya va bosma materillar tahrir qilinishi va qisqarishi mumkin. Muayyan vaziyat haqida taqdim qilinadigan ma’lumotlar ishonchli va belgilangan talablarga javob berishi lozim bo‘ladi. OAVning, ular orqali jamoatchilikning tashkilot, rahabar va xodimlarga bo‘lgan ishonchi shunga bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, tashkilotni chetlab o‘tib, ma’lumot olish mumkin bo‘lgan jurnalistik tekshiruvlarni ham unutmaslik lozim. Buning uchun turli mustaqil (yoki raqobatchi) OAV o‘rtasida eksklyuziv axborot tarqatish bo‘yicha aloqalarni yo‘lga qo‘yish muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu yo‘nalishda ish olib borishda muvozanatni saqlashni bilish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, eksklyuzivlik har doim o‘z hurmatiga ega bo‘lishi lozim, aks holda u o‘z ma’nosini yo‘qotadi.

Tashkilotning media siyosati oldindan tuzilishi kerak. Lekin OAV bilan ishlash rejasi moslashuvchan, qisqa fursatdagi tezkor tuzatishlarga chidamli bo‘lishi lozim. Aks holda tashkilot muayyan OAVga qaram bo‘lib qolish ehtimoli mavjud. Media relations tashkilot emas, jamoat manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib yo‘lga qo‘yilishi kerak. Shuning uchun OAVda keng miqyosli tadbirlar, ijtimoiy ahamiyatga ega maxsus yo‘naltirilgan axborot vaqtlarini tanlash talab etiladi. Har doim (favqulotda vaziyatlardan tashqari) cheklangan miqdordagi nashrlar bilan maslahatlashish va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish tavsiya etiladi.

Media relationsni amalga oshirishda barcha OAV davriy xarakterga ega bo‘lgani bois materiallarning yuborilishi hamda ularning efirga chiqishi, chop etilishi bilan bog‘liq vaqtni eslab qolish va kuzatib borish muhim. Shuningdek, OAV uchun intervyular, suhbatlar, matbuot anjumanlari va boshqalarni tashkillashtirishda tashkilot va uning rahbariyatiga yoqadigan yoki yoqmaydigan, kutilmagan savollarni oldindan aniqlash hamda ularga mos javoblarni berishga tayyorlanish lozim. Bunday vaziyatlarda oldindan tayyorlangan savollarga javob bergan ma’qul, lekin umuman “izoh bermaslik” holatidan qochish kerak. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda OAV bilan ishlarni tashkil qilish vazifasi alohida bitta PR xodimiga yuklatilishi zarur. Media relations bilan shug‘ullanadigan PR mutaxassisi OAV bilan ishlash reglamentiga amal qilishni bilishi ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yengillashtiradi, press-relizlarni OAVga materiallarni qabul qilish muddatidan oldin topshirish imkonini beradi va bu ularning dolzarbligini oshiradi.

OAV bilan yanada samarali faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun og‘zaki muzokaralar olib borishga, o‘z g‘oyalarini ilgari surishga intilgandan ko‘ra, tayyor materiallarni taqdim qilish afzalroqdir. Shuningdek, OAVga taqdim qilinayotgan axborot mazmunidagi materiallarda aniq manzil ko‘rsatilishi lozim. Jurnalistlarning xatolariga tanlov nazari bilan qarash kerak. Kichik xatolarni sharhlash, ayniqsa, ularni ommaviy shaklda rad etish shart emas. Chunki axborot iste’molchilari kichik noaniqliklarga unchalik e’tibor berishmaydi, lekin ularga berilgan izoh, qo‘shimcha ma’lumot va raddiyalarga diqqatli bo‘lishadi.

Axborotni to‘g‘ri qabul qilishga halaqit beruvchi jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yilsa, unda materialni tayyorlagan muharrir yoki jurnalist bilan suhbatlashish, tahririyatga xat yuborish lozim. Bunday xatda, albatta, e’lon qilingan maqola sanasi va nashr sahifasi, undagi noto‘g‘ri axborot, to‘g‘ri ma’lumotlar, xat muallifining ismi va lavozimi yozilgan bo‘lishi kerak.

PR ma’lumotlarining OAVga manzilli ravishda to‘g‘ri tayyorlanishi muhim o‘rin tutadi. Chunki OAVning barchasi sipetsifik nuqtai nazardan muammolarni turli rakursdan o‘rganadi. Shuning uchun ular o‘z tomoshabinlari, tinglovlchilari va o‘quvchilarini qiziqtiradigan materiallarga muhtoj bo‘ladi. Bundan tashqari, ularning har birida qabul qilinadigan materiallarga nisbatan maxsus talablarga ega bo‘ladi.

Axborot xizmati bilan OAV xodimlarining umumiy vazifalari bor. Bular: axborot to‘plash va tarqatishdir.

Bu jihatdan ularni raqobatdosh, deyish ham mumkin. Faqat, bu vazifalarni ular turli usullar bilan amalga oshiradi. OAV xodimlari har doim hayot bilan hamqadam bo‘lib, eng zarur axborotlarni to‘plashga va ularni tezkorlik bilan tarqatishga harakat qiladilar.

Axborot xizmati esa o‘rni kelganda shunday tezkorlik bilan tarqatishi mumkin (masalan, saylovlar davrida Markaziy saylov komissiyasi Axborot xizmati o‘ta tezkorlik, hozirjavoblik bilan muhim axborotlarni tarqatadi). Boshqa paytlarda ko‘proq vazminlik, sermulohazalik bilan ish yuritishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, Axborot xizmati tashkilotning ma’lumotlarini aniq, asosli, muhim jihatlarini tahlil etgan holda taqdim etishi talab etiladi.

Axborot xizmatining o‘ziga yarasha boshqa vazifalari (funksiyalari) ham bor, albatta. Bular tashkilotning jamoatchilik bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vazifalardan.

Jamoatchilik bilan aloqalar (ya’ni, PR) Axborot xizmatining nazariy asoslaridan biri hisoblanishi haqida yuqoridagi mavzularda batafsil to‘xtalgan edik. Yana shuni eslash o‘rinliki, nazariyotchilar fikricha, PRning 500 dan ortiq talqini bor. Soha mutaxassisi Georgiy Pochepsov bu masalaga shunday oydinlik kiritgan: “Bizda PR xizmati emas, aynan axborot xizmati, deb atash maqsadga muvofiqdir”.

Demak, amaliyotda “PR xizmati” va “Axborot xizmati” atamalarini sinonim sifatida ham qo‘llashimiz mumkin.

Modomiki, PR xizmati va Axborot xizmatini uyg‘un holda tushunish mumkin ekan, ularning prinsiplari ham bir-biri bilan chambarchasdir. Bu prinsiplarni amerikalik olimlar Dag Nyusom, Alan Skott, Jady Vanslayk Turk “PR: jamoatchilik bilan aloqalarning samaradorligi” kitobida keng sharhlaganlar. Nazariy va amaliy jihatdan qaralganda ushbu prinsiplar Axborot xizmati faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Ya’ni: – Axborot xizmati xodimi jamoatchilik bilan aloqalar jarayonida har bir faktning aniq va to‘g‘riligini bilishga erishishi lozim.

– Jamoatchilik bilan aloqalardan asosiy maqsad – idoraviy manfaatlar emas, jamoatchilik manfaati. Axborot xizmati xodimlari faqat idora manfaatlarini ko‘zlab ish qilsalar, jamoatchilik e’tiboridan tushib qolishadi. So‘ng, jamoatchilik ularni hech qachon qo‘llab-quvvatlamaydi, faoliyati bilan qiziqmaydilar va ular bilan aloqada bo‘lmaydilar.

Birinchi o‘rinda jamoatchilik manfaatlarini o‘ylash kerak. O‘shanda ham bu idora o‘z maqsadiga to‘liq erishmaydi. Chunki, jamoatchilik shu idoraning axborotini eshitadi, qabul qiladi va shu informatsiya doirasida ish qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Jamoatchilik bilan aloqalar o‘rnatayotgan tashkilot o‘z faoliyati davomida shunday ish qilishi kerakki, uning dasturlari jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otsin. Axborot xizmati jamoatchilikka shuni ko‘rsata olishi kerak. Ya’ni, jamoatchilik shu tashkilot faoliyatiga qiziqsagina unga e’tibor beradi. Aks holda, u haqda yetarlicha axborot yoki ma’lumotga ega bo‘lmasa, jamoatchilik unga e’tibor qilmay qo‘yadi.– Axborot xizmati xodimlari butun faoliyatlarini OAV bilan hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yishi zarur. Ular OAV xodimlariga hech qachon noto‘g‘ri, ishonchsiz ma’lumot bermasligi lozim. Agar radio, televideniye yoki gazetaga xato ma’lumot bersa, bundan juda katta zarar ko‘radi.

Axborot xizmati jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yar ekan, shu aloqa samarali bo‘lishi uchun jamoatchilikning ijtimoiy fikrini muttasil o‘rganib borishi kerak. Axborot xizmati xodimi ijtimoiy fikrning ichiga kirib borishi zarur. Odamlar nima haqida o‘ylayapti, ularning faoliyati haqida qanday fikrlarga ega va hokazolar haqida aniq bilishi darkor.

ADABIYOTLAR

1. Michael Johann, Cornelia Wolf, Alexander Godulla, Managing relationships on Facebook: A long-term analysis of leading companies in Germany. Public Relations Review, Volume 47, Issue 3, 2021.
2. Magnus Fredriksson, Josef Pallas, Much ado about media: Public relations in public agencies in the wake of managerialism. Public Relations Review, Volume 42, Issue 4, 2016, Pages 600-606.
3. Zerfass A., Verčič D., Wiesenberg M., The dawn of a new golden age for media relations?: How PR professionals interact with the mass media and use new collaboration practices, Public Relations Review, Volume 42, Issue 4, 2016, Pages 499-508.
4. Charis Rice, Ian Somerville, Power-sharing and political public relations: Government-press relationships in Northern Ireland’s developing democratic institutions, Public Relations Review, Volume 39, Issue 4, 2013, Pages 293-302.
5. Wolf D. (2015). Public Relations in China. doi:10.1057/9781137483812
6. Watson T. (Ed.). (2014). Eastern European Perspectives on the Development of Public Relations. doi:10.1057/9781137404268

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 1.101.

Feruza YUSUPOVA,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: usupovaferuza35@gmail.com

BuxDU dotsenti B.S.Turdiyev taqrizi asosida

TASAVVUF TA’LIMOTIDA AXLOQIY IDEAL KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasavvuf ta’limotida axloqiy ideal mutloq ilohiy emas, balki o‘zlikni anglash, insoniy hislatlarni ulug‘lash, hayotning qadri va zavqiga yetish, botiniy mavhumlikdan zohiriy ma’nilikka, ma’naviy kamolot orqali barkamol inson konsepsiyasini yaratishga qaratilganganligi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, tasavvuf ta’limotida komil inson g‘oyasi ilk bor shakllanganligi, uning diniy-falsafiy va amaliy jihatlari ishlab chiqilganligi, bu yo‘nalishning sharq falsafiy tafakkuridagi ahamiyati, ya’ni keyinchalik axloqiy ideal mavhum ilohiylikdan konkret shaxs va insonlarning axloq-odobi va xatti-harakatlari sari yuz o‘girganligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, ta’limot, komil inson, konsepsiya, axloqiy ideal, ma’naviy tizim, tasavvufiy qarashlar, falsafiy tafakkur.

КОНЦЕПЦИЯ НРАВСТВЕННОГО ИДЕАЛА В УЧЕНИИ СУФИЗМА

Аннотация

В данной статье проводится социально-философский анализ того, что в учениях суфизма нравственный идеал не является абсолютно божественным, а направлен на создание концепции совершенной личности через самоосознание, прославление человеческих качеств, достижение ценности и удовольствия жизни, от внутренней абстракции к внешнему осмыслению, духовное совершенство. Подчеркивается значение учения суфизма в восточном философском мышлении, где впервые сформировалось представление о совершенном человеке, были разработаны его религиозно-философские и практические аспекты, т.е. нравственный идеал постепенно начал обращаться от абстрактного божества к нравственному поведению и поступкам конкретной личности и людей.

Ключевые слова: Суфизм, учение, совершенный человек, концепция, нравственный идеал, духовная система, мистические воззрения, философское мышление.

THE CONCEPT OF MORAL IDEAL IN SUFISM

Annotation

This article provides a socio-philosophical analysis of the fact that in the teachings of Sufism the moral ideal is not absolutely divine, but is aimed at creating the concept of a perfect personality through self-awareness, glorifying human qualities, achieving the value and pleasure of life, from internal abstraction to external comprehension, spiritual perfection. The importance of the teachings of Sufism in Eastern philosophical thinking is emphasized, where the idea of a perfect person was first formed, its religious-philosophical and practical aspects were developed, i.e. the moral ideal gradually began to turn from an abstract deity to the moral behavior and actions of a specific person and people.

Key words: Sufism, teaching, perfect man, concept, moral ideal, spiritual system, mystical views, philosophical thinking.

Kirish. Ijtimoiy taraqqiyot davomida hayot sohalari murakkablashib, kishilar ongi va tajribasi oshib borib, inson xulq-atvoridagi o‘zgarishlar, jamiyatda tartibotni yaratish, boshqaruv mezon va me’yorlari haqida bosh qotira boshlagan. Inson bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning tartiboti haqidagi g‘oyalar, ya’ni ijtimoiy-axloqiy idealga bevosita ehtiyoj tug‘ildi. Odamlarda “ezgulik” va “yovuzlik” haqidagi tasavvur, tushunchalar shakllandi. Shunday qilib, axloqiy ideal diniy ideal bilan simbioz shakllandi va kishilar hayotning mazmunini belgilashda me’yor vazifasini bajara boshladi.

Sharq falsafiy fikr tarixida bu narsa, ayniqsa, tasavvuf ilmi tavhid shaklida muayyan falsafiy tizim sifatida shakllandi. “...tasavvuf ta’limotining tarkibida eng yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlari vujudga kelgan. Tasavvuf namoyandalari nazarida bunday ideal jamiyat solih kishilar jamiyati sifatida talqin qilinib, unga, inqilobiy yo‘l bilan emas, balki ruhiy kamolot vositasida erishish mumkinligi targ‘ib qilingan” [8].

Tasavvuf garchi Qur’oni Karim va Hadis ilmidan o‘sib chiqqan bo‘lsa ham o‘z g‘oyaviy, axloqiy-estetik tizimiga ega bo‘lgan mustaqil nazariy falsafiy yo‘nalish sifatida sharq xalqlari ma’naviy taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev inson ma’naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan bunday manbalar haqida ta’kidlab shunday deydi: “Barchamizni yaxshilik, tinchlik va bag‘rikenglikka chorlaydigan muqaddas Islom dinining haqiqiy qadriyatlarini keng tushuntirishga ko‘maklashish zarur... Shu nuqtayi nazardan, buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir” [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom dini va tasavvuf ta’limotida axloqiy ideal masalasi eng zarur amallardan biri sifatida ifoda etilgan. Diniy-falsafiy ta’limotlarda axloqiy ideal inson kamolotini harakatlantiruvchi ma’naviy tizim sifatida ishlab chiqilgan. Axloqiy ideal eng yuksak, eng baland, zamon va makondagi komillik ramzlari, namuna va ibrat qiyofasida, ruhiy tiklanish timsollari tarzida zikr etiladi.

Tasavvuf ta’limotida komil inson g‘oyasi ilk bor shakllandi, uning diniy-falsafiy va amaliy jihatlari ishlab chiqildi. Iloh ishqida yashash va Haqqa intilish diniy, axloqiy idealning ilohiylashuv, ayni chog‘da, insoniylashuv xususiyatini ifodalaydi. Ruhiy-ma’naviy takomillashuv tasavvufda komil inson qiyofasini belgilab berdi. Sharq

mutafakkirlari axloqiy idealning o‘ziga xos konsepsiyasini ishlab chiqib, uni islom va tasavvuf doirasida komil insonni shakllantirishning asosi sifatida rivojlantirdilar.

Tasavvufning axloqiy ideal haqidagi ta’limoti umumtasavvufiy diniy-falsafiy qarashga borib taqaladi. Agar “Shariat”, “Tariqat”, “Ma’rifat” va “Haqiqat” tasavvuf falsafasining yaxlit bir tizimi sifatida shakllanib, inson ruhiyatini tarbiyalash, chiniqtirishning tadbir-usullarini o‘z ichiga olsa, “Tariqat”so‘zining o‘ziyoq ilohiy ma’rifat yo‘liga qadam qo‘ygan so‘fiyning axloqiy ideali ruhiy, ma’naviy kamolot sari intilish manzilini ifodalar edi.

“Tariqat” manzilida inson o‘z oliy maqsadi – idealini belgilab olar ekan, unga intilish yo‘lida rahnomaga muhtojlik sezadi. Tasavvuf falsafasidagi pir va murid tushunchasi ana shunday so‘fiyona kamolot yo‘lidagi ruhiy ehtiyoj tarzida zikr etiladi. Pir muridlar qoshida o‘zining butun hayot tarzi va yurish-turishi bilan ibrat, islomiy axloqiy ideal – Olloh ma’rifatini egallagan shaxs hisoblanadi.

Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniy” asarida piru shayxlarning fazilatlari haqida yozadi: “Shayx komil ma’rifatli o‘tkir farosatli, odamshunos, yetuk ma’naviy ruhiy quvvatga ega, erkin, ixlosi mustahkam, beg‘araz do‘st, shafqatli bo‘lmog‘i lozim”[3]. Pir muridni tarbiyalovchi, uning kelajagi uchun javobgar, ibrat timsoli hisoblanadi. Ana shunday ibrat namunalariga Bahouddin Naqshbandning pirlari Boboyi Samosiy, Amir Sayyid Kulol, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Qusam shayxlardan olgan ruhiy-ma’naviy tarbiyasi misol bo‘la oladi. Tasavvuf tariqatida maqomat manzillari mavjud bo‘lib, solih ruhiy-ma’naviy kamolotga yetishish uchun unda 9 ta maqomatdan o‘tishi kerak bo‘lgan. Tasavvufdagi “sayr” va “safar” tushunchalari Olloh jamoliga erishish yo‘lidagi ruhiy safarni ifodalaydi. Inson o‘z ruhiyatini poklab va samoviy yuksaklik sari ko‘tarib Haqqa yetadi va so‘ngra yana xalqqa qaytadi. Tasavvufiy axloqiy ideal ana shunday pastdan balandga, jismdan ruhiyatga, tasavvurdan tafakkur tomon ko‘tariluvchi inson ma’naviyatining ma’rifatini ko‘zda tutadi. Zero, “komillik tushunchasi axloqiy ideal tushunchasida muayyan mazmun kasb etadi va bu narsa axloqiy-falsafiy va diniy tafakkur tarixida o‘z ifodasini topgan” [1].

Inson va xudo o‘rtasidagi munosabatlarni bunday talqin etish axloqiy idealda har bir insonning o‘z xatti-harakati va axloq-odobini “yashirin xazina” hisoblanmish Olloh sari intilish va talpinish qonun-qoidalarining tasavvufda nazariy-falsafiy tizim (tariqat, ma’rifat, haqiqat) sifatida shakllanishga olib keldi. Insonning axloqiy idealga intilishi uning tariqat taqvosidan ma’rifat va haqiqat manziliga ishq qanotida erishish tarzida ifodalandi. Olloh visoli va da’vatiga yo‘nalgan ishq axloqiy ideal uchun inson qalbi va ongini harakatga keltiruvchi ixtiyoriy rag‘bat vazifasini o‘taydi. Ana shu ilohiy ishq tufayli inson axloqiy idealining murod-maqsadi amalga oshadi.

Zayniddin Muhammad G‘azzoliy ta’kidlaganidek [2], Ollohni sevish barcha odamlarga xos xususiyat. Olloh hamma uchun sevimli. Chunki, insonga o‘z kamoloti uchun zarur, unga yaxshilik qiluvchi, saxovatli odamlarni, go‘zal narsalarni, maslakdosh do‘stlarni sevish xos fazilat. Bu fazilatlarga bo‘lgan muhabbat yig‘indisi Ollohga bo‘lgan ishqni kuchaytiradi. Shu tariqa “Ollohni sevish orqali biz abadiyatni, abadiy adolat va haqiqatni sevamiz. Inson ana shu ideal yetuklik va kamolni qo‘msaydi, o‘zining barcha niyatlari, orzularini shu bilan bog‘laydi” [3].

Ulug‘ mutafakkirlar Jaloliddin Rumiy bilan Shams Tabriziy, Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o‘rtalaridagi munosabatlar ilohiy sifatlarning inson qiyofasidagi namunalaridir. Bu ulug‘ siymolar bir-birlaridan andoza olganlar, bir-birlariga kamolot mezoni, yetuklik timsoli vazifasini o‘taganlar.

Bu yo‘nalishning sharq falsafiy tafakkuridagi ahamiyati shundaki, keyinchalik axloqiy ideal mavhum ilohiylikdan konkret shaxs va insonlarning axloq-odobi hamda xatti-harakatlari sari yuz o‘girdi.

Tadqiqotchi N.Eshonkulova ta’kidlaganidek, “Naqshband “Dil ba yor, dast ba kor” (“Dil yor bilan, qo‘l ish bilan band bo‘lsin”) yoki “Dil ba haq, xud ba xalq” (“Dil yaratuvchi bilan, o‘zing esa odamlar bilan”) degan g‘oyani ilgari surib [10], tasavvufiy qarashlarga real hayotiylikni olib kirgan, ... Aziziddin Nasafiy komillikni real hayotiy talablar, insoniy fazilatlar bilan bog‘liqligini ilmiy-falsafiy asoslashga intilgan” [9]. Bunday axloqiy idealning hayotiylashuv jarayonida Mansur Xalloj, Boyazid Bistomiy, Yahyo Suxravardiy, Aynulquzzot Hamadoniy, Imomiddin Nasimiy, Badriddin Hiloliy, Zunnun Misriy, Abdulloh Ansoriy, Jaloliddin Rumiy, Ibn-al Arabiy, Junayd Bag‘dodiy, Hakim Termiziy, Abusaid Abulxayr, Fariddin Attor, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Tasavvuf uch xildir: birinchisi–qalbni g‘ubordan tozalash va shariat ahkomlarida payg‘ambarlarga ergashish; ikkinchisi–mol-mulkka ega bo‘lmaslik va osmonlarni yaratgan Zotga ehtiyojsizlik bildirmaslik; uchinchisi – sifatlardan yashirin soflik va (boshqa barcha narsalardan ajralib) yolg‘iz Haq bilan qolish” [6].

Tasavvuf falsafasining axloqiy idealga taalluqli yana bir ma’naviy yo‘nalishi futuvvat yoki javonmardlik harakati tushunchasini o‘z ichiga olishdir. Agar Qur’oni karim, hadislar va tasavvuf falsafasida ko‘proq payg‘ambarlar, avliyolar timsolidagi axloqiy ideal bayon etilsa, javonmardlik bevosita xalq orasidan chiqqan, turli kasb-hunar egalari, piru muridlar timsolida axloqiy idealni ifodalovchi ruh sohiblari tarzida namoyon bo‘ladilar. Tasavvuf futuvvatning nazariy asosini, g‘oyaviy mag‘zini tashkil etgan bo‘lsa, futuvvat tasavvufning g‘oyalarini amaliyotdagi in’ikosiga aylandi. “Shu tariqa futuvvat bilan tasavvuf g‘oyalari aksar bir-biriga muvofiq keladi. Futuvvat ham, tasavvuf ham inson axloqini poklash, mehr-u shafqat, himmat va mardlik ko‘rsatishini targ‘ib etadi”[3]. Insoniylik va oliyjanoblik axloqiy idealning asosiy mezoni deb bilgan so‘fiylar darveshona hayotning axloqiy tizimini ishlab chiqdilar. Bu tizimga binoan tariqat, shariat, ma’rifat, haqiqat, futuvvat, hayo, sadoqat, shafqat, vafo, muhabbat singari “vujudiy” (ijobiy) sifatlarga ega bo‘lgan so‘fiylar axloqi “axloqi mahmuda” (maqtalgan axloq) deyilsa, takabburlik, hirs-u havasga berilish, sabrsizlik, zulm, zinolar “axloqi mazmuma” (mazammat qilingan axloq) deb atalgan. Axloqiy ideal ham xuddi shunday “axloqi mazmuma”dan forig‘ bo‘lib, “axloqi mahmuda”ga, ya’ni namunali axloqiy sifatlarga ega bo‘lish bilan o‘lchanadi. Bunday ma’naviy axloqiy poklanish, insoniylikni ilohiylik darajasiga ko‘tarish natijasida tasavvufda komil inson tushunchasi shakllandi va rivojlandi.

Tahlil va natijalar. Tasavvuf yo‘liga kirgan kishi oxir-oqibat ko‘zlangan maqsadga – Yaratganning visoliga yetish va buning uchun bosqichlar – maqom va hollarni bosib o‘tishi zarur qilib ko‘rsatilgan. Manbalarda aytilishicha[6], so‘fiy o‘n to‘rt maqom (tavba, zuhd, faqr, taqvo, tavakkul, rizo, zikr, uns, qurb, ittisol, tajrid, tafrid, fano, baqo), o‘n etti hol (sabr, tavoze, xavf, rajo, ixlos, shukr, yaqiyn, muhabbat, shavq, g‘alaba, sukr, sahv, g‘aybat, shuhud, jam’, tafriqa, insibot)ni bosib o‘tishi kerak. Tasavvuf ta’limotida ideal mavjud va uni atrofida barcha harakatlar rejalashtirilgan. Idealga yaqinlashish va uning sifatlarini o‘zlashtirish uchun maqom va hol yo‘lini bosib o‘tish zarur. Ushbu talablar idealni ijtimoiy voqelikka nisbatan shakllangan amaliy axloq – futuvvat ahli axloqi ko‘rinishida, xos ilmi, ruhiy mukammal, g‘ayb ilmi sohibi ko‘rinishida – pir, shayx, donishmandlarni tasavvur qilish mumkin.

Tasavvufshunos olima G.N.Navro‘zovaning fikricha, “tasavvufiy qarashlarda komil inson va akmal kishilar bir-

biridan farq qiladi. Bularni avliyo va anbiyo deb ataymiz. Bularning ham darajalari bor: ba’zilari komil, ba’zilari akmal, bir qismi esa, fozil, yana bir qismi afzal, yana biri afzalu akmaldir”[5]. Demak, ideal o‘z trayektoriyasiga ega bo‘lib, idealga yaqin va uzoq masofada turgan shakllarga nomlar berilgan. Islom dini va tasavvufiy qarashlar sintezi natijasida komil inson axloqiy ideal ramzi sifatida dastlab Muhammad payg‘ambarga, aziz va avliyolarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, asta-sekin piru muridlar, shayxu donishlar ham komil, fozil, akmal, afzal sifatlari ila komil inson tushunchasini to‘ldirib, kengaytirib bordi.

Demak, “tasavvuf falsafasida komil inson tushunchasi axloqiy idealning qotib qolgan mutlaq ramzi emas, balki uni yanada boyitishga intilishning ma’naviy ifodasidir. Komil inson bo‘lish, axloqiy idealga intilish uzluksiz jarayon. Axloqiy ideal-komillik rutbasiga yetishning chegarasi yo‘q. Har bir odamiylik sari tashlangan qadam, har bir erishilgan ezgulik, har doim Haq va xalq ruhi, talabi bilan nafas olgan zot, har kun o‘z fikri, tanu jonini pok saqlab, oliyjanob amallarga baxshida etgan inson o‘zini axloqiy ideal shafoatiga tobora yaqinlashtirib boradi. Komillik sari harakat insonni axloqiy idealga chorlovchi ma’naviy-ruhiy rag‘batdir”[7].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta’limotida axloqiy ideal mutloq ilohiy emas, balki o‘zlikni anglash, insoniy xislatlarni ulug‘lash, hayotning qadri va zavqiga yetish, botiniy mavhumlikdan zohiriy ma’nilikka, ma’naviy kamolot orqali barkamol inson konsepsiyasini yaratishga qaratilgan. Umuman olganda, o‘tmish xalqlardan meros bo‘lib qolgan ma’naviy-axloqiy manbalarda inson axloqi qanday bo‘lishi kerak, jamiyatda va ijtimoiy-siyosiy tizimlarda qanday ishlarni qilsa adolatli bo‘ladi, to‘g‘ri bo‘ladi degan fikrlar ilgari surilgan bo‘lib, pand-nasihat, ibrat, tajribalarni almashish kabi ijtimoiy xususiyatga ega axloqiy idealni madh qilishgan. O‘z davri uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hayotning har sohasi axloqiy kodekslarini keltirib o‘tib, xatti-harakatlarni idealga bog‘lab tushuntirishgan. Axloqiy ideal haqida aniq va to‘liq tasavvur hosil qilishda uning tizimli xususiyatiga e’tibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник. - М.: Гардарики, 2000.- 472с.
2. Zayniddin Muhammad G‘azzoliy. Kimyoi saodat. - Toshkent: Adolat, 2005.
3. - 233 b. [El.manba]: www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009. - 448b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 592 b.
6. Navro‘zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi: falsafa fanlari d-ri diss. avtoreferati. – Toshkent: 2002. - 29 b.
7. Rahimov K. Movarounnahr tasavvuf tarixi: ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). - Toshkent: Akademnashr, 2020. - 163 b.
8. Samadov A.R. Axloqiy idealning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati: falsafa fanlari nomzodi. dis. –Samarqand: 2011. - 148 b.
9. Karimov Sohibnazar. Tasavvuf falsafasi. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2021. - 304 b.
10. Eshonkulova N.A. Baxt-saodat fenomeni va uning ijtimoiy-antropologik mohiyati: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dis. - Toshkent: 2021. - 162 b.
11. Qayumov A. Bu ohang ila bo‘lg‘asen Naqshband... - Toshkent: 1993. - 68 b.